

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**S.KH.ZAKIROV, Z.SH.MUXIDOVA.**

**KIMYO FANIDAN  
LABORATORIYA-AMALIY  
MASHG'ULOTLAR**

**O`QUV QO`LLANMA**



PALL® Life Sciences

**Toshkent - 2020**

**UDK: 304.17.25**

**KBK: 65.9(5Узб)**

Mazkur o‘quv qo‘llanma Davlat ta’lim standartlari asosida tuzilgan namunaviy o‘quv va ishchi dasturlarga muvofiq ravishda yozilgan bo‘lib, Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi ta’lim sohasidagi bakalavriat talabalari uchun tavsiya etilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma 4 moduldan iborat bo‘lib, anorganik, analitik, organik, fizik va kolloid kimyo fanlarini asosiy bo‘limlarini qishloq xo‘jalik ta’lim sohasida bilim olayotgan talabalarga mos keladigan mavzular qamrab olingan.

Har bir laboratoriya ishida dastlab shu mavzuga oid qisqacha nazariy ma'lumot, mashg‘ulotdan maqsad, tajribalarni bajarish uchun kerakli asbob va reaktivlar, bajarish tartibi hamda savol va topshiriqlar berilgan.

Qo‘llanma so‘ngida talabalar bilimini mustahkamlash va nazorat qilish uchun savol, mashq va masalalar, ularni yechish namunalari, testlar keltirilgan.

Talabalar bu savol va masalalarni bajarishni o‘zlashtirsa, ular bevosita kimyo fanini chuqur va puxta o‘zlashtirgan bo‘ladi.

Umuman o‘quv qo‘llanma zamonaviy ta’lim tizimi talablariga mos ravishda xorijiy adabiyotlarning uslublarini qo‘llagan holda yozilgan.

S.KH.Zakirov, Z.SH.Muxidova Kimyo fanidan laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar:  
O‘quv qo‘llanma// -Toshkent, 2019y.

Taqrizchilar:

**Abdushukurov A.K.**

O‘ZMU “Organik kimyo” kafedrasini professori,  
k.f.d.

**Abduraximov A.A.**

TAQI, “Qurilish materiallari va kimyo” kafedrasini  
dotsenti, t.f.n

Toshkent Davlat Agrar Universiteti “Fizika va kimyo” kafedrasining 2019 yil 10 iyundagi № 17 - sonli, Meva-sabzavotchilik va uzumchilik fakulteti o‘quv– uslubiy yig‘ilishida 2019 yil 17 iyundagi № 10- sonli va universitet o‘quv– uslubiy kengashining 2019 yildagi № 2 - sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashiga muhokamasiga tavsiya etilsin.

**ISBN: 978-9943-602-64-9**

© «Navro‘z» нашриёти 2020

## **SO‘Z BOSHI**

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun va qarorlari asosida Respublikamizning oliy o‘quv yurtlarida hozirgi zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarini tayyorlashga imkon yaratildi.

Bu qarorlarda talabalarning milliy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zligini anglashi, chet tillarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni bilishi, fanlarni to‘liq o‘zlashtirishi, o‘z kasbining fidoyisi bo‘lishligi ta’kidlab o‘tilgan.

Ma'lumki, kimyo fani ko‘p jihatdan tajribaga asoslangan fandir. Kimyo fanini o‘rganish jarayonida ma’ruza eshitish bilan bir qatorda laboratoriya ishlari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki laboratoriya ishlarida ma’ruzadan olingan nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etib, kimyoviy tajribalar asosida boyitiladi va mustaxkamlanadi. Shuning uchun ham kimyoning o‘qitish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor beriladi.

Ushbu qo‘llanma qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Oliy o‘quv yurtlararo ilmiy uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan tasdiqlangan kimyo dasturi asosida yozilgan. Qo‘llanmada dastlab kimyo laboratoriyasida ishlashning umumiylari tartibi va qoidalari bayon qilinib, uning asosiy qismida kimyoning mavzularini to‘liq qamrab olgan amaliy mashg‘ulotlar keltirilgan.

Har bir laboratoriya ishida dastlab, lozim bo‘lgan holda shu mavzuga oid qisqacha nazariy ma'lumot, mashg‘ulotdan maqsad, tajribalarning bajarish uchun kerakli asbob va reaktivlar, bajarish tartibi, hamda savol va topshiriqlar berilgan.

Qo‘llanma 4 moduldan iborat bo‘lib, uning birinchi modulida umumiylari va anorganik kimyoga doir 7 ta laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar keltirilib, unda agronomik ahamiyatga ega bo‘lgan eng muxim mavzularning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va mutaxassisliklarga mos laboratoriya ishlari keltirilgan. Ikkinci modulda analistik kimyoning sifat va miqdor tahlillari asosida kationlarni, anionlarni reaksiyalari va bularni

miqdorlarini aniqlash usullari 5 ta mashg'ulotlarga oid tajribalar keltirilgan.

Qo'llanmaning uchinchi modulida organik kimyoning asosiy mavzularini qamrab olgan 9 ta, to'rtinchi modulida esa fizik va kolloid kimyoga oid 5 ta laboratoriya mashg'ulotlar berilgan.

Laboratoriya mashg'ulotlarida bajariladigan tajribalar asosan, yarim mikro usulda olib boriladi. Mazkur usulda reaktivlar juda kam miqdorda sarflanadi va talabalar tajribalarni bajarishlarida maxsus asboblarni ishlatishlariga ehtiyojni kamaytiradi. Tajribalar asosan probirkalarda o'tkaziladi.


Talabalar har bir mashg'ulotda laboratoriya ishlarini bajarishdan oldin, shu mavzuga tegishli ma'lumotlarni ma'ruzadan va darsliklardan mustaqil o'zlashtirib og'zaki (yoki test) sinov ishlari topshiradilar. Laboratoriya mashg'uloti darslarida talaba, albatta, alohida ish daftari tutishi kerak. Bu ish daftarida yozilgan hisobot o'qituvchi tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinadi va baholanib boriladi.

Ushbu qo'llanmada keltirilgan barcha tajribalar sinalgan, tez bajariladigan, aniq natija beradigan va Toshkent davlat agrar universitetining fizika va kimyo kafedrasи laboratoriyalarida ko'p yillardan beri qo'llanilib kelinadi.

Qo'llanma so'ngida talabalar bilimini mustahkamlash va nazorat qilish uchun savol, mashq va masalalar to'plami, reaktivlarga qisqacha tavsifnomasi va ularni ba'zilarini taylorlash usullari, ilovada moddalar va eritmalarning fizik-kimyoviy hossalari bo'yicha jadvallar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati keltirilgan.

Mualliflar mazkur qo'llanma qo'l yozmasini o'qib chiqib, o'zlarining qimmatli fikr va mulohazalarini bildirgan O'zbekiston Milliy universiteti "Organik kimyo" kafedrasи professori, k.f.d. A.K.Abdushukurovga, Toshkent arxitektura qurilish instituti "Qurilish materiallari va kimyo" kafedrasи dotsenti A.Abdurahimovga chuqur minnatdorchilik izhor etadilar.

## **Kimyoviy idishlar va asboblar. Laboratoriyada ishlatishning umumiyligi qoidalari**



### 1

**Kimyoviy idishlar.** Kimyo laboratoriyasida tajribalar ko‘pincha turli hil xajmdagi oddiy probirkalarda bajariladi. Laboratoriya da ishlatilinadigan idishlar asosan shisha, chinni va turli hil metallardan yasaladi. Ular har hil shaklda bo‘lib, ulardan probirkalar, har hil kolbalar, kimyoviy stakanlar, turli voronkalar, o‘lchash kolbalari, o‘lchash silindrlar, menzurkalar, pipetkalar, byuretkalar va hakozolar ko‘plab ishlatilinadi. (1-rasmga qaralsin)

**Laboratoriya shtativi.** Laboratoriya shtativi (2-rasm) tajribalar o‘tkazishda asbob yoki idishlarni mahkam o‘rnatish uchun ishlatiladi. Shtativ metaldan yasalgan o‘zak va og‘ir cho‘yan taglikdan iborat. O‘zakka qisqichlar va turli o‘lchamdagisi xalqalar o‘rnatiladi. Buning uchun harakatlanadigan maxsus muftalardan foydalanadi. Muftada ikkita vint bo‘lib, biri muftaga xalqa yoki qisqichni mahkamlash, ikkinchisi esa muftani o‘zakka mahkamlash uchun xizmat qiladi.

**Qizdirish.** Tajriba uchun olingan moddalarni qizdirish uchun turli qizdirish asboblaridan (3-rasm) foydalaniladi. Past haroratda qaynaydigan suyuqliklar spirit lampasida, yuqori haroratda suyuqlanadigan moddalar esa gaz gorelkasida qizdiriladi. Moddalarni  $600\text{-}1000^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirish lozim bo‘lsa elektr isitgichlardan ham foydalanish mumkin.



2

3



4

5




6

7

### 1-rasm. Kimyoviy idishlar

1-probirkalar; 2-kimyoviy stakanlar; 3-voronka; 4-5 o'lchov va konussimon kolbalar; 6-o'lchov silindrlar; 7-ajratgich va tomizgich voronkalar;



## 2-rasm. Laboratoriya shtativi

Kimyo laboratoriyasida ishlatiladigan spirt lampasi shisha rezervuar, diskli nay, pilik va qalpoqchadan iborat (3-rasm, 1). Lampani yoqish uchun yonayotgan cho‘p yoki gugurt pilikka yaqinlashtiriladi. Spirt lampasini yonib turgan boshqa spirt lampasi bilan yoqish mumkin emas, chunki bundan yong‘in chiqishi mumkin. Lampani o‘chirish uchun pilikka qalpoqchani kiydirish kifoyadir. Spirt lampasidan foydalanmagan vaqtida albatta u qalpoqcha bilan berkitilgan bo‘lishi kerak.

Agarda laboratoriyada gaz o‘tgan bo‘lsa, u holda qizdirish uchun gaz gorelkalaridan (3-rasm, 2) foydalilanadi. Gaz gorelkasini yoqish uchun gugurt yoki cho‘p yoqilib, gaz jo‘magri ochiladi va gorelka og‘ziga uning yon tomonidan yaqinlashtiriladi. Agarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib kelinsa, gaz oqimi yonayotgan cho‘pni o‘chirib qo‘yishi mumkin. Havo oqimi gaz to‘liq yonadigan qilib roslanadi. Gazning to‘liq yonayotganligini nursiz alanga hosil bo‘lishidan bilib olish mumkin. Gaz gorelkasi yoki spirt

lampasi alangalarining harorati alanganing hamma qismida bir xil bo‘lmaydi. Uning o‘rta qismida harorat ancha past, chekka va yuqori qismida esa yuqori bo‘ladi. Shuning uchun qizdirishni aynan alanganing yuqori qismida olib boriladi(4-rasm).



1



2



3




4


### **3-rasm. Qizdirish asboblari**

1-spirit lampasi; 2-Bunzen gaz gorelkasi; 3-suv hammomi; 4-elektr isitgich.

Ochiq gaz yoki spirt lampasining alangasida probirkalardagi yoki chinni idishdagi moddalarni qizdirish mumkin. Odatda biror modda yoki uning eritmasi probirkada qizdirilganda, probirkani *qisqich* bilan ushslash lozim (5-rasm). Bunda, albatta probirka og‘zini odam turgan tomonga qaratmaslik kerak.




**4-rasm. Alanganing tuzilishi**



**5-rasm. Qisqich yordamida qizdirish**

Stakan va kolbalar asbestlangan to‘r ustiga qo‘yib qizdiriladi.  $100^{\circ}\text{C}$  dan past haroratda uzoq vaqt qizdirish lozim bo‘lgan xolatlarda *suv hammomidan* foydalilaniladi (3-rasm, 3). Xajmining 2/3 qismi suv bilan to‘ldirilgan stakan (200-500ml) mikro suv hammomi vazifasini bajarish mumkin(6-rasm).



**6-rasm. Suv mikro hammomi**

1-asbestli to‘r; 2-suvli stakan; 3-teshikli qalpoqcha; 4-qizdirilishi lozim modda solingan probirka; 5-termometr.

Tozalab yuvilgan kimyoviy idishlarni, hamda moddalarini quritish uchun *quritish shkaflardan* foydalilanadi(7-rasm).





### 7-rasm. Quritish shkafi

### 8-rasm. Eksikator

Quritilgan moddalar havodagi namni tortib olmaslik uchun *eksikatorlarda* saqlanadi (8-rasm). Eksikator tagiga nam yutuvchi moddalar (suvsiz  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{KOH}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ (kons.),  $\text{P}_2\text{O}_5$  va hakozolar) solinadi.


Ustki qismiga quritilishi lozim moddalar solinadi. Eksikator qopqog‘iga vazelin surtilgan bo‘lib, u qopqoqning germetik berkilishiga va oson ochilishiga yordam beradi.

**Filtrlash.** Eritmada erimay qolgan yoki reaksiya natijasida cho‘kmaga tushgan moddalarini ajratish uchun aralashma filtrlanadi. Filtrdan o‘tgan, ya’ni cho‘kmadan tozalangan suyuqlik *filtrat* deyiladi. Filtrlash uchun laboratoriya ko‘pincha filtr qog‘oz ishlatalinadi. Undan oddiy va burama filtrlar yasaladi(9-rasm). Bu filtrlarning tayyorlash usullari laboratoriya mashg‘uloti vaqtida o‘qituvchi yoki laborantlar tomonidan amalda ko‘rsatilib, so‘ngra talabalarning o‘zlari mustaqil tayyorlaydilar.




### 9-rasm. Oddiy (1) va burama filtr (2)

Filtrlash vaqtida voronka shtativ xalqasiga o'rnatiladi. Cho'kmali suyuqlik shisha tayoqchadan oqizib quyiladi (10-rasmida ko'rsatilgandek). Cho'kmaga tushgan kristallarni ajratish va tezda quritish uchun ular 11-rasmida ko'rsatilgan asbob yordamida past bosim ostida filtrlanadi. Buning uchun rezina tiqinga o'rnatilgan Byuxner voronkasi (2) qalin devorli Bunzen kolbasiga(1) mahkam o'rnatiladi. Kolba havoni so'rib oluvchi suv so'rgichi (5) yoki vakuum so'rgichga ulanadi. Kolba orasida to'siq vazifasini bajaruvchi shisha idish (4) bo'lishi shart, chunki ba'zi xollarda suv oqimi so'rgichdan Bunzen kolbasiga tushib ketishi mumkin.



**10-rasm. Oddiy filtrlash**



**11-rasm. Past bosim ostida filtrlash**


1-Byuxner voronkasi 2-Bunzen kolbasi;; 3-vakuum rezina nay 4-Vulfa sklyankasi; 5-suvli so‘rgich

**Gazlar bilan ishlash.** Laboratoriyada gazlarni olish hamda ularni saqlash uchun maxsus apparatlar ishlatilinadi. Masalan, vodorod va uglerod (IV)-oksidini olish uchun Kipp apparatidan foydalaniladi(12-rasm). Kipp apparati ikki qismidan: birinchi qism beli tor idish, ikkinchi qism esa shar shakldagi katta voronkadan iborat. Apparatning birinchi qismini yuqorisida gaz chiquvchi nay (2) va pastki qismida esa tajriba tugagandan so‘ng suyuqlikni to‘kish uchun (1) teshikcha bo‘ladi.



**12-rasm. Kipp apparati**



Kipp apparatini ishlatish uchun, uning pastki qismiga qattiq modda bo‘lakchalari solinadi. Bunda moddaning o’lchami shunday bo‘lishi kerakki, modda bo‘lakchalari teshikdan idishning pastki rezervuariga tushib ketmaslik kerak. So‘ngra gaz chiqaruvchi nay(2) ochilib, yuqori voronka qismidan (3) suyuqlik (masalan, HCl yoki  $H_2SO_4$ ) quyiladi.



**13-rasm. Gazometr**

Bunda pastki idishdagi suyuqlik ko‘tarilib, qattiq moddaning sathiga tegadi va natijada kimyoviy reaksiya ketib, naycha (2) orqali gaz ajralib chiqadi. Dastlab 3-5 minut davomida apparatdagi havo siqib chiqariladi.

Agarda reaksiya to‘xtatilmoxchi bo‘linsa, jo‘mrakli nay (2) berkitiladi, natijada idishdagi gaz bosimi suyuqlikniga katta voronkaga siqib chiqaradi va qattiq modda suyuqlikdan ajralib, reaksiya to‘xtaydi. Laboratoriyyada gazlar maxsus *gazometrlarda* (13-rasm) saqlanadi. Gazometrlardan gaz olish uchun jo‘mrak(1) to’liq va jo‘mrak(2) ozroq ochiladi. Natijada voronka (3)dan tushayotgan suv gazni siqib chiqaradi va bu gaz biror idishga yig‘iladi. So‘ngra jo‘mrak(1) va(2)lar berkitiladi.



Gazlarni tozalash uchun turli yuvish sklyankalari (14-rasm), hamda gazlarni quritish uchun esa, ichiga namni tortib oluvchi moddalar solingan quritish kolonkalari va xlorkalsiyli naylar ishlataladi (15-rasm).

**Tarozi va tarozida tortish.** Kimyo laboratoriyasida tarozi juda zarur asbobdir, chunki olib boriladigan tajribalar ma'lum aniq miqdorda olingan moddalar bilan olib boriladi. Shu sababli, laboratoriya da ishlovchi har bir talaba tarozi bilan ishlashni bilishi zarur. Kimyo laboratoriyasida uch xil tarozidan foydalaniladi: 1)texnik tarozi; 2)texnik-kimyoviy tarozi; 3) analitik tarozi. Moddalarni 1-2g ortiq yoki kami bilan tortish mumkin bo'lsa texnik tarozidan, ancha aniq (0,01g gacha) tortish talab qilinsa texnik-kimyoviy tarozidan, katta aniqlik bilan (0,0001g gacha) talab qilinsa analitik tarozidan foydalaniladi (16-rasm).

Har qaysi tarozining o'z toshi bo'ladi. Oddiy tarozilarda odatdag'i toshlar, texnik-kimyoviy va analitik tarozida aniq - analitik toshlar bo'ladi. Texnik-kimyoviy va analitik tarozilarining (200g, 100g, 50g, 20g, 10g, 5g, 2g, 1g va oyna tagida saqlanadigan 0,5g, 0,2g, 0,1g, 0,05g, 0,02g, 0,01g li) toshlari, toshlarni olish va o'rniga qo'yish uchun ishlataladigan pinset saqlanadigan maxsus quticha bo'ladi(17-rasm).



**16-rasm. Analitik tarozi**



**17-rasm. Tarozi toshlari**

Tarozida biror modda namunasini tortishdan oldin, tarozining to'g'ri ishlashini tekshirish zarur. Tarozi tekis joyda to'g'ri o'rnatilgan va to'g'ri ishlayotgan bo'lsa, tarozi mili chap va o'ng tomonga baravar ko'rsatgichda og'adi. Shundan so'ng tortish ga kirishiladi. Tarozining chap pallasiga

massasi aniqlanishi kerak bo‘lgan modda va o‘ng tomoniga tarozi toshlari qo‘yiladi. Bunda taroziga dastlab katta toshlar, so‘ngra kichik toshlar qo‘yiladi va har tosh qo‘yilganda tortib ko‘riladi.

Sochilib ketadigan moddalar tarozi pallasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri solinmay, balki og‘irligi oldindan tortib olingan byuksga yoki chinni kosachaga, ba’zan qog‘ozga solib tortiladi. Tarozilarda tortishda juda ehtiyyotkorlik zarur. Tarozi toshlari faqat pinset yordamida olinadi va moddalar tortib bo‘lingandan keyin toshlar pinset yordamida o‘z joylariga qo‘yiladi.

Texnik – kimyoviy va analitik tarozilarda ishslashda tortish qoidalariga qat‘iy rioya qilish kerak va bu qoidalar tarozixona devorida yoki har bir tarozining yonida osib qo‘yilgan bo‘ladi.

### **Laboratoriyada ishslash qoidalari.**

Kimyodan amaliy ishlarni boshlashdan oldin talaba texnika xavfsizlik qoidalari bilan tanishib chiqishi va bu xaqda maxsus daftarchaga imzo chekish, hamda quyidagi laboratoriyada ishslash qoidalariga qat‘iy rioya qilishi talab etiladi.

1. Laboratoriyada xar bir talaba tajribani o‘zi uchun belgilangan ish o‘rnida xalat kiygan xolda bajarishi lozim.
2. Laboratoriyada chekish, suv ichish va ovqatlanish mumkin emas.
3. Tajriba boshlanishdan avval talaba ishning mohiyatini bilishi zarur, asbob va reaktivlarni tayyorlashi, so‘ngra o‘qituvchi yoki laborant ishtirokida ishni boshlashi lozim.
4. Zaharli moddalar bilan bajariladigan tajribalar faqat mo‘rili shkafda bajarilishi kerak.
5. Rakovinaga ishlatilgan kislota va ishqorlarning eritmalarini to‘kish, probirka siniqlari, har hil qog‘ozlarni tashlash mumkin emas. Bularning mo‘rili shkafdagи maxsus idishlarga tashlash kerak.
6. Reaktivlarni keragidan ortiq miqdorda olish yaramaydi. Reaktiv ortiqcha olingan bo‘lsa, uning o‘zini idishiga qaytarib quymasdan belgilangan alohida idishga solish kerak.
7. Reaktivlarni qo‘lga, teriga va yuzga tekkizmang. Chunki ko‘p moddalar ko‘z va teriga ta’sir etadi.

8. Ajralib chiqayotgan gazning hidini bilish kerak bo'lsa, u holda kaftingiz bilan o'zingizga tomon yelpib hidlang.

9. Reaktivlar solingen idishlarning yorlig'i (etiketkasi) bo'lishi kerak. Laboratoriyada nomi yozilmagan reaktivlardan foydalanish taqiqlanadi.

10. Probirkada suyuqliklarni qizdirganda idishni qiya ushlab, astasekin qizdirish kerak. Bunda probirka og'zini o'zingizga va boshqalarga qaratmang.

11. Yonib turgan gaz gorelkasi, elektr asboblarini nazoratsiz qoldirmang.

12. Laboratoriyada ishlayotgan talabalar doriquti va o't o'chirgich asboblar turadigan joyni bilishlari kerak.

13. Laboratoriyada birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qutichasida tannin, kaliy permanganat, kaliy gidrokarbonat, yod, paxta, bint, kuyishga qarshi malxam dorilar bo'lishi lozim.

14. Ish tugagach, ish joyini tartibga keltirishni, suv jo'mragini berkitishni, gaz va elektr asboblarini o'chirishni unutmang.

### **Laboratoriyada ko'ngilsiz xodisalar ro'y berganda birinchi yordam ko'rsatish choralarini.**

1. Agarda teri (qo'l, bet va boshqa joyga) kontsentrlangan kislota sachrab kuysa, darxol o'sha jaroxatlangan joy kuchli suv oqimi bilan 3-4 minut davomida yuviladi, so'ngra shu joyni 3%-li natriy gidrokarbonat eritmasi va yana qaytadan suv bilan yuvish lozim.

2. Agar teri ishqorlar ta'sirida kuysa, o'sha joy darxol ko'p miqdordagi suv bilan yuvilib, so'ngra 1%-li sirka kislota eritmasi bilan va yana suv bilan yuviladi, vazelin surtib qo'yish lozim.

3. Ko'zga kislota yoki ishqor sachrassa darxol ko'p miqdor suv bilan yuvib, so'ngra tezda shifokorga murojat qilish lozim.

4. Agar laboratoriyada ishlayotganda biror yeringiz kuyib qolsa, shu joy kaliy permanganatning 2%-li eritmasi bilan yuvilib, unga maxsus malxam dori surish kerak.

5. Agar biror yeringizni shisha kesib olsa, dastlab kesilgan joydag'i qonni suv bilan, so'ngra kaliy permanganatning 2%-li eritmasi bilan yuvish, yod eritmasi surkab, bint bilan bog'lash lozim.

6. Fosfor ta'sirida kuygan joyga mis(II)-sulfatning 2%-li eritmasi shimdirligan paxta qo'yib bog'lash lozim.

7. Ammiak hididan zaharlanganda darhol sirkal kislota hidlash, so'ng sut ichish va limon shimish lozim.

8. Teriga brom tegsa uni darxol spirt bilan yoki benzin bilan artish, so'ngra kuygan joyga malxam dori surtish kerak.

9. Agarda biror yerga simob to'ksilsa, darxol oltingugurt kukunidan sepish, so'ngra temir (III)-xlorid  $\text{FeCl}_3$  eritmasi bilan artish lozim.

10. Xlor, azot oksidlari ( $\text{NO}$ ,  $\text{NO}_2$ ), vodorod sulfid, uglerod (II)-oksid va boshqa gazlar bilan zaxarlanganda darxol toza havoga chiqish va tezda shifokorga murojat qilish kerak.

### **Ish daftarini tutish tartibi**

Har bir talabaning laboratoriyyadagi faoliyatini aks ettiruvchi xujjat uning laboratoriya amaliy mashg'ulotlari uchun ish daftaridir. Laboratoriyyada ishlayotgan har bir talaba o'tkazgan tajribani bajarish uslubi, kuzatilgan natijalar, reaksiya tenglamalari va chiqarilgan xulosalar, belgilangan shaklda ish daftariga qayd qilinadi. Dastlab ish daftariga amaliy mashg'ulotlarning tartib raqami, nomi va mashg'ulot o'tkazilgan kun qayd etiladi.

Amaliy mashg'ulot vaqtini tejash va uni chuqur o'zlashtirish maqsadida, tajribalarni bajarish uslublarini, tajribalar yuzasidan berilgan topshiriqlarga javoblar oldindan mustaqil ravishda uyda o'rganiladi. Lozim topilsa, reaksiyani bajarish uchun asboblar chizmasi tuziladi. Tajribaning bajarish jarayonida kuzatilgan natija asosida xulosa yoziladi. Talabalar xulosa yozishga katta e'tibor berishlari kerak. Chunki, tajribalardan olingan barcha kuzatishlarni umumlashtirib, yozilgan xulosalar talabaning o'rganilayotgan mavzuni qay darajada o'zlashtiriganidan dalolat beradi. Amaliy mashg'ulotda rejulashtirilgan barcha ishlar to'liq bajarilgandan so'ng, talaba ish yuzasidan o'qituvchining 2-3 ta sinov savollariga javob berib baholanadi. Ish daftariga olingan baholarni o'qituvchi tomonidan qayd qilinib, imzo qo'yiladi.

# I – M O D U L

## U m u m i y va anorganik k i m yo

### 1.1 – *mashg‘ulot.* Metallarning ekvivalentini aniqlash

**Mashg‘ulotdan maqsad.** Oddiy va murakkab kimyoviy moddalarning ekvivalentini aniqlash usullari bilan tanishish, alyuminiy misolida metallarning ekvivalentini tajribada aniqlash.

Kimyoviy reaksiyalarda vodorod atomining bir og‘irlik qismi (aniqrog‘i 1,008) yoki kislород atomining 8 og‘irlik qismi bilan birikadigan yoki o‘rin almashinadigan miqdori kimyoviy ekvivalent deyiladi.

Elementning ekvivalenti uning atom massasini valentligiga nisbatiga teng.

$$\mathcal{E} = \frac{A}{B} \quad (1)$$

Masalan, natriy, magniy, alyuminiy va hakozo elementlarning atom massalari va valentligini bilgan holda, ularning kimyoviy ekvivalentini 1 formula orqali topish mumkin:

$$\mathcal{E}_{Na} = \frac{23}{1} = 23; \quad \mathcal{E}_{Ca} = \frac{40}{2} = 20; \quad \mathcal{E}_{Al} = \frac{27}{3} = 9.$$

Murakkab moddalar, ayniqsa asos, kislota va tuzlarning ekvivalentlarini topish amalda ko‘p qo‘llaniladi. Asoslarning ekvivalentini topish uchun uning molekulyar massasini asos tarkibidagi gidroksil guruhi soniga, kislotalarning ekvivalentini topish uchun esa uning molekulyar massasini tarkibidagi vodorodning soniga bo‘lish kerak.

Tuzlarning ekvivalentini topish uchun tuzlarning molekulyar massasini tuz tarkibidagi metall kationi (yoki kislota qoldig‘i anioni) sonini ularning zaryadiga ko‘paytirib, ko‘paytmaga bo‘lish kerak.


Masalan:  $Ca(OH)_2$ ,  $H_3PO_4$ ,  $Al_2(SO_4)_3$  larni ekvivalentlari:

$$\mathcal{E}_{Ca(OH)_2} = \frac{M}{2}; \quad \mathcal{E}_{H_3PO_4} = \frac{M}{3}; \quad \mathcal{E}_{Al_2(SO_4)_3} = \frac{M}{2 \cdot 3};$$

Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarida oksidlovchi (yoki qaytaruvchi)ning ekvivalentini topish uchun ularning molekulyar




massasini qabul qilingan (yoki chiqarilgan) elektronlar soniga bo‘lish kerak.

Quyidagi oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarida oksidlovchi  $\text{KMnO}_4$  ning ekvivalentlari:



Shuni ta'kidlash lozimki, bitta murakkab moddaning ekvivalenti turli reaksiyalarda (ularning qancha miqdorda reaksiyaga kirishiga qarab) turlicha bo‘lishi mumkin.

Masalan:




### Laboratoriya ishi.

#### **1.1 – tajriba. Alyuminiyning ekvivalentini kislotadan vodorodni siqib chiqarish usuli bo‘yicha aniqlash**

*Asbob va reaktivlar:* ekvivalentni aniqlash asbobi, termometr, barometr, 10%-li HCl eritmasi, alyuminiy plastinkalar.

**Ish tartibi.** Bu usul bilan faol metallar (magniy, rux, alyuminiy va xakozo) ning ekvivalentini topish mumkin. Metallarning ekvivalenti 18-rasmda ko‘rsatilgan asbob yordamida aniqlanadi.



### **18 – rasm. Metallarning ekvivalentini aniqlash asbobi**

1. Tajribani boshlashdan avval asbobning zinch berkitilganligi (germetikligi)ni tekshiring. Buning uchun barobarlovchi byuretkani (2) pastga va yuqoriga harakatlantirib byuretka (1) dagi suvning satxini nolga yaqin chiziqqa keltiring va Ostvald (3) probirkasini tiqin bilan zinch berkiting. Agarda 1-2 minut davomida byuretka (1) dagi suvning satxi sezilarli darajada o‘zgarmasa asbob, zinch berkitilgan bo‘ladi.

2. Ostvald probirkasining (3) bir tomoniga 10%- li xlorid kislota eritmasidan taxminan 4-5 ml quying. Ikkinchisi tomoniga esa laborantdan massasi oldindan ( $m_{Me} \sim 0,05$  g atrofida) tortilgan va kichik filtr qog‘ozga o‘ralgan metalni kislotaga tegizmasdan soling va probirkani tiqinga mahkam berkiting.

3. Probirkani zinch berkitilganligiga yuqoridagi usul bo‘yicha tekshirib, ishonch hosil qilingandan so‘ng, byuretka (1) dagi suvning dastlabki satxini ( $V_1$ ) 0,1 ml aniqlikda belgilab yozib quying. Asbob ichidagi bosim atmosfera bosimiga ( $P_{atm}$ ) teng bo‘lib, u barometr yordamida o‘lchab olinadi.

4. Ostvald probirkasini qiyalatib undagi kislotani metall solingan tomonga quying. Bunda tezda ajralib chiqayotgan vodorod byuretka (1) dagi suvni 2-byuretkaga siqib chiqaradi. Vodorod ajralishi to‘xtagandan so‘ng byuretkalardagi suvning satxini tenglashtiring. So‘ngra byuretka (1) dagi oxirgi suvning satxi ( $V_2$ )ni yozib oling.

## **Tajriba natijalarini hisoblash**

1. Reaksiya natijasida ajralib chiqqan vodorodni hisoblang:

$$V_{H_2} = V_2 - V_1$$

2. Tajriba vaqtidagi ( $t^{\circ}\text{C}$ ) va atmosfera bosimi (Patm)ni aniqlang:  $T=t^{\circ}+273$

3. Vodorodni parsial bosimini  $P_{H_2} = \text{Patm} - P_{H_2\text{O}}$  formuladan toping. Bunda :  $P_{H_2}$  – vodorodning parsial bosimi; Patm – atmosfera bosimi;

$P_{H_2\text{O}}$  – suvning to‘yingan bug‘ bosimini tajriba sharoitidagi  $t^{\circ}\text{C}$  uchun ilovadagi 1-jadvaldan oling.

4. Ajralib chiqqan vodorodning xajmini n.sh.ga keltiring.

$$V_o = \frac{P_{H_2} \cdot V_{H_2} \cdot 273}{101,325 \cdot (273 + t^{\circ})};$$

5. N.sh.da 1mol vodorod 22,4 l xajmni egallashini bilgan holda, ajralib chiqqan vodorodning massasini ( $\text{mn}_2$ )ni quyidagi formula orqali hisoblang:

$$m_{H_2} = \frac{2 \cdot V_0}{22,4}$$

6. Ekvivalentlar qonunidan foydalanib, metalni ekvivalentini quyidagi ikki xil usul bo‘yicha xisoblab toping.

$$E_{Me} = \frac{m_{Me} \cdot \varTheta_H}{m_{H_2}} = \frac{m_{Me}}{m_{H_2}} \quad E_{Me} = \frac{m_{Me} \cdot 11,2}{V_0}$$

7. Tajribaning nisbiy xatosini % da toping:

$$\text{Nisbiy xato \%} = \frac{E_{nazar} - E_{taj}}{E_{nazar}} \cdot 100 \%$$

*Topshiriqlar:*

1. 0,045 g biror metall n.sh.da kislotadan 56 ml vodorodni siqib chiqarsa, bu metallni ekvivalenti qanday?

2. Ekvivalenti 9 bo‘lgan uch valentli elementning nisbiy atom massasini toping.

3. Metall oksidi tarkibida 39,69% kislorod bor metalning ekvivalentini xisoblang.

4. 0,183 g metall  $20^{\circ}\text{C}$  va 100 kPa bosimda kislotadan 182,7 ml vodorodni siqib chiqaradi. Metallning ekvivalentini toping.

### **1.2 – *mashg‘ulot*. Kimyoviy kinetika va muvozanat**

**Mashg‘ulotdan maqsad.** Kimyoviy reaksiya tezligining konsentratsiya va haroratga bog‘liqligi, hamda reaksiya kirishayotgan moddalar konsentratsiyasini kimyoviy muvozanatga ta'sirini tajribada isbotlashdan iboratdir.

Kimyoviy kinetika kimyoviy reaksiyaning tezligi va unga ta'sir etuvchi omillar (harorat, bosim, konsentratsiya, katalizator) va reaksiyaga kirishuvchi moddalar tabiatini tekshiradi.

Kimyoviy reaksiya tezligi vaqt birligi ichida reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasining o‘zgarishi bilan o‘lchalaniladi. Bunda konsentratsiya, asosan moddaning 1 litr xajmdagi mollar soni bilan ifodalanadi ( $\text{mol/l}$ ). Ma'lumki, moddalarning molekulalari bir-biri bilan to‘qnashgandagina, ularning o‘zaro kimyoviy ta'siri yuzaga keladi. Shuning uchun reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyasi qanchalik katta bo‘lsa, yani xajm birligidagi molekulalar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, reaksiyaning tezligi shunchalik katta bo‘ladi.


Reaksiya tezligining konsentratsiyaga va reaksiyaga kirishayotgan moddaning tabiatiga bog‘liqligi massalar ta'siri qonuniga bo‘ysinadi:

Kimyoviy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari ko‘paytmasiga to‘g‘ri proporsianaldir.

Masalan:  $a\text{A} + b\text{B} \rightleftharpoons c\text{C}$  tenglama bilan ifodalangan reaksiya tezligi:  $V = k [\text{A}]^a \cdot [\text{B}]^b$  bo‘ladi.

Bunda:  $[\text{A}]$  va  $[\text{B}]$  – A va B moddalarning molyar konsentratsiyasi ( $\text{mol/l}$ );  $k$  – tezlik doimiysi, u o‘zaro ta'sir etayotgan moddalarning tabiatiga va haroratiga bog‘liq.

Reaksiyada qattiq modda ishtirok etayotgan bo‘lsa, reaksiya tezligini xisoblashda faqat gazsimon va erigan moddalarning konsentratsiyasini e'tiborga olish zarur. Chunki qattiq moddalarning faqat yuza qatlami reaksiyaga kirishadi.



Haroratning o‘zgarishi reaksiya tezligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Vant-Goff qoidasi bo‘yicha harorat har  $10^{\circ}\text{C}$  ga ko‘tarilganda reaksiya tezligi 2-4 marta ortadi.

Bu qoidaning matematik ifodasi:


$$Vt_2 = Vt_1 \cdot \gamma^{\frac{t_2^0 - t_1^0}{10}}$$

bunda:  $Vt_2$  – harorat  $t_2^{\circ}\text{C}$  ga ortgandan keyingi reaksiya tezligi;

$Vt_1$  – reaksiyaning  $t_1^{\circ}\text{C}$  dagi boshlang‘ich tezligi;

$\gamma$  - reaksiyaning tezlik harorat koeffitsienti, y’ani temperatura  $10^{\circ}\text{C}$  ortganda reaksiya tezligining qanchaga oshganini ko‘rsatuvchi son.

**Kimyoviy muvozanat.** Ko‘pgina reaksiyalar qaytar bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida qarama-qarshi tomonga boradi. Qaytar reaksiyalarni umumiyl xolda quyidagicha ifodalash mumkin:



Masalalar ta’siri qonuniga muvofiq to‘g‘ri reaksiyaning tezligi:

$V_1 = k_1[A]^a \cdot [B]^b$  teskari reaksiyaning tezligi:  $V_2 = k_2[C]^c \cdot [D]^d$  bo‘ladi.

To‘g‘ri va teskari reaksiyalar tezligi o‘zaro tenglashgan xolatda kimyoviy muvozanat qaror topadi. Muvozanat xolatda  $V_1 = V_2$  teng bo‘lgani uchun:

$$k_1 [A]^a \cdot [B]^b = k_2 [C]^c \cdot [D]^d \quad \text{yoki} \quad \frac{[C]^c \cdot [D]^d}{[A]^a \cdot [B]^b} = \frac{k_1}{k_2} = K_M$$

$K_M$  – kimyoviy reaksiyaning muvozanat konstantasi, uning son qiymati reaksiyaning unumini xarakterlaydi. Agar  $K_M \geq 1$  bo‘lsa reaksiyaning unumi katta  $K_M \leq 1$  bo‘lsa reaksiyaning unumi kichik bo‘ladi.

Agarda reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasi, harorat yoki bosim (gazlarda) o‘zgarsa, muvozanatda turgan sistema o‘zgarib ketadi. Bu xodisa kimyoviy muvozanatning siljishi deb atalib, buni fransuz kimyogari Le-Shatele 1884 yilda quyidagicha ta’riflaydi:

*Muvozanat xolatida turgan sistemaning harorat (T), bosim (P) yoki konsentratsiya (C)ni o'zgartirilsa muvozanat shu o'zgarish ta'sirini kamaytiruvchi reaksiya tomonga qarab siljiydi.*

### **Laboratoriya ishlari.**

#### **1.2.1 – tajriba. Reaksiya tezligiga konsentratsiyaning ta'siri**

*Asbob va reaktivlar:* sekundomer, 0,1n natriy tiosulfat, 0,1n H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, KI, FeCl<sub>3</sub> va kraxmal (1%) eritmalari, distillangan suv.

**Ish tartibi.** a) Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning sulfat kislota bilan ta'siri. Bu reaksiya natijasida oq loyqa (kolloid oltingugurt) hosil bo'lishiga qadar bo'lgan vaqt ni o'lchab reaksiyani tezligi to'g'risida xulosa chiqariladi. Reaksiya tenglamasi:



Uchta toza probirka olib, ularning birinchisiga byuretkalorqali 4 ml 0,1 n natriy tiosulfat eritmasidan, ikkinchisiga 2 ml Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va 2 ml distillangan suv, uchinchisiga 1 ml Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va 3ml suv quyying. So'ngra yana uchta probirka olib, ularning har biriga 2 ml dan 0,1n H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan soling. So'ngra sekundomerni oldingizga qo'yib, birinchi (4ml Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasi bor) probirkaga boshqa probirkadagi sulfat kislota eritmasidan 2 ml qo'shing, tez chayqatib, loyqalanish vaqtini (t, sek) qayd eting. Xuddi shu tartibda qolgan probirkalar ham aralashtirilib, loyqa hosil bo'lish vaqtini yozib oling va quyidagi jadvalni to'ldiring.

Probir -kalar	Xajm, ml			Na <sub>2</sub> S <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ning shartli konsentratsiya si. $C = \frac{a}{a + \delta + c}$	Loyqa lanish vaqt, t sek	Reaksiyaning shartli tezligi $V = \frac{1}{t}$
	Na <sub>2</sub> S <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	H <sub>2</sub> O	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>			
	A	B	C			
1	4	0	2			
2	2	2	2			
3	1	3	2			

### **Topshiriqlar:**

1. Absissa o‘qiga eritma konsentratsiyasini, ordinata o‘qiga reaksiya tezligini qiymatini qo‘yib grafik tuzing.
2. Reaksiya tezligini konsentratsiyaga bog‘liqligi haqida xulosa chiqaring.

b) *Temir (III)-xloridning kaly yodid bilan reaksiyasi.* Laboratoriya da  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  bo‘lmasa ushbu reaksiyani amalga oshirish mumkin. Yuqoridagi tajriba kabi, uchta probirka olib, biriga 4ml KI eritmasidan, ikkinchisiga 2 ml KI va 2 ml suv, uchinchisiga esa 1 ml KI va 3 ml suv quying. Uchala probirkani har biriga 2-3 tomchi yangi tayyorlangan kraxmal eritmasidan (yoki ozgina kraxmal kukunidan) qo‘shib yaxshilab aralashtiring. So‘ngra birinchi probirkaga 2 ml temir (III)-xlorid eritmasidan qo‘shish bilanoq tezda sekundomerni yurgizing va eritmaning ko‘karish vaqtini belgilang.

Reaksiya quyidagi tenglama bo‘yicha boradi;



Xuddi shu tartibda 2 va 3-nchi probirkalarga 2ml  $\text{FeCl}_3$  qo‘shib, ko‘karish vaqtini aniqlang. Tajriba natijalarini quyidagi jadvalga yozing.

Probir kalar	Xajm,ml			KI ning shartli konsentra - siyasi	Ko‘karish vaqt, t sek	Reaksiyaning shartli tezligi $V = \frac{1}{t}$
	KI	$\text{H}_2\text{O}$	$\text{FeCl}_3$			
1	4	0	2	1		
2	2	2	2	0,5		
3	1	3	2	0,25		

### **Topshiriqlar:**

1. Tajriba natijalari asosida reaksiya tezliklari  $\left( V = \frac{1}{t} \right)$  ni xisoblab toping.
2. Grafikni absissa o‘qiga KI ning konsentratsiyasini, ordinata o‘qiga reaksiya tezligining qiymatlarini qo‘yib, reaksiya tezligiga konsentratsiyaning ta’siri haqida xulosa chiqaring.

### **1.2.2 – tajriba. Kimyoviy reaksiya tezligiga haroratning ta'siri**

*Asbob va reaktivlar:* sekundomer, stakanlar (200 ml), suv hammomi, termometr, 2n Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va 2n H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmalar.

**Ish tartibi.** Ikkita probirka olib, birinchisiga 2 ml 2n Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, ikkinchisiga shuncha 2n H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan oling va har ikkalasini xona temperaturasida turgan stakanli suvga tushiring. Suvning xaroratini termometr bilan o'lchang. So'ngra probirkalarni suvli stakandan olib, tezda aralashtiring va yana suvga tushirib, sekundomer yordamida loyqalanish vaqtini aniqlang.

Shunday boshqa yana ikkita probirka olib, yuqorida keltirilgan hajmda H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmalaridan olib, haroratni dastlabkisidan 10 °C ga ko'taring va shu haroratda eritmalarini qo'shib, aralashtirib loyqalanish vaqtini belgilang.

Uchinchi marta haroratni ya'ni 10°C ga oshrib, tajribani takrorlang.

Reaksiyaning shartli tezligini xisoblab toping va absissa o'qiga tajriba vaqtidagi haroratlar ( $t^{\circ}\text{C}$  ;  $t + 10^{\circ}$  ;  $t + 20^{\circ}$ ), ordinata o'qiga esa reaksiya tezligini qo'yib, grafik chizing. Tajriba natijasi asosida reaksiya tezligiga haroratning ta'sirini izohlang.

*Topshiriqlar:*

1. Tajriba natijalari asosida reaksiyaning shartli tezligini hisoblab toping.
2. Absissa o'qiga tajriba vaqtidagi haroratlar ( $t^{\circ}\text{C}$  ;  $t + 10^{\circ}$  ;  $t + 20^{\circ}$ ), ordinata o'qiga reaksiya tezligini qo'yib grafik tuzing.
3. Tajriba natijasi asosida reaksiya tezligiga haroratning ta'sirini izohlang.

### **1.2.3 – tajriba. Kimyoviy muvozanatning siljishi**

*Reaktivlar:* FeCl<sub>3</sub> va NH<sub>4</sub>CNS ning suyultirilgan va to'yingan eritmalar, KCl (yoki NH<sub>4</sub>Cl) kristallari.

**Ish tartibi.** Stakanga 10 ml dan temir (III)-xlorid va ammoniy rodanidlarning suyultirilgan eritmalarini solib, aralashtiring. Hosil bo'lган qo'ng'ir-qizil rangli eritmani to'rtta probirkaga (5 ml dan) teng bo'ling. Birinchi probirkaga temir (III)-xloridning to'yingan eritmasidan 2-3 tomchi, ikkinchisiga NH<sub>4</sub>CNS ning to'yingan eritmasidan 2-3 tomchi,

uchinchisiga esa ozgina  $KCl$  yoki  $NH_4Cl$  kristallardan soling va probirkalarni yaxshilab aralashtiring. Uchta probirkalardagi eritmalarining rangini to‘rtinchi probirkadagi etalon eritmaning rangi bilan solishtiring.

Reaksiya tenglamasini va reaksiyaning muvozanat Konstantasini ifodasini yozing. Eritmalar rangini o‘zgarishiga qarab muvozanatning qaysi tomonga siljishini Le-Shatele qoidasiga muvofiq tushintiring.

Tajriba natijalarini quyidagi jadval shaklida yozish mumkin.

<b>Probirka №</b>	<b>Qo‘shil gan modda</b>	<b>Eritma rangining o‘zgarishi</b>	<b>Muvozanatning siljishi chapga, o‘ngga</b>
1	$FeCl_3$		
2	$NH_4CNS$		
3	$KCl$		
4	°		

### **Topshiriqlar:**

1. Tegishli reaksiya tenglamasini va reaksiyaning muvozanat konstantasini ifodasini yozing.
2. Eritmalar rangini o‘zgarishiga qarab, muvozanatni qaysi tomonga siljishini L.Shatele qoidasi asosida izohlang.

### **1.3 – mashg‘ulot. Eritmalar va turli konsentratsiyali eritmalarini tayyorlash**

**Mashg‘ulotdan maqsad.** Turli konsentratsiyali eritmalarini tayyorlash bo‘yicha nazariy va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, hamda tayyorlangan eritmalarini aniqligini tajribada isbotlashdan iboratdir.

*Ikki yoki bir necha tarkibiy qismlardan iborat bir jinsli sistemalar eritmalar deyiladi. Eritmaning tarkibiy qismiga erituvchi va erigan modda kiradi.*

Agregat xolatiga ko‘ra suyuq, gaz va qattiq eritmalar bo‘lishi mumkin. Qattiq moddalarning suvda erish jarayoni quyidagicha sodir bo‘ladi. Suv bilan to‘qnashgan modda sirtidan zarrachalar ajralib chiqadi va ular diffuziyalanib suvga tarqaladi. Suvli eritmalarda D.I.Mendeleev

fikricha, gidratlar hosil bo‘ladi, yani erigan modda zarrachalarini suv molekulalari bilan birikishi sodir bo‘ladi. Erish jarayoni issiqlik yutilishi, ajralishi bilan boradi. Agar kristall panjarani yemirish uchun sarflanadigan energiya gidratlanishda ajraladigan energiyadan ortiq bo‘lsa, erish vaqtida issiqlik yutiladi, yani endotermik jarayon sodir bo‘ladi. Aksincha, gidratlanishda ajralib chiqqan energiya kristall panjarani buzishga sarflangan energiyadan ortiq bo‘lsa, erish vaqtida issiqlik chiqadi, yani ekzotermik jarayon kuzatiladi.

Eritma yoki erituvchining ma'lum massa miqdorida yoki xajmida erigan moddaning og‘irlik miqdori eritmaning konsentratsiyasi deyiladi.

Eritma konsentratsiyasining ifodalash usullari. Eritmalar konsentratsiyasi bir necha usul bilan ifodalanadi: massa ulushi (yoki foiz), molyar, normal, molyal konsentratsiya va titr.

Eritmada erigan moddaning massa ulushi 1g eritmadiagi erigan modda massasini ko‘rsatadi:

$$\omega(x) = \frac{m(x)_g}{m(eritma)_g} \quad (1)$$

Bu qiymat o‘lchamsiz kattalikdir. Agar massa ulushini 100%ga ko‘paytirilsa foiz konsentratsiya kelib chiqadi.

*Foiz konsentratsiya* – 100g eritmada erigan moddaning gramm miqdorini ko‘rsatadi va foizlarda quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$C\% = \frac{m_1}{m_1 + m_2} \cdot 100\% \quad (2)$$

Bunda:  $m_1$  – erigan modda massasi;

$m_2$  – erituvchi massasi.

Agar eritma massasi ( $m$ ) uning zichligi ( $\rho$ ) va xajmi (V) orqali ifodalansa,

$$m_1 + m_2 = \rho V$$

bo’lgani uchun:

$$C\% = \frac{m}{\rho V} \cdot 100\% \quad (3)$$

*Molyar konsentratsiya* – 1l eritmada erigan moddaning grammalar xisobida olingan mol sonlari bilan ifodalanadi. Eritmaning molyar

konsentratsiyasini ( $C_M$ ) topish uchun quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$C_M = \frac{m_1}{MV} = \frac{n}{V} \text{ (mol/l)} \quad (3) \quad V - \text{eritmaning xajmi, l.}$$

$$C_M = \frac{m_1 \cdot 1000}{MV} \quad (4) \quad V - \text{eritmaning xajmi, ml.}$$

Bunda:  $m_1$  – erigan moddaning massasi, g;

$M$  – erigan moddaning molyar massasi, g/mol;

$n$  – erigan moddaning mol miqdori.

*Normal konsentratsiya* – 1l eritmada erigan moddaning grammalar hisobida olingan ekvivalentlar soni bilan ifodalanadi. Normal konsentratsiya ( $C_N$ ) quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$C_H = \frac{m_1}{\mathcal{E}V} \quad (5) \quad V - \text{eritmaning xajmi, l.}$$

$$C_H = \frac{m_1 \cdot 1000}{\mathcal{E}V} \quad (6) \quad V - \text{eritmaning xajmi, ml.}$$

$\mathcal{E}$  – erigan moddaning grammada xisoblangan ekvivalenti.

Normalligi (N) har hil bo‘lgan eritmalar o‘zaro ta’sir etganda eritmaning xajmi (V) uning normalligiga teskari proportsional bo‘ladi:

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{N_2}{N_1} \text{ ёки } V_1 \cdot N_1 = V_2 \cdot N_2 \quad (7)$$

*Molyal konsentratsiya* – 1000g erituvchida erigan moddaning grammalar xisobida olingan mollar soni bilan ifodalanadi. Molyal konsentratsiyaning xisoblash formulasi:

$$C_{\text{molyal}} = \frac{m_1 \cdot 1000}{m_2 \cdot M} \quad (8)$$

Bunda :  $m_1$  va  $m_2$  – erigan modda va erituvchining massasi, g;

$M$  – erigan moddaning molekulyar massasi.

*Titr* – 1ml eritmadiagi erigan moddaning grammalar xisobidagi massasidir.

Eritmaning normal konsentratsiyasi ( $C_N$ ) bilan foiz konsentratsiyasi ( $C\%$ ), molyar konsentratsiyasi ( $C_M$ ) va titr ( $T$ ) orasida quyidagi bog'lanishlar mavjud:

$$C_H = \frac{10 \cdot \rho \cdot C\%}{M} \quad (9) \quad \rho - \text{eritmaning zichligi, g/sm}^3;$$

$$C_H = C_M \cdot n \quad (10) \quad n - \text{erigan moddaning ekvivalent soni}$$

$$T = \frac{\vartheta \cdot C_H}{1000} \quad \text{yoki} \quad C_H = \frac{T \cdot 1000}{\vartheta} \quad (11)$$

Eritmalar tayyorlash bo'yicha bir necha misollar keltiramiz.

*1 – misol.* O'qituvchi tomonidan berilgan NaOH ning konsentrangan eritmasidan 200ml 8,9%-li NaOH eritmasini tayyorlang.

yechish: Buning uchun, quyidagi ishlar va xisoblar amalga oshiriladi:

1) O'qituvchi tomonidan berilgan NaOH ning konsentrangan eritmasining zichligini areometr yordamida aniqlang. O'lhash natijasida bu eritmaning zichligi  $\rho=1,253 \text{ g/sm}^3$  ga teng bo'lsin. Illovadagi – jadvaldan:

20%-li NaOH ning zichligi 1,225

24%-li NaOH ning zichligi 1,268 ga tengligini topamiz.

Zichligi 1,253  $\text{g/sm}^3$  ga teng eritmaning C% konsentratsiyasini interpolyasiya usulini qo'llab quyidagi proportsiya bo'yicha topamiz.

$24 - 20 = 4\%$  li eritmaning zichligi  $1,268 - 1,225 = 0,043 \text{ g/sm}^3$  bo'lsa

$X\%$  -li eritmaning zichligi  $1,253 - 1,225 = 0,028 \text{ g/sm}^3$

$$X = \frac{4 \cdot 0,028}{0,043} = 2,6\%$$

Shunday qilib, berilgan NaOH ning konsentrangan eritmasi  $C\% = 20 + 2,6 = 22,6\%$  ekan.

2) Xuddi yuqoridagi usulda tayyorlanishi lozim bo'lgan 8,9%-li NaOH eritmasining zichligini topamiz:

8% -  $1,092 \text{ g/sm}^3$

12% -  $1,137 \text{ g/sm}^3$

Proportsiya tuzamiz:  $4\% : 0,045 = 0,9\% : X$

$$X = \frac{0,045 \cdot 0,9}{4} = 0,012 \text{ g/cm}^3$$

Bundan:

Demak, tayyorlash lozim bo'lgan 8,9%-li NaOH ning zichligi  $\rho = 1,092 + 0,01 = 1,102 \text{ g/sm}^3$  ga teng ekan.

3) Tayyorlash lozim bo'lgan 200ml 8,9%-li NaOH eritmasining massasini hisoblaymiz:  $m = V \cdot \rho = 200 \cdot 1,102 = 220,4 \text{ g}$ .

4) 8,9 %- li NaOH tayyorlash uchun zarur toza NaOH ning massasini quyidagi proportsiya bo'yicha topamiz:

$$X = \frac{220,4 \cdot 8,9}{100} = 19,6 \text{ g}$$

$$100 : 8,9 = 220,4 : X \text{ NaOH}$$

5) Biz toza NaOH emas, balki 22,6%-li NaOH eritmasiga egamiz. Shu sababli 19,6 g toza NaOH qancha miqdor 22,6% - li eritma tarkibida bo'lishligini quyidagi proportsiya bo'yicha topamiz:

$$100 : 22,6 = X : 19,6 \quad X = 87 \text{ g} \quad 22,6\% \text{ NaOH}$$

6) Bu miqdor NaOH eritmasining xajmini topamiz:

$$V = \frac{87}{1,253} = 70 \text{ ml} 26,6\% \text{ li NaOH}$$

Shunday qilib, 200ml 8,9%- li NaOH eritmasini tayyorlash uchun 26,6%- li NaOH eritmasidan 70 ml olib,  $200 - 70 = 130 \text{ ml}$  suv olinadi.

*2 – misol.* 11 10%- li KOH eritmasini tayyorlash uchun necha gramm o'yuvchi kaliy kerak?

yechish: Jadvaldan 10%- li KOH eritmasining zichligini topamiz.  $\rho = 1,082 \text{ g/sm}^3$ . 11 10%- li KOH eritmasining massasi:

$$m = V \cdot \rho = 1000 \cdot 1,082 = 1082 \text{ g}$$

1082 g 10%- li eritmada necha gramm toza KOH borligini hisoblaymiz:

$$100g : 10 = 1082 : X \quad X = \frac{1082 \cdot 10}{100} = 108,2 \text{ g KOH}$$

Demak, 11 10%- li KOH ning eritmasini tayyorlash uchun 108,2 g KOH tortib olinib, 11 xajmli kolbaga solinadi va uning bo‘g‘izidagi belgigacha distillangan suv qo‘shib, chayqatiladi.

3 – misol. 250 ml 0,1n eritma tayyorlash uchun zichligi 1,307 g/sm<sup>3</sup> bo‘lgan 40%- li sulfat kislotadan qancha olish kerak?

yechish: a) 40%- li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning normalligini topamiz:

$$C_n = \frac{10 \cdot \rho \cdot C\%}{\varTheta} = \frac{10 \cdot 1,307 \cdot 40}{49} = 10,67$$

b) Eritma xajmining normalligiga teskari proporsional bog‘lanishini ifodalovchi formuladan foydalanib, olish zarur bo‘lgan 40%- li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmaning xajmini (V<sub>1</sub>) topamiz: V<sub>1</sub>•N<sub>1</sub> = V<sub>2</sub>•N<sub>2</sub>

$$V_1 = \frac{V_2 \cdot N_2}{N_1} = \frac{250 \cdot 0,1}{10,67} = 2,34 \text{ ml} 40\%- \text{ li H}_2\text{SO}_4$$

Demak, 250 ml 0,1n eritma tayyorlash uchun 40%- li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> dan 2,34ml olish kerak.

4 – misol. 20%- li 240g bariy xlorid eritmasini tayyorlash uchun necha gramm suv va BaCl<sub>2</sub>•2H<sub>2</sub>O kristallogidrat olish lozim?

yechish: dastlab 240 g eritma tayyorlash uchun qancha BaCl<sub>2</sub> zarurligini quyidagi proportsiya tuzib topamiz: 100 : 20 = 240 : X  
X = 48g BaCl<sub>2</sub>

Keyin kristallogidratga qayta hisoblaymiz.

BaCl<sub>2</sub>•2H<sub>2</sub>O ning molyar massasi 244 g/mol

BaCl<sub>2</sub> ning molyar massasi 208 g/mol

$$244 : 208 = X : 48 \quad X = 56,3 \text{ g BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$$

Demak, 20%- li 240 g BaCl<sub>2</sub> eritmasini tayyorlash uchun 56,3 g BaCl<sub>2</sub>•2H<sub>2</sub>O va 240 – 56,3 = 183,7 g suv olish lozim.

## Laboratoriya ishlari

### 1.3.1 – tajriba. Tuzlarning turli foiz konsentratsiyali eritmalarini tayyorlash

*Asbob va reaktivlar:* texnik tarozi, areometrlar, 100-250ml xajmli silindrlar, tuzlar (NaCl, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, BaCl<sub>2</sub>) ning kristallari va

kristallogidratlari, natriy gidroksid (granulasi), distillangan suv, turli xajmda kolbalar.

**Ish tartibi.** O‘qituvchi tomonidan qaysi tuzdan necha xajm va foizli eritma tayyorlash lozimligi haqida topshiriq olgandan so‘ng ishni quyidagi tartibda bajaring.

1) Berilgan tuzni qancha hajm va necha C%-li eritmasini tayyorlash lozim bo‘lsa, dastlab shu eritmani tayyorlash uchun qancha miqdor tuz va suv kerakligini hisoblab toping;

2) Hisoblab topilgan tuzni torozida 0,01 g aniqlikda tortib oling va uni stakan yoki kolbaga soling;

3) Suvni massasini uning xajmiga teng deb hisoblab, kerakli xajmdagi suvni o‘lchov silindrida o‘lchab oling va uni tuz solingan stakan (yoki kolba)ga quying, so‘ngra to‘liq eriguncha shisha tayoqcha bilan aralashtiring;

4) Tayyorlangan eritmani toza o‘lchov silindrga quyib, areometr yordamida zichligini aniqlang. O‘lchangan zichlikka mos eritmaning C% ni 4 - jadvaldan topib, berilgan konsentratsiya bilan solishtiring;

5) Tayyorlangan eritmaning normalligi, molyarligi va titrini aniqlang.

*Topshirqlar:*

1. Osh tuzining 500 g 10%- li eritmasini tayyorlash uchun qancha tuz va suv olish lozim?

2. 250 g 5%- li eritma tayyorlash uchun soda kristallgidrati  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  dan necha gramm olish kerak?

3. 10% -li natriy gidroksidning 400g eritmasiga 150g suv qo‘shilsa necha foizli eritma hosil bo‘ladi?

4. Massasi 550g bo‘lgan 0,2%- li eritmada necha gramm tuz erigan?

5. 100g 5%- li va 250g 10%- li mis(II)-sulfatning eritmalari aralashtirilganda hosil bo‘lgan eritmadiagi  $\text{CuSO}_4$  ning massa ulushini aniqlang.

### **1.3.2 – tajriba. Foiz konsentratsiyali eritmadan normal konsentratsiyali eritma tayyorlash**

*Asbob va reaktivlar:* areometrlar, 100-250ml xajmli silindrlar, 100, 250,500 ml xajmli o‘lchov kolbalari, % konsentrasiyasi aniq tuz va ishqor eritmalari, distillangan suv.

**Ish tartibi.** 1. O‘qituvchidan foiz konsentratsiyasi aniq eritma olib, bu eritmadan qancha xajm va necha normallik eritma olish haqida topshiriq oling;

2. Foiz konsentratsiyali eritmaning zichligini areometr bilan aniqlang va normalligini quyidagi formula bo‘yicha hisoblab toping.

$$C_N = \frac{10 \cdot \rho \cdot C\%}{\varTheta};$$

3. Foiz konsentratsiyali eritmaning normalligi  $N_1$ , xajm  $V_1$  va undan tayyorlash lozim bo‘lgan eritma normalligini  $N_2$ , xajmini  $V_2$  bilan belgilab,  $V_1 \cdot N_1 = V_2 \cdot N_2$  formuladan  $V_2$  ni toping.

4. Xisoblangan xajm ( $V_2$ ) ga muvofiq keladigan eritmani o‘lchov silindirda o‘lchab, uni tayyorlash lozim bo‘lgan tegishli xajmli o‘lchov kolbasiga quying.

5. Kolbadagi eritma ustiga kolbaning bo‘g‘zidagi belgisigacha distillangan suv qo‘shing. Kolbani og‘zini tiqin bilan berkitib, eritmaning yaxshilab aralashtiring va laborantga topshiring.

*Topshiriqlar:*

1. 250 ml 0,5n eritma tayyorlash uchun zichligi 1,307 g/ml bo‘lgan 40%-li  $H_2SO_4$  eritmasidan qancha olish kerak?

2. Natriy gidroksidning 0,5n eritmasining 10 ml ni neytrallash uchun xlorid kislota eritmasidan 15ml sarflandi. Kislotaning normalligini aniqlang.

3. Zichligi 1,057 g/ml bo‘lgan 10%-li  $(NH_4)_2SO_4$  ning molyarligi va normalligi va titrini hisoblang.

4. 500 ml 0,2n eritma tayyorlash uchun qancha gramm  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$  olish kerak?

5. 500 ml da 20 g sulfat kislota bo‘lgan eritmaning normaligi va molyarligini aniqlang.

### **1.3.3 – tajriba. Yuqori konsentratsiyali eritmadan quyi konsentratsiyali eritma tayyorlash**

Konsentrangan eritmadan necha % suyultirilgan eritma tayyorlash kerakligini o‘qituvchidan so‘rab oling.

Berilgan yuqori konsentratsiyali eritmani o‘lchov silindriga quyib, areometr bilan uning zichligi aniqlanadi va o‘lchangan zichlikka mos keladigan eritmaning % konsentratsiyasini ilovada keltirilgan jadvaldan toping.

Tayyorlanishi kerak bo‘lgan eritmaning umumiy massasini va unda erigan tuzning miqdorini hisoblang. Hisoblab topilgan tuz miqdorini qancha xajm konsentrangan eritma tarkibida va konsentrangan eritmani suyultirish uchun kerakli suv miqdorini hisoblang. Hisoblangan hajmga muvofiq keladigan eritma va suvni o‘lchov silindrda o‘lchab, stakanga quying va yaxshilab aralashtiring.

Tayyorlangan eritmaning zichligini areometr yordamida o‘lchang va uni jadvalda berilgan zichlik bilan solishtirish orqali eritmaning qanday aniqlikda tayyorlanganligini aniqlang.


*Topshiriqlar:*

1. 200g 20%- li eritma tayyorlash uchun 10%- li va 50%- li eritmalardan qanday og‘irlik nisbatlarda aralashtirish lozim?
2. 100 ml 12%- li sulfat kislota ( $\rho=1,083 \text{ g/sm}^3$ ) ning eritmasini tayyorlash uchun 60%- li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi ( $\rho=1,503 \text{ g/sm}^3$ ) dan qancha xajm olish kerak?
3. 500 g 3%- li sirka kislota eritmasini tayyorlash uchun 15%- li kislota eritmasidan necha gramm talab etiladi?
4. 5%- li mis (II)-sulfat eritmasining 100g miqdoriga qancha gramm suv qo‘shilganda 1%- li eritma hosil bo‘ladi?


### **1.4 –mashg‘ulot. Oksidlanish qaytarilish reaksiyalari**

**Mashg‘ulotdan maqsad.** Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarning mohiyati, muhim oksidlovchi va qaytaruvchilarining xossalalarini o‘rganish, hamda oksidlanish qaytarilish reaksiya tenglamalari to‘g‘ri tuzishni bilishdan iborat.

Kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etuvchi element atomlari yoki ionlarning oksidlanish darajasini o‘zgarishiga qarab, ularning ikki turi mavjud. Ba’zi reaksiyalarda elementlarning oksidlanish darjasini o‘zgarmaydi. Masalan:



Ba’zi reaksiyalarda esa element (yoki ion)ning oksidlanish darjasini o‘zgaradi. Bunday reaksiyalarni oksidlanish - qaytarilish reaksiyalar deyiladi:



Atom yoki ionlarning elektron yoqotishi oksidlanish deb ataladi. Atom yoki ionlarning elektron qabul qilishi esa qaytarilish deyiladi. Bu jarayonlarni elektron tenglamalar bilan ham ifodalash mumkin.

Masalan:  $2\text{Al}^0 + 3\text{Cl}_2^0 = 2\text{Al}^{+3}\text{Cl}_3^{-1}$  reaksiya uchun elektron tenglamasi:



Atom yoki ionlari elektron qabul qiluvchi muddalar oksidlovchilar deb ataladi. Oksidlovchi reaksiya natijasida qaytariladi, bunda uning oksidlanish darjasini musbat qiymati kamayib, manfiy qiymti ortadi.

Atom yoki ionlari elektron yo‘qotuvchi muddalar qaytaruvchilar deyiladi. Qaytaruvchi reaksiya natijasida oksidlanadi, uning oksidlanish darjasini musbat qiymati ortadi.

Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarida oksidlanish jarayoni doimo qaytarilish bilan birga sodir bo‘ladi, qaytarilish vaqtida esa oksidlanish jarayon yuz beradi. Bunday reaksiyalarda qaytaruvchining yo‘qotadigan hamma elektronlari oksidlovchiga o‘tadi. Ana shu o‘tgan elektronlar sonini xisoblash orqali oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarini tenglamalari tuzilib, tenglashtiriladi.

Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarini tenglamalari ikki usulda: 1) elektron balans; 2) yarim reaksiyalar usulida tenglashtiriladi.

Elektron – balans usuli. Bu usul bilan oksidlanish - qaytarilish reaksiya tenglamalrini tuzishda quyidagi tartibga rioxalish lozim:

- 1) Reaksiya tenglamasini sxemasi tuziladi;
- 2) Reaksiyaga kirishayotgan va hosil bo‘lgan moddalardagi elementlarning oksidlanish darajasini o‘zgarishi aniqlanadi;
- 3) Elektron tenglamalari tuziladi;
- 4) Elektron tenglamasi asosida qaytaruvchining yo‘qotgan elektronlari sonini oksidlovchi qabul qilgan elektronlar soniga teng bo‘lishligini e’tiborga olgan holda, oksidlovchi va qaytaruvchining stexiometrik koeffitsienti topiladi;
- 5) So‘ngra reaksiyada ishtirok etayotgan boshqa moddalarning koeffitsientlari topilib reaksiya tenglamasi tenglashtiriladi.


1 – misol. Vodorod sulfidning yodat kislota bilan reaksiya tenglamasini tuzing va tenglashtiring.

yechish:


1. Reaksiya sxemasini tuzamiz:  $H_2S + HIO_3 \rightarrow S + I_2 + H_2O$

2. Reaksiya natijasida yodning oksidlanish darajasi +5 dan 0 ga kamaygan, oltingugurtniki esa -2 dan 0 gacha ortgan. Demak,  $HIO_3$  – oksidlovchi,  $H_2S$  - qaytaruvchidir.

Elektron tenglamalar:




1. Elektron tenglamalardan foydalanib oksidlovchi va qaytaruvchining stexiometrik koeffitsientlari aniqlanadi.



1. Suv uchun koeffitsient tenglamaning chap tomonidagi vodorod va kislorodning soni bo‘yicha oson topiladi.

Reaksiyaning to‘liq tenglamasi:




2 – misol. Magniyning konsentrangan nitrat kislota bilan reaksiya tenglamasini tuzing.

yechish: 1. Reaksiya sxemasi:



2. Sxemadan ko‘rinib turibdiki, Mg ning oksidlanish darajasi 0 dan +2ga, azotniki, esa +5dan +1ga o‘zgargan. Mg<sup>0</sup> - qaytaruvchi, HNO<sub>3</sub> – oksidlovchidir.

1. Elektron tenglamalarni tuzamiz:




1. Bu tenglamadan foydalanib magniy oldiga 4 koeffitsenti va azot (I)-oksidining oldiga esa 1 ya'ni koeffitsent qo‘ymaslikni topamiz



1. Sxemadan ko‘rinib turibdiki, 8 mol nitrat kislota tuz hosil qilish uchun, 2 moli esa azotni oksidiga sarflangan. Demak, qaytarilishiga tenglamani tenglashtirish uchun nitrat kislotadan 10 molekula olish lozim. Hosil bo‘lgan suvning koeffitsienti tenglamaning chap tomonidagi vodorodning soniga qarab topiladi.


Reaksiyaning to‘liq tenglamasi:




Ion – elektron (yarim reaksiyalar) usuli. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tenglamalarini bu usul bo‘yicha tuzish uchun:

- 1) reaksiyaning ionli tenglamalari yoziladi;
- 2) elektron tenglamalari (yarim reaksiyalar) tuziladi;
- 3) oksidlovchi va qaytaruvchi, shuningdek oksidlanish va qaytarilish maxsulotlarining stexiometrik koeffitsentlari topiladi;
- 4) elektron tenglamalarini topilgan koeffitsientlarga ko‘paytiriladi va qo‘shiladi;
- 5) reaksiyaning molekulyar tenglamasi tuziladi.


3 – misol. Quyidagi oksidlanish - qaytarilish reaksiya tengamasini ion – elektron usulida tenglashtiring.




yechish: Reaksiyaning qisqa ionli tenglamasi:



bu reaksiyada  $\text{Fe}^{+2}$  qaytaruvchi,  $\text{MnO}_4^-$  ioni esa oksidlovchidir.  $\text{Fe}^{+2}$  ionidan  $\text{Fe}^{+3}$ ,  $\text{MnO}_4^-$  va  $\text{H}^+$  ionlardan  $\text{Mn}^{+2}$  va  $\text{H}_2\text{O}$ ni hosil bo‘lishini e’tiborga olib, elektron tenglamalar (yarim reaksiyalar) ni tuzamiz:



Elektron tenglamalarni topilgan koeffitsentlarga ko‘paytirib va ikkala tenglamani bir-biriga qo‘shib butun tenglama hosil qilinadi:



Reaksiyaning molekulyar tenglamasi:



### Laboratoriya ishlari.

#### 1.4.1 – tajriba. Metallarning qaytaruvchilik xossalari

*Reaktivlar:* tozalangan mix (yoki temir plastinka), mis simi, rux bo‘lakchalari,  $\text{CuSO}_4$ ,  $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  (yoki)  $\text{HCl}$  eritmalari.

**Ish tartibi.** a) Probirkaga 2-3 ml mis (II)-sulfat eritmasidan soling, ustiga zangdan tozalangan mix (yoki plastinka) tushiring. 2-3 minut o‘tgandan so‘ng temir mixni eritmadan olib yuving. Natijani kuzating.

b) Probirkaga simob (II)-nitrat eritmasidan 2-3 ml olib, ustiga mis tanga (yoki tozalangan mis simi)ni tushiring. Mis sirtida  $\text{Hg}$  ajralib chiqqanligiga e’tibor bering.

v) Probirkaga 2-3 ml  $\text{H}_2\text{SO}_4$  (yoki  $\text{HCl}$ ) eritmasidan olib, unga kichik rux bo‘lakchasini tashlang. Gaz ajralib chiqishini kuzating.

*Topshiriqlar:*

1. Tegishli reaksiyalar tenglamalarini elektron – balans usulida tenglashtiring. Kuzatilgan natijalar bo‘yicha xulosalar chiqaring.
2. Metallarni qaytaruvchilik xossalari ifodalovchi reaksiyalarga 4 ta misol keltiring va reaksiya tenglamalarini tuzing.

#### 1.4.2 – tajriba. $\text{KMnO}_4$ ning muhitga qarab oksidlovchilik xossalari

*Reaktivlar:* KMnO<sub>4</sub>, Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmalari, kons. NaOH, distillangan suv.

**Ish tartibi.** Uchta probirka olib, ularning har biriga 2-3 ml KMnO<sub>4</sub> va shuncha Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub> eritmasidan quying. So‘ngra birinchi probirkaga 2-3 ml H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, ikkinchisiga 2-3 ml distillangan suv, uchinchisiga esa 2-3 ml ishqorning Konsentrlangan eritmasidan qo‘shing va probiraklarni yaxshilab aralashtiring. Kislotali, neytral va ishqoriy muhitlarda probirkalardagi binafsha rangli eritmaning rangsiz (Mn<sup>+2</sup>), kulrang (MnO<sub>2</sub>) va ko‘k (MnO<sup>2-</sup>) rangga o‘tishini kuzating.

*Topshiriqlar:*

1. Har qaysi muhitdagi eritma uchun tegishli reaksiya tenglamalarini tuzing va elektron-balans usulida tenglamani tenglashtiring.
2. Qaysi muhitda KMnO<sub>4</sub> oksidlovchilik xossasi kuchliroq namoyon bo‘ladi?

#### **1.4.3 – tajriba. Natriy sulfitning qaytaruvchi va oksidlovchilik xossalari**

*Reaktivlar.* Kaliy bixromat (K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub>), H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>, Na<sub>2</sub>S eritmalari.

**Ish tartibi.** a) Probirkaga 1-2 ml dan kaliy bixromat va sulfat kislota eritmalaridan oling va ustiga tomchilatib Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub> eritmasidan qo‘shing. Eritma rangini yashilga kirishini kuzating. Ushbu reaksiyani qaytaruvchi sifatida KNO<sub>2</sub> (yoki NaNO<sub>2</sub>) bilan olib boring.

b) Probirkaga Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub> eritmasidan 1-2 ml quying, ustiga sulfat kislota va Na<sub>2</sub>S eritmalaridan qo‘shing. Eritmaning loyqalanish (kolloid oltingugurt ajralishi)ni kuzating.

*Topshiriqlar:*

1. Tegishli reaksiyalarni molekulyar va ion-elektron tenglamalarini tuzing. Tenglamalarni tenglashtiring.
2. Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub> ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi xossalarni namoyon qilishini tushintiring.

#### **1.4.4 – tajriba. Vodorod peroksidning xossalari**

*Reaktivlar:* 10%- li H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> eritmasi, KMnO<sub>4</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, KI eritmalari, kraxmal kleysteri.

**Ish tartibi.** a) Probirkaga kaliy permanganat va sulfat kislota eritmasidan 1-2 ml dan oling va 1 ml  $H_2O_2$  ning 10%- li eritmasidan tomizing. Eritmaning rangsizlanishini va gaz ajralib chiqishini kuzating.

b) probirkaga 1-2 ml dan KI va  $H_2SO_4$  eritmalaridan olib, ustig 1-2 tomchi kraxmal kleysteri hamda vodorod peroksid eritmasidan qo‘shing. Eritmani ko‘karishini kuzating.

*Topshiriqlar:*

- 1.Tegishli reaksiya tenglamalarini tuzing va elektron – balans usuli bo‘yicha tenglashtiring.
- 2.Vodorod peroksidning ikki yoqlama xususiyatini izohlang.

## **ANORGANIK KIMYO**

**Agronomik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim kimyoviy elementlar.**

O‘simliklar va tirik organizmlar tarkibini D.I.Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari tashkil etadi.

D.I.Mendeleev 1 mart 1869 yilda elementlar sistemasining birinchi varianti - uzun shakldagi, 1870 yil dekabrda esa davriy sistemasining ikkinchi varianti - qisqa shaklini taklif etdi. Qisqa shakldagi varianti eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, bunda davrlar (7 ta) qatorlarga, guruhlar esa (8 ta) A va B (bosh yoki yonaki) guruhchalarga bo‘linadi.

Hozirgi vaqtida ma'lum bo‘lgan 118 ta elementlardan 91 tasi metallarga to‘g‘ri keladi. Bular davriy sistemaning IA, IIA, IIIA (B-tashqari) va barcha B-guruhchalarda joylashgan.

**1.5-Mashg‘ulot. Metallar. Ishqoriy metallar.**

**Mashg‘ulotdan maqsad: Ishqoriy metallar va ularni  
birikmalarining xossalalarini kimyoviy tajribalar asosida o‘rganish**

### **1. Natriy, kaliy va ularning birikmalarini**

Davriy sistemaning IA guruhini litiy, natriy, kaliy, rubidiy, seziy va fransiyalar tashkil etib, ularni ishqoriy metallar deyiladi. Bu metallardan Na va K alohida biologik ahamiyat kasb etadi.

**Natriy, Na**( $1s^2 2s^2 2p^6 3s^1$ ), kumush rang oq metall, zichligi  $\rho=0,97\text{g/sm}^3$ ,  $t_c=98^\circ\text{C}$ ,  $t=883^\circ\text{C}$ , EM=0,9. Ikkı xil izotopi  $^{23}\text{Na}$  va radioaktiv izotopi  $^{24}\text{Na}$  ma'lum. Natriy faqat birikmalar holida uchraydi, u yer po'stlog'ining 2,5% ini va dengiz suvining 1,1% ini tashkil etadi. Natriy minerallarining ko'pchiligi kristallogidrat holida uchraydi:  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{NaCl} \cdot \text{KCl}$ ,  $\text{NaNO}_3$ . Natriy gorelka alangasini sariq tusga kiritadi.

**Kaliy K** ( $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^1$ ), kumush rang oq metall, zichligi  $\rho=0,86\text{g/cm}^3$ ,  $t_c=64^\circ\text{C}$ ,  $t=774^\circ\text{C}$ , EM=0,8. Kaliyning uchta barqaror izotopi  $^{39}\text{K}$  (93,08%),  $^{40}\text{K}$  (0,0119%) va  $^{41}\text{K}$  (6,76%) hamda sun'iy izotopi  $^{42}\text{K}$  ma'lumdir. Kaliy ham natriy singari aktivligi yuqori bo'lgani uchun tabiatda birikmalar holida uchraydi, u yer po'stlog'ini 2,85% ni tashkil etadi. Eng muhim birikmalari silvinit  $\text{NaCl} \cdot \text{KCl}$ , karnallit  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ , kainit  $\text{KCl} \cdot \text{MgSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$  tabiatda keng tarqalgan. Kaliy gorelka alangasini binafsha tusga kiritadi. Sanoatda Na va K gidroksidlari yoki xloridlarini suyuqlanmasini elektroliz qilib olinadi. Hozirgi vaqtida kaliy quyidagi reaksiyalar asosida olinadi.




Na va K havoda oson oksidlanib, peroksid va superoksidlarni hosil qiladi.



Natriy va kaliy oksidlar esa, peroksidlarga kislорodsiz sharoitda metall ta'sir ettirib olinadi.




Na va K vodorod bilan yuqori haroratda, galogenlar, oltingugurt, fosfor, azot bilan birikib gidridlar, galogenidlar, fosfidlar va nitridlar hosil qiladi



Natriy va kaliy suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib, ishqorlarni hosil qiladi.



Natriy va kaliy oksidlari, peroksidlari va gidridlari suv bilan reaksiyaga kirishadi.



Natriy va kaliyning biologik ahamiyati judda kattadir, 70 kg vaznli odam organizmida kaliy - 250 g va natriy - 70 g ni tashkil etadi. Kaliy o'simliklarni o'sishi va rivojlanishi uchun eng zarur ozuqa elementidir. Tuproqda kaliy yetishmasa, o'simlik tez kasallikga chalinib qoladi, kaliy tuzlari muhim kaliyli o'g'it hisoblanadi.

Ular quyidagilar:

$\mathbf{KCl}$  - kaliy xlorid,  $\mathbf{K_2SO_4}$  - kaliy sulfat,  $\mathbf{KNO_3}$  - kaliy nitrat

$\mathbf{(NH_4)_2HPO_4 + (NH_4)_2SO_4 + KNO_3 + NH_4Cl}$  - ammofoska

$\mathbf{NH_4NO_3 + NH_4H_2PO_4 + KNO_3 + NH_4Cl}$  - nitroammofoska

$\mathbf{CO(NH_2)_2 + (NH_4)_2HPO_4 + KNO_3 + NH_4Cl}$  - karboammofoska

### **Laboratoriya ishlari.**

#### **1.5.1 - Tajriba. Natriy metalining suvgaga ta'siri**

**Reaktivlar:** Na metali, suv, etanol, lakkmus qog'ozni, fenolftaleinning spirtdagi eritmasi.

**Ish tartibi:** Natriy metalini bir bo'lagini pinset yordamida kerosinli idishdan olib, filtr qog'ozni orasida quriting va pichoq bilan moshdek bo'lakchagini kesib olib, chinni kosadagi suvgaga soling va tezda mo'rili shkafni oynasini berkiting. Natriy metalining suv yuzasida yugurib, shiddatli reaksiyaga kirishini kuzating. Reaksiya tugagandan so'ng, hosil bo'lgan eritmani lakkmus qog'ozni yoki fenolftalein eritmasi bilan sinab ko'ring.

Natriy metallini etil spiriti bilan reaksiyasini o'tkazing va suvgaga nisbatan sekin ketishini kuzatib, izohlang.

#### **Topshiriqlar:**

- 1.Nima uchun reaksiya mo'rili shkafda olib boriladi?
- 2.Natriy va litiy metallarining suv bilan o'zaro ta'sir reaksiyalarining tenglamalarini yozing. Nima uchun natriy litiyga nisbatan tez reaksiyaga kirishishini izohlang.
- 3.Natriyning etil spiriti bilan reaksiyasi tenglamasini yozing.

### **1.5.2-Tajriba. Natriy peroksidning olinishi va xossalari**

**Reaktivlar:** Na metali, 1%-li KMnO<sub>4</sub>, 10%-li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va fenolftalein eritmalari.

**Ish tartibi:** *a) Natriy peroksidning olinishi (tajriba mo'rili shkafda o'tkaziladi).*

Natriy metalining no'xatdek bo'lagini olib, chinni tigelga soling. Tigelni chinni uchburchakka joylashtirib, natriy alangalangungacha ehtiyyotlik bilan qizdiring. Natriy yonib bo'lgach, tigelda qolgan sarg'ish natriy peroksidini keyingi tajriba uchun saqlab qo'ying.

*b) Natriy peroksidning suvgaga ta'siri.* Tajribada olingan natriy peroksidini yarmini shpatel yordamida probirkaga soling va 3-4 ml suv qo'ying. Hosil bo'lган eritmaga 1-2 tomchi fenolftalein eritmasidan tomizib, eritma rangini o'zgarishini kuzating.

*v) Na<sub>2</sub>O<sub>2</sub> ning qaytaruvchilik xossasi.* Probirkaga 3-4 ml KMnO<sub>4</sub> eritmasidan olib, uning ustiga 2-3 tomchi H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan tomizing. So'ngra natriy peroksidning qolgan yarmini qo'shib, aralashmani chayqating. Eritmaning rangsizlanishi va undan gaz ajralib chiqishini kuzating.

#### **Topshiriqlar:**

1.Natriy metalining havoda yonish reaksiyasi tenglamasini yozing.

2.Na<sub>2</sub>O<sub>2</sub> ning suvgaga ta'siri reaksiyasi tenglamasini tuzing. Reaksiya natijasida kislorod va ishqor hosil bo'lganligini qanday aniqlash mumkin.

3.Quyidagi  $\text{Na}_2\text{O}_2 + \text{KMnO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow$  tenglamasini oxiriga yetkazib, tenglashtiring. Oksidlovchi va qaytaruvchilarini aniqlang.

### **1.5.3-Tajriba. Ishqoriy metallarning alangani bo'yashi**

**Reaktivlar:** 10%- li HCl, nixrom sim, litiy, natriy, kaliy tuzlarining eritmalari.

**Ish tartibi:** Xlorid kislotada yuvish va qizdirish yo'li bilan tozalangan nixrom simni litiyning, natriyning, kaliyning biror tuzi eritmasiga botirib oling va gaz gorelkasi alangasiga tuting. Alanganing har hil rangga bo'yalishlarini kuzating.

#### **Topshiriqlar:**

1.Litiy tuzlari alangani to'q qizil rangga bo'yalishini izohlang.

2.Kaliy va natriy tuzlari alangani binafsha va sariq ranglarga bo‘yalishini izohlang.

#### **1.5.4-Tajriba. Kaliy tuzlarining gidrolizi**

**Reaktivlar:** KCl, K<sub>2</sub>S, K<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> tuzlari, suv, lakkmus qog‘ozi va metiloranj eritmasi.

**Ish tartibi:** Uchta probirkaning biriga K<sub>2</sub>S, ikkinchisiga KCl va uchinchisiga K<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> tuzlaridan solib, ularni distillangan suvda eriting. Hosil bo‘lgan eritmalarining muhitini lakkmus qog‘ozi yoki metiloranj eritmasi yordamida aniqlang.

**Topshiriqlar:**

1. Olingan hamma tuzlar gidrolizga uchraydimi?
2. Gidrolizga uchragan tuzlarning gidrolizlanish reaksiyasi tenglamasini molekulyar va ionli ko‘rinishda yozib, muhitni ko‘rsating.
3. Quyidagi tuzlarning gidrolizlanish reaksiyalarini molekulyar va ionli ko‘rinishda yozing: a) Na<sub>2</sub>S, b) Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> v) NaBr, g) K<sub>3</sub>P

#### **1.5.5-Tajriba. Ammiak usuli bilan soda olish**

**Reaktivlar:** NaCl, (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> tuzlari va suv.

**Asbob va idishlar:** tarozi (toshlari bilan), Kipp apparati, Byuxner voronkasi, suv purkagich nasosi, 100, 200 ml-li o‘lchov silindrlari, chinni kosacha va gaz gorelkasi.

**Ish tartibi:** 100 ml suvda 30g NaCl tuzini eriting va hosil bo‘lgan eritmaga ozroq suvda eritilgan 25g (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> eritmasini qo‘shing. Aralashmani 200 ml-li silindrga soling va unga Kipp apparatida olingan CO<sub>2</sub> ni mo‘l miqdorda yuboring.

Bir ozdan (15 minutdan) so‘ng suyuqlik loyqalana boshlaydi va NaHCO<sub>3</sub> cho‘kmasi hosil bo‘ladi. Cho‘kmani suv purkagich nasosga ulangan Byuxner voronkasida filtrlang va uni filtrda ozgina sovuq suv bilan yuvинг. Cho‘kmani oldindan tortib qo‘yilgan chinni kosachaga solib, sekin-asta quriting, so‘ngra uni og‘irligi o‘zgarmay qolguncha gaz gorelkasida qizdiring.

**Topshiriqlar:**

- 1.NaCl va (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> larni o‘zaro ta’sir reaksiyalarining tenglamalarini yozing.

2.Olingan sodani og‘irligini aniqlab, uning nazariy yo‘l bilan hisoblaganda chiqishiga qaraganda necha foiz hosil bo‘lganini hisoblang.

3. Zichligi 1.065g/ml ga teng bo‘lgan 8%-li KOH eritmasining normalligini aniqlang.

### **1.6-Mashg‘ulot. Metallar. Ishqoriy yer metallar.**

**Mashg‘ulotdan maqsad: Iishqoriy yer metallar va ularni birikmalarining xossalalarini kimyoviy tajribalar asosida o‘rganish.**

#### **Magniy, kalsiy va ularning birikmalari.**

**Magniy, Mg** ( $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2$ ), kumush-oq rangli metall, zichligi  $\rho=1,74\text{g/cm}^3$ ,  $t_c=649^\circ\text{C}$ ,  $t=1090^\circ\text{C}$ , EM=1,3. Tabiiy magniy, uchta barqaror izotopdan % (massa):  $^{24}_{12}\text{Mg}$  78,6;  $^{25}_{12}\text{Mg}$  10,11;  $^{26}_{12}\text{Mg}$  11,29 iborat. Sun‘iy ravishda ham izotoplari  $^{23}_{12}\text{Mg}$ ,  $^{27}_{12}\text{Mg}$ ,  $^{28}_{12}\text{Mg}$  ma'lum.U faqat birikmalar holida uchraydi: Magnezit -  $\text{MgCO}_3$ , dolomit -  $\text{MgCO}_3 \cdot \text{CaCO}_3$ , karnallit- $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ , talk -  $3\text{MgO} \cdot 4\text{SiO}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  va asbest -  $3\text{MgO} \cdot 4\text{SiO}_2 \cdot \text{CaO}$ .

**Kalsiy, Ca** ( $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2$ ), oq rangli, qattiq metall, zichligi  $\rho=1,55\text{g/cm}^3$ ,  $t_c=839^\circ\text{C}$ ,  $t=1484^\circ\text{C}$ , EM=1. Tabiiy kalsiy barqaror  $^{40}_{20}\text{Ca}$  (96,97%) va boshqa izotoplaridan iborat. Kalsiy yer po‘stlog‘i massasini 3,6% ni tashkil etadi va faqat birikmalar holida uchraydi; ohaktosh -  $\text{CaCO}_3$ , dolomit -  $\text{MgCO}_3 \cdot \text{CaCO}_3$ , gips- $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , fosforit- $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot \text{CaF}_2(\text{CaCl}_2)$ .

Magniy va kalsiy xlordlarni suyuqlanmasini elektroliz qilinib olinadi. Mg va Ca elementlari harorat ta'sirida kislород bilan birikib tegishli oksidlarni hosil qiladi.



Oksidlari suv ta'siridan gidroksidlari olinadi.



Magniy suv bilan sust, kalsiy esa shiddatli reaksiyaga kirishadi.



Magniy va kalsiy tuzlari suvgaga qattiqlik xususiyatini beradi. Karbonatli suv muvaqqat qattiqlikka, xlord va sulfatli suv doimiy qattiqlikka ega.

Muvaqqat qattiqlik suvni qaynatib, doimiy qattiqlik esa so'da qo'shib yo'qotiladi.



### **1.6.1-Tajriba. Magniyning yonishi va unga suvning ta'siri**

**Reaktivlar:** Magniy kukuni, suv va fenolftalein eritmasi.

**Ish tartibi:** a) Pinset uchida ozgina magniy olib, uni yondiring. Nima kuzatiladi?

b) Probirkaga 3-4 ml suv quyib, unga bir bo'lak magniy parchasini soling. Hona haroratida reaksiya bormasligiga e'tibor bering. So'ngra probirkani sekin qizdiring. Nima kuzatiladi? Gaz ajralib chiqishi to'xtagandan so'ng eritmaga 1-2 tomchi fenolftalein eritmasidan qo'ying. Eritmaning rangini o'zgarishiga e'tibor bering.

**Topshiriqlar:**

1.Magniy havoda qanday yonadi? Yonish reaksiyasi tenglamasini yozing?

2.Magniy metalini suv bilan o'zaro ta'sir reaksiyasi tenglamasini yozing.

### **1.6.2-Tajriba. Magniyga kislotalarning ta'siri**

**Reaktivlar:** Magniy kukuni, 10%-li  $\text{HCl}$ ,  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmalar.

**Ish tartibi:** Uchta probirkani har biriga bir xil miqdorda magniy kukunidan soling va har biriga 2-3ml dan  $\text{HCl}$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmalaridan quying. Probirkalarda ajralib chiqayotgan gazlarning rangiga e'tibor bering.

**Topshiriqlar:**

1.Probirkalarda qanday gazlar hosil bo'ladi?

2.Magniy metalining  $\text{HCl}$ ,  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmalar bilan o'zaro ta'sir reaksiyalari tenglamalarini yozing.

3.Mg bilan  $\text{HNO}_3$  reaksiyaga kirishganda vodorod emas,  $\text{NO}$  va  $\text{NO}_2$  hosil bo'lishini tushuntiring.

### **1.6.3-Tajriba. Magniy gidroksidni olinishi va xossalari**

**Reaktivlar:**  $\text{MgCl}_2$ ,  $\text{NaOH}$ ,  $\text{HCl}$  va  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ning 10% - li eritmalar.

**Ish tartibi:** Probirkaga 3-4 ml  $MgCl_2$  eritmasidan olib, oq cho'kma hosil bo'lguncha  $NaOH$  eritmasidan tomchilatib qo'shing. Hosil bo'lgan cho'kmani aralashtirib uchta probirkaga teng bo'ling. Birinchi probirkaga  $HCl$ , ikkinchisiga ko'proq  $NaOH$ , uchinchisiga  $NH_4Cl$  eritmalaridan qo'shing. Hamma probirkalarda cho'kma erib ketishini kuzating.

**Topshiriqlar:**

1. $Mg(OH)_2$  ni hosil bo'lishi reaksiya tenglamasini yozing.
2. $Mg(OH)_2$  ning  $HCl$ ,  $NaOH$  va  $NH_4Cl$  lar bilan reaksiya tenglamalarini yozing.
3. $Mg(OH)_2$  cho'kmasini  $NaOH$  va  $NH_4Cl$  da erishini sababini tushuntiring.

#### **1.6.4-Tajriba. Kalsiyning suvga ta'sirii**

**Reaktivlar:** kalsiy metali, suv va fenolftalein eritmasi.

**Ish tartibi:** Probirkaga 3-4 ml suv quying va unga pinset bilan kalsiy metalining moshdek bo'lakchasini soling. Nima kuzatiladi? Reaksiya tugagandan so'ng eritmani fenolftalein bilan sinab ko'ring.

**Topshiriqlar:**

- 1.Ca bilan suvni o'zaro ta'sir reaksiyasini yozing.
- 2.Nima sababdan probirkada suv loyqalanadi?
- 3.Ishqor eritmasi hosil bo'lganligini isbotlang.

#### **1.6.5-Tajriba. Ishqoriy-yer metallarining gidroksidlarini hosil qilish**

**Reaktivlar:**  $CaCl_2$ ,  $SrCl_2$ ,  $BaCl_2$  va  $NaOH$  eritmalarini.

**Ish tartibi:** Probirkalarga  $CaCl_2$ ,  $SrCl_2$  va  $BaCl_2$  eritmalaridan 2-3 ml dan quying va ularga 2-3 ml dan  $NaOH$  eritmasidan qo'shing. Har bir probirkada hosil bo'lgan cho'kmaning miqdoriga e'tibor bering.

**Topshiriqlar:**

1. $CaCl_2$ ,  $SrCl_2$ ,  $BaCl_2$  bilan  $NaOH$  orasida boradigan reaksiya tenglamalarini molekulyar va ionli holida yozing.
2. $NaOH$  eritmasi o'rniga  $NH_4OH$  ning tarkibida karbonat qo'shilmalari bo'limgan suyultirilgan eritmasini olib, yuqoridagi tajribani takrorlang.

3.Olingan natijalarni oldingi tajriba natijalari bilan solishtiring va farqini tushuntiring.

### **1.6.6-Tajriba. Ishqoriy-yer metallarining karbonatlarini olish**

**Reaktivlar:**  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{SrCl}_2$ ,  $\text{BaCl}_2$ ,  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  va  $\text{HCl}$  larning 10%-li eritmalari.

**Ish tartibi:** Uchta probirka olib, birinchisiga  $\text{BaCl}_2$ , ikkinchisiga  $\text{SrCl}_2$ , uchinchisiga esa  $\text{CaCl}_2$  eritmalaridan 3-4 ml quying. So‘ngra uchchala probirkalarga 3-4 tomchi  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritmasidan qo‘shing va cho‘kmalar hosil bo‘lishini kuzating.

#### **Topshiriqlar:**

1. $\text{BaCO}_3$ ,  $\text{SrCO}_3$ , va  $\text{CaCO}_3$ , larning hosil bo‘lishi va  $\text{HCl}$  da erishi reaksiyalari tenglamalarini molekulyar va ionli shaklda yozing.

2. Normal sharoitda 112 l karbonat angidrid olish uchun tarkibida 90%  $\text{CaCO}_3$  bo‘lgan ohaktoshdan qancha kuydirish kerak?

### **1.6.7-Tajriba. Ishqoriy-yer metallarining sulfatlarini olinishi**

**Reaktivlar:**  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{SrCl}_2$ ,  $\text{BaCl}_2$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HCl}$ ,  $\text{HNO}_3$  larning 10%-li eritmalari.

**Ish tartibi:** Uchta probirkaning har biriga 3-4 ml dan  $\text{BaCl}_2$ ,  $\text{SrCl}_2$ ,  $\text{CaCl}_2$  eritmalaridan quying va ularning har biriga 3-4 tomchi  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasidan qo‘shib, probirkalarda cho‘kmalar hosil bo‘lishini kuzating. Cho‘kmalarni xlorid va nitrat kislotalarda erishini tekshiring.

#### **Topshiriqlar:**

1.Ishqoriy-yer metallarning sulfatlarini olish reaksiya tenglamalarini molekulyar va ionli shaklda yozing.

2.Ervchanlik ko‘paytmasidan foydalanib  $\text{CaSO}_4$  ni  $\text{HCl}$  da erib,  $\text{BaSO}_4$  ning erimasligini tushuntiring.

3.Normal sharoitda o‘lchangan 11,2 l  $\text{CO}_2$  olish uchun tarkibida 94%  $\text{CaCO}_3$  bo‘lgan ohaktoshdan qancha kuydirish kerak.

### **1.6.8-Tajriba. Suvni karbonatli qattiqligini aniqlash**

**Reaktivlar:** karbonatli qattiqligi aniqlanadigan suv, metiloranj eritmasi, normalligi aniq bo‘lgan xlorid kislota eritmasi.

**Ish tartibi:** Hajmi 200 ml bo‘lgan uchta konussimon kolbaga pipetka yordamida aniqlanayotgan suvdan 100 ml dan o‘lchab olib ko‘ying, ustiga

5 tomchi metiloranj eritmasidan qo'shing va yaxshilab chayqating. So'ngra eritmalarни och-sariq rangi yo'qolguncha HCl ishchi eritmasi bilan titrlang va olingan o'xhash natijalardan o'rtacha qiymat chiqaring. Suvning karbonatli qattiqligi qyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$Q = N_{k-ta} \cdot V_{k-ta} \cdot 1000 / V_{suv}$$

**Q**-qattiqlik; **N<sub>k-ta</sub>**- kislotani normalligi; **V<sub>k-ta</sub>**-titrlashga sarflangan kislota hajmi; **V<sub>suv</sub>**- suvni hajmi. **1000** - 1 l suvga hisoblash koeffitsienti.

### **Topshiriqlar:**

1.HCl ning Ca(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> va Mg(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> bilan o'zaro ta'sir reaksiya tenglamalarini yozing.

2.Suvga soda qo'shilganda uning karbonatli va doimiy qattiqligi yo'qoladi. Bunda sodir bo'ladigan reaksiya tenglamalarini yozing.

3.1 l suvda 38 mg Mg<sup>2+</sup> va 108 g Ca<sup>2+</sup> ionlari bo'lgan suvning umumiyligini hisoblang.

### **1.7-Mashg'ulot. Azot va fosfor**


**Mashg'ulotdan maqsad: Azot va fosforning o'simlik va hayvon hayoti uchun muhim ahamiyati, hamda ularning birikmalari xossalari tajribalar asosida o'rghanish.**

Azot va fosfor o'simliklar uchun zarur bo'lgan asosiy ozuqa elementlari hisoblanadi. Shuning uchun agrokimyogarlar, tuproqshunoslar, o'simliklar ximoyasi va qishloq ho'jaligi biotexnologiyasi mutaxassislari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.


VA guruh elementlarini N, P, As, Sb, Bi lar tashkil etib, ularning tashqi energetik pog'onasini ns<sup>2</sup>np<sup>3</sup> elektronlar tashkil etadi. Shu sababli bu elementlar -3 dan +5 gacha oksidlanish darajalarini namoyon qiladilar. Azotdan vismutga tomon metallmaslik xossalari susayib metallik xossalari kuchayib boradi.

**Azot va uning birikmalari.** Azotni(1s<sup>2</sup>2s<sup>2</sup>2p<sup>3</sup>) ikki izotopi <sup>14</sup>N (99.6%) va <sup>15</sup>N (0.04%) tabiatda uchraydi. Sun'iy ravishda to'rtta izotopi ham olingan. Azotni havodagi hajmi ulushi 78,09%, massa ulushi esa 75,6% ni tashkil etadi. Tabiatda uning nitratlar va ammoniy tuzlari uchraydi.

Azot rangsiz, hidsiz gaz,  $t_c = -210^\circ\text{C}$ ,  $t = -196^\circ\text{C}$ , 11 suvda 15,4 ml azot eriydi. Sanoatda azot havoni suyuqlantirib olinadi. Laboratoriyyada quyidagi reaksiyalar orqali olinadi:




Azot tipik metall emas. U xona haroratida litiy bilan, yuqori haroratlarda esa metalllar va metallmaslar bilan nitridlarni hosil qiladi:



Azot vodorod bilan ammiak  $\text{NH}_3$ , gidrazin  $\text{N}_2\text{H}_4$  va azot - vodorod kislotasi  $\text{NH}_3$  larni hosil qiladi.

Ammiak. Ammiak o‘ziga xos hidli, suvda juda yaxshi eruvchi gazdir.  $t_c = -33.4^\circ\text{C}$ ,  $-77.8^\circ\text{C}$  da kristallanadi. Sanoatda ammiak  $450-500^\circ\text{C}$ , 30 MPa bosim va katalizator ishtirokida vodorodga azotni biriktirib olinadi.



Laboratoriyyada esa



Ammiak va suv molekulalari orasida vodorod bog‘i bo‘lgani uchun 11 suvda 710 l ammiak eriydi.





Ammiak uchun birikish, oksidlanish va almashinish reaksiyalarini hosdir.

1.Birikish reaksiyalar:





## 2. Oksidlanish reaksiyalari:



## 3. Almashinish reaksiyalari:



Ammoniy tuzlari qizdirilganda parchalanadi:



Azot oksidlari. Azot kislород bilan 5 xil oksid hosil qiladi:  $\text{N}_2\text{O}, \text{NO}, \text{N}_2\text{O}_3, \text{NO}_2, \text{N}_2\text{O}_5$ .

Azot (II)-oksidi va azot(IV)-oksid amaliy ahamiyatga ega.

Azot(II)-oksid, rangsiz, zaharli, suvda kam eriydigan gazdir.

$t_{\text{qotish}} = -163,7^{\circ}\text{C}$ ,  $t_{\text{qayn}} = -151,8^{\circ}\text{C}$ . NO-tuzlar hosil qilmaydi.

Laboratoriyada



Sanoatda:



Azot(IV)-oksidi o‘ziga hos xidli, havodan og‘ir, zaharli, qo‘ng‘ir rangli gaz. Suvda yaxshi erib nitrit va nitrat kislotalarni hosil qiladi.



Azot(IV)-oksidi ishqorlarda erib, nitrit va nitrat tuzlarini hosil qiladi




Laboratoriyada kons.  $\text{HNO}_3$  ga og‘ir metallar ta’sir ettirib olinadi.




Nitrat kislota va uning tuzlari. Suvsiz nitrat kislota, rangsiz, o‘tkir hidli suyuqlik,  $\rho = 1,50\text{ g/sm}^3$ ,  $t_{\text{qotish}} = -42^{\circ}\text{C}$ ,  $t_{\text{qayn}} = 83,8^{\circ}\text{C}$  ga tengdir. Odatda kons.  $\text{HNO}_3$  68%– li bo‘lib, zichligi  $\rho = 1,40\text{ g/sm}^3$  ga tengdir.

Laboratoriyada olinishi:



Sanoatda olinishi:



Yorug'lik nuri ta'sirida odatdagи haroratda parchalanib ketadi.



$\text{HNO}_3$  kuchli kislotalar qatoriga kiradi, 0,1n eritmasini dissotsialanish darajasi  $18^\circ\text{C}$  da 93% ga tengdir.


Nitrat kislotaning qaytarish mahsulotlarining taxminiy sxemasi:

kons. $\text{HNO}_3$			suyilt. $\text{HNO}_3$	
Fe, Al, Cr, Au, Ir, Ta tashqari og'ir metallar	Ishqoriy va ishqoriy yer metallar	Metal emaslar	Og'ir metallar	Ishqoriy va ishqoriy yer metallar
$\text{NO}_2$	$\text{N}_2\text{O}$	$\text{NO}$	$\text{NO}$	$\text{NH}_3, \text{NH}_4\text{NO}_3$

Oltin, platina konsentrangan  $\text{HNO}_3$  va  $\text{HCl}$  (1:3) aralashmasida (shox arog'ida) eriydi;



Nitrat kislota tuzlari qizdirilganda parchalanadi:



Fosfor va uning birikmalari. Fosforni ( $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^3$ ) barqaror izotopi  $^{31}_{15}\text{P}$  tabiatda uchraydi. Sun'iy usulda  $^{30}_{15}\text{P}$  va  $^{32}_{15}\text{P}$  izotoplari olingan. Fosfor faqat birikmalar holida uchraydi.

Apatit- $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ , fторапатит- $3\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot \text{CaF}_2$ , хлорапатит- $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot \text{CaCl}_2$  ва гидрокси апатит- $3\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot \text{Ca}(\text{OH})_2$  минераллари табиатда учрайди.


Фосфор азот сингари о‘симлиқ ва тирік организм hayoti учун мұһим аhamiyatga ega. Fosfor-oqsillar, xromosoma, vitaminlar, fermentlar va xujayralarning tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Fosfor bir necha allotropik shakl o‘zgarishlarga ega. Bulardan oq va qizil fosforlar amaliy ahamiyatga egadir.


Oq fosfor rangsiz, zaharli  $t_c=44,2^\circ\text{C}$ ,  $t_q=275^\circ\text{C}$ ,  $\rho=1,83 \text{ g/sm}^3$  ga teng bo‘lgan yonuvchi kristall modda.

Qizil fosfor zaharsiz, күкүн holida to‘q qizil modda bo‘lib,  $260^\circ\text{C}$  dan yuqorida yonadi. Qizil fosfor qizdirilganda suyuqlikka aylanmasdan bug‘lanadi.

Fosfor apatitlar va fosforitlardan olinadi



Fosfor kimyoviy jihatdan azotga qaraganda aktivroqdir. U metallar, metalmaslar (galogenlar, kislород va oltingugurt) bilan reaksiyaga kirishadi.



Fosfor vodorod bilan to‘g‘ridan - to‘g‘ri birikmaydi, uning vodorodli birikmalari monofosfin  $\text{PH}_3$ (газ) va difosfin  $\text{P}_2\text{H}_4$ (сьюуqliк), metall fosfidlariga suv yoki kislotalar ta’sir ettirib olinadi:




Fosfor kislород bilan bir necha xil oksidlarni hosil qiladi. Ulardan мұһимлари fosfor (III)-oksid  $\text{P}_2\text{O}_3$  va fosfor (V)-oksid  $\text{P}_2\text{O}_5$ . Fosfor (III)-oksid  $\text{P}_2\text{O}_3$  aniqrog‘i  $\text{P}_4\text{O}_6$  mumsimon kristall modda  $t_c=23,8^\circ\text{C}$ ,  $t_q=173,7^\circ\text{C}$ ,sovuq suvda gidrolizlanib fosfit kislotani, issiq suvda esa fosfat kislotani hosil qiladi.



Fosfor (V)-oksiidi  $\text{P}_2\text{O}_5$  (yoki  $\text{P}_4\text{O}_{10}$ ) oq gigroskopik  $360^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanmay bug'lanadigan kukundir.  $\text{P}_4\text{O}_{10}$  oz miqdordagi suv bilan metafosfat kislota  $\text{HPO}_3$ , ko'p miqdordagi suv bilan esa ortofosfat kislota  $\text{H}_3\text{PO}_4$ larni hosil qiladi.






Ortofosfat (oddiy qilib aytganda) fosfat kislota laboratoriya sharoitida fosforni 32%  $\text{HNO}_3$  bilan oksidlab olinadi.



Sanoatda ikki xil usulda: ekstraksiya va termik usulda olinadi



Fosfat kislotaning suvli eritmasi bosqichma-bosqich dissotsialanadi, shuning uchun uch xil tuz hosil qiladi.




Quyidagi fosforli o'g'itlar qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi.

Fosforit talqoni -  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ , oddiy superfosfat  $\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot \text{CaSO}_4$ , qo'sh superfosfat  $\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$ , pretsipitat  $\text{CaHPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , ammofos  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ , kalsiy nitrofosfat  $\text{CaHPO}_4 \cdot \text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ , nitrofoska  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{KNO}_3$

### **1.7.1-tajriba. Azotning olinishi va xossalari**

**Asbob va reaktivlar:** shtativ, suvli kristalizator, gaz o'tkazuvchi nay, natriy nitrit,  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ning to'yingan eritmasi va xlorli ohak.

**Ish tartibi:** Quruq probirkaga taxminan 1g maydalangan  $\text{NaNO}_2$  tuzidan solib, ustiga 3-4 tomchi  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ning to'yingan eritmasidan qo'shing va probirka og'zini gaz o'tkazuvchi nayli tiqin bilan berkiting va probirkani ohistalik bilan qizdring (23-rasm).



### 23-rasm. Azotning olinish.

Ajralib chiqayotgan azotni suvni siqib chiqarish usuli bilan ikkita probirkaga yig‘ing. Birinchi probirkaga yonib turgan cho‘pni tushiring, ikkinchi probirkaga 2-3 ml ohakli suvdan solib probirkani chayqating. Nima kuzatiladi?

#### Topshiriqlar:

1. Azotni olinish reaksiyasi tenglamasini yozing.
2. Nima uchun azotda yonib turgan cho‘p o‘chadi va ohakli suv o‘zgarishsiz qoladi.
3. Azotni, kislород va karbonat angidrid gazidan farqini yuqoridagi tajriba asosida izohlang.

#### 1.7.2-tajriba. Ammiakning olinishi va xossalari

**Reaktivlar:**  $\text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  kristallari, kons.  $\text{HCl}$  va lakkus qog‘ozi.

**Ish tartibi:** Teng miqdordagi  $\text{NH}_4\text{Cl}$  va  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  ni chinni kosachada yaxshilab aralashtiring va probirkaning  $1/3$  qismiga aralashmadan soling 23-rasmdagidek shtativga o‘rnating.

Gaz chiqish nayiga probirka kiygizib, probirka og‘zini paxta bilan berkiting. Aralashmani sekin qizdiring. Shisha tayoqchani kons.  $\text{HCl}$  ga botirib olib, gaz chiqayotgan nay uchiga yaqinlashtiring. Nima kuzatiladi? So‘ngra gaz to‘ldirilgan probirkaga 2-3 ml suv qo‘sib chayqating va hosil

bo‘lgan eritmani lakkmus qog‘ozi yoki fenolftalein eritmasi bilan sinab ko‘ring.

### **Topshiriqlar:**

- 1.Ammiakning hosil bo‘lish reaksiya tenglamasini yozing.
- 2.Ammiakga kons. HCl ta’sirida “oq tutun” hosil bo‘lish sababini tushuntiring.
- 3.Nima uchun lakkmus ammiak eritmasida ko‘karadi.

### **1.7.3- tajriba. Ammoniy ioniga sifat reaksiya**

**Reaktivlar:** NH<sub>4</sub>Cl, (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va NaOH ning 10%- li eritmalar, lakkmus qog‘ozi yoki fenolftalein eritmasi.

**Ish tartibi:** Probirkaga ammoniy xlorid yoki ammoniy sulfat eritmasidan ozgina solib, uning ustiga NaOH eritmasidan 2-3 ml qo‘shing va qizdiring. Ajralib chiqayotgan gazni hidiga e’tibor bering va ho‘llangan lakkmus qog‘ozni tuting. Nima kuzatiladi. Reaksiya tenglamasini yozing.

### **1.7.4-tajriba. Ammiakning qaytaruvchilik xossalari**

**Reaktivlar:** 2%- li KMnO<sub>4</sub> eritmasi, bromli suv, 25%- li ammiak eritmasi.

**Ish tartibi:** a) *Kaliy permanganatni qaytarish.* Probirkaga KMnO<sub>4</sub> eritmasidan 1 ml va 25%- li ammiak eritmasidan 2 ml qo‘shing. Aralashmani bir oz isiting va eritma rangsizlanishini kuzating.

b) *Bromning qaytarilishi.* Probirkaga 1-2 ml bromli suv va 25%- li ammiak eritmasidan quyib, aralashmani chayqating va bromni rangini yo‘qolishini kuzating.

**Topshiriqlar:** 1. Ammiakning kaliy permanganatda erkin azotgacha oksidlanishini, marganetsning oksidlanish darajasi +4ga o‘zgarishini hisobga olgan holda reaksiya tenglamasini yozing.

2. Bromning ammiakda qaytarilish reaksiyasi tenglamasini yozing.

### **1.7.5-Tajriba. Nitrit kislota tuzlarining oksidlovchi va qaytaruvchilik xossalari**

**Reaktivlar:** 5%- li kaliy yoki natriy nitrit, 5%- li KI, kons. va 10%- li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, 1%- li KMnO<sub>4</sub> va K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> eritmalar.


**Ish tartibi:** a) *Kaliy nitritning oksidlovchilik xossasi.* Probirkaga 2-3 ml kaliy nitrit va shuncha hajm kaliy yodid eritmalaridan quyib, ustiga sulfat kislotaning 10%- li eritmasidan 3-4 tomchi tomizing. Probirkani chayqatib 1-2 tomchi kraxmal eritmasidan qo‘shing. Eritmaning rangi yo‘qolishini kuzating.

b) *Kaliy nitritning qaytaruvchilik xossasi.* Probirkaga 10%-li  $H_2SO_4$  eritmasidan 2-3 ml quying va unga 4-5 tomchi 1%- li  $KMnO_4$  eritmasidan tomizing. So‘ngra aralashmaga kaliy nitrit eritmasidan tomizing. Eritmaning rangsizlanishini kuzating.

v) *Kaliy bixromatga natriy nitritning ta'siri.* Probirkaga 10%- li 3-4 tomchi kaliy bixromat eritmasidan solib, ustiga kons.  $H_2SO_4$  dan 2-3 tomchi qo‘shing va probirkani chayqating. So‘ngra aralashmaga natriy nitrit eritmasidan tomchilatib qo‘shing va rang o‘zgarishini kuzating.

### **Topshiriqlar:**

1. Quyidagi reaksiyalar tenglamalarini tugallang, tenglashtiring va har bir reaksiyada oksidlovchi va qaytaruvchilarini aniqlang.



2. Kaliy nitrit nima uchun ham oksidlovchilik, ham qaytaruvchilik hossalarini namoyon qiladi?

### **1.7.6-tajriba. Kaliy nitratning parchalanishi**

**Reaktivlar:** kaliy nitrat, natriy nitrat kristallari va pista ko‘mir.

**Ish tartibi:** Probirka hajmining 1/4 qismigacha kaliy nitrat kristallaridan solib uni shtativga vertikal holda o‘rnating. Probirkani ehtiyyotlik bilan qizdiring. Undan gaz ajralib chiqayotganligini aniqlash uchun cho‘g‘langan pista ko‘mir bo‘lakchasi yoki cho‘jni tashlang va ularning yonishini kuzating.

### **Topshiriqlar:**

1. Kaliy nitratning parchalanish reaksiya tenglamasini yozing.

2. Reaksiya natijasida kislorod hosil bo‘lganligini qanday reaksiya orqali bilish mumkin?

### **1.7.7-tajriba. Fosfat kislotanining olinnishi va xossalari**

**Reaktivlar:** kalsiy fosfat, 10%-li  $H_2SO_4$  va  $(NH_4)_2MoO_4$  ni to‘yingan eritmasi, kons.  $HNO_3$ ,  $Ca(OH)_2$  eritmasi.

**Ish tartibi:** a) *Ortofosfat kislotanining olinishi.* Toza probirkaga 2 g atrofida kalsiy fosfat tuzidan solib, ustiga 2-3 ml  $H_2SO_4$  eritmasidan quying. Aralashmani chayqatib, filtrlang. Filtratni keyingi tajriba uchun qoldiring.

b)  $PO_4^{3-}$  ioniga xos reaksiya. Probirkaga 2-3 ml ammoniy molibdat eritmasidan quying va ustiga 1-2 tomchi kons.  $HNO_3$  hamda 2-3 tomchi hosil qilingan  $H_3PO_4$  eritmasidan qo‘shib biroz qizdiring. Natijada  $(NH_4)_3PO_4 \cdot 12MoO_3 \cdot 2H_2O$  tarkibli sariq cho‘kma - ammoniy molibdat hosil bo‘ladi.

v) *Pretsipitatning hosil bo‘lishi.* Probirkaga 1-2 ml fosfat kislotanidan olib, ustiga cho‘kma hosil bo‘lguncha  $Ca(OH)_2$  eritmasidan qo‘shing. Natijada  $CaHPO_4 \cdot 2H_2O$  ning oq cho‘kmasi hosil bo‘ladi.

#### **Topshiriqlar:**

- 1.Ortofosfat kislotasining olinish reaksiya tenglamasini yozing.
- 2.Fosfat ioniga hos bo‘lgan sifat reaksiya hamda pretcipitatning hosil bo‘lish reaksiya tenglamalarini yozing.

### **1.7.8-tajriba. Kalsiy fosfat tuzlarining olinishi**

**Reaktivlar:**  $Na_3PO_4$ ,  $Na_2HPO_4$ ,  $NaH_2PO_4$ ,  $CaCl_2$  eritmalar.

**Ish tartibi:** Uchta probirka oling. Probirkalardan biriga  $Na_3PO_4$ , ikkinchisiga  $Na_2HPO_4$ , uchinchisiga esa  $NaH_2PO_4$  eritmalaridan quying. Uchala probirkaga  $CaCl_2$  eritmasidan quying. Probirkalardan qaysi birida cho‘kma hosil bo‘lishini kuzating.

#### **Topshiriqlar:**

- 1.Fosfat kislotanida tuzlari bilan  $CaCl_2$  orasida boradigan reaksiya tenglamalarini yozing.
- 2.Kalsiy fosfat tuzlarining eruvchanligi haqida hulosa chiqaring.
- 3.Metafosfat va pirofosfat kislotalarining kalsiyli tuzlari hosil bo‘lish reaksiyalari tenglamalarini yozing.

### **1.7.9-tajriba. Fosfat kislota tuzlarining gidrolizi**

**Reaktivlar:**  $\text{Na}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$ ,  $\text{NaH}_2\text{PO}_4$  eritmalar.

**Ish tartibi.** Universal indikator qog'ozlariga  $\text{Na}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$ ,  $\text{NaH}_2\text{PO}_4$  eritmalaridan bir tomchidan tomizing. Qog'ozlar rangini etalonlar rangi bilan solishtiring va pH ni qayd qiling. Bu tuzlarning eritmalar turlicha muhit vujudga keltirishini tushuntiring.

**Topshiriqlar:**

1.Fosfat kislota tuzlarining gidroliz reaksiyasini molekulyar va ionli holida yozing.

2.Diammoniy fosfat tarkibidagi azot va  $\text{P}_2\text{O}_5$  ning massa ulushini foizlarda hisoblang.

## **II – MODUL. ANALITIK KIMYO**

### **2.1-Mashg‘ulot. Sifat tahlil. Kationlarning analitik guruhlarga bo‘linishi. 1 va 2 guruh kationlariga xos reaksiyalar**

Analitik kimyo — har hil moddalar va ular aralashmasining sifat va miqdoriy tarkibini o‘rgatuvchi fandir. Bu fan sifat va miqdoriy tahlil usullariga bo‘linadi.

Sifat tahlil — tekshirilayotgan modda yoki moddalar aralashmasi qanday kimyoviy elementlardan (atomlar, ionlar yoki ionlar guruhidan) tashkil topganligini aniqlash usullarini o‘rganadi.

Miqdoriy tahlil — tekshirilayotgan moddada kimyoviy elementlarning qancha miqdorda borligini aniqlash usullarini o‘rgatadi. Murakkab moddalar, avvalo, sifat tahlil qilinib, so‘ngra tekshirilayotgan elementlarning massa foizlari, ya’ni miqdorlari aniqlanadi.

Analitik kimyoni usullari moddalarning turli xususiyatlariga asoslanadi. Masalan, moddalarning cho‘kmaga tushishi, rangini o‘zgarilishi, gaz holatda bo‘lishi kabi xossalariiga asoslanib analitik usullar yaratilgan. Bu usullarni uch guruhga: kimyoviy, fizikaviy va fizik - kimyoviy usullarga ajratish mumkin.

Kimyoviy usullar kimyoviy reaksiyalarga asoslanadi. Tahlil jarayonida ishlatiladigan reaksiyalar analitik reaksiyalar, ularni vujudga keltiruvchi moddalar esa reagentlar deyiladi.

Fizikaviy usullarda kimyoviy reaksiyalardan foydalanilmaydi, faqatgina moddalarning fizikaviy xususiyatlari tekshiriladi.

Tahlilning fizik— kimyoviy usullari kimyoviy reaksiyalar vaqtida sodir bo‘ladigan fizikaviy o‘zgarishlarni tekshirishga asoslangan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki fizikaviy va fizik— kimyoviy usullar xil murakkab tuzilishga ega bo‘lgan asboblarni qo‘llashni talab etadi. Ana shu sababli kimyoviy tahlil uslublari qulay va ularning qishloq xo‘jaligida qo‘llanish sohasi ham kengdir.

## Analitik kimyoning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati

Analitik kimyo fani bilan agronomiya, fiziologiya, mikrobiologiya, zoogigiena fanlari bevosita bog‘liqdir. Kimyoviy tahlilsiz xomashyo va tayyor mahsulot sifatiga baho berish, ishlab chiqarish jarayonlarini tushuntirish mumkin emas.

Ekinlardan mo‘l hosil olishda, chorvachilikda, tuproq tarkibini o‘rganishda, turli o‘g‘itlardan foydalanishda analitik kimyo usullaridan keng foydalaniladi. Shuning uchun bo‘lajak agronomlar, agrokimyogarlar, zoomuhandislar- biologik jarayonlarning mohiyatini to‘liq tushuna olish imkoniyatini analitik kimyo beradi.

### Kationlarni analitik guruhlarga bo‘linishi.

Kationlarni analitik guruhlarga bo‘lishning bir necha usuli mavjud bo‘lib, ulardan eng qulayi 1871 yilda N.A.Menshutkin taklif etgan sulfid usuli hisoblanadi. Sulfid usulida kationlar besh guruhga bo‘linadi.

Sulfidlari suvda eruvchan		Sulfidlari suvda erimaydi yoki suv ta'siridan erimaydigan gidroksidlar hosil qiluvchi		
I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh	V guruh
K <sup>+</sup> , Na <sup>+</sup> , NH <sub>4</sub> <sup>+</sup> , Mg <sup>2+</sup> , Guruh reagenti yo‘q.	Ca <sup>2+</sup> , Sr <sup>2+</sup> , Ba <sup>2+</sup> Guruhi reagenti (NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	Al <sup>3+</sup> , Cr <sup>3+</sup> , Fe <sup>3+</sup> , Fe <sup>2+</sup> , Mn <sup>2+</sup> , Co <sup>2+</sup> , Zn <sup>2+</sup> Co <sup>2+</sup> ,Ni <sup>2+</sup> Guruhi reagenti (NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> S	1. Ag guruhi Ag <sup>+</sup> , Pb <sup>2+</sup> , Hg <sub>2</sub> <sup>2+</sup> xloridlari suvda erimaydi. Guruhi reagenti HCl 2. Cu guruhi Cu <sup>2+</sup> , Cd <sup>2+</sup> , Bi <sup>3+</sup> xloridlari suvda eruvchan. Guruhi reagenti H <sub>2</sub> S	Sulfidlari Na <sub>2</sub> S da eriydi. As <sup>3+</sup> , As <sup>5+</sup> , Sb <sup>3+</sup> , Sb <sup>5+</sup> , Sn <sup>2+</sup> , Sn <sup>4+</sup> , Guruh reagenti Na <sub>2</sub> S

## **Kationlarning birinchi analitik guruhiga umumiy tavsifnomasi va ularning birikmalarini biologik axamiyati.**

Birinchi guruh kationlari tahlilining nazariy asoslariga anorganik kimyo bosqichida mukammal o‘tilgan elektrolitik dissotsialanish nazariyasi, vodorod ko‘rsatkich, kimyoviy muvozanat va bufer eritmalarining ta’sir etish mexanizmlarini qisman eslash zarur.


Birinchi analitik guruhiga  $K^+$ ,  $Na^+$ ,  $NH_4^+$  va  $Mg^{2+}$  kationlari kiradi. Bu kationlarning hammasi rangsiz. Kaliy, natriy, ammoniyning deyarli hamma tuzlari, gidroksidlari suvda yaxshi eriydi, shuning uchun guruh reagentn yo‘qdir.

Birinchi guruh kationlarining birikmalari muhim ahamiyatga ega. Ularning xlorid, nitrat, sulfat va karbonat tuzlari tuproqdan suvgaga tez o‘tadi. Sho‘rlangan tuproqda  $NaCl$ ,  $KCl$ ,  $Na_2SO_4$  va  $NaHSO_4$  ko‘p miqdorda uchraydi.  $K^+$  va  $NH_4^+$  kationlari mineral o‘g‘itlar tarkibiga kiradi.  $NH_4H_2PO_4$ ,  $(NH_4)_2 HPO_4$ ,  $(NH_4)_3PO_4$ ,  $NH_4NO_3$ ,  $(NH_4)_2SO_4$ ,  $KNO_3$ ,  $KCl$ ,  $K_2CO_3$  va  $K_2SO_4$  tuzlari holida mineral o‘g‘it sifatida ishlatiladi.


### **2.1.1.Birinchi guruh kationlarining sifat reaksiyalari Kaliy kationiga ( $K^+$ ) xos reaksiyalar.**

Reaksiyalarni  $KCl$ ,  $K_2SO_4$ ,  $KNO_3$  tuzlarining birontasining eritmasidan foydalanib o‘tkaziladi.

**1. Natriy gidrotartorat  $NaHC_4H_4O_6$  ta’siri** Natriy gidrotartorat eritmasidagi  $K^+$  ionining konsentratsiyasi yetarli bo‘lganda kaliy gidrotartorat - oq kristall cho‘kmasini hosil qiladi.





Hosil bo‘lgan cho‘kma mineral kislotalarda, ishqorlarda va issiq suvda eriydi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2- 4t KC1 eritmasiga 3-5t reaktivdan qo'shib, probirkani devorlari shisha tayoqcha bilan ishqalab sovuq suv oqimida sovitilsa, oq kristall cho'kma hosil bo'ladi.

## **2. Natriy kobaltinitrit Na<sub>3</sub>[ Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub> ] ta'siri.**

Kaliyning neytral yoki kuchsiz kislotali eritmasiga reaktivdan qo'shilganda Kaliy —Natriy kobaltigeksanitritni K<sub>2</sub>Na[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] sariq kristall cho'kmasi hosil bo'ladi.



Xuddi shunday cho'kmani NH<sub>4</sub><sup>+</sup> ham hosil qiladi, shuning uchun reaksiyani uning ishtirokisiz o'tkazish kerak.

Reaksiyaning bajarilishi: 2-3 t KC1 eritmasiga 2-3t yangi tayyorlangan reaktivdan qo'shilganda sariq kristall cho'kma hosil bo'ladi.

Tahlil qilinayotgan eritmaning pH=7 atrofida bo'lishi kerak, agar eritmani muhitni ishqoriy bo'lsa reaktiv parchalanib Co(OH)<sub>3</sub>ni hosil qiladi.





**3. Alangani bo'yalishi.** Kaliy tuzlari spirt lampasini rangsiz alangasini binafsha tusga kiritadi.

### **Na<sup>+</sup> kationiga xos reaksiyalar**


Reaksiyalarni NaCl, Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, NaNO<sub>3</sub> tuzlarining birontasining eritmasidan foydalanib o'tkaziladi.

## **1.Kaliy digidroantimonat KH<sub>2</sub>SbO<sub>4</sub> ta'siri**

Natriyning neytral muhitdagi tuzlariga reaktiv qo'shilganda oq kristall cho'kma natriy digidroantimonat, hosil bo'ladi.




Kuchli ishqoriy muhitda cho'kma eriydi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t NaCl eritmasiga 2 -3 t reaktivdan qo'shib, probirkani ichki devorlari shisha tayoqcha bilan ishqalansa oq kristall cho'kma hosil bo'ladi, Cho'kma ustiga 3-4t NaOH qo'shilganda cho'kma eriydi.

## 2. Uranil atsetat $\text{UO}_2(\text{CH}_3\text{COO})_2$ ta'siri

Shisha plastinkaga 1t  $\text{NaCl}$  eritmasidan tomiziladi va quriguncha bug'latiladi, sovitiladi so'ngra sirka kislotaning 2n eritmasi bilan to'yintirilgan uranil atsetat eritmasidan 1t tomizilganda vaqt o'tishi bilan sariq tusli tetraedr qirrali cho'kma hosil bo'ladi.




3. Alangani bo'yaydi. Natriy tuzlari spirt lampasini rangsiz alangasini sariq tusga bo'yaydi.

### $\text{NH}_4^+$ kationiga xos reaksiyalar

**Reaksiyalarni**  $\text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$  tuzlarining birontasining eritmasidan foydalanib o'tkaziladi.

#### 1. Ishqorlar (NaOH yoki KOH) ta'siri

Ammoniy tuzlariga ishqor qo'shib qizdirilganda ammiak ajralib chiqadi.



**Reaksiyaning bajarilishi:** 2 - 3t  $\text{NH}_4\text{Cl}$  eritmasiga 3 - 4t  $\text{NaOH}$  qo'shib probirkaga suv hammomida qizdirilganda ammiak ajralib chiqadi.

Probirkaning og'ziga ho'llangan universal indikator qog'ozi qo'yilganda rangining o'zgarishiga e'tibor bering.

#### 2. Nessler reaktivi $4\text{KOH} + \text{K}_2[\text{HgJ}_4]$ ta'siri

Ammoniy tuzlari Nessler reaktivi bilan qizil - qo'ng'ir oksidimerkurammoniy yodid cho'kmasini hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 1t  $\text{NH}_4\text{Cl}$  eritmasiga 4-t  $\text{KOH}$  va 1 -2t Nessler reaktivi qo'shilganda qizil — qo'ng'ir cho'kma hosil bo'ladi.

### $\text{Mg}^{2+}$ kationiga xos reaksiyalar



Reaksiyalarni  $\text{MgCl}_2$  yoki  $\text{MgSO}_4$  eritmalari bilan o'tkaziladi.

#### 1. Ishqorlar (NaOH yoki KOH) ta'siri

O'yuvchi ishqorlar  $\text{NaOH}$  yoki  $\text{KOH}$   $\text{Mg}^{2+}$  kationi bilan oq amorf cho'kma  $\text{Mg}(\text{OH})_2$ ni hosil qiladi.



Ushbu reaksiya yordamida  $Mg^{2+}$  kationi  $Na^+$ ,  $K^+$ ,  $NH_4^+$  kationlaridan ajratiladi.  $Mg(OH)_2$  cho'kmasi kislotalarda va ammoniy tuzlarida eriydi.





Reaksiyaning bajarilishi: 2 - 3 t  $MgCl_2$  eritmasiga o'shancha miqdor  $KOH$  eritmasidan qo'shilganda oq amorf cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kmani kislotalarda va  $NH_4Cl$  eritmasida erishini sinab ko'ring.

### **2.Natriy gidrofosfat $Na_2HPO_4$ ta'siri**

Magniy tuzlari  $NH_4OH$  va  $NH_4Cl$  eritmasi ishtirokida  $Na_2HPO_4$  eritmasi bilan, mineral kislotalarda va  $CH_3COOH$  da eriydigan qo'shaloq tuz ammoniy magniy fosfat oq kristall cho'kmasini hosil qiladi. Reaksiyaning bajarilishi; 2-3t  $MgCl_2$  eritmasiga 2t  $NH_4Cl$ , 4t  $Na_2HPO_4$  eritmasidan qo'shiladi. So'ngra ishqoriy muhit hosil bo'lguncha 2n  $NH_4OH$  eritmasidan tomchilab qo'shing. Agar probirka devorlari chayqatib turilsa cho'kma hosil bo'lishi tezlashadi.

### **3. Eruvchan karbonatlar ta'siri**

$Mg^{2+}$  tuzlari  $Na_2SO_3$  yeki  $K_2SO_3$  eritmasi ta'siridan asosli tuzlar hosil qilib cho'kmaga tushadi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t  $MgCl_2$  eritmasiga 2-3t  $Na_2SO_3$ , eritmasidan qo'shib qaynaguncha qizdirilganda oq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma kislotalarda va ammoniy tuzlarida eriydi.

### **2.2.2.Kationlarning II – analitik guruhiga umumiy tavsifnoma**

Ikkinchi guruh kationlariga  $Ba^{2+}$ ,  $Ca^{2+}$  va  $Sr^{2+}$  ionlari kiradi. Bu kationlarning karbonatlari suvda erimaydi, kislotalarda yaxshi eriydi. Ana shuning uchun  $(NH_4)_2CO_3$  guruh reagenti hisoblanadi.  $BaS$ ,  $CaS$  va  $SrS$  sulfidlar suvda yaxshi eriydi, shu xossaliga asoslanib II — guruh kationlari sulfidlarini, suvda erimaydigan III - V guruq kationlaridan ajratish mumkin.  $Ba^{2+}$ ,  $Ca^{2+}$  va  $Sr^{2+}$  ionlari rangsiz kationlardir. Kislotali tuproqda  $Ca^{2+}$  ionlari  $H^+$  ionlariga, sho'rxok tuproqlarda esa  $Na^+$

kationlariga almashgan bo‘ladi. Kislotali tuproqlarga  $\text{CaCO}_3$ , sho‘rxok tuproqlarga esa  $\text{CaSO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$  gips qo‘shiladi. Tarkibida kalsiy va fosfor bo‘lgan birikmalar qishloq xo‘jaligida o‘g‘it sifatida ishlatiladi.

$\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 + 2\text{CaSO}_4$  — fosfat tolqoni.

$\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 + 2\text{CaSO}_4$  — oddiy superfosfat.

$\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$  — qo‘sh superfosfat.

$\text{CaHPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  — pretsipitat.


$\text{CaCN}_2$  — defoliant.

$\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  — kalsiyli selitra.

$\text{BaCl}_2$  va  $\text{BaCO}_3$  zaharli ximikatlar sifatida ishlatiladi.


### **Guruh reagentini ta’siri**

$\text{Ba}^{2+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Sr}^{2+}$  kationlari guruh reagenti  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  ta'siridan suvda erimaydigan, lekin kislotalarda eriydigan karbonatlar holida cho‘kadi.



Guruh reagenti bilan II—guruh kationlarini cho‘ktirishda quyidagilarga e’tibor berish kerak.

1. Guruh reagenti suv ta'siridan gidrolizlanadi bu jarayonni to‘xtatish uchun Le —Shatele qoidasiga muvofiq eritmaga  $\text{NH}_4\text{OH}$  qo‘shish kerak.



$\text{NH}_4\text{OH}$  qo‘shilganda muvozanat o‘ngdan chapga siljiydi.

2. Ammoniy karbonat qisman ammoniy karbaminatga aylanishi mumkin, uni yo‘qotish uchun reaksiyani  $70 - 80^\circ\text{C}$  da olib borish kerak.



3. Ammoniy hidroksid qo‘shilganda, erkin kislotalar neytrallanadi, natijada muhit ishqoriy bo‘lib  $\text{Mg}^{2+}$  asosli tuz hosil qilib cho‘kmaga tushadi. Eritmaga  $\text{NH}_4\text{Cl}$  eritmasidan qo‘shilsa muvozanat chapga siljiydi.



Demak, II - guruh kationlarini  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  ta'sirida  $\text{NH}_4\text{OH} + \text{NH}_4\text{Cl}$ - li bufer eritma ta'sirida ( $\text{pH}=9,2$ ) va eritmani  $70—80^\circ\text{C}$  gacha suv xammomida qizdirish yo'li bilan cho'ktirish lozim.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3 t  $\text{BaCl}_2$  eritmasiga, 1t dan 2n  $\text{NH}_4\text{OH}$  va 2n  $\text{NH}_4\text{Cl}$  eritmasidan quyib, probirkani suv hammomida.  $70-80^\circ\text{C}$  da qizdirib, 2-3 t  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  eritmasi qo'shilsa oq cho'kma  $-\text{BaCO}_3$  hosil bo'ladi.

### $\text{Ba}^{2+}$ kationiga xos reaksiyalar

Reaksiyalarni  $\text{BaCl}_2$  yoki  $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$  eritmalari bilan o'tkaziladi.

#### 1. Kaliy bixromat $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ ta'siri

$\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$  ionlari suv molekulalari bilan ta'sirlashib,  $\text{CrO}_4^{2-}$  ionlarini hosil qilgani uchun  $\text{Ba}^{2+}$  ionlar  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  bilan kutilgandek  $\text{BaCr}_2\text{O}_7$  emas, balki sariq cho'kma  $\text{BaCrO}_4$  hosil bo'ladi





$\text{BaCrO}_4$  cho'kmasi kuchli kislotada eriydi.


Reaksiyaning bajarilishi: 2 -3 t  $\text{BaCl}_2$  eritmasiga 1t  $\text{CH}_3\text{COONa}$ , 1 -2t  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  eritmalari qo'shilganda sariq cho'kma hosil bo'ladi.

#### 2. Sulfatlar ta'siri

$\text{Ba}^{2+}$  ionlari  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari ishtirokida oq cho'kma  $\text{BaSO}_4$  ni hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t  $\text{BaCl}_2$  eritmasiga 2-3t  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma suvda,  $\text{HC1}$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  larda erimaydi, lekin  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ni to'yingan eritmasidan qo'shib qizdirilsa kislotalarda eruvchan  $\text{BaCO}_3$  hosil bo'ladi.




### **3. Ammoniy oksalat $(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$ ta'siri**

Ammoniy oksalat tuzi  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari bilan mineral kislotalarda eriydigan oq kristall cho'kma  $\text{BaC}_2\text{O}_4$  ni hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 2-3 t  $\text{BaCl}_2$  eritmasiga 2-3 t  $(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$  eritmasi qo'shilsa oq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma  $\text{HNO}_3$  da eriydi.




### **4. Kaliy xromat $\text{K}_2\text{CrO}_4$ ta'siri**

Kaliy xromat tuzi  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari bilan mineral kislotalarda eriydigan sariq rangli  $\text{BaCrO}_4$  ni hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t  $\text{BaCl}_2$  eritmasiga 2-3t  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  eritmasi qo'shilganda sariq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma  $\text{HCl}$  da eriydi.



### **5. Natriy gidrofosfat $\text{Na}_2\text{HPO}_4$ ta'siri**

Natriy gidrofosfat tuzi  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari bilan kislotalarda eriydigan oq cho'kma  $\text{BaHPO}_4$  ni hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t  $\text{BaCl}_2$  eritmasiga 2-3t  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  eritmasi qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma  $\text{HNO}_3$  da eriydi.




### **$\text{Ca}^{2+}$ kationiga xos reaksiyalar**

Reaksiyalarni  $\text{CaCl}_2$  yoki  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  eritmalarini bilan o'tkaziladi.

#### **1. Kaliy ferrotsianid $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ta'siri**


Kaliy ferrotsianid tuzi, ammoniyli bufer eritma ishtirokida  $\text{Ca}^{2+}$  kationi bilan oq cho'kma-kalsiy, ammoniy ferrotsianidni hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 2 –3 t CaCl<sub>2</sub> eritmasiga 2t NH<sub>4</sub>Cl, 2t NH<sub>4</sub>OH eritmalari qo'shib, aralashmani pH=9 bo'lguncha qizdiriladi, so'ngra yangi tayyorlangan kaliy ferrotsianid eritmasidan 3-4t qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi.

## **2. Ammoniy oksalat ta'siri**

Ammoniy oksalat tuzi Ca<sup>2+</sup> ioni bilan mineral kislotalarda eriydigan oq cho'kma kalsiy oksalat hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 2-3 t CaCl<sub>2</sub> eritmasiga, 2-3t (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub> eritmasidan qo'shib, probirka suv hammomida isitilsa oq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma HCl da eriydi.



## **1. Sulfatlar ta'siri**

Yuqori konsentratsiyali Ca<sup>2+</sup> kationi SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ioni bilan oq cho'kma CaSO<sub>4</sub> ni hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 5-6t CaCl<sub>2</sub> eritmasi 1-2t qolguncha bug'latiladi, so'ngra 1-2t H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi.

## **Sr<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar**

Reaksiyalarni SrCl<sub>2</sub> yoki Sr(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> eritmalari bilan olib boriladi, Sr<sup>2+</sup> kationi xuddi Ca<sup>2+</sup> kationi singari, SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ioni bilan, C<sub>2</sub>O<sub>4</sub><sup>2-</sup> ioni bilan va HPO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ioni bilan oq cho'kma SrSO<sub>4</sub>, SrC<sub>2</sub>O<sub>4</sub> va SrHPO<sub>4</sub> larni hosil qiladi. Ushbu tajribalarni o'tkazib, reaksiya tenglamalarini molekulyar va ionli holida ish daftaringizga yozing.

## **So'rovlar uchun savollar**

- 1.Sifat va miqdor tahlilining vazifalari nimalardan iborat?
- 2.Analitik kimyo fanini qishloq xo'jaligidagi ahamiyati nimalardan iborat.

- 3.Sifat tahlili usullarini tavsiflab bering?
- 4.Analitik reaksiyalarni o‘tkazish usullarini tavsiflab bering?
- 5.Kationlarni guruhlarga bo‘linishi nimalarga asoslangan?
- 6.Sulfidli sinflarga bo‘linilishi mohiyati nimadan iborat?
- 7.Elektrolitik dissotsialanish nazariyasining asoslari nimalardan iborat?
8. Dissotsialanish darajasi va konstantasi nima?
9. Birincha guruh kationlarining qishloq xo‘jaligida ishlatilishi nimaga asoslangan?
10. Ammoniy kationi qaysi reaktiv ta'siridan qizil-qo‘ng‘ir cho‘kmani hosil qiladi?
11. Kaliy kationi natriy gidrotartorat ta'sirida qanday cho‘kma hosil qiladi?
12.  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  va  $(\text{NH}_4)_3\text{PO}_4$  tuzlari parchalanganda qanday moddalar hosil bo‘ladi?
- 13.Nessler reaktivini kimyoviy formulasini yozing?
- 14.Qaysi reaktiv yordamida  $\text{Mg}^{2+}$  ikkinchi guruh kationlaridan ajratiladi?

## **2.2- *mashg‘ulot*. III va IV - guruh kationlariga xos reaksiyalar**

*Kationlarning III guruhiga umumiy tavsifnoma.*

III guruh analitik kationlariga  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$  va  $\text{Co}^{2+}$  kationlari kiradi. Ularning ko‘philigi rangli kationlardir. III guruh kationlarining sulfidlari suvda erimaydi, lekin mineral kislotalarda eriydi.  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  III guruh kationlari uchun guruh reagenti hisoblanadi.  $\text{Al}^{3+}$  va  $\text{Cr}^{3+}$  ionlarning sulfidlari gidrolizlanib  $\text{Al(OH)}_3$  va  $\text{Cr(OH)}_3$  holida cho‘kma, qolgan kationlar esa  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  ta'siridan sulfidlar holida cho‘kadi.

III guruh kationlarining ikki guruhchaga ajratilishining asosiy sababi shundaki kationlardan  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{3+}$   $\text{NH}_4\text{Cl}$  li muhitda  $\text{NH}_4\text{OH}$  ta'sirlanib  $\text{Al(OH)}_3$ ,  $\text{Cr(OH)}_3$ ,  $\text{Fe(OH)}_3$  oq iviqlar ko‘rinishda cho‘kmaga tushadi.

Ikkinchi guruhchaga  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$  kationlari kiradi. Ular kuchsiz ishqoriy muhitda  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  ta'siridan sulfidlar xolida cho‘kmaga tushadi. Muhiti pH=5-5,5 dan kichik bo‘lgan bo‘z tuproqlarda ko‘p miqdorda

$\text{Al}^{3+}$  kationi bo‘ladi. Ko‘pgina madaniy o‘simliklar ana shunday tuproqlarda sust o‘sadi, chunki alyuminiy tuzlarining gidrolizlanishi sababli, tuproq eritmasida  $\text{H}^+$  ionlar ortib ketadi. Temir ionlari o‘simlik to‘qimalarida mavjuddir. Agar tuproqda temir ionlari kam bo‘lsa xloroz kasalligi vujudga keladi, ya’ni o‘simliklardagi xlorofill zarrachalari kam bo‘lib, barglarning yashil rangi yoqoladi.


Manganets, rux, nikel, kobalt va xrom mikroelementlar jumlasiga kirib, o‘simliklar normal o‘sishiga, meva berishiga, hosildorlikka katta ta’sir ko‘rsatadi.

### Guruh reagentining ta’siri.


III —guruh kationlari uchun  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  guruh reagent hisoblanadi. Reagent yordamida cho‘ktirishda quyidagilarga rioya qilish zarur, chunki  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$  kationlari sulfidlar holida,  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$  kationlari esa gidroksidlar xolida cho‘kmaga tushadi. Masalan:

- 1)  $2\text{FeCl}_3 + 3(\text{NH}_4)_2\text{S} \rightleftharpoons \text{Fe}_2\text{S}_3 + 6\text{NH}_4\text{Cl}$   
 $2\text{Fe}^{3+} + 3(\text{NH}_4)_2\text{S} \rightleftharpoons \text{Fe}_2\text{S}_3 + 6\text{NH}_4^+$
- 2)  $\text{ZnCl}_2 + (\text{NH}_4)_2\text{S} \rightleftharpoons \text{ZnS} + 2\text{NH}_4\text{Cl}$   
 $\text{Zn}^{2+} + (\text{NH}_4)_2\text{S} \rightleftharpoons \text{ZnS} + 2\text{NH}_4^+$ 
  - 1) NiS va CoS dan boshqa xamma sulfidlar kislotalarda eriydi  
 $\text{FeS} + 2\text{HCl} = \text{FeCl}_2 + \text{H}_2\text{S}$
  - 2) MnS + 2HCl = MnCl<sub>2</sub> + H<sub>2</sub>S

$\text{Al}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Cr}(\text{OH})_3$  gidroksidlarining hosil bo‘lishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi



Aslida esa





Hulosa qilib aytganda III guruh kationlari ( $\text{NH}_4\text{OH} + \text{NH}_4\text{Cl}$ ) ammoniyli bufer eritma muhitida ( $\text{pH}=9$ ) ammoniy sulfid bilan cho‘ktiriladi.

### $\text{Al}^{3+}$ Kationiga xos reaksiyalar .


Reaksiyalarni  $\text{AlCl}_3$  yoki  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  eritmasi bilan o‘tkaziladi.

### I. Ishqorlar ta’siri.

Alyuminiy tuzlari NaOH bilan ta'sirlashib, Al(OH)<sub>3</sub> ning oq amorf cho'kmasini hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 5-6 t AlCl<sub>3</sub> eritmasiga 1-2t NaOH eritmasi qo'shilganda oq amorf cho'kma hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan cho'kmani ikkita probirkaga bo'lib, biriga 2 -3 t NaOH, ikkinchisiga 2-3t HCl eritmalaridan qo'shilganda ikkala holda ham cho'kmani erishi Al(OH)<sub>3</sub> ni amfoter gidroksid ekanligini ko'rsatadi.



## **2. Ammoniy gidroksid ta'siri**


Al<sup>3+</sup> kationi NH<sub>4</sub>OH bilan qizdirilganda  $\downarrow$  Al(OH)<sub>3</sub> cho'kmasini hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3 t AlCl<sub>3</sub> eritmasiga 5-6t NH<sub>4</sub>OH eritmasidan qo'shib probirka suv hammomida qizdirilsa cho'kma hosil bo'ladi.

## **3. Natriy atsetat CH<sub>3</sub>COONa ta'siri.**

Alyuminiy tuzlari CH<sub>3</sub>COONa bilan alyuminiy digidroksid atsetatning oq cho'kmasini hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 3-4t Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> eritmasiga, 4-5t CH<sub>3</sub>COONa va 2 -3 t H<sub>2</sub>O eritmasidan qo'shib probirka qaynab turgan suv hammomida ushlansa oq ipir - ipir cho'kma hosil bo'ladi.

## **4. Alyuminon asosida lak olish**


2 -3 t Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> eritmasiga 1 t CH<sub>3</sub>COOH eritmasi, 1-2 t 0,01% alyuminon eritmasi qo'shib suv hammomida qizdiriladi. So'ngra ammiak xidi kelguncha NH<sub>4</sub>OH eritmasidan va 2-3t (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> qo'shilganda qizil rangli alyuminiy — alyuminon laki hosil bo'ladi.

## **Fe<sup>3+</sup> Kationiga xos reaksiyalar**

Reaksiyalarni FeCl<sub>3</sub> yoki Fe<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> eritmasi bilan olib boriladi.

### **I. Ishqorlar tasiri .**


NaOH va NH<sub>4</sub>OH Fe<sup>3+</sup> ionlari bilan kislotalarda eriydigan, yana mo‘l miqdordagi ishqorlarda eriydigan, qizil-qo‘ng‘ir tusli Fe(OH)<sub>3</sub> ni hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3 t FeCl<sub>3</sub> eritmasiga, 2-3t NaOH eritmasidan qo‘shilganda qizil-qo‘ng‘ir cho‘kma hosil bo‘ladi. Cho‘kma mineral kislotalarda eriydi.

### **2.Sariq qon tuzi deb ataluvchi kaliy ferrotsianid K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] ta'siri.**


Kaliy ferrotsianid Fe<sup>3+</sup> ionlari bilan to‘q ko‘k rangli «Berlin lazuri» cho‘kmasini hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 1-2t FeCl<sub>3</sub> eritmasiga 1-2t K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] eritmasidan qo‘shilganda kislotalarda erimaydigan, lekin ishqorda eriydigan «Berlin lazuri» cho‘kmasini hosil bo‘ladi.


### **1. Ammoniy rodanid NH<sub>4</sub>SCN ta'siri.**

Ammoniy rodanid Fe<sup>3+</sup> ionlari bilan qizil qon rangli eritmanihosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t FeCl<sub>3</sub> eritmasiga 1 t NH<sub>4</sub>SCN eritmasidan qo‘shilganda qizil qon rangli eritma hosil bo‘ladi.

### **4. Fe<sup>3+</sup>ionini Fe<sup>2+</sup> ioniga qaytarish.**



Reaksiyaning bajarilishi: 4 - 5 t KJ eritmasiga 2-3 t HCl eritmasi va 3-4t FeCl<sub>3</sub> eritmasi qo‘shib probirkaga chayqatilganda eritmani rangini o‘zgarishi erkin yod ajralganligani ko‘rsatadi. Agar probirkaga 3-4 t C<sub>6</sub>H<sub>6</sub>



erituvchidan qo'shilsa ajralib chiqqan yod benzolda erib yuqori qavatda pushti xalqani hosil qiladi.

### **Fe<sup>2+</sup> Kationiga xos reaksiyalar**

Reaksiyalarni FeSO<sub>4</sub> tuzi eritmasida o'tkaziladi.

#### **Ishqorlar ta'siri .**


NaOH yoki KOH Fe<sup>2+</sup> ionlari bilan ta'sirlashib kislotalarda eriydigan qoramtil yashil rangli Fe(OH)<sub>2</sub> cho'kmasini hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t FeSO<sub>4</sub> eritmasiga 2-3t NaOH eritmasi qo'shilganda Fe(OH)<sub>2</sub> cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kma kislotalarda eriydi.





Cho'kma vaqt o'tishi bilan havo kislorodida oksidlanib, qo'ng'ir tusli Fe(OH)<sub>3</sub> cho'kmasini hosil qiladi.



#### **2. Qizil qon tuzi deb ataluvchi kaliy ferrotsianid K<sub>3</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] ta'siri.**

Kaliy ferrosianid Fe<sup>2+</sup> ionlari bilan to'q ko'k rangli «Turunbul ko'ki» cho'kmasini hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t FeSO<sub>4</sub> eritmasiga 1-2t K<sub>3</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] eritmasidan qo'shilganda to'q ko'k rangli cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma kislotalarda erimaydi, lekin ishqorlarda parchalanib ketadi.

### **Mn<sup>2+</sup> Kationiga xos reaksiyalar**


Reaksiyalarni MnSO<sub>4</sub> yoki Mn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> eritmasi bilan o'tkaziladi.

#### **Ishqorlar ta'siri .**


NaOH yoki KOH Mn<sup>2+</sup> ionlari bilan oq cho'kma hosil qiladi.






Reaksiyaning bajarilishi; 2 - 3t MnSO<sub>4</sub> eritmasiga 2 -3t NaOH eritmasi qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma kislotalarda eriydi.



Cho'kma vaqt o'tishi bilan havo kislorodi bilan oksidlanadi.



## **2. Nitrat kislotali muhitda natriy vismutat NaBiO<sub>3</sub> bilan ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t MnSO<sub>4</sub> eritmasiga 4 - 5t 6n. HNO<sub>3</sub> eritmasidan, reaksiya xalal beruvchi ionlarni cho'ktirish uchun 3-4 t 0,1 n AgNO<sub>3</sub> eritmasidan qo'shib ustiga ozgina natriy vismutat tuzidan solib yaxshilab aralashtiriladi, so'ngra sentrifugalanadi. Sentrifugat olcha rangli bo'ladi.

Cr <sup>3+</sup>	Oksidlovchi lar H <sub>2</sub> O <sub>2</sub> KMnO <sub>4</sub>	$\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3 + 10 \text{NaOH} + 3\text{H}_2\text{O}_2 = 2\text{Na}_2\text{CrO}_4 + 3\text{Na}_2\text{SO}_4 + 8\text{H}_2\text{O}$ $2\text{Cr}^{3+} + 3\text{SO}_4^{2-} + 10\text{Na}^+ + 10\text{OH}^- + 3\text{H}_2\text{O}_2 = 4\text{Na}^+ + 2\text{CrO}_4^{2-} + 6\text{Na}^+ + 3\text{SO}_4^{2-} + 8\text{H}_2\text{O}$ $2\text{Cr}^{3+} + 10\text{OH}^- + 3\text{H}_2\text{O}_2 = 2\text{CrO}_4^{2-} + 8\text{H}_2\text{O}$	Ishqoriy muhitda erit- maning yashil rangi qizdiril- ganda sariq rangga o'tadi
Mn <sup>2+</sup>	Na <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub>	$3\text{MnSO}_4 + 4\text{Na}_2\text{HPO}_4 = \text{Mn}_3(\text{PO}_4)_2 + 2\text{NaH}_2\text{PO}_4 + 3\text{Na}_2\text{SO}_4$ $3\text{Mn}^{2+} + 4\text{HPO}_4^{2-} = \text{Mn}_3(\text{PO}_4)_2 + 2\text{H}_2\text{PO}_4^-$	Oq cho'kma, sirka kislota- da eriydi
Mn <sup>2+</sup>	Oksidlovchi lar PbO <sub>2</sub> NaBiO <sub>3</sub>	$2\text{MnSO}_4 + 5\text{NaBiO}_3 + 16\text{HNO}_3 = 2\text{HMnO}_4 + 2\text{Na}_2\text{SO}_4 + 5\text{Bi}(\text{NO}_3)_3 + \text{NaNO}_3 + 7\text{H}_2\text{O}$ $2\text{Mn}^{2+} + 5\text{NaBiO}_3 + 14\text{H}^+ = 2\text{MnO}_4^- + 5\text{Bi}^{3+} + 5\text{Na}^+ + 7\text{H}_2\text{O}$	Mn <sup>2+</sup> ioni binafsha rang MnO <sub>4</sub> <sup>-</sup> gacha oksidlanadi
Co <sup>2+</sup>	NaOH KOH	$\text{CoCl}_2 + 2\text{NaOH} \downarrow \text{Co(OH)}_2 + 2\text{NaCl}$ $\text{Co}^{2+} + 2\text{Cl}^- + 2\text{Na}^+ + 2\text{OH}^- = \text{Co(OH)}_2 + 2\text{Na}^+ + 2\text{Cl}^-$ $\text{Co}^{2+} + 2\text{OH}^- \downarrow \text{Co(OH)}_2$	ko'k rangli cho'kma
Ni <sup>2+</sup>	Na <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub>	$3\text{NiCl}_2 + 4\text{Na}_2\text{HPO}_4 = \text{Ni}_3(\text{PO}_4)_2 + 2\text{NaH}_2\text{PO}_4 + 6\text{NaCl}$ $3\text{Ni}^{2+} + 4\text{HPO}_4^{2-} = \text{Ni}_3(\text{PO}_4)_2 + 2\text{H}_2\text{PO}_4^-$	Yashil cho'kma kislota va ammiakda eriydi.



## So‘rovlar uchun savollar


1. Qanday tuzlar gidrolizga uchraydi?
2. Tuzlarning gidrolizida eritmaning pH nima hisobiga o‘zgaradi?
3. Quyidagi tuzlardan qaysi birlari  $\text{KCl}$ ,  $\text{FeCl}_3$ ,  $\text{Mn}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{NaNO}_3$ ,  $\text{CH}_3\text{COONa}$  gidrolizga uchraydi?
4. Tuzning gidroliz darajasi nimani ko‘rsatadi?
5. Gidroliz darajasi qanday faktorlarga bog‘liq?
6.  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$  va  $\text{Ca}(\text{CN})_2$  gidrolizining molekulyar va ionli tenglamalarini yozing?
7. Amfoter gidroksidlarga misollar keltiring?
8.  $\text{Zn}(\text{OH})_2$  va  $\text{Pb}(\text{OH})_2$  ni amfoterlik hossalarini ifodalovchi reaksiya tenglamalarini yozing?
9.  $\text{Fe}^{2+}$  va  $\text{Fe}^{3+}$  ionining borligini qaysi reaktivlar bilan ochish mumkin?
10. Qanday reagentlar ta'sirida  $\text{Mn}^{2+}$  ionlari  $\text{MnO}_4^-$  ionlariga oksidlanishi mumkin?
11. Alyuminiy tuzlarini  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  bilan o‘zaro ta'siri reaksiyasini yozing?
12. Alyuminat eritmasidan  $\text{Al}(\text{OH})_3$  ni qanday usul bilan ajratish mumkin?
13. Sariq qon tuzi va qizil qon tuzi deb ataluvchi birikmalarning formulasini yozing?
14. Uchinchi guruh kationlaridan qaysi kationlarining birikmalari qishloq ho‘jaligida ishlatiladi?

## IV— guruh kationlariga umumiyl tavsifnomasi va birikmalarining qishloq ho‘jaligidagi ahamiyati

### Guruh reagentining ta'siri

I.  $\text{H}_2\text{S}$  ta'siri IV guruh kationlaridan  $\text{Ag}^+$ ,  $\text{Pb}^{2+}$ ,  $\text{Hg}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Pd}^{2+}$ ,  $\text{Vi}^{3+}$  lar kislotali muhitda  $\text{Na}_2\text{S}$  ta'siridan  $\text{Ag}_2\text{S}$ ,  $\text{PbS}$ ,  $\text{HgS}$ ,  $\text{CuS}$ ,  $\text{PdS}$  va  $\text{Vi}_2\text{S}_3$  sulfidlardan iborat qora rangli cho‘kmalarni hosil qiladi.






Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t  $\text{AgNO}_3$  eritmasiga 5-6t  $\text{H}_2\text{O}$ , kislotali muhitgacha 2n  $\text{HCl}$  eritmasidan tomchilatib qo'shiladi, so'ngra  $\text{H}_2\text{S}$  gazi naycha orqali asta-sekin o'tkazilganda qora cho'kma hosil bo'ladi (Tajriba mo'rili shkafda o'tkazilishi kerak).

## **2. Suyultirilgan HCl ta'siri.**


Xlorid kislota Ag guruhiga umumiy reagent hisoblanadi. Tarkibida  $\text{Ag}^+$  kationi bor eritimaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda oq cho'kma hosil bo'ladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2t  $\text{AgNO}_3$  eritmasiga 2t  $\text{HCl}$  eritmasidan qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma suyultirilgan  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  erimaydi, faqatgina  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasida erib kompleks birikma diamin -kumush (I)-xloridni hosil qiladi.




Hosil bo'lgan eritmaga  $\text{HNO}_3$  ta'sir ettirilsa yana cho'kma hosil bo'ladi.



## **Ag<sup>+</sup> Kationiga hos reaksiyalar**

Reaksiyalarni  $\text{AgNO}_3$  eritmasidan foydalani o'tkaziladi.

**1. Ishqorlar ta'siri.** O'yuvchi ishqorlar va  $\text{NH}_4\text{OH}$   $\text{Ag}^+$  ionlari bilan dastlab oq cho'kma keyin esa qo'ng'ir cho'kmani hosil qiladi.





Cho'kma ammoniy gidroksidda erib diamin—kumush (I)- gidroksidini hosil qiladi.





Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t  $\text{AgNO}_3$  eritmasiga 2-3t  $\text{NaOH}$  eritmasidan qo'shilganda avval oq cho'kma, keyin esa qo'ng'ir cho'kma hosil bo'ladi.

**2. Kaliy yodid( KJ ) ta'siri.** Kumush ionlari kaliy yodid bilan  $\text{NH}_4\text{OH}$  da erimaydigan sariq cho'kmani hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2t  $\text{AgNO}_3$  eritmasiga, KJ eritmasi qo'shilganda sariq cho'kma hosil bo'ladi.

### 3. Kaliy xromat ( $\text{K}_2\text{CrO}_4$ ) ta'siri.





Reaksiyaning bajarilishi: 1-2t  $\text{AgNO}_3$  eritmasiga 1-2t  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  eritmasi qo'shilganda qizil g'isht rangli cho'kma hosil bo'ladi.

$\text{Ag}^+$  ioni  $\text{NaBr}$  bilan och sariq cho'kma  $\text{AgBr}$ ,  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  bilan sariq cho'kma ( $\text{Ag}_3\text{PO}_4$ ) larni hosil qiladi. Reaksiya tenglamalarini molekulyar va ionli holida yozib tajribalarni o'tkazing.


### $\text{Pb}^{2+}$ kationiga xos reaksiyalar

Reaksiyalarni  $\text{Rb}(\text{NO}_3)_2$  yoki  $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Pb}$  eritmasidan foydalanib o'tkaziladi.



**I. O'yuvchi ishqorlar ta'siri.**  $\text{NaOH}$  yoki  $\text{KOH}$   $\text{Pb}^{2+}$  ionlari bilan oq cho'kma  $\text{Pb}(\text{OH})_2$  hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 3-4t  $\text{Rb}(\text{NO}_3)_2$  eritmasiga, 1-2t  $\text{NaOH}$  eritmasi qo'shilganda oq cho'kma hosil qiladi. Olingan cho'kma ikki qismga bo'linadi, birinchisiga 2-3t  $\text{HNO}_3$ , ikkinchisiga esa 2-3t  $\text{NaOH}$  eritmasidan qo'shilganda, ikkala holda ham cho'kma eriydi. Demak,  $\text{Pb}(\text{OH})_2$  amfoter gidroksid ekan.




**2. Sulfatlar ta'siri.**  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  va uning eruvchan tuzlari  $\text{Pb}^{2+}$  ionlari bilan oq cho'kmani hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 2t  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  eritmasiga 2t  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasidan qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma  $\text{KOH}$  eritmasi bilan qizdirilganda erib plyumbitlar hosil qiladi.




### 3. Kaliy xromat $\text{K}_2\text{CrO}_4$ ta'siri.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  eritmasiga 2-3t  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  eritmasidan qo'shilganda  $\text{HNO}_3$  va  $\text{NaOH}$  eritmasida eriydigan sariq cho'kma hosil bo'ladi.



### 4. Kaliy yodid KJ ta'siri. KJ, $\text{Pb}^{2+}$ ionlari bilan ortiqcha miqdordagi issiq suvda, eriydigan sariq cho'kmani hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 2 -3t  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  eritmasiga 1-2t KJ eritmasidan qo'shilganda sariq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma ustiga 8 - 10t  $\text{H}_2\text{O}$  quyib, cho'kma to'liq eriguncha qaynab turgan suv hammomida qizdiriladi. So'ngra eritmali probirka vodoprovod jo'mragi ostida sovitilsa, probirka devorlarida tilla rang cho'kma hosil bo'ladi. Dastlabki sariq cho'kmaga 5-6 t KJ eritmasidan qo'shilganda cho'kma eriydi.




### $\text{Cu}^{2+}$ kationiga xos reaksiyalar

Reaksiyalarni  $\text{CuSO}_4$  yoki  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$  eritmasidan foydalanib o'tkaziladi.

#### I. Ishqorlar ta'siri. $\text{Cu}^{2+}$ ionlari $\text{NaOH}$ ta'siridan havo rang $\text{Cu}(\text{OH})_2$ ni hosil qiladi.



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t  $\text{CuSO}_4$  eritmasiga, 4-5t  $\text{NaOH}$  eritmasidan qo'shilganda havo rang cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kmani ikkiga bo'lamiz, birinchisi suv hammomida qizdirilganda qora rangli  $\text{CuO}$  hosil bo'ladi, ikkinchisi esa  $\text{NH}_4\text{OH}$  da erib tetramin - mis (II)-digidroksidni hosil qiladi.



**2. Ammoniy gidroksid ta'siri.** NH<sub>4</sub>OH Cu<sup>2+</sup> ionlari bilan gidrokso tuzining yashil cho'kmasini hosil qiladi.





Cho'kma ortiqcha NH<sub>4</sub>OH da erib tetramin-mis (II)- sulfatni hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t CuSO<sub>4</sub> eritmasiga 1-2t NH<sub>4</sub>OH eritmasidan qo'shilganda yashil cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma to'liq eriguncha NH<sub>4</sub>OH eritmasidan qo'shilganda zangori eritma hosil bo'ladi.

### **3. Kaliy ferrotsianid K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t CuSO<sub>4</sub> eritmasiga 2-3t K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] eritmasidan qo'shilganda qizil-qo'ng'ir cho'kma hosil bo'ladi.

### **4. Kaliy yodid KJ ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilishi: 2 - 3t CuSO<sub>4</sub> eritmasiga 2 -3t KJ eritmasi qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi, cho'kmaning rangi ajralib chiqayotgan J<sub>2</sub> hisobiga niqoblanib qoladi.

Cd <sup>2+</sup>	H <sub>2</sub> S	CdJ <sub>2</sub> + H <sub>2</sub> S = 4 CdS + 2HJ Cd <sup>2+</sup> + 2I <sup>-</sup> + H <sub>2</sub> S = ↓ CdS + 2H <sup>+</sup> + 2J <sup>-</sup> Cd <sup>2+</sup> + S <sup>2-</sup> = ↓ CdS	pH<7, sariq cho'kma
Bi <sup>3+</sup>	K J	Bi (NO <sub>3</sub> ) <sub>3</sub> + 3KJ = ↓ BiJ <sub>3</sub> + 3KNO <sub>3</sub> Bi <sup>3+</sup> + 3 J <sup>-</sup> = ↓ BiJ <sub>3</sub> BiJ <sub>3</sub> + KJ = ↓ K[BiJ <sub>4</sub> ]	Qora cho'kma
Bi <sup>3+</sup>	K <sub>2</sub> Cr <sub>2</sub> O <sub>7</sub>	2Bi (NO <sub>3</sub> ) <sub>3</sub> + K <sub>2</sub> Cr <sub>2</sub> O <sub>7</sub> + 2H <sub>2</sub> O = ↓ (BiO) <sub>2</sub> Cr <sub>2</sub> O <sub>7</sub> + 2KNO <sub>3</sub> + 4HNO <sub>3</sub> 2Bi <sup>3+</sup> + 6NO <sub>3</sub> <sup>-</sup> + 2K <sup>+</sup> + Cr <sub>2</sub> O <sub>7</sub> <sup>2-</sup> + 2H <sub>2</sub> O = = ↓ (BiO) <sub>2</sub> Cr <sub>2</sub> O <sub>7</sub> + 2K <sup>+</sup> + 2NO <sub>3</sub> <sup>-</sup> + 4H <sup>+</sup> + 4NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Sariq cho'kma
Sn <sup>2+</sup>	HgCl <sub>2</sub>	SnCl <sub>2</sub> + 2HgCl <sub>2</sub> = ↓ Hg + SnCl <sub>4</sub>	Toza simob cho'kadi
Sn <sup>2+</sup>	NaOH	SnCl <sub>4</sub> + 4NaOH = ↓ H <sub>4</sub> SnO <sub>4</sub> + 4NaCl Sn <sup>4+</sup> + 4OH <sup>-</sup> = ↓ H <sub>4</sub> SnO <sub>4</sub>	Oq iviq cho'kma

$\text{Sb}^{3+}$	$\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$	$2\text{SbCl}_3 + 2\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3 + 3\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Sb}_2\text{OS}_2 + 2\text{Na}_2\text{SO}_4 + 6\text{HCl}$ $2\text{Sb}^{3+} + 2\text{S}_2\text{O}_3^{2-} + 3\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Sb}_2\text{OS}_2 + 2\text{SO}_4^{2-} + 6\text{H}^+$	pH<7, qizil cho'kma
$\text{Sb}^{5+}$	$\text{NaOH}$	$\text{H}[\text{SbCl}_6] + 6\text{NaOH} \rightarrow \text{HSbO}_3 + 6\text{NaCl} + 3\text{H}_2\text{O}$ $\text{H}^+ + [\text{SbCl}]_6^- + 6\text{OH}^- \rightarrow \text{HSbO}_3 + 6\text{Cl}^- + 3\text{H}_2\text{O}$	Oq cho'kma
$\text{Hg}^{2+}$	$\text{NaOH}$	$\text{Hg}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{Hg(OH)}_2 + 2\text{NaNO}_3$ $\text{Hg}^{2+} + 2\text{NO}_3^- + 2\text{Na}^+ + 2\text{OH}^- \rightarrow \text{Hg(OH)}_2 + 2\text{Na}^+ + 2\text{NO}_3^-$ $\text{Hg}^{2+} + 2\text{OH}^- \rightarrow \text{Hg(OH)}_2$ $\text{Hg(OH)}_2 \rightarrow \text{HgO} + \text{H}_2\text{O}$	Sariq cho'kma
$\text{Hg}^{2+}$	KJ	$\text{Hg}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{KJ} \rightarrow 2\text{HgJ}_2 + 2\text{KNO}_3$ $\text{Hg}^{2+} + 2\text{NO}_3^- + 2\text{K}^+ + 2\text{J}^- \rightarrow \text{HgJ}_2 + 2\text{K}^+ + 2\text{NO}_3^-$ $\text{Hg}^{2+} + 2\text{J}^- \rightarrow \text{HgJ}_2$	Sarig'ish-qizil cho'kma
$\text{Hg}^{2+}$	$\text{K}_2\text{CrO}_4$	$\text{Hg}(\text{NO}_3)_2 + \text{K}_2\text{CrO}_4 \rightarrow \text{HgCrO}_4 + \text{KNO}_3$ $\text{Hg}^{2+} + \text{CrO}_4^{2-} \rightarrow \text{HgCrO}_4$	Sariq cho'kma
$\text{As}^{3+}$	$\text{AgNO}_3$	$\text{NaAsO}_2 + \text{H}_2\text{O} + 3\text{AgNO}_3 \rightarrow \text{Ag}_3\text{AsO}_3 + 2\text{HNO}_3 + \text{NaNO}_3$ $\text{AsO}_2^{-3} + \text{H}_2\text{O} + 3\text{Ag}^+ \rightarrow \text{Ag}_3\text{AsO}_3 + 2\text{H}^+$	Sariq cho'kma Ammiakda eriydi
$\text{As}^{5+}$		$\text{Na}_3\text{AsO}_4 + 3\text{AgNO}_3 \rightarrow \text{Ag}_3\text{AsO}_4 + 3\text{NaNO}_3$ $\text{AsO}_4^{-3} + 3\text{Ag}^+ \rightarrow \text{Ag}_3\text{AsO}_4$	Qo'ng'ir cho'kma

IV guruhga  $\text{Ag}^+$ ,  $\text{Hg}_2^{2+}$ ,  $\text{Pb}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Hg}^{2+}$ ,  $\text{Cd}^{2+}$ ,  $\text{Vi}^{3+}$  kationlari kiradi.  $\text{Cu}^{2+}$  kationi havo rangli bo'lib, qolgan kationlar rangsizdir.

Vodorod sulfid -  $\text{H}_2\text{S}$  kislotali muhitda IV guruh kationlari uchun guruh reagenti sifatida qo'llanilishi mumkin.

Sulfidlardan tashqari, IV guruh kationlarining fosfatlari, karbonatlari ham suvda erimaydi. Kumushdan tashqari, barcha IV guruh kationlari o'zgaruvchi oksidlanish darajalarini namoyon qiladi. Kationlar ammiak, sianidlar bilan oson kompleks birikmalar hosil qiladi.

Xloridli tuzlarning suvda eruvchanligiga qarab IV guruh kationlari ikki guruhchaga kumush va mis guruhchasiga ajratish mumkin.

Kumush guruhchasiga  $\text{Ag}^+$ ,  $\text{Hg}_2^{2+}$ ,  $\text{Pb}^{2+}$  kationlari kiradi. Ularning xlorid tuzlari suvda erimaydi.

Mis guruhchasiga  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Hg}^{2+}$ ,  $\text{Pd}^{2+}$  va  $\text{Vi}^{3+}$  kationlari kiradi. Ularning xlorid tuzlari suvda eruvchandir. IV guruh kationlarini ayrim birikmalari muhim biologik ahamiyatga ega.

Mis o'simliklar uchun muhim vazifani bajaradi. U mikroelement holida fermentlar tarkibiga kiradi, o'simliklarda zamburug' kasalliklariga chidamligligini oshiradi. Tuproqda mis ionlari miqdorining kamayishi hosildorlikning keskin kamayishiga sabab bo'ladi.

$\text{CuSO}_4$  va  $\text{AgNO}_3$  veterinariyada ishlatiladigan dorilar tayyorlashda ishlatiladi.  $\text{HgCl}_2$  esa sabzavot urug'larini dorilashda ishlatiladi.

### Beshinchi analitik guruh kationlariga xos xususiy reaksiyalar

Ion	Reagent	Reaksiyalarning molekulyar va ionli tenglamasi	Ilova
$\text{Ag}^+$	KJ	$\text{AgNO}_3 + \text{KJ} \rightleftharpoons \text{AgJ} + \text{KNO}_3$ $\text{Ag}^+ + \text{J}^- \rightleftharpoons \text{AgJ}$	Sariq cho'kma
$\text{Ag}^+$	$\text{K}_2\text{CrO}_4$	$2\text{AgNO}_3 + \text{K}_2\text{CrO}_4 \rightleftharpoons \text{Ag}_2\text{CrO}_4 + 2\text{KNO}_3$ $2\text{Ag}^+ + \text{CrO}_4^{2-} \rightleftharpoons \text{Ag}_2\text{CrO}_4$	Qizil g'isht rangli
$\text{Pb}^{2+}$	$\text{H}_2\text{SO}_4$	$\text{Pb}(\text{NO}_3)_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightleftharpoons \text{PbSO}_4 + 2\text{HNO}_3$ $\text{Pb}^{2+} + \text{SO}_4^{2-} \rightleftharpoons \text{PbSO}_4$	Oq cho'kma
$\text{Pb}^{2+}$	$\text{K}_2\text{CrO}_4$	$\text{Pb}(\text{NO}_3)_2 + \text{K}_2\text{CrO}_4 \rightleftharpoons \text{PbCrO}_4 + 2\text{KNO}_3$ $\text{Pb}^{2+} + \text{CrO}_4^{2-} \rightleftharpoons \text{PbCrO}_4$	Sariq cho'kma
$\text{Pb}^{2+}$	KJ	$\text{Pb}(\text{NO}_3)_2 + \text{KJ} \rightleftharpoons \text{PbJ}_2 + 2\text{KNO}_3$ $\text{Pb}^{2+} + 2\text{J}^- \rightleftharpoons \text{PbJ}_2$	Sariq cho'kma
$[\text{Hg}_2]^{2+}$	$\text{K}_2\text{CrO}_4$	$\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2 + \text{K}_2\text{CrO}_4 \rightleftharpoons \text{Hg}_2\text{CrO}_4 + 2\text{KNO}_3$ $[\text{Hg}_2]^{2+} + 2\text{NO}_3^- + 2\text{K}^+ + 2\text{CrO}_4^{2-} \rightleftharpoons \text{Hg}_2\text{CrO}_4 + 2\text{K}^+ + 2\text{NO}_3^-$	Qizil cho'kma
$[\text{Hg}_2]^{2+}$	KJ	$\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2 + 2\text{KJ} \rightleftharpoons \text{Hg}_2\text{J}_2 + 2\text{KNO}_3$ $[\text{Hg}_2]^{2+} + 2\text{NO}_3^- + 2\text{K}^+ + 2\text{J}^- \rightleftharpoons \text{Hg}_2\text{J}_2 + 2\text{K}^+ + 2\text{NO}_3^-$	Yashil cho'kma
$[\text{Hg}_2]^{2+}$	$\text{NaOH}$ $(\text{KOH})$	$\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2 + 2\text{NaOH} \rightleftharpoons \text{Hg}_2\text{O} + 2\text{NaNO}_3 + \text{H}_2\text{O}$ $\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2 + 2\text{OH}^- \rightleftharpoons \text{Hg}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O}$	Qora cho'kma

### So'rov uchun savollar.

1. Qanday ion kompleks ion deb ataladi?
2. Kompleks hosil qiluvchi deb nimaga aytiladi?
3. Ligandlar nima?
4. Kordinatsion soni nima?

5.  $K_2[HgJ_4]$ ,  $K_3[Fe(CN)_6]$ ,  $K_4[Fe(CN)_6]$ ,  $Na_3[Co(NO_2)_6]$  birikmalardagi kompleks hosil qiluvchi va kordinatsion sonlarni ko'rsating?
6. Quyidagi tuzlarni  $K_4[Fe(CN)_6]$ ,  $K_3[Fe(CN)_6]$ ,  $Na_3[Co(NO_2)_6]$ ,  $[Ag(NH_3)_2]Cl$  suvli eritmadagi dissotsialish tenglamalarini yozing?
7. CuS ning nitrat kislotada erish reaksiyasi tenglamasini yozing?
8. AgCl ni  $NH_4OH$  da erishini reaksiya tenglamasini yozing?
9. Nima sababdan AgJ cho'kmasi KCN da eriydi?
10. Kompleks tuz bilan qo'shaloq tuzning farqi nima?
11. Mis ionlari sariq qon tuzi eritmasi bilan qanday rangli cho'kma hosil qiladi?
12.  $Pb(OH)_2$  ni amfoterlik hossalarini namoyon qiladigan reaksiya tenglamalarini yozing?
13. To'rtinchchi guruh kationlaridan qaysi biriga reaktiv qo'shilganda tilla rang sariq tangasimon cho'kma hosil bo'ladi?
14. To'rtinchchi guruh kationlarining birikmalarini qishloq ho'jaligida ishlatilishi ?

### **2.3 – mashg'ulot. 1,2,3 guruh anionlariga xos reaksiyalar**

- 1.Anionlarni analistik guruhlarga bo'linishi.
  - 2.Birinchi analistik guruq anionlari va ularning hususiy reaksiyalari.
  - 3.Ikkinchi analistik guruh anionlari va ularning hususiy reaksiyalari.
  - 4.Uchinchi analistik guruh anionlari va ularni xususiy reaksiyalari.
- Anionlar sifat tahlilining usuli kationlar tahlilining usulidan farqlanadi. Anionlarni sinflarga bo'linishining turli usullari ma'lumdir. Anionlar sinflarining mavjud tizimlari ularning bariyli va kumushli tuzlarining eruvchanligiga, anionlarning kislotalarga bo'lgan munosabatiga, oksidlovchi va qaytaruvchilar bilan reaksiyalarga qanday kirishishiga asoslangan.

Kationlardan farqli o'laroq, barcha anionlarni tekshirilayotgan eritmadan bo'lib - bo'lib tahlil qilish mumkin. Guruh reagentlari anionlarni guruhlarga ajratish uchun emas, ularni topish uchun ishlatiladi. Ushbu qo'llanmada anionlar, ularga  $BaCl_2$  va  $AgNO_3$ ning ta'siriga ko'ra uch

guruhga, ajratilgan. Birinchi analitik guruhga  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ,  $\text{B}_4\text{O}_7^{2-}$ ,  $\text{SiO}_3^{2-}$ ,  $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$  ionlari kiradi. Ular  $\text{Ba}^{2+}$  kationi ishtirokida neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda suvda erimaydigan, bariyli tuzlarini hosil qilib cho'kmaga tushadilar.

Birinchi guruh anionlarining birikmalarini qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi. Masalan:  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ,  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{Ca}_2(\text{HPO}_4)_2$ ,  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{PO}_4$  mineral o'g'itlar  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  gips tuproqning sho'rланish darajasini pasaytirishda,  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  zaxarli ximikat sifatida ishlatiladilar. Kuchli kislotali bo'lган tuproqlarni neytrallash uchun dolomit  $\text{CaCO}_3 \cdot \text{MgCO}_3$  (ohaklashda) ishlatiladi. Borat ionlari  $(\text{BO}_2^{1-})$  yoki  $\text{B}_4\text{O}_7^{2-})$  bor birikmalar esa mikroog'it sifatida keng qo'llaniladi. Ikkinci guruh anionlariga  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{J}^-$ ,  $\text{S}^{2-}$  ionlari kiradi. Bular guruh reagenti  $\text{AgNO}_3$  bilan suvda va kislotalarda erimaydigan kumush tuzlari cho'kmalarini hosil qiladi.

Qishloq ho'jaligida  $\text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{KCl}$  va  $\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$  mineral o'g'it sifatida,  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{MgCl}_2$  - zaxarli ximikat sifatida ishlatiladi.


Tuproqning yuqori qatlamida tuzlarni miqdori 2%-dan yuqori bo'lsa, sho'r tuproq deyiladi va sho'rlikni  $\text{NaCl}$ ,  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{MgCl}_2$  tashkil etadi. Xlor ioni tabiiy suvda erigan xolatda bo'ladi. 1 litr ichimlik suvida uning miqdori 40mgdan oshmasligi kerak. Tabiatda oqsil moddalarni parchalanishida vodorod sulfid va sulfid birikmalari hosil bo'ladi. Yod qalqonsimon bez ishida ishtirok etib, o'zining organizmga ta'sirini namoyon qiladi. Yodlari bo'lмаган ichimlik suvlarini iste'mol qilish endokrin kasalliklarga sabab bo'ladi. Uchinchi guruh anionlariga  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{NO}_2^-$ ,  $\text{CH}_3\text{COO}^-$  ionlari kiradi. Bu guruh anionlari uchun guruh reagenti mavjud emas.  $\text{NaNO}_3$ ,  $\text{KNO}_3$ ,  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  lar qishloq ho'jaligida azotli o'g'itlar sifatida keng ishlatiladi.


## I.Birinchi analitik guruh anionlari va ularning hususiy reaksiyalari.

### $\text{SO}_4^{2-}$ anioniga hos reaksiyalar

Reaksiyalarni  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  yoki  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi bilan o'tkaziladi.


I.Bariy xlorid ta'siri.  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari  $\text{BaCl}_2$  bilan suvda, kislotalarda erimaydigan oq cho'kma bariy sulfatni hosil qiladi.





Reaksiyaning bajarilishi: 2t  $\text{CaCl}_2$  eritmasiga 2t  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasidan qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'dadi. Cho'kma suv va kislotalarda erimaydi. Sinab ko'ring.

## **2. Qo'rg'oshin atsetat $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$ ta'siri.**




Reaksiyaning bajarilishi: 4-5t  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasiga 5-6t  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$  eritmasidan qo'shilganda oq cho'kma - qo'rg'oshin sulfat hosil bo'ladi. Cho'kma kons.  $\text{H}_2\text{SO}_4$  da erib qo'rg'oshin bisulfatni hosil qiladi.




## **CO<sub>3</sub><sup>2-</sup>-Anioniga hos reaksiyalar.**

Reaksiyalarni  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  yoki  $\text{K}_2\text{CO}_3$  eritmasi bilan o'tkaziladi.


### **1. Bariy xlorid ta'siri.**




Reaksiyaning bajarilishi: 3-4t  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritmasiga 3-4t  $\text{BaCl}_2$  eritmasidan qo'shilganda oq cho'kma -  $\text{BaCO}_3$  hosil bo'ladi. Cho'kma xlorid va sirka kislotalarda oson eriydi.



## **2. Kuchli kislotalarning suyultirilgan eritmalarini ta'siri.**





Reaksiyaning bajarilishi: 5-6t  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritmasiga 5-6t  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi qo'shilganda - gaz pufakchalari shiddatli ravishda ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan gaz pufakchalarini shisha nay orqali ohakli suvgaga o'tkazilsa, ohakli suv loyqalanadi. Agar karbonat



angidridni uzoq muddat o'tkazilsa, cho'kma yana erib kalsiy bikarbonat hosil qiladi.  $\text{CaCO}_3 + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2 = \text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$

## **3. Kumush nitrat ta'siri**




Reaksiyaning bajarilishi: 2-3t Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> eritmasiga 2-3t AgNO<sub>3</sub> eritmasi qo'shilganda suyultirilgan kislotalarda, ammoniy gidroksidda eriydigan kumush karbonat cho'kmasi hosil bo'ladi.

Reaksiyaning bajarilishi: 5-6t Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> eritmasiga 5-6t AgNO<sub>3</sub> eritmasi qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi. Hosil qilingan cho'kmali eritmani uch qismga bo'linadi va cho'kmani ammiakda, suyultirilgan HNO<sub>3</sub> da va 1-2t H<sub>2</sub>O qo'shib isitilganda cho'kmani erishi kuzatiladi. Reaksiya tenglamalarini yozing.


### **PO<sub>4</sub><sup>3-</sup>-Anioniga xos reaksiyalar.**

Reaksiyalarni Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> eritmasi bilan o'tkaziladi.

**1. Bariy xlорid ta'siri.** BaCl<sub>2</sub> neytral muhitdagi eritmalarda fosfat ionlari bilan oq cho'kma -bariy gidrofosfatni hosil qiladi.




Reaksiyalarning bajarilishi; 3-4t BaCl<sub>2</sub> eritmasiga 3-4t Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> eritmasidan qo'shilganda oq amorf cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma HCl va CH<sub>3</sub>COOH da oson eriydi.



Agar yuqoridagi reaksiya NH<sub>4</sub>OH ishtirokida olib borilsa oq cho'kma- bariy fosfat hosil bo'ladi.




### **2. Kumush nitrat ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilishi: 3 - 4t AgNO<sub>3</sub> eritmasiga 4-5t Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> eritmasidan qo'shilganda sariq cho'kma - kumush fosfat hosil bo'ladi. Cho'kma to'la cho'kishi uchun neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhit bo'lishi kerak. Kislotalarda va NH<sub>4</sub>OH eritmasida erishini sinab ko'ring va tegishli reaksiya tenglamalarini yozing.

### **3. Ammoniy molibdat (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>MoO<sub>4</sub> ta'siri**




Reaksiyaning bajarilishi: 4-5t ammoniy molibdat eritmasiga 1t  $\text{HNO}_3$  eritmasiga qo'shib probirkani 50 - 60°C suv hammomida isitib 1 - 2t  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  eritmasidan qo'shilganda vaqt o'tishi bilan sariq rangli kristall cho'kma hosil bo'ladi.

### **Ikkinchি analitik guruh anionlari va ularning hususiy reaksiyalari**

#### **Cl<sup>-</sup> Anioniga hos reaksiyalar**

Reaksiyalarni  $\text{NaCl}$  eritmasi bilan o'tkaziladi.

##### **1. Kumush nitrat ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilishi: 2t  $\text{AgNO}_3$  eritmasiga 2t  $\text{NaCl}$  eritmasi qo'shilganda oq cho'kma  $\text{AgCl}$  hosil bo'ladi. Cho'kma  $\text{NH}_4\text{OH}$  da erib diamin kumush (I)- xloridni hosil qiladi.




Hosil bo'lgan kompleks birikma eritmasiga 3-4t  $\text{HNO}_3$  eritmasidan qo'shilganda yana  $\text{AgCl}$  cho'kmasi hosil bo'ladi.



#### **Br<sup>-</sup> - Anioniga xos reaksiyalar.**

Reaksiyalarni  $\text{NaBr}$  eritmasi bilan o'tkaziladi.

##### **1. Kumush nitrat ta'siri.**




Reaksiyaning bajarilishi: 2t  $\text{NaBr}$  eritmasiga 2t  $\text{AgNO}_3$  eritmasi qo'shilganda och sariq  $\text{AgBr}$  cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kma ortiqcha miqdor  $\text{NH}_4\text{OH}$  da erib diamin -kumush (I)- bromidni hosil qiladi.

##### **2. Xlorli suv ta'siri.**

Xlorli suv bromid eritmasiga qo'shilganda unda erkin bromni ajratadi,u benzolda erib, erituvchi qatlamida to'q sariq halqa hosil qiladi.

Reaksiyaning bajarilishi: 2t NaBr eritmasiga 2t AgNO<sub>3</sub> eritmasi qo'shilganda och sariq AgBr cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kma ortiqcha miqdor NH<sub>4</sub>OH da erib diamin -kumush (I)-bromidni hosil qiladi.




Reaksiyaning bajarilishi: 3-4t NaBr eritmasiga 1t. 2n-li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan, 3-4 t yangi taylorlangan xlorli suv eritmasidan va 2-3 t benzol qo'shib, probirkani rezina probka bilan berkitib yaxshilab chayqatilsa, benzol qavatida sariq xalqa hosil bo'ladi.

### **J Anioniga hos reaksiyalari**

Reaksiyalarni KJ eritmasi bilan o'tkaziladi.


#### **1. Kumush nitrat ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilishi: 2t KJ eritmasiga 2t AgNO<sub>3</sub> eritmasi qo'shilganda och sariq rangli -AgJ cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kma nitrat kislotada, ammoniy gidroksidda erimaydi, natriy tiosulfat eritmasida eriydi.




#### **2. Qo'rg'oshin nitrat ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilish tartibi Pb<sup>2+</sup> kationiga hos reaksiyalarda to'liq keltirilgan.

#### **3. Xlorli suv ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilishi: 3-4t KJ eritmasiga 1t 2m- li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan, 3-4t xlorli suv eritmasidan va 2 - 3 t benzoldan


qo'shib probirka yaxshilab chayqatilsa benzol qavatida pushti xalqa hosil bo'ladi.

### **3.Uchinchi analitik guruh anionlari va ularning hususiy reaksiyalarini.**

#### **NO<sub>3</sub><sup>-</sup> Anioniga xos reaksiyalar.**

Reaksiyalar NaNO<sub>3</sub> eritmasi bilan o'tkaziladi.

#### **I. Mis va sulfat kislota ta'siri.**



Reaksiyaning bajarilishi (Reaksiyani mo'rili shkafda o'tkazilsin): 4-5t NaNO<sub>3</sub> eritmasiga 5-6t kons. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan va mis metali parchasi qo'shib probirkani suv hammomida qizdirilsa rangsiz azot (II) - oksidi ajralib chiqadi va havodagi kislorod bilan birikib qo'ng'ir tusli azot (IV)- oksidini hosil qiladi.

#### **2. Difenilamin (C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>)<sub>2</sub>NH ta'siri.**

Reaksiyaning bajarilishi: 3-4t difenilaminni konsentrangan sulfat kislotadagi eritmasiga lt NaNO<sub>3</sub> eritmasidan qo'shilganda to'q ko'k rangli birikma hosil bo'ladi.

NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	$2\text{KNO}_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{NO}_2 \uparrow + \text{NO} \uparrow + \text{K}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O}$ $2\text{NO}_2^- + 2\text{H}^+ = \text{NO}_2 \uparrow + \text{NO} \uparrow + \text{H}_2\text{O}$	Qo'ng'ir rangli NO <sub>2</sub> ajralib chiqadi
NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Cu va H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	$3\text{Cu} + 8\text{NaNO}_3 + 4\text{H}_2\text{SO}_4 = 3\text{Cu}(\text{NO}_3)_2 + 4\text{Na}_2\text{SO}_4 + 4\text{H}_2\text{O} + 2\text{NO}$ $2\text{NO} + \text{O}_2 = 2\text{NO}_2$	Qo'ng'ir rangli gaz ajraladi
NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Al yoki Zn NaOH (KOH)	$3\text{NaNO}_3 + 5\text{NaOH} + 8\text{Al} + 2\text{H}_2\text{O} = 8\text{NaAlO}_2 + 3\text{NH}_3 \uparrow$ $3\text{NO}_3^- + 5\text{OH}^- + 8\text{Al}^{3+} + 2\text{H}_2\text{O} = 8\text{AlO}_2^- + 3\text{NH}_3 \uparrow$ $3\text{NaNO}_3 + 8\text{Al} + 5\text{NaOH} + 18\text{H}_2\text{O} \rightarrow 8\text{Na}[\text{Al}(\text{OH})_4] + 3\text{NH}_3 \uparrow$	NH <sub>3</sub> ajralib chiqadi, hididan yoki lakmus qog'ozning ko'karishidan bilish mumkin

$\text{CH}_3\text{COO}^-$	$\text{FeCl}_3$	$\text{CH}_3\text{COONa} + \text{FeCl}_3 = \text{Fe}(\text{CH}_3\text{COO})_3 + 3\text{NaCl}$ $\text{Fe}(\text{CH}_3\text{COO})_3 + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Fe(OH)}_2(\text{CH}_3\text{COO}) + 2\text{CH}_3\text{COOH}$	Qizil-qo'ng'irrang hosil bo'ladi, isitilsa asosli tuz cho'kmaga tushadi
$\text{CH}_3\text{COO}^-$	$\text{H}_2\text{SO}_4$	$2\text{CH}_3\text{COONa} + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{CH}_3\text{COOH} \uparrow$ $\text{CH}_3\text{COO}^- + 2\text{H}^+ = 2\text{CH}_3\text{COOH} \uparrow$	Eritma qizdirilgan da $\text{CH}_3\text{COOH}$ ajralib chiqadi, uni hididan bilish mumkin

### **So'rov uchun savollar.**

1. Anionlar guruhlarga qanday bo'linadi?
2. Birinchi guruh anionlarining qaysi birikmalari qishloq xo'jaligida ishlatiladi?
3. Birinchi guruhning qaysi anionlari suvda qiyin eruvchan,  $\text{HNO}_3$  da oson eruvchan kumush tuzlarini hosil qiladi?
4. Qo'rgoshin sulfat cho'kmasi qaysi eritmada eriydi?
5. Fosfat ioni  $\text{AgNO}_3$  eritmasi bilan qanday muhitda to'liq cho'kadi?
6.  $\text{BaSO}_4$  cho'kmasi qaysi kislotalarda eriydi. Reaksiya tenglamasini yozing?
7. Isitilganda  $\text{Ag}_2\text{SO}_3$  deyarli to'liq gidrolizga uchraydi. Reaksiya tenglamalarini yozing?
8. Ikkinchi guruh anionlarining qaysi birikmalari qishloq xo'jaligida keng ishlatiladi?
9. Kumush xlorid cho'kmasi qaysi eritmada eriydi?
10. Kumush bromid cho'kmasi qaysi eritmada yahshi eriydi?

11. Ko‘rg‘oshin yodid cho‘kmasi nima uchun kaliy yodid eritmasida eriydi?
12. Nitrat anioni uchun qaysi reaktiv xarakterli xisoblanadi?
13.  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{J}^-$  ionlari bir eritmada mavjud bo‘lsa, ularni bir - biridan ajratish uchun qaysi reaksiyalardan foydalaniladi?
14. Qaytaruvchanlik xossasiga ega bo‘lgan qaysi anionlar kislotali muhitda  $\text{KMnO}_4$  eritmasini rangsizlantiradi?

### **I-III analitik guruh anionlari aralashmasini tahlil qilish tartibi.**

Anionlar tekshirilayotgan eritmaning (ya’ni nazorat eritmaning n.e.) alohida qismlaridan topiladi, chunki ularni tizimli usulda tahlil qilish usuli yo‘q.


#### **1. Dastlabki sinovlar.**

Eritma muhitini o‘rganish. Eritmaning muhiti kislotali bo‘lsa  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{B}_2\text{O}_4^{2-}$  anionlari yo‘q demakdir. Agar eritma o‘ziga hos hidga ega bo‘lmasa  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{S}^{2-}$  va  $\text{NO}_3^-$  ionlari ham bo‘lmaydi.

#### **2. Birinchi guruh anionlari borligini tekshirish va ularni bir - biridan ajratish.**

Nazorat eritmani muhiti kislotali bo‘lsa, u  $\text{Ba}(\text{OH})_2$  eritmasi bilan pH=7 bo‘lguncha neytrallanadi. Ana shunday eritmadan 3-4t olib, unga 2-3t  $\text{BaCl}_2$  eritmasidan qo‘shilganda oq cho‘kmani hosil bo‘lishi birinchi guruh anionlari ( $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ) mavjudligini ko‘rsatadi. Bu anionlarni ustiga 5-6t  $\text{HNO}_3$  eritmasidan qo‘shilganda, cho‘kma erimasa kontrol eritmada  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari borligini, agar gaz ajralib erisa  $\text{CO}_3^{2-}$  ionlar borligini, gaz ajralmasdan erisa  $\text{PO}_4^{3-}$  ionlari borligini ko‘rsatadi.

### Neytrallanmagan nazorat eritma uchun tahlil chizmasi.




O‘z o‘zidan ma'lumki neytrallangan nazorat eritmada  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari bo‘lmaydi.

### 3. Ikkinchi guruh anionlari borligini tekshirish va ularni bir - biridan ajratish

3 - 4t nazorat eritmaga 3-4t  $\text{AgNO}_3$  eritmasidan qo‘shilganda 2n.  $\text{HNO}_3$  eritmasida erimaydigan oq cho'kmani hosil bo‘lishi II guruh anionlari ( $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{J}^-$ ) borligini ko‘rsatadi. Bu anionlarni bir - biridan ajratish uchun, oq cho'kmaga 6 - 7t  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasi qo‘shilganda, cho'kma erisa  $\text{Cl}^-$  ionlari borligini, cho'kma erimasa  $\text{Br}^-$  va  $\text{J}^-$  ionlari mavjudligini ko‘rsatadi. Brom va yod ionlarini bir - biridan ajratish uchun 2-3t nazorat eritmaga, 1 - 2t 2n  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan, 2 - 3t xlorli suv eritmasidan va 2 - 3t  $\text{C}_6\text{H}_6$  dan qo‘shib yaxshilab chayqatilganda benzol qavatida (yuqori qavat) sariq halqani hosil bo‘lishi  $\text{Br}^-$  ionlari borligini, pushti halqani hosil bo‘lishi  $\text{J}^-$  ionlari borligini ko‘rsatadi.

## Tahlil chizmasi



### 4. Uchinchi guruh anionlaridan NO<sub>3</sub><sup>-</sup> anioni borligini aniqlash

Toza yuvilgan quruq probirkaga 3 - 4t difenilaminni konsentrangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> dagi eritmasidan olib 1t nazorat eritmada qo'shilganda to'q ko'k rang hosil bo'lishi, nazorat eritmada NO<sub>3</sub><sup>-</sup> ionlari borligini ko'rsatadi.

Nazorat eritmada topilgan anionlarni to'g'ri noto'g'riliini o'qituvchidan tekshirib olib hisobot yozing.

### So'rov uchun savollar.

1. Kationlar tahlili anionlar tahlilidan nima bilan farqlanadi?
2. Birinchi guruhning qaysi anionini bariyli tuzi kislotalarda erimaydi?
3. Qaysi reaksiya PO<sub>4</sub><sup>3-</sup> ioni uchun xosdir?
4. Sulfat anionining borligi qanday aniqlanadi?
5. AgNO<sub>3</sub> qo'shilgandan keyin hosil bo'lgan oq cho'kma AgCl cho'kmasi ekanligini qanday isbotlash mumkin?
6. AgBr cho'kmasi nimada eriydi?
7. Yod ioni borligini qanday topish mumkin?
8. Qaysi anionlar suyultirilgan HCl ta'siridan gazlar ajratib chiqaradi?

9.  $\text{AgNO}_3$  ta'siridan qora cho'kmaning hosil bo'lishi qanday ionning borligini ko'rsatadi?
10. Birinchi guruh anionlaridan qaysi biri kumush nitrat bilan sariq cho'kma hosil qiladi?
11. Nitrat ioni qanday reaktiv ta'siridan topiladi?
12. Qaysi guruh anionlarining birikmalari qishloq xo'jaligida keng ishlatiladi?
13. Qo'rg'oshin yodid -cho'kmasi ortiqcha KJ da erib qanday birikma hosil qiladi?
14. Kumush yodid cho'kmasi qaysi eritmada eriydi. Reaksiya tenglamasini yozing?

#### **2.4 - *mashg'ulot. Miqdoriy tahlil***

##### **Bariy xlorid tarkibidagi kristallizatsiya suvining miqdorini aniqlash**

Miqdoriy tahlilning vazifasi, kimyoviy birikma yoki aralashma tarkibiga kiradigan ayrim elementlar yoki ionlar miqdorini foizlarda aniqlashdan iboratdir. Miqdoriy tahlillarni bajarishda kimyoviy uslublar, fizikkimyoviy va fizikaviy uslublar keng qo'llaniladi. Kimyoviy tahlil uslublari asosan uchga bo'linadi.

1. Tortma tahlil yoki gravimetrik tahlil.
2. Hajmiy yoki titrimetrik tahlil.
- Z. Gaz tahlili.

**Tortma tahlil.** Bu uslub juda qadimdan ma'lum bo'lib yetarli darajada aniq natijalar beradi, lekin uni bajarish uchun ko'p vaqt ketadi. Bu tahlilda ma'lum moddadan uning tarkibiy qismlarini erimaydigan cho'kma ko'rinishda ajratishga va uning massasiga qarab shu tarkibiy qismning miqdorini hisoblab topishga asoslangan. Bu tahlil quyidagi tartibda bajariladi:

Tekshirilayotgan moddadan namuna olinib analitik tarozida tortiladi, so'ngra namuna eritmaga o'tkaziladi, zaruriy komponent aniq tarkibli birikma xolida cho'kmaga tushiriladi va filtrlanib eritmadan ajratiladi.

Cho‘kma doimiy massaga kelguncha quritiladi va analitik tarozida tortiladi. Cho‘kmaning massasini bilgan holda zaruriy komponentning foiz miqdori hisoblab topiladi.

Moddalar eriganda issiqlik effekti sodir bo‘ladi. Moddaning tuzilishi va tabiatiga qarab issiqlik ajralib chiqishi yoki yutilishi mumkin.

Masalan: NaOH, KOH, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> suvda eriganda ko‘p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi, ya’ni ekzotermik jarayon sodir bo‘ladi. NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>, Ca(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, KNO<sub>3</sub> tuzlari eriganda esa issiqlik yutiladi, ya’ni endotermik jarayon sodir bo‘ladi. Eriyotgan modda bilan erituvchi kimyoviy ta’sirga uchrashi natijasida solvatlar yoki gidratlar nomini olgan birikmalar hosil bo‘ladi. Bunday birikmalar ko‘pchilik hollarda, beqarordir, yani birikmadan erkin holda ajratib bo‘lmaydi. Lekin ayrim hollarda barqaror moddalar hosil bo‘lgani uchun ularni eritmadan qayta kristallah yo‘li bilan ajratib olish mumkin. Bunday kristallar, tarkibida suv tutadi.

Tarkibida suv tutgan kristall moddalarni kristallogidratlar deyiladi. Kristallogidratlar tarkibiga kirgan suvni, kristallizatsiya suvi deyiladi.


Kristallogidratlarga:

BaCl<sub>2</sub>•2H<sub>2</sub>O, CaSO<sub>4</sub>•H<sub>2</sub>O, CaSO<sub>4</sub>•2H<sub>2</sub>O, H<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub>•2H<sub>2</sub>O, Na<sub>2</sub>B<sub>4</sub>O<sub>7</sub>•10H<sub>2</sub>O, Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>•10H<sub>2</sub>O, Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>•18H<sub>2</sub>O misol bo‘la oladi.

Laboratoriya ishidan maqsad, kristallogidrat tarkibigakirgan suvni miqdorini aniqlashdan iborat.

Kristallogidratlarni ma'lum bir haroratgacha qizdirilganda, faqatgina tarkibidagi suvni yo‘qotadi, moddani parchalanishi esa yuqori haroratda sodir bo‘ladi.

Misol uchun:



Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli asboblar va reaktivlar:

- 1.Texnik va analitik tarozlari-toshlari bilan.
- 2.Quritish shkafi.

3.Termometr.

4.Chinni havoncha.

5.Qisqich.

6.Byuks.

7.Eksikator.

8.BaCl<sub>2</sub>•2H<sub>2</sub>O tuzi.

Toza yuvilgan va doimiy og‘irlikgacha quritilgan byuksni og‘irligini analistik tarozida 0,0001g aniqlikda – tortiladi. Qayta kristallash yo‘li bilan tozalangan va havoda quritilgan bariy xloriddan texnik kimyoviy tarozida taximinan 1,5g tortib olib, aniq massali byuksga (ya’ni tortilgan byuksga) solinadi va aniq massasi analistik tarozida tortiladi, so‘ngra byuksning qopqog‘ini olib, qirrasi bilan byuks og‘ziga qo‘yiladi. Shunday holatda byuksni quritish shkafida 1-2 soat davomida 120-125°C da qizdiriladi. Qizdirish vaqtı tugagandan so‘ng byuksni quritish shkafidan qisqich yordamida olib eksikatorga qo‘yiladi. 15 - 20 minutdan so‘ng, moddaning harorati hona harorati bilan bir xil bo‘lganda, byuksning qopqog‘i berkitiladi va tarozida tortiladi.

### Yozish tartibi.

1. a<sub>1</sub> - bo‘sh byuksni og‘irligi. a<sub>1</sub>=18,1320.

2. a<sub>2</sub> - byuksni modda bilan og‘irligi a<sub>2</sub>=19,5895

3. a<sub>3</sub> - olingan moddani og‘irligi a<sub>3</sub>=a<sub>2</sub> – a<sub>1</sub> =19,5895–18,1390 =1,4575.


4. a<sub>4</sub> - byuksni doimiy og‘irlikgacha quritilgandan so‘ng og‘irligi a<sub>4</sub>=19,3748

5. a<sub>5</sub> — uchib ketgan kristallizatsiya suvini massasi

$$a_5 = a_2 - a_4 = 19,5895 - 19,3748 = 0,2147$$

Suvning foiz miqdori nazariy, amaliy jihatdan va tajribani nisbiy xatosi quyidagicha, hisoblab topiladn.

1.Nazariy jihatdan:



$$X = \frac{100 \cdot 36 \text{ g}}{244,3 \text{ g}} = 14,75\%$$

2. Amaliy jixatdan:

$$\begin{array}{llllll} 1,4575 \text{ g} & \text{CaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} & \text{da} & 0,2147 \text{ g} & \text{H}_2\text{O} & \text{uchgan bo'lsa} \\ 100 \text{ g} & \text{CaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} & \text{da} & X \text{ g} & \text{H}_2\text{O} & \text{uchgan bo'ladi.} \\ & & & X = \frac{100 \cdot 0,2147 \text{ g}}{1,4575 \text{ g}} = 14,73\% \end{array}$$

3. Tajribani nisbiy hatosi (X):

$$X = \frac{(\text{Nazariy} - \text{Amaliy}) \cdot 100}{\text{Nazariy}} = \frac{(14,75\% - 14,73\%) \cdot 100}{14,74\%} = 0,13\%$$

1. Miqdoriy tahlilning vazifasi nimadan iborat ?
2. Miqdoriy tahlil uslublariga qaysi uslublar kiradi ?
3. Tortma tahlil uslubining mohiyati nimadan iborat ?
4. Qanday moddalar kristallogidratlar deyiladi ?
5. Qanday suv kristallizatsiya suvi deyiladi ?
6. Kristallogidratlarga misollar keltiring.
7. 2,344 g CaCl<sub>2</sub>•2H<sub>2</sub>O moddasini qizdirilganda 0,3501 g H<sub>2</sub>O uchib ketsa, namuna tarkibidagi suvning foiz miqdorini hisoblang.

### **Hajmiy tahlil. Neytrallash uslublari bo'yicha eritmadagi ishqor (yoki kislota) miqdorini aniqlash**

Hajmiy tahlil — reaksiyaga kirishayotgan moddalar eritmalarining hajmini aniq qilib o'lchanashga asoslangan.

Bu tahlilda o'zaro ta'sir etayotgan ikki eritmaning hajmi o'lchanadi va ularidan birining ma'lum konsentratsiyasi asosida, ikkinchisining noma'lum konsentratsiyasi topiladi.

Hajmiy tahlilda faqat tez va oxirigacha boradigai reaksiyalar ishlataladi, hamda tekshirilayotgan eritmaga reaktiv eritmasidan ekvivalent miqdorida qo'shiladi. Reaksiya tamom bo'lgan nuqtani, ya'ni ekvivalent nuqtani indikatorlar yordamida aniqlanadi. Konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan va uning yordamida boshqa eritmadagi moddaning miqdori aniqlanadigan eritma titrlangan yoki standart ishchi eritma deyiladi. 1 ml eritmadagi erigan moddaning grammalar hisobidagi og'irlilik miqdori shu eritmaning *titri* deyiladi. Masalan natriy gidroksid eritmasining titri

0,001895g/ml ga teng bo'lsa, bunday eritmaning xar bir ml da 0,001895g natriy gidroksid bo'ladi.

Hajmiy tahlilda turli xil reaksiyalar qo'llaniladi. Reaksiya turiga muvofiq hajmiy tahlil uslublari ham uch guruhga bo'linadi.

1. Ionlarning o'zaro ta'siriga asoslangan uslublar. Bularga neytrallanish, cho'ktirish uslublari kiradi.

2. Oksidlanish - qaytarilish reaksiyasiga asoslangan uslublar. Bularga permanganatometriya, xromatometriya, yodometriya uslublari kiradi.

3. Kompleks hosil bo'lishiga asoslantan uslublar. Bu uslubga kompleksonometriya uslubi kiradi.

O'zaro ta'sirlanuvchi eritmalarining hajmini to'g'ri o'lchashga e'tibor berish zarurdir.

Tayyorlangan eritmaning titri  $T$ , namuna massasi gramini eritma hajmiga bo'lish orqali topiladi, ya'ni:

$$\frac{a}{y} = T$$

a— namuna massasi.

y— eritmaning hajmi

Titri SI birligi g / ml. dir,

Titri bilan ifodalangan konsentratsiyasidan normal konsentratsiyasiga o'tishda quyidagi formuladan foydalilaniladi.

$$N = \frac{T \cdot 1000}{E} \frac{g}{ml} \quad \text{yoki} \quad T = \frac{N \cdot E}{1000} \text{ekv / l}$$

N — eritmani normal konsentratsiyasi.

T — eritmani titri.

E — erigan moddaning ekvivalenti.

Normal konsentratsiya bilan eritma hajmi orasida teskari proporsional bog'lanish mavjuddir.

Titrlash uchun sarflanadigan eritma hajmi  $V_1$  va  $V_2$  bilan, normalligi muvofiq ravishda  $N_1$  va  $N_2$  bilan bilan belgilansa  $V_1 \cdot N_1 = V_2 \cdot N_2$  tenglik hosil bo'ladi

- $V_1$  — birinchi eritmaning hajmi
- $V_2$  — ikkinchi eritmaning hajmi
- $N_1$  — birinchi eritmaning normalligi
- $N_2$  — ikkinchi eritmning normalligi

Yuqoridagi formula asosida ikkinchi eritmaning normalligi topiladi. Xajmiy tahlil tortma tahlildan farq qilib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Agar tortma tahlilda tahlil qilinayotgan moddadagi aniqlanadigan komponentini cho‘kmaga o‘tkazilib, cho‘kmaning og‘irligi bo‘yicha shu komponentning miqdorini hisoblab topilsa, hajmiy tahlilda o‘zaro ta’sir etayotgan ikki eritmaning hajmi o‘lchanadi va ulardan birining ma'lum konsentratsiyasi asosida ikkinchisining noma'lum konsentratsiyasi aniqlanadi.

Agar tortma tahlilda reaktiv ortiqcha miqdorda qo‘silsa, hajmiy tahlilda aniqlanayotgan moddaga kimyoviy aniq ekvivalent miqdorda qo‘sildi. Tortma tahlilda tarozilar va ularda tortish, hajmiy tahlilda esa hajmni aniq o‘lhash asosiy rol o‘ynaydi.

Hajmiy tahlilda faqat tez va oxirigacha ketadigan reaksiyalar qo‘llaniladi. Bunda eritmalar o‘rtasidagi reaksiyalarning oxiri tashqi belgisidan aniq bilinib turish yoki boshqacha aytganda, birorta usul bilan oson qayd qilinadigan bo‘lishi kerak. Reaksiyaga kirishayotgan moddalardan birining konsentratsiyasi aniq bo‘lishi, eritmada ishtirok etayotgan boshqa moddalar esa asosiy reaksiyaga halaqit bermasligi lozim.

Hajmiy tahlilning tortma tahlilga nisbatan afzalliklari bor: hajmiy tahlil tortma tahlildan tezroq bajariladi va unda turli hil reaksiyalardan (almashinish, oksidlanish - qaytarilish va boshqalardan) foydalaniladi. Biroq hajmiy tahlilda aniqlik tortma tahlildagiga nisbatan birmuncha kam bo‘ladi.

## **NEYTRALLASH USLUBINING MOHIYATI**

Neytrallash uslubi  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari o‘rtasida boradigan neytrallash reaksiyasiga asoslangan, bunda kuchsiz dissotsialanadigan suv molekulalari hosil bo‘ladi:  $H^+ + OH^- = H_2O$

Neytrallash uslubidan kislota va ishqorlarni, shuningdek eritmada gidrolizlanib kislotali yoki ishqoriy muhit hosil qiladigan tuzlarni miqdoriy aniqlash uchun foydalaniladi.

Neytrallash uslubida kuchli kislota yoki ishqorlarning eritmalari ish eritmalari bo‘lib hisoblanadi.

Agar neytrallash uslubi bilan qandaydir kislota eritmasining noma'lum konsentratsiyasini aniqlash talab qilinsa, bu eritma ishqorning titrlangan eritmasi bilan, ko‘pincha 0,1 n NaOH yoki KOH eritmasi bilan titrlanadi. Ishqor eritmasining konsentratsiyasini aniqlash uchun u ko‘pincha 0,1 n HCl yoki  $H_2SO_4$  kislotalarning titrlangan eritmasi bilan titrlanadi.

Kislota va ishqorlarning titrlangan ish eritmalarini tortish bo‘yicha tayyorlash mumkin emas, chunki ular boshlang‘ich moddalarga qo‘yiladigan talablarga javob bermaydi. Shuning uchun taxminiy konsentratsiyali ish eritmalari tayyorланади, so‘ngra esa boshlang‘ich modda bo‘yicha, titrlash yo‘li bilan aniq konsentratsiyasi topiladi.

Kislotalar titrini aniqlashda boshlang‘ich modda sifatida bura  $Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$  yoki  $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ , ishqorlar titrini aniqlashda esa oksalat kislota  $H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$  yoki qahrabo kislota ishlatiladi.

Neytrallash reaksiyalarida titrlash jarayonida vodorod ionlarining konsentratsiyasi va binobarin, eritmaning pH ham asta-sekin o‘zgara boradi. Indikatorlar yordamida neytrallash reaksiyasini ekvivalent nuqtasini aniqlash mumkin. So‘ngra sarflangan ishchi eritmasining miqdori va uning normalligiga ko‘ra tekshirilayotgan eritmadiagi aniqlanayotgan birikmaning miqdorini hisoblab topish mumkin.

## Xlorid kislotanig standart ishchi eritmasini tayyorlash va u yordamida eritmadiagi ishqor miqdorini aniqlash

Xlorid kislotaning ishchi eritmasini tayyorlash uchun avvalo konsentratsiyasi yuqori bo‘lgan eritmadan foydalanib, taxminan 0,1 n HCl eritmasi tayyorlanib olinadi.

### *1. Xlorid kislotanig 250ml 0,1 n eritmasini tayyorlash*

$$C = \frac{a \cdot 1000}{E \cdot V} \quad a = \frac{C \cdot E \cdot V}{1000}$$

C — eritmani normal konsentratsiyasi,

a — erigan moddaning miqdori.

E — erigan moddaning ekvivalenti.

V — eritma hajmi.

$$a = \frac{C \cdot E \cdot V}{1000} = \frac{0,1 \cdot 36,45 \cdot 250}{1000} = 0,91 \text{ g}$$

Konsentrangan HCl 36% ( $p=1,179 \text{ g/sm}^3$ ) bo‘lgani uchun, undan qancha olish kerakligini xisoblab topamiz.

100gr 36% xlorid kislotada 36 g HCl bo‘ladi.

X 36% li xlorid kislotada 0,91 g HCl bo‘ladi.

$$a = \frac{100 \cdot 0,91}{36} = 2,52 \text{ g}$$

Suyuqliklarni tarozida tortish noqulay bo‘lgani uchun kislotaning massasini hajmiga aylantiriladi.

$$V = \frac{m}{p} = \frac{2,52}{1,179} = 2,14 \text{ ml}$$

Pipetkada 2,14 ml konsentrangan xlorid kislotadan o‘lchab olib, 250 ml o‘lchov kolbasiga voronka orqali quyiladi va kolbaning belgisiga qadar distillangan suv quyiladi. So‘ngra eritma yaxshilab aralashtiriladi.

## **2. 100 ml 0,1 n Tetraborat natriy (bura) eritmasini tayyorlash.**

Eritma tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan buraning miqdori quyidagi formula orqali hisoblab topiladi.

$$a = \frac{C \cdot E \cdot V}{1000} = \frac{0,1 \cdot 190,71 \cdot 100}{1000} = 1,9071 \text{ g}$$

Buraning aniq hisoblangan miqdorini analitik tarozida tortib olib, 100ml o‘lchov kolbasiga voronka orqali solinadi. Voronkadagi bura qoldiqlari yuvgich orqali, ya’ni, distillangan suv bilan kolbaga tushiriladi. So‘ngra kolbaga oz-ozdan suv quyib bura to‘liq eritiladi, erigandan so‘ng belgisigacha suv quyladi.



Taylorlangan bura eritmasinint titri va konsentratsiyasi quyidagicha topiladi.

$$T = \frac{a}{V} = \frac{1,9071}{100} = 0,019071 \text{ g/ml}$$

$$N = \frac{T \cdot 1000}{E} = \frac{0,019071 \cdot 1000}{190,71} = 0,1 \text{ n}$$

## **3. Xlorid kislotaning aniq konsentratsiyasini buraning ishchi eritmasi yordamida aniqlash.**

Bura xlorid kislota bilan quyidagicha reaksiyaga kirishadi.



Eritmani titrlash uchun byuretka, pipetka va konussimon kolba tayyorlash kerak. Tozalab yuvilgan byuretka tayyorlangan HCl eritmasi bilan chayiladi. So‘ngra voronka yordamida byuretkaga uning nol darajasining yuqorisigacha xlorid kislota to‘ldiriladi. Voronkadan kislota tomchisi oqib tushmasligi uchun u olib qo‘yiladi va byuretkada meniskning pastki cheti nol darajaga yetguncha jo‘mrakni burab ortiqcha kislota to‘kiladi.

Pipetka bilan ma'lum hajmda masalan, 15 yoki 20 ml bura eritmasidan o‘lchab olinadi va titrlash uchun tayyorlangan kolbaga

quyiladi. Pipetkadan oxirgi tomchini puflab tushirmsandan, uning uchi kolba devoriga tegiziladi. Kolbaga 1 tomchi metiloranj indikatori tomiziladi. Bura eritmasi solingen kolba byuretkaning tagiga qo‘yiladi va byuretka uchi kolba ichiga 1-2sm tushiriladi. Shtativning kolba qo‘yiladigan joyiga bir varaq oq qog‘oz qo‘yiladi, chunki bu holda kolbadagi eritma rangining o‘zgarishini ko‘rish osonlashadi. Shundan so‘ng bura eritmasi kislota bilan titrlanadi. Kislotaning ortiqcha birinchi tomchisidan eritmaning sariq rangi och— pushti rangga o‘tganda titrlash to‘xtatiladi. Titrlashni 2 - 3 marta takrorlab o‘rtacha arifmetik natija olinadi. Masalan, buraning 15 ml 0,1 n eritmasini birinchi titrlashda 14,85ml, ikkinchi titrlashda 14,90 ml, uchinchi titrlashda 14,95 ml HCl sarflangan bo‘lsin. Uchala titrlashning o‘rtacha qiymatini topamiz:

$$V_{\text{o'rtacha}} = \frac{14,85 + 14,90 + 14,95}{3} = 14,90$$

Titrlash natijasiga ko‘ra xlorid kislotaning normalligini quyida keltirilgan formula bo‘yicha aniqlaymiz:

$$V_{\text{HCl}} (\text{o'rt}) \cdot N_{\text{HCl}} = V_{\text{bura}} \cdot N_{\text{bura}}$$

$$N_{\text{HCl}} = \frac{V_{\text{bura}} \cdot N_{\text{bura}}}{V_{\text{HCl}} (\text{o'rt})} = \frac{0,1 \cdot 15}{14,90} = 0,1006$$

Xlorid kislota eritmasining normal konsentratsiyasini bilgan holda uning titrini hisoblab topish mumkin.

$$T = \frac{N \cdot E}{1000} = \frac{0,1006 \cdot 36,46}{1000} = 0,003679 \text{ g / ml}$$

Shunday qilib, titri belgilangan xlorid kislotadan keyingi aniqlashlarda ishchi eritma sifatida foydalanish mumkin.

#### **4. Eritmadagi ishqor miqdorini aniqlash.**

Xlorid kislotaning titri aniq bo‘lganidan keyin bu eritmadan foydalanib biror eritmadagi ishqor miqdorini (ya’ni konsentratsiyasini) aniqlay olamiz. Tahlil 3-punktda bayon etilgan tartibda bajariladi.

Konussimon kolbaga o‘lchov kolbasida taylorlangan konsentratsiyasi noma'lum ishqor eritmasidan pipetka yordamida 10 ml o‘lchab solinadi, unga bir tomchi metiloranj eritmasi tomiziladi va indikatorning sariq rangi

bir tomchi kislota ta'siridan och - pushti rangga o'tguncha xlorid kislotaning ishchi eritmasi bilan titrlanadi.

Tahlil natijasini xisoblashda:

$$N_{NaOH} = \frac{V_{HCl} \cdot N_{HCl}}{V_{NaOH}}$$

formuladan foydalaniladi. Normallikni va o'lchov kolbaning hajmini bilgan holda eritmadi NaOH (yoki KOH) miqdorini hisoblash mumkin.

### **So'rov uchun savollar.**

1. Hajmiy tahlilning mohiyati nimadan iborat.
2. Hajmiy tahlilniig tortma tahlildan afzallikkari nimadan iborat.
3. Neytrallanish uslubining mohiyati nimadan iborat.
- 4 Qaysi uslublar hajmiy tahlil uslublariga kiradi.
5. Eritmaning titri nima.
6. Eritmaning titri bilan normalligi qanday formula bilan ifodalanadi.
7. Kisloting ekvivalenti qanday topiladi.
8. Asoslarning ekvivalenti qanday topiladi.
9. Tuzlarning ekvivalenti qanday topiladi.
10. Neytrallanish uslubida qanday indikatorlar qo'llaniladi.
11. 500ml eritmada 4,9 g H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bor. Uning titri va normalligi topilsin.
12. 0,12 n NaOH eritmasining 20 ml ni titrlash uchun HCl ni 0,08 n eritmasidan necha ml kerak bo'ladi ?
13. 250 ml 0,2 n H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasini tayyorlash uchun necha ml konsentrangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> olish kerak?
14. 500ml 0,05 n KOH eritmasini tayyorlash uchun necha gramm KOH olish kerak?

## **2.5-mashg‘ulot**

5 - mashg‘ulotda mutaxassislarga qarab laboratoriya ishi tanlab olinadi va talabalar tomonidan mustaqil bajariladi, uning hisoboti referat tarzida amaliy mashg‘ulot olib borgan o‘qituvchilarga topshiriladi.

### **LABORATORIYA IShI № 1**

### **TUPROQDAGI NAMLIK MIQDORINI ANIQLASH.**

Tuproqning namligini aniqlash uchun har xil maydonlardan tuproq namunasi olinib, quritish shkafida quritiladi. Namunaning avvalgi va keyingi massalalari orasidagi farqdan tuproqdagi namlik miqdori hisoblanadi.

**Tahlilni bajarish tartibi.** Tajriba tafsilotlarni yozish uchun quyidagi jadval tayyorlanadi.

Byuksning massasi, gramm hisobida		Tuproqning massasi, gramm hisobida		Tuproqning namligi, % hisobida
Tuproqsiz	Nam tuproq bilan	Quritilmagan	Quritilgan	

Maydonning turli joylaridan 15 -20sm chuqurlikdan tuproq namunasi (0,5 g dan) olib, uni qopqog‘i zich berkitiladigan, massasi aniq, toza va quruq byuksga solinadi, so‘ngra byuksning tuproq bilan birgalikdagi massasi aniqlanadi. Shundan keyin tuproqli byuks 100-105°C gacha qizdirilgan quritish shkafiga qo‘yiladi. Bunda byuksning qopqog‘ini olib quritish shkafida byuks yoniga qo‘yish kerak. Byuks bir nechta bo‘lsa, byuks va qopqoqning ishqalangan joyiga qora qalam bilan bir xildagi raqam qo‘yilishi kerak.

Tuproqli byuks 3-4 soat davomida quritilgandan so‘ng, byuks va uning qopqog‘ini tigel qisqich bilan shkafdan olib, eksikatorni chinni plastinkasiga qo‘yiladi va uning harorati xona haroratiga tenglashguncha, ya’ni 20 - 25 minut kutiladi. Quritilgan tuproqni havoda sovutish maqsadga muvofiq emas, chunki u havodan namni yutadi.

Sovutilgan tuproqli byuksning qopqog‘i yopiladi va massasi analitik tarozida aniqlanadi. Tuproq yana quritish shkafida 1 soat davomida quritiladi, eksikatorda sovutilib massasi o‘lchanadi. Agar qayta tortilganda quritilgan tuproqli byuksning birinchi va ikkinchi o‘lchangan massalari o‘zaro teng bo‘lsa, quritishni tugallangan deb hisoblash mumkin.

Tuproqdagi namlikning foiz miqdorini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin.

$$X\% = \frac{100 \cdot b}{a}$$

bu yerda: a- quritilmagan tuproq massasi, g hisobida;  
b-quritilgan tuproq massasi, g hisobida;

Tahlilni bajarish uchun ko‘p vaqt kerak bo‘ladi va uni mashg‘ulot davomida bajarib bo‘lmaydi, shuning uchun tuproqni oxirigacha quritishni laborantga topshirib, keyingi mashg‘ulotga qadar eksikatorda saqlab, so‘ngra massasini tarozida aniqlash mumkin.

## LABORATORIYA IShI № 2

**Silosning kislotaligini aniqlash.** Silosning kislotaligi siloslangan ozuqaning sifatini belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Silosning kislotaliligi 100 g silos tarkibidagi sut kislota  $\text{CH}_3-\text{CH}-(\text{OH})-\text{COOH}$  ga aylantirilib hisoblangan kislotalarning grammlarda ifodalangan miqdori bilan belgilanadi.

Silos tayyorlash sut kislotali bijg‘ishiga asoslalgan. Yuqori sifatli siloslangan ozuqada ma'lum miqdorda sut kislota yig‘ila U silos tarkibida boshqa uchuvchan kislotalarga (chumoli kislota  $\text{HCOOH}$  sirka kislota  $\text{CH}_3\text{COOH}$ , propion kislota  $\text{C}_2\text{H}_5\text{COOH}$  moy kislota  $\text{C}_3\text{H}_7\text{COOH}$  va boshqalarga) qaraganda ko‘p miqdorda yig‘iladi. Silosda moy kislota 0,01 %ga yaqin miqdorda bo‘lsa ham bu silosning chiriy boshlanganligidan darak beradi. Bunday silos o‘zining ozuqa sifatini yo‘qotadi. Sifatli

siloslangan ozuqada asosan ikki xil kislota - sut kislota va sirkal kislota yig'iladi. Agar silosda sut kislota ko'proq va uning miqdori sirkal kislotaga nisbati 4:1 yoki 3:1 bo'lsa, bunday silos sifatli hisoblanadi, agar bu nisbat 1:1 (yoki 2:1) bo'lsa, bu silosdan ozuqa sifatida foydalanish mumkin emas.

Silosning sifatini aniqlash uchun undagi umumiyl kislotalikni, uchuvchan bo'lman kislotalar miqdorini aniqlash kerak. Buning uchun hajmiy tahlilning neytrallash uslubidan foydalaniladi.

**Silosdan suvli so'rim (ekstrakt) olish.** Tekshirilayotgan ozuqaga to'g'ri tavsif berish uchun undan o'rtacha namuna olish kerak. Buning uchun tahlil qilinadigan ozuqa uyumining turli joylaridan katta kristalizatorga 0,5 kg namuna olinadi, uni qaychi bilan qirqib maydalanadi va yaxshilab aralashtiriladi. Maydalangan silosdan 100 g tortim olib, stakanga solinadi va unga silos bilan suvning umumiyl hajmi 1 l ga. yetguncha distillangan suv quyiladi. Shu stakandagi aralashmaga antiseptik modda sifatida 40%-li formalin eritmasidan 1—2 ml qo'shib, silosdan kislota ajralishi uchun aralashma 1 sutka qoldiriladi. Ikkinch kuni stakandagi silos ustidagi suyuqlik paxta orqali kolbaga filtrlab olinadi va og'zi tiqin bilan berkitiladi.

Ana shunday yo'l bilan olingan silos so'rimidan silosning umumiyl kislotaligi, uchuvchan va uchuvchan bo'lman kislotalar miqdori aniqlanadi.

**Silosning umumiyl kislotaligini aniqlash.** Sig'imi 100 - 150 ml li konussimon kolbaga silosning suvli so'rimidan pipetka yordamida 20 ml o'lchab olinadi, unga fenolftaleinning spirtdagi 1%-li eritmasidan 2 - 3 tomchi qo'shiladi.

Byuretkaga o'yuvchi natriyning 0,1n eritmasidan olinadi. Konussimon kolbadagi eritmani aralashtirib turgan holda, unga byuretkadagi o'yuvchi natriy eritmasidan tomchilatib qo'shiladi. Eritmada 2-3 minut davomida yo'qolmaydigan och pushti rang paydo bo'lganida titrlash to'xtatiladi.

Silos tarkibidagi kislotalarning foiz miqdorini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$C_{\%} = \frac{a \cdot 0,009 \cdot 1000}{20}$$

bunda:

$C_{\%}$  — tahlil uchun olingan 100 g silos tarkibidagi kislotalarni sut kislotaga aylantirib hisoblangan miqdori, % hisobida;

a — titrlash uchun sarflangan 0,1 n konsentratsiyali natriy gidroksid eritmasining hajmi, ml hisobida;

0,009 — sut kislotaga aylantirib hisoblash koeffitsienti (1 ml 0,1 n NaOH eritmasi 0,009 g sut kislota bilan ekvivalent) ;

1000 — 100 g silosdan olingan suvli so‘rimning hajmi, ml;

20 — titrlash uchun olingan suvli so‘rimning hajmi, ml.

### **Silos tarkibidagi uchuvchan kislotalar miqdorini aniqlash**

Tayyorlangan silosning sifatiga baho berish uchun uning tarkibidagi uchuvchan (sirka, moy va boshqa kislotalar) hamda uchuvchan bo‘lmagan (sut kislota) kislotalar miqdorini aniqlash kerak.

Sig‘imi 500 ml bo‘lgan Vyurs kolbasiga silosning suvli so‘rimidan 200 ml o‘lchab solinadi.

Uchuvchan kislotalarni haydash uchun oddiy xaydash qurilmasi tuzilganidan so‘ng, suyuqlikni kolbadagi sathi qalam bilan belgilab qo‘yiladi.

Haydash kolbasiga o‘rnatilgan jo‘mrakli voronkaga suv quyiladi. Shundan so‘ng kolbadagi suvli so‘rim qizdiriladi, bunda kolbadagi suyuqlikning sathi o‘zgarmasdan qolishi uchun unga vaqt - vaqt bilan voronkadagi suvdan quyib turiladi. Uchuvchan kislotalar suv bug‘i bilan birgalikda Libix sovitgichi orqali o‘tib yig‘gichga to‘planadi.

Uchuvchan kislotalarni haydashni sovitgichdan chiqayotgan suyuqlik tomchilari ko‘k lakkus qog‘oz rangini o‘zgartirmaydigan bo‘lguncha davom ettirish kerak.

Yig‘gichdagi suyuqlikka fenolftaleinning spirtdagi eritmasidan 2 - 3 tomchi qo‘sib, uni to‘xtovsiz aralashtirib turgan holda, 2-3 minut davomida yo‘qolmaydigan och pushti rang paydo bo‘lguncha byuretkadagi 0,ln konsentratsiyali NaOH eritmasi bilan titrlanadi.

Umumiylar kislotalilikni hisoblashda foydalanilgan formula yordamida silosdagi uchuvchan kislotalar miqdori sut kislotaga aylantirib foiz hisobida topiladi. Bunda silosning suvli so‘rimidan umumiylar kislotalilik aniqlangandagi kabi 20 ml emas, balki 200 ml olinganligini nazarda tutish kerak.

### **Silos tarkibidagi uchuvchan bo‘limgan kislotalar miqdorini aniqlash**

Silosdagi uchuvchan bo‘limgan kislotalar (sut kislota) miqdori umumiylar kislotalilik bilan uchuvchan kislotalar miqdori orasidagi farqdan foydalanib hisoblanadi. Bundan tashqari, Vyurs kolbasidagi eritmadan uchuvchan kislotalar haydalgandan keyin qolgan kislotalar (sut kislota)ni fenolftalein ishtirokida NaOH ning 0,1 n eritmasi bilan neytrallab, yuqoridagi formuladan foydalanib aniqlash ham mumkin. Tahlil natijalariga ko‘ra silos tarkibidagi uchuvchan bo‘limgan kislotalarning nisbatlari aniqlanadi, ya’ni silosning sifati to‘g‘risida tegishli ma'lumot olinadi.

### **LABORATORIYA ISHI № 3** **ZAHARLI XIMIKATLAR TARKIBIDAGI MIS MIQDORINI** **ANIQLASH**

Qishloq xo‘jaligida mis xloroksid  $\text{CuCl}_2 \cdot 3\text{Cu}(\text{OH})_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  zaharli ximikat sifatida ishlatiladi. Bu preparat kukun holida ishlab chiqariladi. Mis xloroksid suvda erimaydi, ammo xlorid, sulfat va nitrat kislotalarda yaxshi eriydi.

Mis xloroksid tarkibidagi mis miqdorini aniqlash ham  $\text{CuSO}_4$  tarkibidagi misni aniqlash singari bajariladi. Ammo tahlilni bajarish tartibi biroz boshqacharoq.

**Tahlilni bajarilishi.** Analitik tarozida mis xloroksiddan 0,2 g atrofida aniq tortim o‘lchab olinadi va uni konussimon kolbaga solinadi. Ushbu kolbaga 0,1 n  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan 200 ml, 1 g yod va 40% li sirka kislota eritmasidan 20 ml solib sekin aralashtiriladi. Shundan so‘ng kolbaning og‘zi soat oynasi bilan berkitilib 10 minut davomida reaksiya tugallanishi uchun qoldiriladi.

Erkin yod ajralib chiqishi tufayli qo‘ng‘ir tusga kirgan eritma byuretkadagi  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  ning 0,1 n eritmasi bilan titrlanadi. Eritmning rangi och-sariq tusga o‘tganda titrlanuvchi eritmaga 3 ml kraxmal eritmasi aralashtiriladi. Ekivivalent nuqtada natriy tiosulfatning ortiqcha bir tomchisidan ko‘k rangli eritma rangsiz holatga o‘tadi.

Titrlashni 2 - 3 marta takrorlab, olingan o‘xhash natijalardan o‘rtacha qiymat chiqariladi.

Mis xloroksid tarkibidagi misning foiz miqdorini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\text{mCu, \%} = \frac{V \cdot 100 \cdot 0,06357}{q}$$

bunda:

$V$  — titrlash uchun sarflangan  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ning 0,1 n konsentratsiyali eritmasining xajmi, ml;



$q$  — mis xloroksid tortimining massasi, g;

0,06357 — yod uchun olingan titrlash natijasini mis uchun qayta hisoblashda ishlatiladigan koefitsient.

## LABORATORIYA ISHI № 4

### NITRATLAR MIQDORINI ANIQLASH

Kaliy permanganat neytral yoki ishqoriy eritmalarda nitritlar bilan ta’sirlashmaydi, kislotali muhitda esa u nitritlarni nitratlargacha oksidlaydi:



$\text{NO}_2^-$  ning  $\text{NO}_3^-$  ga o‘tishi  $\text{NO}_2^- + \text{H}_2\text{O} - 2e \rightarrow \text{NO}_3^- + 2\text{H}^+$  sxemaga muvofiq kelishi sababli, natriy nitritning ekvivalent massasi uning molekulyar massasining yarmiga teng:

$$E_{\text{NaNO}_2} = \frac{69,0}{2} = 34,50 \text{ g}$$

Nitritlar mavjud bo‘lgan eritmaga kislota qo‘shib muhitni kislotali qilish mumkin emas, chunki bunda azotning uchuvchan oksidlari hosil bo‘lishi mumkin. Shu sababli  $\text{KMnO}_4$  ning kislotali eritmasiga byuretkadan natriy nitrit eritmasi solib titrlanadi. Ko‘pincha teskari titrlash uslubidan foydalaniladi.  $\text{NaNO}_2$  bilan  $\text{KMnO}_4$  orasida boradigan reaksiya sekin amalga oshadi. Buni hisobga olib reaksiyon aralashma 10-15 minut davomida qoldiriladi. Shundan so‘ng aralashmadagi ortib qolgan kaliy permanganatni sarflash uchun aralashmaga kaliy yodid eritmasidan qo‘shiladi. Natijada yod ionlari erkin yodga qadar oksidlanadi. Ajralib chiqqan yod molekulalari natriy tiosulfatning ishchi eritmasi bilan titrlanadi.

**Tahlilning bajarilishi.** Sig‘imi 100 ml bo‘lgan o‘lchov kolbasiga natriy nitrit tuzidan (0,1- 0,2g) aniq tortim o‘lchab solinadi. Kolba belgisiga qadar distillangan suv quyib eritma tayyorlanadi.

Konussimon kolbaga byuretkadagi  $\text{KMnO}_4$  ning titrlangan eritmasidan 40,00ml solib, uning ustiga pipetka bilan o‘lchab, 15,0 ml 2n  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va 20,0ml tayyorlangan  $\text{NaNO}_2$  eritmalaridan quyiladi. Reaksiya tugallanishi uchun kolbaning og‘zi tiqin bilan berkitiladi va vaqtı-vaqtı bilan sekin chayqatib turgan holda 10 minutga qoldiriladi.

Shundan so‘ng, tarkibida ortiqcha miqdor  $\text{KMnO}_4$  bo‘lgan eritmaga 2g quruq KJ tuzidan qo‘shiladi, aralashma chayqatiladi va 3- 5 minutga qoldiriladi. Aralashma 100 ml distillangan suv bilan suyultiriladi, 3 ml kraxmal eritmasidan qo‘shib, undagi ajralib chiqqan yod byuretkadagi natriy tiosulfatning standart eritmasi bilan titrlanadi. Ekivivalent nuqtada eritmaning intensiv ko‘k-rangi yo‘qolib, eritma rangsizlanadi. Titrlash uchun sarflangan tiosulfatning hajmi  $V_1$  bilan belgilanadi.

Boshqa konussimon kolbaga xuddi hozirgidek byuretkadagi  $\text{KMnO}_4$  ning titrlangan eritmasidan 40,0 ml, 15,0 ml 2n  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan va 2g quruq KJ tuzidan solib aralashtiriladi. Aralashma 3-5 minut davomida qoldiriladi. Shundan so‘ng aralashmaga 100 ml distillangan suv, 3ml kraxmal eritmasidan qo‘shiladi va u natriy tiosulfatni standart eritmasi

bilan titrlanadi. Ekivivalent nuqtada eritma rangining o‘zgarishi oldingidek bo‘ladi. Tarkibida natriy nitrit bo‘lgan aralashmani titrlash uchun sarflangan tiosulfatning hajmi V<sub>2</sub> bilan belgilanadi.

Ikkala titrlashda sarflangan tiosulfat eritmasi hajmlari orasidagi farq V<sub>2</sub> - V<sub>1</sub> aralashmadagi natriy nitrit eritmasining hajmiga ekvivalent bo‘ladi. Natriy nitritning ekvivalent massasi NaNO<sub>2</sub> ning molekulyar massasining yarmiga tengligini hisobga olgan holda natriy tiosulfatning natriy nitrit bo‘yicha titrini hisoblash mumkin.

$$T_{Na_2S_2O_3/NANO_2} = \frac{E_{NANO_2} \cdot N_{Na_2S_2O_3}}{10000} \text{ g/ml}$$

Tahlil uchun olingan tortim tarkibidagi natriy nitritning massasi quyidagi formulaga ko‘ra hisoblanadi:

$$m = T_{Na_2S_2O_3/NANO_2} \cdot (V_2 - V_1)$$

Tahlil uchun olingan modda aralashmadan iborat bo‘lsa, uning tarkibidagi nitritning foiz miqdorini hisoblash mumkin.

## **LABORATORIYA ISHI №5**

### **SUVDAGI ERKIN XLOR MIQDORINI ANIQLASH.**

Erkin xlor miqdorini aniqlash quyidagi reaksiyaga asoslanadi:



Bu reaksiyada ajralib chiqqan yod (uning miqdori quyidagi erkin xlor miqdoriga ekvivalent) kraxmal ishtirokida Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasi bilan titrlanadi. Sarflangan Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmaning hajmidan foydalanib suvdagi erkin xlor miqdori hisoblanadi.

**Tahlilning bajarilishi.** Pipetka yordamida vodoprovod suvidan tahlil uchun 20,00 ml o‘lchab olinadi, uni konussimon kolbaga solib ustiga kaliy yodning 10%-li eritmasidan 15 ml quyiladi. Ajralib chiqqan yod Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasi bilan titrlanayotganda eritmaning rangi och-sariq rangga o‘zgarguncha titrlanadi. Shundan so‘ng eritmadan qo‘sib, titrlash davom ettiriladi. Ekvivalent nuqtadan eritmaning ko‘k rangi (ortiqcha 1 tomchi natriy tiosulfat eritmasidan tomizilganda) yo‘qoladi.

Aniqlashni bir necha marta takrorlab, olingan o‘xshash natijalardan o‘rtacha qiymat chiqariladi.

1 litr suv tarkibidagi xloring gramm miqdori quyidagi formulaga ko‘ra hisoblanadi:

$$m_{Cl_2} = T_{Na_2S_2O_3/Cl} \cdot V \cdot 50$$

Bu yerda:  $T_{Na_2S_2O_3/Cl}$  — natriy tiosulfat eritmasining xlor bo‘yicha aniqlangan titri, g/ml; V- titrlash uchun sarflangan  $Na_2S_2O_3$  ishchi eritmasining hajmi, ml; 50- Olingan natijani 1 litr suv uchun qayta hisoblash koeffitsienti.

### III- MODUL. ORGANIK KIMYO

#### 3. 1-mashg'ulot: Organik moddalarni ajratish va tozalash usullari

Mashg'ulotdan maqsad. Organik moddalarni ajratib olish va tozalashning eng muhim usullari: ekstraktsiya, kristallga tushirish, sublimatsiya va haydashusullari bilan tanishish.

Kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil bo'lgan moddalar boshqaqo'shimcha moddalar bilan aralashgan xolda bo'ladi. Sintez qilib olingan moddani sof xolatda ajratib olish va tozalash uchun bir necha usullardan foydalaniladi. Quyida biz moddalarni sof xolda ajratib oiish va tozalashning amaliyotda qo'llaniladigan asosiy usullari bilan tanishib chiqamiz.


Laboratoriya ishlari

##### **3.1.1-tajriba. Anilinni ekstraktsiya usulida ajratish**

Asbob va reaktivlar: Ajratish voronkasi, stakanlar (100 ml), filtr qog'oz, voronka, anilinnnng to'yingan suvli eritmasi, xloroform, suvsiz potash.



1-rasm. Ajratish voronkalari



2-rasm. Sokslet apparati: 1-qaytarma sovutgich; 2-bug' o'tuvchi nay; 3-sifon; 4-tagidumaloq kolba;

Ekstraktsiya usuli bilan ajratilishi kerak bo'lgan moddani o'zaro aralashmaydigan turli erituvchilarda xar xil darajada erishiga asoslangan. Suvda erigach moddalarni suvli eritmasidan ekstraktsiya qilishda organik erituvchilardan masalan, dietilefir, geksan, etilatsetat, benzol, xloroform, dixloretan kabi erituvchilardan foydalaniladi. Ekstraktsiya uchun xar xil ajratish voronkalaridan foydalaniladi. (1-rasm). Laboratoriya da o'simliklarni ekstraktsiya qilib, turli murakkab tabiiy birikmalarni ajratib olishda ekstraktorlardan, masalan, Sokslet apparatidan foydalaniladi (2-rasm).

**Ish tartibi.** 20 ml anilinning distillangan suvdagi to'yingan eritmasidan (100 g suvda 18°C 3,6g anilin eriydi) sig'imi 100 ml bo'lgan ajratish voronkasiga quying va uning ustiga 10 ml xloroform (yoki dixloretan) qo'shing. Voronkaning qopqog'ini yopib, sekin-asta chayqating va vaqtı-vaqtı bilan voronka ichida hosil bo'lgan bosimni voronkaning jo'mragini yuqoriga qaratgan xolda ochib chiqaring.

So'ngra voronkani shtativga o'rnatib, undagi aralashmani bir oz tindiring. Bunda pastki xloroform qavatini voronka jo'mragi orqali toza kolbaga soling. Voronkada qolgan suvli qavat shu tarzda ikki marta ekstraktsiya qilinadi. Xloroformli ekstraktlarni birlashtiring va suvsiz

$K_2CO_3$  solish bilan quriting. So'ngra ekstraktni filtrlab haydash usuli orqali anilinni ajratib oling (1-rasm).

## Savollar va topshiriqlar

Moddani tozalashning ekstraktsiya usuli moxiyatini tushuntiring. Undan qanday xolatda foydalanish mumkin?

Ozroq fenol aralashgan anilinni qanday oddiy ekstraktsiya usulida ajratib olish mumkin?

Benzol va anilin aralashmasi bor. Haydash usulidan foydalanmay turib shu aralashmadan qanday qilib benzolni ajratib olish mumkin?

### 3.1.2-tajriba. *Benzoy kislotani suvda qayta kristallah*

Asbob va reaktivlar. Byuxner voronkasi, filtr qog'oz, voronka, suvli so'rg'ich, stakanlar (50 ml va 100 ml), texnik benzoy kislota.

Moddalarni tozalashning qayta kristallah usuli moddalar eruvchanligining xar xilligiga asoslangan.


Bu usulda tozalanishi lozim bo'lgan modda o'ta to'yingan eritmasidan kristallarga tushiriladi, qo'shimcha moddalar esa eritmada qoladi.


O'ta to'yingan eritmalar ikki xil usulda hosil qilinadi:

erituvchining bir qismini bug'latish;

qizdirish bilan hosil qilingan eritmani sovitish.

Moddaning eruvchanligi haroratga bog'liq bo'lgan xollarda ikkinchi usuldan foydalaniladi. Benzoy kislota sovuq suvda yomon eriydi, lekin issiq suvda yahshi eriydi (100 g suvda  $17,5^{\circ}$  da 0,21 g;  $75^{\circ}C$  da esa 2,2 g benzoy kislota eriydi).





3- rasm. Kristallga tushgan moddalarni filtrlash asbobi:

1 - Bunzen kolbasi; 2 - Byuhner voronkasi; 3 - vakuum shlangi; 4 -Vulfa shisha idishi; 5 - suvli so 'rg 'ich.

Ish tartibi. 100 ml sig’imli stakanga 1 g benzoy kislota, 50 ml suv soling va aralashmani kislota eriguncha shisha tayoqcha bilan aralashtirib turgan xolda qizdiring. Hosil bo’lgan qaynoq eritmani tezda filtrlab, filtratni sovuting. Bunda benzoy kislotaning ninasimon rangsiz kristallari cho’kmaga tushadi. Bu kristallarni Byuxner voronkasi (3-rasm) yordamida ajratib, filtr qog’oz orasiga solib siqib quriting va suyuqlanish haroratini aniqlang.

Toza benzoy kislotaning suyuqlanish harorati 121-122°C

### Savollar va topshiriqlar

Qattiq moddalarni (benzoy kislota misolida qayta kristallah usuli bo’yicha tozalashning ish uslubini bayon qiling.

Qaynoq benzoy kislota eritmasini filtrlaganda yassi filtr o’rniga burama filtrdan foydalanishni afzalligi nimada?

Filtratni sovitishda nima uchun uni aralashtirib va ishqalab turish kerak?


Qayta kristallangan toza benzoy kislotaning unumini (% xisobida) xisoblang. Unum miqdorini ko’paytirish mumkinmi?

### **3.1.3-tajriba. Naftalinni sublimatsiya usuli bilan tozalash**

Asbob va reaktivlar: stakan, kolba, soat oynasi, kappilyar nay, suyuqlanish haroratini aniqlash asbobi, texnik naftalin, muzli suv.

*Qattiq moddalarni qizdirilganda suyuqlanmay turib bug' xolatiga o'tish jarayoni sublimatsiya deyiladi.* Sublimatlangan moddalarning bug'i sovitilganda ular yana qattiq moddaga aylanadi.

**Ish tartibi.** 250 ml sig'imli bo'g'insiz kimyoviy stakanga 1 g atrofida naftalin solib, stakanni muzli suv solingan tubi dumaloq kolba bilan berkiting va sekin-asta qizdiring (4-rasm). Bunda kolbaning sovuq tubida naftalining ignasimon kristallari hosil bo'ladi. Sublimatlangan bu kristallarni shpatel (yoki skalpel) yordamida qirib soat oynasiga oling va suyuqlanish haroratini aniqlang. Toza naftalinning  $t_{qaynash}=80^{\circ}\text{C}$ .



4 -rasm. Sublimatsiyalash asbobi.

### Savollar va topshiriqlar

Qattiq, moddalarni (naftalin misolida) tozalashning sublimatsiya usulining moxiyatini tushuntiring.

Sublimatsiyalash va qayta kristallah yo'li bilan tozalash usullari va shakli bilan farq qiladi?

Barcha qattiq moddalarni sublimatsiya usulida tozalash mumkinmi?

#### **3.1.4-tajriba. Benzol va ksilol aralashmasini fraktsiyalarga bo'lib haydash usuli bilan ajratish**


Asbob va reaktivlar: shtativ, haydash kolbasi (150 ml), deflegmator, termometr, sovitgich, alonj, kolba yoki stakanlar (50 ml), benzol va o-, m-va p- ksilollar.

Suyuq organik moddalarni tozalash va ajratishda haydash usulidan keng foydalaniladi. Haydash sharoitga qarab atmosfera bosimida, vakuumda (past bosimda) va suv bug'i yordamida haydashga bo'linadi. Quyida biz oddiy atmosfera bosimida fraktsiyaga bo'lib haydash usuli bilan tanishamiz.

Suyuq aralashmalarni turli haroratlarda haydash yo'li bilan alohida idishlarga yig'ish usuliga fraktsiyalarga bo'lib haydash deyiladi. Qaynash haroratlari turlicha ( $60—80^{\circ}\text{C}$ ) bo'lgan aralashmalarni ayrim fraktsiyalarga bo'lib, tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Buning uchun kimyo laboratoriyalarda deflegmatorlardan va sanoatda rektifikatsion kolonkalardan foydalaniladi.

**Ish tartibi.** 150ml sig'imli haydash kolbasiga 50 ml benzol ( $t_{\text{qay}}, 80^{\circ}\text{C}$ ) va 50 ml ksilol (o-, m-, p-ksilol aralashmasining  $t_{\text{qay}}$   $138—141^{\circ}\text{C}$ ) dan quyib, aralashmasiga bir necha chinni bo'lakchalarini soling va 5-rasmida ko'rsatilgandek asbob yig'ing.

Haydash kolbasidagi aralashmani sekin-asta qizdiring. Harorat  $80^{\circ}\text{C}$  ga etganda suyuqlik xaydala boshlaydi.



5-rasm. Atmosfera bosimida suyuq aralashmalarni fraktsiyalarga bo'lib haydash asbobi: 1-elektr plita; 2-haydash kolbasi; 3-qisqich; 4- termometr; 5- shtativ; 6-Libix sovutgichi; 7-alonj; 8- yig'gich kolba.

Kolbani shunday qizdirish kerakki, xar sekundda yig'gich kolbaga bir tomchi suyuqlik tushsin.

Haydash jarayonida 3 ta yig'gich idish olib, birinchisiga  $80-100^{\circ}\text{C}$ da xaydaladigan fraktsiya, ikkinchisiga  $100-120^{\circ}\text{C}$  da va uchinchisiga  $120-141^{\circ}\text{C}$  da xaydaladigan fraktsiyalarni yig'ing.

I- fraktsiya asosan benzoldan, II- fraktsiya benzol va ksilolar alashmasidan, III- fraktsiya esa asosan ksiloldan iborat boladi. Ajratib olingan bu I va III fraktsiyalarni yana qayta haydab, toza benzol va ksilol fraktsiyalarini ajratib olish mumkin.

### **Savollar va topshiriqlar**

Suyuq moddalarni haydab tozalash usullarini bayon qiling.

Atmosfera bosimida benzol bilan ksilol misolida fraktsiyalarga bo'lib haydashning moxiyatini va ishlash uslubini tushuntiring.

Qanday xollarda organik moddalarni vakuum ostida va suv bug'i yordamida xaydaladi?

### **3.1.5-tajriba. Organik moddalarni tozalash va tahlil qilishning xromatografiya usuli**


Mashg'ulotdan maqsad. Murakkab aralashmalardan organik moddalarni ajratish va ularniig tozaligini aniqlashning zamonaviy xromatografik usullaridan yupqa qatlama xromatografiya (YUQX) ning ish uslubi bilan tanishishdan iborat.

So'nggi yillarda organik moddalarni ajratish va tozalashning xromatografik tahlil usuli amaliyotda keng qollanilmoqda. Bu usul 1903 yilda rus olimi M.S.TSvet tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu usul aralashmadagi moddalarning adsorbent yuzasiga yutilishi va ishlatilayotgan erituvchidan moddalarning surilishini turlicha bolishiga asoslangandir. Xromatografik tahlil, asosan, quyidagi uch turga - adsorbsion, ion almashinish va taqsimlanish xromatografiyalariga bo'linadi.

Quyida biz so'nggi yillarda murakkab tabiiy birikmalar ralashmasini tozalashva ajratishda keng qo'llanib kelayotgan taqsimlanish xromatografiyasining muhim turi bo'lgan yupqa qatlamlari xromatografiyaning (YUQX) ish texnikasi bilan tanishib chiqamiz. YUQX ning afzalligi shundaki, bu usulning ish tartibi juda oson va moddalarni tahlilqilish uchun 10-15 minut vaqt sarf bo'ladi, xolos.

kamera

kamera



Xromatografiya boshlanishidan oldin (a) 10-15 minutdan so'ng



6-rasm. YUQX uchun erituvchilar sistemasi solingan kamera.(b)

YUQX ish texnikasi dastlab turli o'lchamdag'i (8x15; 10x20) shisha plastinkalarda yupqa adsorbent qatlamini hosil qilishdan boshlanadi. Buning uchun shisha plastinka ustida adsorbentning (alyuminiy oksidi, kremniy (IV)- oksidi) birini olib, uning ustidan maxsus yupqa qatlam hosil qiluvchi asbob yurgiziladi. So'ngra tekshiriladigan modda eritmasidan yupqa qatlam hosil qilingan plastinkaning pastki qismidan 1-1,5 sm yuqorisiga (start chizig'iga) ingichka shisha kappilyar orqali bir necha tomchi tomiziladi va plastinka erituvchilar sistemasi solingan maxsus kameraga tushiriladi (6-b rasm). Erituvchi plastinkadagi adsorbentning yuzasiga shimilib, ma'lum balandlikka (front chizg'igacha ko'tarilgach, xromatogramma kameradan olinadi va quritilib, yod kristallari solingan maxsus kameraga tushiriladi, yoki boshqa rang beruvchi moddalar eritmasi

bilan ishlanadi va natijada plastinkada turli rangdagi dog'lar hosil bo'ladi (6-a rasm). Bu dog'lar uchun ishlatilgan erituvchilar sistemasidagi taqsimlanish koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Rf = a/b$$

Bunda: a—modda tomizilgan nuqta (start) dan dog' markazigacha bo'lgan masofa; b-start chizig'dan erituvchi chegarasigacha (frontgacha) bo'lgan masofa mm da.

Hozirgi vaqtida yupqa alyuminiy plastinkalar yuzasida turli adsorbentlar (alyuminiy oksidi, silikagel, poliamid, selluloza) mustahkam yopishgan yupqa qatlamlı xromatografiyadan keng foydalanilmoqda.

*Asbob va reaktivlar:* silufol plastinka, fenol moddalar va ularning aralashmasi (fenol, rezortsin, pirokatexin), erituvchilar sistemasi: benzol-etanol (4:1), yod bug'lari.

**Ish tartibi.** Silufol plastinkaga tekshiriladigan fenol moddalar aralashmasining spirtli eritmasidan va «guvox» moddalar fenol, rezortsin, pirokatexin eritmalaridan alohida-alohida kichkina shisha kappilyarlar orqali bir necha tomchi tomizib, ularni quriting. So'ngra plastinkani benzol-etanol (4:1) dan iborat erituvchilar sistemasi solingan maxsus idishga tushiring. Erituvchi plastinkaning belgilangan front chizig'iga etganda, plastinkani idishdan olib, mo'rili shkafda quriting. Quritilgan plastinkani yod solingan eksikatorga tushiranimizda xromatogrammada turli dog'larning hosil bo'lishini kuzating. So'ngra, bu dog'larning taqsimlanish koeffitsientini  $Rf = a/b$  formula orqali xisoblab, «na'muna» moddalar (fenol, rezortsin va pirokatexin) bilan solishtiring.

### Savollar va topshiriqlar

YUQX usulida moddalarning /fenollarning/ tozaligini aniqlashning mohiyatini tushuntiring.

Dog'larning taqsimlanish koeffitsienti  $Rf$ , o'zgarmas kattalikmi yoki yo'qmi?

Uning qiymati qanday omillarga bog'liq.

Fenol, rezortsin va pirokatexinlarni silufol plastinkada xloroform-etanol (4:1) sistemada  $Rf$ , aniqlang va bu  $Rf$  5-tajribada olingan natijalar bilan solishtiring.

### **3.1.6-tajriba. *Limon va tamaki tarkibidagi limon kislotani aniqlash***

*Asbob va reaktivlar:* silufol plastinka, limon sharbati, tamaki damlamasi, limon kislota eritmasi, erituvchilar sistemasi: etanol-geksan (3:1).

**Ish tartibi.** Yuqoridagi 3.1.5-tajriba kabi silufol plastinkaga ingichka shisha kappilyar yordamida limon sharbati, tamakining suvli damlamasi va limon kislota eritmalaridan bir necha tomchi tomizing. So'ngra etanol-geksan (3:1) erituvchilar sistemasida YUQX xromatografiyaning amalga oshiring. Xromatogrammani yod bug'i bilan ishlab, limon kislotasining Rf ni aniqlang.

#### **Savollar va topshiriqlar**

Limon sharbati va tamaki damlamasi tomizilgan xromatogrammada bir necha dumli dog'larning hosil bo'lishiga sabab nima?

Xromatogrammada toza limon kislotasining dog'ini, limon sharbati va tamaki damlamasida ushbu dog'ning mavjudligini aniqlang.

### **3.1.7-tajriba. *Choy va kofe tarkibidagi kofeinni aniqlash***

*Asbob va reaktivlar:* silufol plastinka, choy, kofe, kofeinning spirtli eritmalar.

**Ish tartibi.** Silufol yoki silikagel plastinkasini (10x5 sm o'lchamdag'i) start chizig'iga choy, kofe va toza kofeinning spirtli eritmalaridan tomizing va uni etanol quyilgan kameraga joylashtiring. So'ngra moddalarni namoyon qilish uchun yod bug'i bilan to'yangan ikkinchi kameraga tushiring va hosil bo'lgan dog'lar bilan kofeinning Rf ini aniqlang.

#### **Savollar va topshiriqlar**

Kofeinni Rf qiymatini yozing.

Choy va kofe eritmasida kofein dog'ini aniqlang.

### **3.1.8-tajriba. *Sariyog' tarkibidagi moy kislotani aniqlash***

*Asbob va reaktivlar:* silufol plastinka, sariyog'ning benzoldagi eritmasi, moy kislota eritmasi.

**Ish tartibi.** Sariyog'ning benzolda eritilgan eritmasidan va solishtirish uchun toza moy kislota eritmasidan silufol yoki silikagel plastinkasining start chizig'iga tomizing va uni etanol-ammiak-suv (20:1:4) erituvchilari sistemasi quyilgan kameraga tushiring, so'ngra erituvchilar front

chizig'igacha ko'tarilgach ularni olib, quriting va plastinkani yod bug'iga to'yingan ikkinchi kameraga tushiring, hosil bo'lgan dog'larga qarab moy kislotani aniqlang.

### **Savollar va topshiriqlar**

Moy kislotaning qiymatini yozing?

Sariyog'dagi moy kislota (dog'i) ni aniqlang.

## **3.2-mashg'ulot. UGLEVODORODLAR (TO'YINGAN va TO'YINMAGAN UGLEVODORODLAR )**

Mashg'ulotdan maqsad. To'yingan va to'yinmagan uglevodorodlar (alkan, alken va alkinlar) ning tuzilishi, izomeriyasi va nomenklaturasi, hamda ularning umumiy olinish usullari va xossalari, hamda laboratoriya mashg'ulotlarida esa etilen va atsetilenni olish, ularga xos bo'lgan reaksiyalarni o'rganishdan iboratdir.

Laboratoriya ishlar

### **3.2.1-tajriba. Metanning olinishi vauning xossalalarini o'rganish**

*Reaktivlar:* natriy atsetat, natron ohagi ( $\text{NaOH}$  va  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  ning 2:1 og'irlik nisbatdagi aralashmasi), bromli suv, kaliy permanganatning 1% - li eritmasi.


**Ish tartibi.** Quruq probirkaga bir qism suvsizlantirilgan natriy atsetat va ikki qism natron ohagidan iborat oldindan tayyorlanib qo'yilgan aralashmadan 1,5-2 g soling. Probirkaning og'zini gaz o'tkazgich nay o'rnatilgan tiqin bilan zinch berkiting va qisqich yordamida shtativga gorizontal xolatda o'mating. Uchta probirka olib, ularning biriga suv, ikkinchisiga 1%-li  $\text{KMnO}_4$  eritmasi, uchinchisiga bromli suv quying. Gaz o'tkazuvchi nayning ikkinchi uchini suvli probirkaga tushiring. So'ngra aralashmali probirkani gaz gorelkasi alangasida yoki spirt lampasida astasekin qizdiring. Gaz ajralib chiqa boshlagach, nayni suvli probirkadan ajrating va bromli suv bor probirkaga, bir ozdan so'ng  $\text{KMnO}_4$  eritmasi solingan probirkaga tushirib, eritmalarниig rangini o'zgarmaganligiga e'tibor bering. So'ngra, ajralib chiqayotgan gazni gugurt chaqib yoqilsa, metan rangsiz alanga berib yonadi.

## Savollar va topshiriqlar

Nima uchun metan gazi bromli suv va kaliy permanganat eritmalarining rangini o'zgartirmaydi?

Metanning  $\text{CH}_3\text{COONa}$  va natriy gidroksiddan olinishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

Reaksiya natijasida  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  hosil bo'lganligini quyidagi reaksiya orqali isbotlash mumkin. Bunda qanday gaz ajralib chiqadi? Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamalarini tuzing:



### **3.2.2-tajriba. Suyuq alkanlarning xossalari metanning xossalari bilan taqqoslash**

**Reaktivlar:** geksan, benzin, petroleyn efir, bromli suv (yoki bromning  $\text{CCl}_4$  dagi eritmasi).

**Ish tartibi.** (Tajribalar mo'rili shkafda bajariladi.)

Chinni kosachaga 1-2 ml geksan yoki benzin solib yondiring. Geksan yoki benzin dudli alanga berib yonadi.

Probirkaga 1-2 ml petroleyn efir yoki geksan soling, aralashtirib turgan holda 3-4 tomchi bromli suv (yoki bromning  $\text{CCl}_4$  dagi eritmasidan) tomizing. So'ngra probirkani suv xammomida ohista qizdiring. Probirkaning og'ziga ho'llangan ko'k lakmus qog'oz tuting va uning qizarishini kuzating.

## Savollar va topshiriqlar

Nima uchun metan rangsiz alanga berib, benzin (yoki petroleyn efir) tutab yonadi?

Metanning va geksanning yonish tenglamalarini yozing va taqqoslang. 1 mol metan va 1 mol geksanni yondirish uchun normal sharoitda qancha hajm kislorod kerakligini hisoblang. Metan va geksan tarkibidagi uglerod va vodorodning foiz miqdorini hisoblang va taqqoslang.

Nima uchun suyuq alkanlar bromlanish reaksiyasiga metanga nisbatan yahshi kirishadi? Geksanning bromlanish (2-bromgeksanning hosil bo'lishi) reaksiyasi tenglamasini yozing.

2-metilpentanning monobrom hosilasini olishda qaysi uglerod atomida birinchi navbatda radikal bromlanish reaksiyasi boradi? Reaksiya tenglamasini yozing.

2(b) tajribada bromning rangini yoqolishiga va ho'llangan ko'k lakmusning qizarishiga sabab nima?

### **3.2.3-tajriba. *Suyuq alkanlarga kontsentrlangan kislotalar va oksidlovchilarining ta'siri***

*Reaktivlar:* petroley efir, geksan, konts.  $H_2SO_4$ , konts.  $HNO_3$ , 5% - li natriy karbonat eritmasi, 1 % - li kaliy permanganat eritmasi.

**Ish tartibi.** a) Probirkaga 1-2 ml petroley efir yoki geksan solib, shuncha hajmda konts.  $H_2SO_4$  qo'shing va probirkani sovuq suvda sovitib turib yaxshilab aralashtiring. Hech qanday o'zgarish kuzatilmaydi.

Probirkaga 1-2 ml geksandan solib, uning ustiga shuncha konts.  $HNO_3$  qo'shib chayqating. O'zgarish bolmaganligini kuzating.

v) Probirkaga 1 ml geksan va 1 ml 5% -li  $Na_2CO_3$  eritmasi, so'ngra 1%-li  $KMnO_4$  eritmasidan tomchilatib qo'shing va yahshilab chayqating. Kaliy permanganatning rangi o'zgaradimi?

### **Savollar va topshiriqlar**

Odatdagi sharoitda alkanlar kontsentrlangan kislotalar bilan reaksiyaga kirishmasligiga sabab nima?

Alkanlarni nitrolanish reaksiyasi qanday sharoitda olib boriladi? (M.I. Konovalov reaksiyasining borish sharoiti).

Izobutanning nitrolanish reaksiyasi tenglamasini yozing.

### **3.2.4-tajriba. *Etilenning olinishi va xossalari.***

*Reaktivlar:* etil spirti, konts.  $H_2SO_4$  eritmaları ( $d=1,84 \text{ g/sm}^3$ ), bromli suv, 1% -li kaliy permanganat eritmasi.

**Ish tartibi.** Quruq probirkaga 1 qism etil spirti va 3 qism konts.  $H_2SO_4$  dan (1:3) iborat avvaldan tayyorlangan aralashmadan quyib, unga g'ovak material - sopol yoki chinnining kichik bir bo'lagini tashlang va probirkani og'zini gaz o'tkazuvchi shisha naycha o'rnatilgan tiqin bilan berkiting. So'ngra reaktivli probirkani shtativga  $45^\circ$  burchak ostida mahkamlab o'rnating va spirt lampasida sekin-asta qizdiring. Probirkadagi aralashma qorayib qaynay boshlaganda, gaz xolatidagi reaksiya maxsuloti - etilen ajralib chiqa boshlaydi.

Bromning etilen bilan birikishi. Gaz o'tkazuvchi nay orqali ajralib chiqayotgan etilen gazini bromli suv solingan probirka orqali o'tkazing. Bunda brom suvining rangi sekin yoqola boshlaydi. Nima uchun?

Etilenning 1 %- li  $KMnO_4$  suvli eritmasida oksidlanishi (E.E.Vagner reaksiyasi). Probirkaga ozgina soda yoki ishqor qo'shilgan kaliy permanganatning 1 %- li suvli eritmasidan 5-6 ml solib, bu eritma orqali etilen o'tkazilsa, permanganat eritmasining rangi yoqola boradi va qo'ng'ir tusli cho'kma-  $MnO_2$  marganets (IV)-oksidi hosil bo'ladi.

v) Etilenning yonishi. Qizdirishni davom ettirgan xolda shisha naychaning uchini alangaga yaqinlashtirsak, etilen havo rang alanga hosil qilib yonadi.

### Savollar va topshiriqlar

Etilenning laboratoriyada etil spirtidan (etilsulfatning hosil bo'lishi orqali) olinishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

Bromni etilenga birikish reaksiyasi tenglamasini yozing. Bu reaksiya qanday mexanizm bo'yicha boradi?

Etilenning kaliy permanganat eritmasi bilan oksidlanishi reaksiyasi tenglamasini yozing. Bu reaksiya qaysi rus olimi nomi bilan ataladi?

Alkenlar bilan bromning birikishi va kaliy permanganat bilan oksidlanishi reaksiyalari sifat tahlilda qanday maqsadda qo'llaniladi?

Etilen molekulasi dagi uglerod va vodorodning foiz miqdorini hisoblang. Uning yonish reaksiyasi tenglamasini tuzing.

### 3.2.5-tajriba. Kreking. Benzinda to'yinmagan uglevodorodlarning borligini aniqlash

Reaktivlar: yangi haydalgan kreking-benzin, bromli suv, kaliy permanganatning 1% -li eritmasi.

**Ish tartibi.** Ikkita probirka olib, ularning har biriga 1-2 ml kreking-benzindan quying, ularning biriga  $KMnO_4$  ning 1 %- li eritmasidan, ikkinchisiga bromli suvdan bir necha tomchi qo'shing va chayqating. Ikkala probirkadagi eritmalarining rangsizlanishini kuzatib hulosa chiqaring.

### Savollar va topshiriqlar

1 g 2-metilbuten-2 ni to'liq bromlash uchun necha gramm 3%- li brom eritmasidan kerak bo'ladi?

2-metilbutenni  $\text{KMnO}_4$  ning suvli eritmasi bilan oksidlanishi reaksiy tenglamasini tuzing va koeffitsientlarini topib tenglang.

Nima uchun neftni bevosita xaydash orqali olingan benzin bromli suvni rangsizlantirmaydi, kreking-benzin rangsizlantiradi? Tegishli xulosalar chiqaring.

$\text{C}_{16}\text{H}_{34}$  tarkibli, uglevodorodni termik-krekinglaganda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi? Reaksiya tenglamasini yozing.

### **3.2.6-tajriba. Atsetilenning olinishi va xossalari**

Reaktivlar: kaltsiy karbid, bromli suv, 1%- li kaliy permanganat eritmasi, 10%- li  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritmasi, 2%- li  $\text{AgNO}_3$  va 2%- li ammiak eritmalar.

**Ish tartibi.** Atsetilen olish uchun metan yoki etilenni olish asboblaridan foydalanish mumkin. Quruq probirkaga bir bo'lak kaltsiy karbid solib, ustiga 1-2 ml suv qo'shing va probirkaning og'zini gaz chiqarish nayi o'rnatilgan tiqin bilan tez berkiting. Bunda kaltsiy karbid suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib, atsetilen gazi ajralib chiqadi. Atsetilen bilan qo'yidagi tajribalarni o'tkazing.

Atsetilenning brom bilan birikishi. 5 ml bromli suv solingan probirka orqali atsetilen gazini otkazing va bromli suvning rangsizlanishini kuzating.

Atsetilenning  $\text{KMnO}_4$  ishqoriy eritmasi bilan oksidlanishi. Toza probirkaga 2-3 ml kaliy permanganat eritmasidan solib, ishqoriy muhit hosil qilish uchun ozroq  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  qo'shing, bu aralashma orqali atsetilen gazini o'tkazing va bir oz kuting. Bunda eritmaning binafsha rangi yo'qolib,  $\text{MnO}_2$  ning qo'ng'ir cho'kmasi hosil bo'lishini kuzating.

v) Kumush atsetilenidning hosil qilinishi. Tajriba o'tkazish uchun kumush oksidini ammiakdag'i eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun probirkaga 2%-li  $\text{AgNO}_3$  eritmasidan 2-3 ml quyib, unga 2%-li  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasidan avval tomchilatib, so'ngra hosil bo'lган cho'kma erib ketguncha qo'shing. Hosil bo'lган eritmadan atsetilen gazini o'tkazing, bunda atsetilen molekulasidagi vodorod atomlarini kumush atomlariga almashinishi natijasida kumush atsetilenidining kulrang cho'kmasini hosil bo'lishini kuzating.

g) Atsetilenni yonishi. Atsetilen ajralib chiqayotgan nayning og'ziga yonayotgan gugurt tutilsa, atsetilen etilenga nisbatan ravshan alanga berishini va dudlanib yonishini kuzating

### **Savollar va topshiriqlar**

Kaltsiy karbiddan atsetilenni olish reaksiyasi tenglamasini tuzing. Atsetilenning bromli suv rangini etilenga nisbatan sekin rangsizlantirishi sababini tushuntiring. Atsetilenga bromning birikishi reaksiyasi tenglamasini tuzing.

Atsetilenning kaliy permanganatning suvli eritmasi ishtirokida oksalat kislotaga HOOC—COOH qadar oksidlanishi reaksiyasi tenglamasini tuzing.

Kumush oksidining ammiakli eritmasini olishda sodir bo'ladigan reaksiyalarning tenglamalarini tuzing.

Kumush atsetilenidni hosil bo'lishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

Butin-1 va butin-2 larning qaysi biri kumush oksidining ammiakli eritmasi bilan almashinish reaksiyasiga kirishadi. Reaksiya tenglamasini tuzing.

Nima uchun atsetilen havoda dud hosil qilib yonadi? Uning toliq yonish reaksiya tenglamasini yozing.

Atsetilen va etilen molekulalaridagi uglerod atomlarining foiz miqdorini hisoblang va solishtiring.

## **3. 3-mashg'ulot. SPIRTLAR VA FENOLLAR**

Mashg'ulotdan maqsad. Spirt va fenollarning eng muhim kimyoviy xossalari, olinish usullarini, vodorod bog'lanishi va molekuladagi gidroksil gruppasining sonini, ularning fizik xossalariiga ta'sirini o'rGANISHdan, hamda spirtlarning tuzilishini (-OH gruppining mavjudligini) aniqlashda ularga xos reaksiyalardan va zamonaviy fizikkimyoviy tahlil usullari (IQ-, UB- va PMR- spektroskopiya) dan foydalanishni bilishdan iborat.

### **3.3.1-tajriba. Natriy etilatning olinishi va parchalanishi**

*Reaktivlar:* etil spirti, natriy metali, fenolftaleinning spirtdagi eritmasi.

**Ish tartibi.** Quruq probirkaga 1-2 ml toza etil spirti quyib, lakmus qog'ozini orqali uning neytralligini sinab ko'ring. Shundan so'ng etil spirti ustiga filtr qog'oz orasida siqib quritilgan va oksid pardasidan tozalangan

natriyning kichkina bo'lagini tashlang. So'ngra probirkaning og'zini gaz chiqaruvchi nay o'rnatilgan tiqin bilan berkiting. Bu reaksiya ekzotermik reaksiya bo'lib, vodorod ajralib chiqishi bilan boradi (ajralib chiqayotgan vodorodni yoqib ko'ring). Reaksiya tugagach natriy etilat eritmasiga suv quying va 2-3 tomchi fenolftaleinning spirtli eritmasidan tomizing. Bunda eritma qizaradi.

### **Savollar va topshiriqlar**

Etil spirti bilan natriy metalining o'zaro ta'sir reaksiyasi tenglamasini yozing.

Nima uchun natriy metali spirt bilan suvgaga qaraganda sekinroq reaksiyaga kirishadi?

Etilat natriyning gidroliz reaksiyasi tenglamasini tuzing.

### **3.3.2-tajriba. *Spirtlarni Lukas reaktivi bilan ta'siri***

Reaktivlar: propil spirti, izopropil spirti, uchlamchi izobutil spirti, Lukas reaktivi.

**Ish tartibi.** Uchta quruq probirka olib, ularning biriga propil spirti, ikkinchisiga izopropil spirti va uchinchisiga uchlamchi izobutil spirtidan 0,5-1 ml dan quyib, har biriga Lukas reaktividan (rux xloridning kontsentrlangan xlorid kislotadagi eritmasidan) 1,5-2 ml qo'shing. Probirkalarni chayqatib, bir oz vaqt (2-3 minut) tindiring. Bunda propil spirti solingan probirkada xech qanday o'zgarish bo'limganligini, izopropil spirt solingan probirkada eritmaning ozgina loyqalanishini, uchinchi probirkada esa moysimon tomchi hosil bo'lishini kuzating.

### **Savollar va topshiriqlar**

Tajribadagi kuzatishlar asosida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlarning reaktsion xususiyatini taqqoslang.

Qaysi spirtlar Lukas reaktivi bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiya tenglamasini yozib, mexanizmini tushuntiring.

Izopropil spirtining IQ- va PMR- spektrlarini tushuntiring .

### **3.3.3-tajriba. *Spirtlardan murakkab efir olish***

Reaktivlar: izoamil spirti, kontsentrlangan sulfat kislota, sirka kislota.

**Ish tartibi.** Tozalab yuvib quritilgan probirkaga 2-3 ml izoamil spirt, taxminan shuncha toza sırka kislota va bir necha tomchi kontsentrlangan sulfat kislotadan quying. Probirkadagi aralashmani bir jinsli xolatga aylanguncha ohistalik bilan chayqatib aralashtiring. So'ogra hosil bo'lган aralashmani boshqa stakandagi sovuq suvga quying. Bunda nok essentsiyasi kabi xushbo'y hid keladi va izoamil atsetat efiri suvning yuziga qalqib chiqadi.

### Savollar va topshiriqlar

Izoamil spirti bilan sırka kislotaning eterefikatsiya reaksiyasini yozing. Reaksiyada qo'shimcha maxsulot sifatida diizoamil efiri hosil bo'lishi mumkin.

Reaksiya tenglamasini yozing.

#### 3.3.4-tajriba. *Spirtlarning oksidlanishi.*

Reaktivlar: etil spirti, kaliy permanganatning 0,1 n eritmasi, sulfat kislota eritmasi (2 n), xrom aralashmasi.

**Ish tartibi.** Etil spirtini  $KMnO_4$  eritmasi bilan oksidlash. Probirkaga 2-3 ml etil spirti, 1 ml  $KMnO_4$  ning 0,1 n eritmasi va 2-3 ml sulfat kislota (2 n) eritmasidan quying hamda bir oz qizdiring. Bunda eritmaning rangi yoqoladi, sırka aldegidning hosil bo'lганligini o'ziga hos hididan bilasiz.

Xromli aralashma bilan oksidlash. Probirkaga 2-3 ml etil spirti quyib, unga 1 ml xrom aralashmasidan qo'shing va oxista qizdiring. Bunda probirkadagi aralashma yashil rangga bo'yaladi va etil spirti oksidlanib, sırka aldegidning o'ziga hos hidi paydo bo'ladi.

### Savollar va topshiriqlar

Bromnig allil spirtiga birikish reaksiyasi tenglamasini yozing.

Allil spirtini  $KMnO_4$  eritmasida oksidlanishi reaksiyasi tenglamasini yozing (oksidlanish maxsuloti glitserin. KOH va  $MnO_2$  ning hosil bo'lishini xisobga olgan xolda).

#### 3.3.5-tajriba. *Mis glitseratning olinishi*

Reaktivlar: glitserin, 10 %-li NaOH eritmasi, 2%-li mis (II)-sulfat eritmasi.

**Ish tartibi.** Probirkaga mis (II)-sulfat eritmasidan 1-2 ml quyib, unga 10%-li NaOH eritmasidan 1 ml qo'shing. Bunda mis (II)-gidroksidning

havo rang cho'kmasi hosil bo'ladi. Olingan bu aralashmaga 1-2 tomchi glitserin qo'shib chayqatilsa, mis (II)-gidroksidi cho'kmasi yo'qolib eritma zangori rangga bo'yaladi. Bu mis glitseratning hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

### Savollar va topshiriqlar

Mis (II)-gidroksid cho'kmasingning hosil bo'lishi reaksiyasi tenglamasini tuzing. Ikki molekula glitserin bilan mis (II)-gidroksid ta'siri natijasida koordinatsion bog'lanishli kompleks birikma mis (II)-glitseratning hosil bo'lishi reaksiyasi tenglamasini tuzing. Bu reaksiyadan sifat tahlilida qanday, maqsadda foydalaniladi?

### 3.3.6-tajriba. *Fenolning suvda eruvchanligi*

Reaktivlar: Fenol kristallari, ko'k lakmus qog'oz.

**Ish tartibi.** Probirkaga 0,5 g atrofida fenol kristallaridan solib, ustiga 2-3 ml suv quying va chayqating. Bunda fenol suvda qisman erib, uning loyqa emulsiyasi hosil bo'ladi. Aralashmani chayqatib turib bir oz qizdirilsa, fenol suvda tamomila erib ketadi. Probirka sovitilganda yana eritma loyqalanib, ikki qavatga ajraladi. Eritmadan ko'k lakmus qog'oziga bir tomchi tomizib. uning muhitini aniqlang.

### Savollar va topshiriqlar

Fenolning sovuq va issiq suvdagi eruvchanligini taqqoslab hulosa chiqaring.

Fenol eritmasining muhiti qanday?

Fenol eritmasining dissotsialanish tenglamasini yozing.

### 3.3.7-tajriba. *Natriy fenolyatni olish va uni parchalash*

Reaktivlar: Fenol eritmasi, NaOH ning 10%- li eritmasi, 10%- li HCl eritmasi.

**Ish tartibi.** Bundan oldingi tajribadan olingan eritmaga natriy gidroksidning 10%- li eritmasidan 2-3 ml qo'shganda fenol tamomila erib, natriy fenolyatning tiniq eritmasi hosil bo'ladi. Bu eritmaga 10%- li HCl eritmasidan bir necha tomchi qo'shing, bunda erkin fenolning ajralib chiqishini va eritmaning loyqalanishini kuzating.


### Savollar va topshiriqlar

Fenolning natriy ishqori bilan o'zaro ta'siri reaksiyasi tenglamasini yozing. Bu reaksiyada fenol qanday xossalarni namoyon qiladi?

Natriy fenolyatga karbonat angidrid va xlorid kislotaning o'zaro ta'siri reaksiyasi tenglamalarini yozing. Bu reaksiyalar natijasida eritmalarining loyqalanishiga sabab nima?

Yuqorida bajarilgan tajriba asosida fenol, karbonat va xlorid kislotalarning kislotalik xossalariга baho bering.

Fenolning IQ- spektrida gidroksil gruppasi va aromatik halqa (benzol yadrosi) ning mavjudligini tasdiqlovchi yutilish chizig'ini toping. (15-rasm).



15-rasm. Fenolning IQ-spektri.

### 3.3.8-tajriba. *Fenolni bromlash*

Reaktivlar: Fenolning 2%- li eritmasi, bromli suv.

**Ish tartibi.** Probirkaga 3-4 ml bromli suvdan quyib, unga tomchilatib fenol eritmasidan qo'shilsa, 2, 4, 6-tribromfenolning oq cho'kmasi hosil bo'ladi.

### Savollar va topshiriqlar

Fenolning bromlash reaksiyasi tenglamasini yozing.

Benzol, toluolga nisbatan fenolning bromlanishi reaksiyasi oson kechishi sababini tushuntiring.

### 3.3.9-tajriba. *Fenolga temir (III)-xloridning ta'siri*

Reaktivlar: fenolning suyultirilgan eritmasi, temir (III)-xloridning 3%- li eritmasi.

**Ish tartibi.** Probirkaga fenol eritmasidan 2-3 ml quyib, unga 1 tomchi temir (III)-xloridning 3%- li eritmasidan tomizilsa, fenol uchun hos binafsha rang hosil bo'ladi.

### Savollar va topshiriqlar

Fenol, pirokatexin, rezortsin va gidroxinonlarning tuzilish formulasini yozing.

Pirokatexin, rezortsin va gidroxinonlarni izomer moddalar deyish mumkinmi?

### 3.3.10-tajriba. *Fenolning oksidlanishi*

Reaktivlar: Fenolning 2%- li eritmasi, natriy karbonatning 10%- li eritmasi,  $KMnO_4$  ning 1% -li eritmasi.

**Ish tartibi.** Probirkaga fenol eritmasidan 2-3 ml quyib, uning ustiga natriy karbonatning 10%-li eritmasidan 1-2 ml qo'shing. Aralashmani chayqatib turgan holda 1%-li  $KMnO_4$  eritmasidan tomchilatib qo'shilganda tezda permanganat eritmasi rangsizlanadi. Bunda fenol oksidlanib, murakkab moddalarning aralashmasi hosil bo'ladi.

### Savollar va topshiriqlar

Dastlab gidroxinon, so'ngra benzoxinonning hosil bo'lishini e'tiborga olgan xolda, fenolning oksidlanish reaksiyasi tenglamalarini yozing.

## 3.4-mashg'ulot. ALDEGID VA KETONLAR

Mashg'ulotdan maqsad. Aldegid va ketonlar to'g'risida tushuncha berish, ularning reaksiyaga kirishish qobiliyatini bilish uchun kimyoviy xossalari o'rGANISH, laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida aldegid va ketonlarga xos sifat reaksiyalarni o'rGANISHdan iborat.

### 3.4.1-tajriba. *Spirtlarni oksidlab aldegidlarni olish*

Reaktivlar: metil spirti, etil spirti, xrom aralashmasi, mis to'ri.

**Ish tartibi.** a) Metil spirtini oksidlab chumoli aldegidi olish.

Quruq probirkaga 1-2 ml metil spirti quyib unga qip-qizil cho'g' holatigacha qizdirilgan spiral qilib o'ralgan mis simini tashlang va darxol probirkani chayqating. Natijada mis (II)-oksid sof xoldagi misgacha

qaytariladi, metil spirti esa chumoli aldegidga aylanadi. Hosil bo'lgan chumoli aldegidini hididan bilish mumkin.

b) Etil spirtini oksidlab sirkal aldegidini olish. Probirkaga 2-3 ml etil spirtini quyib, uning ustiga shuncha xromli aralashma qo'shing. So'ngra probirkani oxista qizdiring, bunda eritma yashil rangga o'tadi va etil spirti oksidlanib, sirkal aldegidiga hos hid hosil bo'ladi.

### Savollar va topshiriqlar

Nima uchun mis simi qorayadi? Mis simini mis (II)-oksidga o'tishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

Metil spirtini mis (II)-oksid ta'sirida oksidlanishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

Etil spirtini sulfat kislota ishtirokida kaliy bixromat (xromli aralashma) bilan oksidlanish reaksiyasi tenglamasini tuzing va koeffitsientlarini qo'yib tenglashtiring.

### 3.4.2-tajriba. Karbonil gruppaga xos sifat reaksiyalar

Reaktivlar: kumush oksidining ammiakdag'i eritmasi, 10%- li chumoli aldegi yoki sirkal aldegi eritmasi, atseton, 10%- li natriy gidroksid eritmasi, mis (II)-sulfatning 5%- li eritmasi, natriy nitroprussid eritmasi, Schiff reaktiv.

**Ish tartibi.** a) «Kumush ko'zgu» reaksiyasi. Toza probirkaga 2-3 ml yangi tayyorlangan kumush oksidining ammiakdag'i eritmasidan solib, uning ustiga formaldegidning 10%-li eritmasidan 1-2 ml qo'shing va aralashmani suv hammomida qizdiring. Bunda qaytarilgan kumush probirkal devorlariga yopishib «kumush ko'zgu» hosil qiladi.

b) «Mis ko'zgu» reaksiyasi. Probirkaga 1-2 ml formaldegid (yoki sirkal aldegid) eritmasidan olib, ishqoriy muhit hosil qilish uchun NaOH eritmasidan 2ml qo'shing. So'ngra probirkaga havorang cho'kma hosil bolguncha tomchilatib mis (II)-sulfatning 5%- li eritmasidan qo'shing. Probirkadagi aralashmani qizdiring, natijada mis (I)-gidroksidning sariq cho'kmasi hosil bolib, bu cho'kma qizil mis (I)oksidiga aylanadi.

v) Aldegidlarga fuksinsulfit kislotaning ta'siri. (Schiff reaktiv.) Ikkita probirkal olib, biriga 1-2 ml formaldegid va ikkinchisiga 1-2 ml sirkal aldegid eritmalaridan quyib, ularning xar biriga fuksinsulfit kislota eritmasidan 1-2 tomchidan qo'shing. Natijada eritmalar pushti - binafsha

rangga bo'yaladi. Yuqorida keltirilgan reaksiyalar aldegidlarga xos sifat reaksiyalardir.

g) Atsetonning mis (II)-gidroksidga munosabati. Yuqoridagi (b) tajriba atseton bilan qilib ko'rilganda ham qora cho'kma hosil bo'ladi. Bunda atseton mis (II)-gidroksidda oksidlanmaydi, eritma qizdirilganda mis (II)-gidroksidi parchalanib  $\text{Cu}_2\text{O}$  ni hosil qiladi.

Atsetonning natriy nitroprussid bilan rangli reaksiyasi. (Legal tajribasi). Soat oynachasiga taxminan 0,5 ml atseton solib, unga 2%-li natriy nitroprussid  $\text{Na}_2[\text{Fe}(\text{CN})_5\text{NO}]$  eritmasidan 1-2 tomchi va NaOH ning 10%-li eritmasidan 3 tomchi tomizing. Eritma rangining qizarishini kuzating. Bu atsetonga xos sifat reaksiya hisoblanadi.

### Savollar va topshiriqlar

Kumush oksidining ammiakdagi eritmasining hosil bolishi reaksiyasi tenglamasini tuzing.

Sirka aldegid bilan «kumush ko'zgu» reaksiyasi tenglamasini yozing.

Atseton va boshqa ketonlar bilan «kumush ko'zgu» reaksiyasi sodir bo'ladimi?

Sirka va chumoli aldegidlarining mis (II)-gidroksid bilan oksidlanishi reaksiyalari tenglamalarini yozing.

Misning qaysi birikmali havorang, sariq va qizil rangda bo'ladi?

Atseton bilan mis (II)-gidroksidi aralashmasi qizdirilganda nima uchun qora cho'kma hosil bo'ladi?  $\text{Cu}(\text{OH})_2$  ning parchalanishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

### 3.4.3-tajriba. Sirka aldegidining aldol kondensatsiyasi

Reaktivlar. Sirka aldegidning 10%-li eritmasi, NaOH ning 10%-li eritmasi, bromli suv.

**Ish tartibi.** Probirkaga 1-2 ml sirka aldegid eritmasidan solib, unga 0,5 ml atrofida NaOH eritmasidan (10%) qo'shing va asta-sekin qizdiring. Eritmaning sariq rangga bo'yalishiga, aldolning yoqimli xidiga e'tibor bering. Qizdirish davom ettirilganda, xushbo'y hid yoqolib, o'ziga xos o'tkir hid (kroton aldegid) hosil bo'ladi. Bu probirkadagi eritmaga bromli suv ta'sir ettirilsa, bromli suv rangsizlanadi.

## Savollar va topshiriqlar

Ikki molekula sirka aldegidi bilan aldol kondensatsiya reaksiyasi tenglamasini yozing.

Aldoldan kroton aldegid hosil bo'lishi reaksiyasini yozing. Bu aldegidning bromli suvning rangsizlantirishiga sabab nima?

### **3.4.4-tajriba. Atsetonning bisulfitli birikmasini olinishi**

Reaktivlar: atseton, natriy bisulfitning to'yingan eritmasi.

**Ish tartibi.** Probirkaga 2-3 ml atseton olib. Unga natriy bisulfitning to'yingan eritmasidan 1-2 ml qo'shing va probirkani tiqin bilan berkitib, kuchli chayqating. Bunda probirka isib ketadi, uni muzli suvda sovitilganda atsetonning bisulfitli birikmasi cho'kmaga tushadi. Bu reaksiya aldegidlar uchun ham xosdir.

## Savollar va topshiriqlar

Atsetonning bisulfitli birikmasini hosil qilish reaksiyasi tenglamasini yozing.

Bu reaksiya tenglamasini sirka aldegidi bilan yozing.

Hosil bo'lgan bisulfitli birikmalarni xlorid kislota ta'siridagi gidrolizli reaksiyasi tenglamasini yozing.

### **3.4.5-tajriba. Kannitsaro reaksiyasi**

Reaktivlar: benzoy aldegidi, KOH ning 10% li spirtli eritmasi

**Ish tartibi.** Probirkaga 1-2 ml benzoy aldegidi quyib, kaliyli ishqorning 10% li spirtli eritmasidan 3-4 ml qo'shing. Probirkadagi aralashma yaxshilab aralashtirilganda issiqlik ajralib chiqadi va benzoy kislotaning kaliyli tuzi cho'kmaga tushadi. Aralashmani xlorid kislota bilan nordonlanganda benzoy kislotaning kristallari ajralib chiqadi.

## Savollar va topshiriqlar

1. Ishqor ta'sirida ikki molekula aldegidning biri spirtgacha qaytarilishi, ikkinchisi benzol kislotagacha oksidlanishi reaksiyasi tenglamasini yozing (oraliq mahsulot sifatida murakkab efirning hosil bo'lishini hisobga olgan holda).

### **3.5-mashg'ulot. TO'YINGAN BIR, IKKI ASOSLI VA TO'YINMAGAN KARBON KISLOTALAR. YOG'LAR**

Mashg'uIotdan maqsad. To'yingan bir asosli karbon kislotalar va ularning funktsional hosilaiarini, kimyoviy hossalarini o'rganish va bu birikmalar, biologik jarayonlarning asosi ekanligini tushuntirishdan iborat. Ikki asosli karbon kislotalarning hossalarini o'rganishdan karboksil gruppalarning o'zaro ta'sirini, ularning eng muhim vakillarini halq xo'jaligida ishlatilishini bilishdan, to'yinmagan kislotalarning qo'sh bog'ga va karboksil gruppaga hos hamda texnik reaksiyalarni o'rganish, yoglarning esa bir asosli yuqori molekulyar kislotalarning murakkab efiri sifatida hossalarini o'rganib, ularning biologik axamiyatini bilishdan iboratdir.

#### **3.5.1-tajriba. Chumoli kislotaga hos reaksiyalar**

Reaktivlar: Kontsentrlangan chumoli kislota, 10%- li chumoli kislota eritmasi, konts.  $H_2SO_4$ , 10%-li  $H_2SO_4$  eritmasi 1%-li  $KMnO_4$  eritmasi, kumush oksidining ammiakdagi eritmasi, ohakli suv.

**Ish tartibi.** a) «Kumush ko'zgu» reaksiyasi. Dastlab kumush oksidining ammiakdagi eritmasi tayyorlanadi. Bu tayyorlangan eritmadan 2-3 ml olib, uning ustiga 0,5 ml suyultirilgan chumoli kislota (yoki natriy formiat eritmasi) qo'shing. So'ngra aralashmani extiyotlik bilan suv xammomida qizdiring. Bunda qaytarilgan toza kumush probirkaga devorlariga yopishib «kumush ko'zgu» hosil qiladi.

b) Chumoli kislotaning parchalanishi. Probirkaga 1-2 ml kontsentrlangan chumoli kislotasi solib, ustiga taxminan shuncha kontsentrlangan sulfat kislota qo'shing. Probirkani gaz o'tkazuvchi nayli tiqin bilan berkitib ohista qizdiring. Bunda chumoli kislotasi is gaziga parchalanadi va gazli nay uchini alangaga yaqinlashtirilganda ajralib chiqayotgan is gazi to'q havo rangda yonadi.

v) Chumoli kislotaning oksidlanishi. Probirkaga 2-3 ml suyultirilgan chumoli kislota, 1 ml 10%-li sulfat kislota eritmasi va 2-3 ml kaliy permanganatning 1 %-li eritmasidan quyib, probirkani gaz o'tkazuvchi nayli tiqin bilan berkiting. Probirkani qizdirayotganda gaz o'tkazuvchi nayning uchini ikkinchi probirkadagi ohakli suvga botiring. Qizdirish

natijasida chumoli kislota oson oksidlanib,  $\text{CO}_2$  va suvgaga aylanadi, probirkadagi ohakli suv loyqalanadi.

### Savollar va topshiriqlar

Nima uchun chumoli kislota (yoki natriy formiat) «kumush ko'zgu» reaksiyasiga kirishadi? Reaksiya tenglamasini yozing.

Chumoli kislotaning kontsentrlangan sulfat kislota ishtirokida parchalanishi reaksiya tenglamasini tuzing. Is gazini yonish reaksiyasi tenglamasini yozing.

Chumoli kislotaning kaliy permanganat bilan sulfat kislota ishtirokida oksidlanish reaksiyasi tenglamasini tuzing va koeffitsientlarni qo'yib tenglang. Nima uchun ohakli suv solingan probirka loyqalanadi?

### 3.5.2-tajriba. Karbon kislotalarning kislotalik hossalari

Reaktivlar: chumoli kislota, sirka kislota,  $\text{CaCO}_3$  kukuni, kaltsiy sulfat kristallari, ko'k lakmus qog'oz.

**Ish tartibi.** Ingichka shisha kappilyar yordamida kontsentrlangan chumoli' yoki sirka kislotadan olib, ko'k lakmus qog'oziga tomizib, sinab ko'rilsa qog'oz qizaradi.

Ikkita probirka olib, uning biriga shpatel yordamida ozgina  $\text{CaCO}_3$  kukunidan, ikkinchisiga esa kaltsiy sulfat kristallaridan solib, har birining ustiga oz-ozdan tomchilatib kontsentrlangan sirka yoki chumoli kislota qo'shing. Natijada, birinchi probirkadagi  $\text{CaCO}_3$  erib gaz pufakchalarining ajralishini, ikkinchi probirkada esa hech o'zgarish ro'y bermasligini kuzating.

### Savollar va topshiriqlar

Nima uchun ko'k lakmus qog'oziga chumoli yoki sirka kislota tomizilsa qizaradi?

Nima uchun sirka kislota kaltsiy karbonat bilan reaksiyaga kirishadi-yu, kaltsiy sulfat reaksiyaga kirishmaydi?

Sirka kislotani kaltsiy karbonat bilan reaksiyasi tenglamasini yozing.

### 3.5.3-tajriba. Sovunning hossalari

Reaktivlar: sovunning 1%-li eritmasi, 10%-li  $\text{H}_2\text{SO}_4$ , kaltsiy xlориднинг 5%-li eritmasi.

**Ish tartibi.** a) Sovundan yog' kislota olish. Probirkaga 3-4 ml sovunning 1 %-li eritmasidan olib, unga 10% -li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan 1-2 ml qo'shib

chayqating. Bir oz vaqt o'tgandan so'ng,sovundan ajralib chiqqan kislota probirkadagi aralashmaning yuqori qismida qotib qoladi.

b) Sovunning erimaydigan tuzini olish. Probirkaga sovun eritmasidan 2-3 ml quyib, unga kaltsiy xlorid eritmasidan bir necha tomchi qo'shing va chayqating. Natijada sovunning suvda erimaydigan kaltsiyli tuzi cho'kmaga tushadi.

### Savollar va topshiriqlar

Sovundan yog' kislotasi olish reaksiyasi tenglamasini yozing.

Nima uchun sovun qattiq suvda yaxshi ko'pirmaydi? Sovun bilan kaltsiy va magniy tuzlarining reaksiya tenglamalarini yo'zing.

### 3.5.4-tajriba. *Etilatsetatning olinishi (eterefikatsiya reaksiyasi)*

Reaktivlar: etil spirti, kontsentrlangan sirka kislota, kontsentrlangan sulfat kislota.


**Ish tartibi:** Probirkaga 2-3 ml kontsentrlangan sirka kislotasi, shuncha etil spirti va 2-3 tomchi kontsentrlangan sulfat kislotasidan qo'shing. Aralashmani extiyotkorlik bilan 1-2 minut davomida spirt lampasida chayqatib turgan xolda qizdiring va soviting. So'ngra aralashmani sovuq suv quyilgan (xajmi 50 ml) stakanga ag'daring. Bunda hosil bo'lган etilatsetat suvdan engil bo'lib, u erimay suvning yuziga qalqib chiqadi va o'ziga xos xid taratadi.

### Savollar va topshiriqlar

Eterefikatsiya reaksiyasi deb qanday reaksiyaga aytildi?

Sirka kislota bilan etil spirti orasida sodir bo'ladigan eterefikatsiyareaksiyasi tenglamasini tuzing.

Etilatsetatning PMR- spektridagi  $\text{CH}_3\text{---CH}_2\text{---}$  radikaliga tegishli protonlarning multipletligini tushuntiring.



16-rasm. Etilatsetatning PMR-spektri.

### 3.5.5-tajriba. Oksalat kislotaning olinishi va uning xossalari

Reaktivlar: natriy formiat kristallari, oksalat kislota kristallari, to'yingan oksalat kislota eritmasi, kaltsiy xloridning 5%-li eritmasi, 5%-li kaliy permanganat eritmasi, 10%-li sulfat kislota eritmasi, ohakli suv.

**Ish tartibi.** a) Natriy oksalatning natriy formiatdan olinishi. Quruq probirkaga 1 g atrofida natriy formiat kristallaridan solib, probirka og'zini nayli tiqin bilan berkiting va spirt lampasida sekin-asta qizdiring. Reaksiya natijasida ajralib chiqayotgan vodorodni yoqib ko'ring. Probirkadagi tuz erib, qaytadan qotgandan so'ng, uni sovitib, suvda eriting. Eritmani filtrlab, filtratga kaltsiy xlorid eritmasidan 2-3 tomchi qo'shganda kaltsiy oksalatning oq cho'kmasini hosil bolishini kuzating.

b) Oksalat kislotasining parchalanishi. Quruq probirkaga 1 g atrofida oksalat kislota kristallaridan olib, probirkani gaz o'tkazuvchi nay o'rnatilgan tiqin bilan berkiting va shtativga  $45^{\circ}$ qiyalikda mahkamlang va ohista qizdiring. Gaz o'tkazuvchi nayning ikkinchi uchini ohakli suv solingan probirkaga tushiring. Qizdirish natijasida oksalat kislota  $\text{CO}_2$  gaziga parchalanadi, buni ohakli suvning loyqalanishidan bilish mumkin.

v) Oksalat kislotaning oksidlanishi. Probirkaga 2-3 ml kaliy permanganat eritmasidan, 1-1,5 ml 10%-li sulfat kislota va 1-2 ml to'yingan oksalat kislota eritmasidan quyib, uni gaz o'tkazuvchi nayli tiqin bilan berkiting va ohista qizdiring. Oksalat kislotaning oksidlanishidan ajralib chiqayotgan gaz ohakli suv orqali o'tkazilsa, uni loyqalantirishini kuzatiig.

### Savollar va topshiriqlar

Natriy formiatning qizdirilganda natriy oksalatga aylanishi reaksiya tenglamasini yozing.

Natriy oksalat eritmasiga kaltsiy xlорidning o'zaro ta'siri reaksiyasi tenglamasini yozing.

Oksalat kislotaning qizdirilganda dekarboksillanish reaksiyasi tenglamasini yozing. Nima uchun ohakli suv loyqalanadi?

Oksalat kislotaning oksidlanishi reaksiyasi tenglamasini tuzib, koeffitsientlarni qo'yib tenglang:  $H_2C_2O_4 + H_2SO_4 + KMnO_4 \rightarrow$

### **3.5.6-tajriba. Olein kislotaning xossalari**

Reaktivlar: olein kislota, bromli suv, kaliy permanganatning 1 %-li eritmasi, o'yuvchi natriyning 10%-li eritmasi.

**Ish tartibi.** a) Olein kislotaning bromli suv bilan reaksiyasi. Probirkaga 3-4 ml bromli suv quyib, ustiga 2-3 tomchi olein kislotasidan qo'shing va chayqating. Bromli suvning rangsizlanishini kuzating.

b) Olein kislotaning oksidlanishi. Probirkaga 4 - 5 ml kaliy permanganatning ishqoriy eritmasidan quyib, uning ustiga 2-3 tomchi olein kislotasidan qo'shing va yaxshilab chayqating. Natijada kaliy permanganat eritmasining rangi yoqoladi va dioksistearin kislotasi hosil bo'ladi.

### **Savollar va topshiriqlar**

Olein kislotasiga bromning birikish reaksiyasi tenglamasini yozing.

Olein kislotaning oksidlanish reaksiyasi tenglamasini oxiriga etkazing va koeffitsientlarini qo'yib tenglashtiring:  $C_{17}H_{33}COOH + KMnO_4 + HOH \rightarrow$  Yuqorida keltirilgan reaksiyalar sifat tahlilida qanday maqsadda ishlatiladi?

### **3.5.7-tajriba. Paxta moyining sovunlanishi**

Reaktivlar: o'simlik (paxta) moyi, etil spiriti, 40%-li o'yuvchi natriy eritmasi.

**Ish tartibi:** Probirkaga 3 ml paxta moyi solib, ustiga 5 ml etil spiriti va 5 ml 40%-li ishqor eritmasidan qo'shing. Probirkani havo sovutgich (shisha nay o'rnatilgan tiqin) bilan berkiting, suv hammomida 8-10 minut qizdiring. Bunda sovunlanish reaksiyasi sodir bo'ladi. Aralashmani taxminan 50 ml suv solingan stakanga ag'daring va aralashtiring. Natijada

tiniq eritma hosil bo'ladi. Shu eritmada 2-3 ml olib, suv qo'shib chayqatilsa sovun ko'piklari paydo bo'ladi.

### Savollar va topshiriqlar

Paxta moyini — triolein glitseridi deb xisoblab, uning struktura formulasini yozing.

Moyning sovunlanish reaksiyasi tenglamasini yozing.

### 3.5.8-tajriba. *Moy emulsiyalarini hosil qilish*

Reaktivlar: paxta moyi, 10%-li o'yuvchi natriy eritmasi, 10%-li natriy karbonat eritmasi, sovun eritmasi.

**Ish tartibi:** To'rtta probirka olib, ularning har biriga 2-3 tomchidan paxta moyi solib, biriga 2 ml suv, ikkinchisiga 2 ml o'yuvchi natriy eritmasi, uchinchisiga esa 2 ml natriy karbonat eritmasi, to'rtinchisiga, 2 ml sovun eritmasi qo'shing. So'ngra probirkalarni kuchli chayqating va 3-5 minutdan so'ng probirkalardan moy emulsiyalarining barqarorligi aniqlanadi. Moyning suvdagi emulsiyasi eng beqaror bo'llib, u tezda buziladi.

### Savollar va topshiriqlar

Emulsiya deb qanday sistemaga aytildi?

Moyning eng barqaror emulsiyasini aniqlang.

## 3.6-mashg'ulot. UGLEVODLAR. MONOSAXARIDLAR

Mashg'ulotdan maqsad. Uglevodlarning stereokimyoviy tuzilishi, tautomeriya shakllari va muhim kimyoviy xossalalarini tajribalar asosida o'rganish jarayonida ularning tabiatdagi biologik ahamiyatini tushuntiring.

### 3.6.1- tajriba. *Monosaxaridlarning mis (II)- gidroksidi bilan ta'siri*

Reaktivlar: 1 %- li glyukoza eritmasi, 1 %-li fruktoza eritmasi, 10%-li natriy hidroksid eritmasi, mis (II) sulfatning 5%-li eritmasi.

**Ish tartibi:** Ikkita probirka olib, ularning biriga 1 %-li glyukoza eritmasidan 3 ml va ikkinchisiga 1 %-li fruktoza eritmasidan shuncha quying. Har bir probirkaga 1 ml dan ishqor eritmasidan tomchilatib

qo'shing. Bunda dastlab har ikki probirkada cho'kma hosil bo'ladi, chayqatilganda ular erib ketadi.

### **Savollar va topshiriqlar**

Nima uchun hosil bo'lgan  $\text{Ca(OH)}_2$  glyukoza va fruktoza eritmalarida erib ketadi?

Glyukozaning mis (II) gidroksid bilan reaksiya tenglamasini yozing.

#### **3.6.2-tajriba. *Monosaxaridlardagi karbonil gruppalarga hos reaksiyalar***

Reaktivlar. Glyukozaning 1% va 10%-li eritmalar, kumush oksidining ammiakdagi eritmasi, Feling suyuqligi, fenilgidrazin eritmasi

**Ish tartibi:** a)Glyukoza bilan «kumush ko'zgu» reaksiyasi. Toza probirkaga kumush oksidining ammiakli eritmasini tayyorlab ustiga glyukozaning 1 %-li eritmasidan teng hajmda qo'shing. Aralashmani suv hammomida ohista qizdirilganda «kumush ko'zgu» reaksiyasi sodir bo'ladi.

b)Feling suyuqligining qaytarilishi. Probirkaga 2-3 ml Feling suyuqligidan quyib, 1 %- li glyukoza eritmasidan 0,5 ml qo'shing va aralashmani suv hammomida bir oz qizdiring. Bunda glyukoza oksidlanadi. Feling suyuqligi esa qaytariladi va mis (I) oksidining qizg'ish-qo'ng'ir cho'kmasi hosil bo'ladi.

v)Glyukoza ozazonini olish. Probirkaga 10%-li glyukoza eritmasidan 3 ml quyib, uning ustiga fenilgidrazining sirka kislotasidagi yangi tayyorlangan eritmasidan 1 ml qo'shing va suv hammomida qizdiring. 20-30 minut davomida qizdirilgandan so'ng ozazonning sariq ignasimon kristallari ajrala boshlaydi.

### **Savollar va topshiriqlar**

Nima uchun glyukoza «kumush ko'zgu» reaksiyasiga kirishadi, fruktoza esa kirishmaydi?

Glyukoza bilan «kumush ko'zgu» reaksiyasi tenglamasini yozing.

Glyukozaning Feling suyuqligida oksidlanishi reaksiyasi tenglamasini yozing. Bu reaksiya qanday funktsional gruppani aniqlashda ishlataladi?

Glyukoza ozazoni hosil bo'lishi uch bosqichda borishini hisobga olgan xolda reaksiya tenglamasini yozing.

### **3.6.3-tajriba. Ketoza larga hos reaksiyalar**

Reaktivlar: glyukoza, galaktoza, fruktozaning 1%-li eritmali, Selivanov reaktivi.

**Ish tartibi:** Uchta probirka olib, ularning biriga glyukoza, ikkinchisiga galaktoza, uchinchisiga fruktoza eritmalaridan 3 ml dan quyib, ularning har qaysisiga 1 ml dan Selivanov reaktividan qo'shing. So'ngra bu aralashmalarni suv hammomida ( $80^{\circ}\text{C}$  da). 8-10 minut davomida qizdiring. Natijada birinchi va ikkinchi probirkalarda eritmalarining rangi o'zgarmaydi, uchinchi probirkadagi aralashmani to'q qizil rangga bo'yala boshlashini kuzating.

### **Savollar va topshiriqlar**

Selivanov reaksiyasi qanday monosaxaridlarga hos?

Selivanov reaksiyasi bo'yicha fruktozadan oksimetilfurfurolga o'tish reaksiyasi tenglamasini yozing.

## **3.7-mashg'ulot. DISAXARID va POLISAXARIDLAR**

### **3.7.1-tajriba. Disaxaridlarning qaytaruvchanlik xossalari**

Reaktivlar: saxaroza, laktoza va maltozaning 2%-li eritmali, Feling suyuqligi.

**Ish tartibi:** Uchta probirka olib, ularning biriga saxaroza, ikkinchisiga laktoza, uchinchisiga esa maltozaning 1 %-li eritmalaridan teng hajmda (2-3 ml dan) quyib, ularning har biriga 2 ml dan Feling suyuqligi qo'shing. Uchchala probirkani bir vaqtda bir xil sharoitda qizdiring. Laktoza va maltoza solingan probirkadagi eritmaning rangi o'zgarib, mis (I) oksidining qizil cho'kmasi hosii bo'ladi.

### **Savollar va topshiriqlar**

Nima uchun saxaroza Feling suyuqligini qaytarmaydi, laktoza va maltoza qaytaradi?

Laktoza va maltozalarning Feling suyuqligida qaytarilishi reaksiyalari tenglamalarini yozib, tegishli xulosalar chiqaring.

### **3.7.2-tajriba. *Saxarozaning inversiyasi (gidrolizi)***

Reaktivlar: 2%-li saxaroza eritmasi, 10%-li  $H_2S0_4$  eritmasi, 10%-li NaOH erirmasi.

- Ish tartibi:** a) Probirkaga saxarozaning 1 %-li eritmasidan 4-5 ml quyib, suyultirilgan  $H_2SO_4$  dan bir necha tomchi tomizing va aralashmani 3-5 minut davomida qaynating. Sovigandan so'ng probirkadagi aralashma muhitini ishqoriy bolguncha 10%-li NaOH eritmasidan va Feling suyuqligidan qo'shib, qizdiring. Eritmaning rangi o'zgarib, mis (I)-oksidining qizil rangdagi cho'kmasi hosil bolishini kuzating.  
b) Boshqa probirkaga saxaroza eritmasidan 3-4 ml solib uning ustiga Feling suyuqligidan qo'shib qaynatilganda hech qanday o'zgarish sodir bolmasligini kuzating.

### **Savollar va topshiriqlar**

Saxarozaning kislota ishtirokidagi gidrolizi (inversiya) tenglamasini yozing.

Nima uchun saxarozaning gidroliz mahsuloti Feling suyuqligini qaytaradiyu, saxaroza eritmasini qaytarmaydi?

### **3.7.3-tajriba. *Kraxmalga sifat reaksiya***

Reaktivlar: kraxmal, yodning kaliy yodiddagi eritmasi.

**Ish tartibi:** 5 ml suvda 1 g atrofida kraxmal eriting. Hosil bo'lган suspenziyani 50 ml qaynoq suv solingan stakanga ag'daring. Bunda tiniq kolloid eritma - kraxmal kleysteri hosil bo'ladi. Boshqa probirkaga kraxmal kleysteridan 1-2 ml olib, unga 1tomchi yod eritmasidan tomizilsa, eritma to'q ko'k rangga bo'yaladi. Agarda kartoshkaning kesilgan qismiga bir tomchi yod eritmasi tomizilganda, «ko'karish» ning sodir bo'lishini kuzating. Yod eritmasining «ko'karishi» kraxmalga hos sifat reaksiyadir.

### **3.7.4-tajriba. *Kraxmalning gidrolizlanishi***

Reaktivlar: kraxmal, sulfat kislotaning 10%-li eritmasi, natriy gidroksidning 10%-li eritmasi, yodning kaliy yodiddagi eritmasi, Feling suyuqligi.

**Ish tartibi:** 50 ml sig'imli kolba yoki stakanga 25 ml kraxmal kleysteri va 5 ml 10%-li  $H_2SO_4$  eritmasidan quyib aralashtiring. So'ngra stakandagi aralashmani 8-10 minut qaynating. Qaynatish davomida 4 yoki 5 ta probirka olib har ikki minutda alohida probirkalarga qaynayotgan

eritmadan namunalar olib, ularni ishqor bilan neytrallang va ularga yod eritmasidan bir tomchidan tomizing. Bunda namunalarning yod bilan o'zaro reaksiyasida yodning rangini o'zgarishini kuzating. 15 minut qaynatilgandan so'ng olingan namunada yod bilan o'zgarishning sodir bo'lmasligi, gidrolizning oxirgi mahsuloti glyukoza hosil bo'lganligini ko'rsatadi. So'ngra aralashmani 2-3 minut qaynatib soviting, ishqor bilan neytrallang va 2-3 ml Feling suyuqligi qo'shib qizdirilganda qizil cho'kma hosil bo'lishini kuzating.

### Savollar va topshiriqlar

Kraxmal bilan sulfat kislota aralashmasining dastlabki olingan namunalarida yod eritmasining «ko'karishiga» sabab nima?

Kraxmalning gidroliz tenglamasini yozing (oraliq mahsulotlarini hisobga olmagan xolda).

Glyukozaning Feling suyuqligida oksidlanish reaksiya tenglamasini yozing.

#### **3.7.5-tajriba.** Pentozanlardan furfurol hosil qilish

Reaktivlar: yog'och qipig'lari, xlorid kislota eritmasi (1:1), anilin xlorgidrat eritmasi.

**Ish tartibi:** Probirkaga yog'och qipig'idan ozgina solib, xlorid kislotaning (1:1) eritmasidan 2-3 ml qo'shing. Probirkani qisqich bilan ushlab 3 minut davomida qaynating. So'ngra 1-2 tomchi anilin xlorgidrat eritmasidan qo'shing. Bunda qizil rangning paydo bo'lishi furfurolning hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

### Savollar va topshiriqlar

Aldogeksoza va aldopentozalarning struktura formulalarini yozing (stereoizomerlarni hisobga olmagan xolda).

Aldopentozalardan furfurol hosil qilish reaksiya tenglamasini yozing.

Furfurolni hosil bo'lganligini yana qanday reaksiya yordamida aniqlash mumkin? Furfurol bilan «kumush ko'zgu» reaksiyasi tenglamasini yozing.

### **3.8-mashg'ulot. AMINLAR, AMINOKISLOTALAR VA OQSIL MODDALAR**

Mashg'uIotdan maqsad: aminlar, aminokislotalar va oqsillarning muhim xarakterli xossalarini, ularni texnik va biologik jarayonlardagi ahamiyatini hamda aminokislotalar oqsil moddalarning struktura birligi ekanligini bilishdan iborat.

#### **3.8.1-tajriba. Anilining olinishi (N. V. Zinin reaksiyasi)**

Reaktivlar: nitrobenzol, kontsentrlangan xlorid kislota, qalay yoki rux metali, o'yuvchi natriyning 25%-li eritmasi, kaliy bixromatning 0,5 n eritmasi.

**Ish tartibi:** Probirkaga bir tomchi nitrobenzol, 5 tomchi kontsentrlangan xlorid kislota va bir bo'lak granulangan qalay soling. So'ngra aralashmani extiyotkorlik bilan chayqatib turgan xolda ohista qizdiring. Bunda reaksiya boshlanib vodorod pufakchalari ajralib chiqa boshlaydi, qizdirishni nitrobenzolning achchiq bodom hidi yoqolguncha davom ettiring. So'ngra aralashmani sovitib, unga ishqoriy muhit hosil bolguncha ishqorning 25%-li eritmasidan tomchilatib qo'shing (eritma muhitini lakkus qog'oz bilan sinab ko'ring).

Anilinning hosil bo'lganligini bilish uchun aralashmaga 1-2 tomchi 2n  $H_2SO_4$  eritmasidan va 1-2 tomchi kaliy bixromatning 0,5 n eritmasidan quying. Bunda aralashma to'q-yashil yoki to'q-ko'k rangga bo'yaladi.

#### **Savollar va topshiriqlar**

Quyida keltirilgan nitrobenzoldan anilin olish reaksiyalari tenglamalarini tugallang:



Anilinning IQ- va PMR-spektrlarida aminogruppa va benzol halqasi uchun xarakterli yutilish maksimumlari nechaga teng.

#### **3.8.2-tajriba. Anilin ishtirokida boradigan reaksiylar**

Reaktivlar: anilin, 10%-li xlorid va sulfat kislota eritmalari, bromli suv, sirka angidridi.

**Ish tartibi: Anilin xlorid hosil qilish.** Probirkaga 0,5-1 ml anilin, 1-3 ml suv quyib chayqating. Bunda anilinning suvdagi loyqa emulsiyasi hosil bo'ladi.

Aralashmaga 10%-li HCl eritmasidan tomchilatib qo'shilganda, anilin xloridning tiniq, eritmasi hosil bolishini kuzating.

**Ligninga reaksiya.** Uchta probirka olib ularning har biriga yuqorida tayyorlangan anilin xlorid eritmasidan 1-2 ml solib, biriga daraxtning kichik tayoqchasi, ikkinchisiga bir bo'lak gazeta qog'ozni va uchinchisiga filtr qog'oz bo'lagini botiring. Tayoqcha bilan gazetaning anilin xlorid eritmasida sarg'ayishini, filtr qog'ozning esa o'zgarmay qolishini kuzating va xulosa chiqaring.

**Anilin sulfat hosil qilish.** Probirkaga 1 ml anilin quyib, 0,5 ml 10%-li sulfat kislotadan qo'shganda anilin sulfatning suvda erimaydigan cho'kmasini hosil bo'lishini kuzating.

**Tribromanilinni olish.** Probirkaga 0,5 ml anilin quyib, 5 ml suv, qo'shing va emulsiya hosil bolguncha yaxshilab chayqating. Bu emulsiyaga teng hajmda bromli suv qo'shganda 2,4,6-tribromanilin cho'kmasi hosil bo'ladi.

**Atsetanilidni (antifibrin) olish.** Anilinning suvdagi eritmasidan 1-2 ml olib, uning ustiga 0,5 ml sirka angidrid qo'shing va probirkani yaxshilab chayqating, atsetanilidning kristallari hosil bo'ladi.

### Savollar va topshiriqlar

Anilin gidroxloridning hosil bolish reaksiyasi tenglamasini yozing.

Nima uchun gazeta, yoki yog'och bo'lagiga anilin gidroxlorid eritmasi tomizilganda, to'q-sariq bo'yalish sodir bo'ladi-yu, filtr qog'ozda bo'lmaydi?

Anilin gidroxlorid eritmasini xlorli oxak va kaliy bixromat bilan rangli reaksiyalari anilinning qanday hossasiga asoslangan?

Anilin sulfatning hosil bo'lishi reaksiyasi tenglamasini tuzing.

Anilinga bromli suvning tai'siri reaksiyasi tenglamasini yozing.

Atsetanilidning hosil bo'lish reaksiyasi tenglamasini tuzing.

### 3.8.3-tajriba. *Mochevina nitrat tuzini olish*

Reaktivlar: mochevinanirig to'yingan eritmasi, kontsentrlangan nitrat kislota.

**Ish tartibi:** Probirkaga mochevinaning kontsentrlangan eritmasidan 1-2 ml quyib, kontsentrlangan nitrat kislotadan bir oz qo'shganda mochevina nitrat tuzining cho'kmaga tushishini kuzating.

### Savollar va topshiriqlar

Mochevina nitrat tuzining hosil bolish reaksiyasi tenglamasini tuzing.

Mochevina va mochevina nitrat tarkibidagi azotning massa ulushini hisoblang va solishtiring.

### 3.8.4-tajriba. *Mochevinaning parchalanishi (biuretning hosil bo'lishi)*

Reaktivlar: mochevina, qizil lakmus, o'yuvchi natriyning 10%-li eritmasi, 2%-li mis (II)-sulfat eritmasi.

**Ish tartibi:** Quruq probirkaga mochevina kristallaridan 1 g atrofida olib, uni qisqich bilan tik ushlagan xolda qizdiring. Bunda ajralib chiqayotgan ammiak gaziga e'tibor bering (ko'k lakmus qizaradi). Qizdirish davom ettirilsa, suyilgan mochevina qaytadan qotadi. Probirka sovigandan so'nga 2-3 ml suv qo'shing va chayqating. Bu aralashmaga 1 ml 10% -li ishqor eritmasi, 1-2 tomchi 2%-li CuSO<sub>4</sub> eritmasidan qo'shganda, qizil-binafsha bo'yалиш ro'y beradi, bu mochevinani biuretga aylanganini ko'rsatadi.

### Savollar va topshiriqlar

Mochevinaning qizdirish natijasida parchalanib biuretni hosil qilish reaksiyasi tenglamasini yozing.

Biuret reaksiyasi (qizil-binafsha bo'yалиш) qanday birikmalar uchun hos?

### 3.8.5-tajriba. *Oqsillarga hos rangli reaksiyalar*

Reaktivlar: tuxum oqsili eritmasi, Kontsentrlangan nitrat kislota, 10%-li ammiak eritmasi, 10%-li o'yuvchi natriy eritmasi, 2%-li mis (II)-sulfat eritmasi, Milon reaktivi.

**Ish tartibi: Ksantoprotein reaksiyasi.** Probirkaga 2-3 ml tuxum oqsili eritmasidan quying va unga extiyotkorlik bilan 1-2 ml konts. HNO<sub>3</sub> qo'shing va bu aralashmani ohistalik bilan qizdiring. Bunda oqsil moddasi bir joiga to'planib oladi va sariq bo'yалиш ro'y beradi. Probirkadagi aralashmaga 10%-li ammiak eritmasidan qo'shganda sariq rangli eritma to'q-sariq rangga bo'yaladi. Bunday bo'yалиш oqsil moddalar tarkibida aromatik yadrolar (fenilalanin, tirozin, triptofan) ning borligini ko'rsatadi.

**Biuret reaksiyasi.** Probirkaga 2-3 ml tuxum oqsili eritmasi, 2-3 ml o'yuvchi natriyning 10%-li eritmasidan quying va unga mis sulfatning 2%-li eritmasidan 1-2 tomchi tomizing. Bunda eritma binafsha rangga bo'yaladi. Bu bo'yalish oqsil tarkibida ( $-\text{NH}-\text{CO}-$ ) peptid bog'i borligini ko'rsatadi.

**Milon reaksiyasi.** Probirkaga tuxum oqsili eritmasidan 2-3 ml soling va uning ustiga 0,5 ml Milon reaktividan qo'shing va aralashmani suv hammomida qizdiring. Bu reaksiya oqsil moddasi tarkibida tirozinning borligini ko'rsatadi.

### Savollar va topshiriqlar

Tuxum oqsili eritmasiga konts.  $\text{HNO}_3$  qo'shib qizdirilganda eritmani sariq rangga bo'yalishiga sabab nima?

Fenilalaninni konts.  $\text{HNO}_3$  bilan nitrolanish reaksiyasi tenglamasini yozing.

Biuret reaksiyasi qanday birikmalar uchun hos?

Milon reaktivini qizil-pushti rangga bo'yalishi oqsil tarkibida qanday aminokislota qoldig'i borligini ko'rsatadi?

Nima uchun jelatina eritmasi bilan ksantogen va Milon reaksiyalari ketmaydi.

### 3.8.6-tajriba. *Oqsillarni cho'kishi*

Reaktivlar: tuxum oqsili eritmasi, etil spirti, mis (II) sulfatning to'yingan eritmasi, 20% -li  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$  eritmasi.

**Ish tartibi:** 1. **Oqsillarni qizdirish natijasida cho'kishi (ivishi).** Rrobirkaga tuxum oqsili eritmasidan 2-3 ml quying va uni qaynaguncha gaz gorelkasi (yoki spirt lampasi) alangasida qizdiring. Bunda oqsil pag'a-pag'a bo'lib loyqa xolda cho'kmaga tushishini kuzating.

**Oqsillarni spirt bilan cho'ktirish.** Rrobirkaga tuxum oqsili eritmasidan 3 ml quying va unga ozgina etil spirti qo'shilsa, cho'kma hosil bo'ladi. Agar bu cho'kmaga tezlik bilan distillangan suv qo'shilsa cho'kma erib ketadi.

**Oqsillarning tuzlar ta'sirida cho'kishi.** Ikkita probirka olib, ularga tuxum oqsili eritmasidan 1-2 ml dan quying. So'ngra birinchi probirkaga mis (II) sulfatning to'yingan eritmasidan, ikkinchisiga esa 20%-li qo'rg'oshin (II) atsetat eritmasidan qo'shing va probirkalarni chayqating. Bunda har ikkala probirkada cho'kma hosil bo'lishini kuzating.

## **Savollar va topshiriqlar**

Oqsillarni denaturatlanishi nima?

Tuxum oqsilining spirtda cho'kishi qaytar jarayonmi yoki qaytmasmi?

Nima uchun tuxum oqsilini spirt ta'sirida cho'kishi qaytar jarayondir?

Oqsillarni og'ir metall tuzlari ta'sirida qaytmas denaturatlanishiga sabab nima?

### **3.9-mashg'ulot. GETEROTSIKLICK BIRIKMALAR VA ALKALOIDLAR**

Mashg'ulotdan maqsad. Geterotsiklik birikmalar va alkaloidlar to'g'risida tushuncha berish va ularning eng muhim vakillarining xossalariini o'rganishdan iboratdir.

#### **3.9.1-tajriba. Furanning olinishi**

Reaktivlar: sliz kislota, konts. HCl.

**Ish tartibi:** Quruq probirkaga 1,5-2 g sliz kislota kristallaridan soling va uning og'zini gaz o'tkazuvchi nay o'rnatilgan tiqin bilan berkitib, gaz gorelkasi alangasida qizdiring. Qizdirishni davom ettirgan xolda konts. HCl bilan xo'llangan archa yog'ochini gaz chiqarish nayining uchiga tuting. Bunda yog'ochning furan bug'i ta'sirida yashil rangga bo'yalishini kuzating va xulosa chiqaring.

#### **Savollar va topshiriqlar**

Sliz kislota "quruq xaydalganda" avval pirosliz kislota, so'ngra u dekarboksillanib furan hosil qiladi. Reaksiya tenglamasini yozing:

Nima uchun sliz kislota kristallarining qizdirish natijasida parchalanishini «quruq xaydash» deyiladi?

#### **3.9.2-tajriba. Furfurolning olinishi.**

Reaktivlar: yog'och qipig'i yoki kepak, xlorid kislota eritmasi (1:1), kontsentrlangan sırka kislota, anilin.

**Ish tartibi:** Probirkaning 1/5 qismigacha quruiq yog'och qipig'i (yoki kepak) solib, unga qipig'ni ko'mguncha xlorid kislota (1:1) eritmasidan qo'shing. Probirkaning og'zini gaz chiqaruvchi egik nay o'rnatilgan tiqin bilan berkitib, shtativga mahkamlang va gaz gorelkasi alangasida qizdiring. So'ngra nayning bir uchiga anilin xlorid shimilgan filtr qog'oz

tutilsa, reaksiya natijasida hosil bo'lgan furfurol ta'sirida qog'oz qizil rangga bo'yaladi.

### Savollar va topshiriqlar

Yog'och qipig'i (yoki kepak) tarkibidagi pentozanlarni ( $C_5H_8O_4$ )<sub>n</sub> mineral kislotalar ta'sirida gidrolizlanishi reaksiyasi tenglamasini yozing. Xuddi shu sharoitda pentozadan furfurolning hosil bolishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

#### 3.9.3-tajriba. Piridin va uning xossalari

Reaktivlar: piridin, 1 % -li temir (III)-xlorid eritmasi, qizil lakmus qog'ozi, 1 % - li kaliy permanganat eritmasi, 10%- li  $Na_2CO_3$  eritmasi.

**Ish tartibi:** a) Probirkaga 1 ml piridin solib, uning ustiga 3 ml suv quying va chayqatib aralashtiring. Natijada piridinning tiniq eritmasi hosil bo'ladi. Piridinning suvda yahshi erishi va o'ziga hos xidiga (qolansa) e'tibor bering.

Hosil bo'lgan piridin eritmasiga qizil lakmus tushiring va uning ko'karishini izohlang.

b) Probirkaga piridinning suvdagi eritmasidan taxminan 1-2 ml solib, ustiga 2-3 tomchi temir (III)- xlorid tomizing. Natijada temir (III) hidroksidning cho'kmasi hosil bo'lishini kuzating.


v) Probirkaga piridinning suvdagi eritmasidan 1 ml solib, uning ustiga 1 ml 1 %-li  $KMnO_4$  eritmasi va 1 ml 10%-li  $Na_2CO_3$  eritmasidan qo'shing. Aralashmani yaxshilab chayqatib, aralashtiring. Bunda kaliy permanganat rangsizlanmaydi. Aralashma qizdirilganda ham eritmaning rangi o'zgarmaganligini kuzating. Piridinning kuchli oksidlovchilarga nisbatan munosabatini izohlang.

### Savollar va topshiriqlar

Nima uchun piridin eritmasida qizil lakmus qog'ozi ko'karadi.

Piridinning suv bilan ammoniy hidroksidiga o'xshash asos hosil qilishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

Piridin hidroksidning temir (III)-xlorid eritmasi bilan o'zaro ta'siri reaksiyasi tenglamasini yozing.



Nima uchun piridin eritmasida kaliy permanganat eritmasining rangi o'zgarmaydi?

### **3.9.4-tajriba. Xinolining xossalariini o'rGANISH**

Reaktivlar: xinolin, konts. HCl, 10%- li NaOH eritmasi, 1 %-li KMnO<sub>4</sub> eritmasi, 10%- li natriy karbonat eritmasi.

**Ish tartibi:** a) **Xinolining suvda eruvchanligi.** Probirkaga 0,5-1 ml xinolin va 2-3 ml suv soling. So'ngra probirkani yaxshilab chayqating. Hosil qilingan emulsiyani bir oz tindiring. Natijada xinolin tomchilari probirka tubiga yig'ilganligini kuzatib, uning suvda eruvchanligi haqida xulosa chiqaring.

b) **Xinolining asosli xossalari.** Probirkaga 0,5-1 ml xinolin, 1-2 ml suv soling va xinolin eriguncha tomchilatib konts. HCl dan qo'shing. Bunda suvda yaxshi eriydigan xinolin gidroxlorid tuzi hosil bo'lib, aralashma bir oz qiziydi. Hosil bo'lgan xinolin gidroxlorid tuzi eritmasiga NaOH ning 10%-li eritmasidan tomchilatib qo'shilsa, tuzning parchalanib erkin xinolin og'ir tomchisining probirka tubiga yig'ilishini kuzating.

v) **Xinolining oksidlanishi.** Probirkaga xinolin gidroxlorid eritmasidan 0,5 ml olib, ustiga 1 %-li KMnO<sub>4</sub> eritmasidan 1-2 tomchi va 10 %-li Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> eritmasidan 1-2 tomchi qo'shing. So'ngra aralashmani yaxshilab chayqating va bir oz qizdiring. Natijada binafsha rangli aralashmani rangsizlanishini kuzagting.

### **Savollar va topshiriqlar**

Tajriba natijalari asosida xinolining suvda eruvchanligi to'g'risida xulosa chiqaring.

Xinolining konts. HCl bilan suvda eruvchan xinolin gidroxlorid tuzining hosil bolishi va tuzning ishqor ta'sirida parchalanishi reaksiyalari tenglamalarini yozing.

Xinolining KMnO<sub>4</sub> ta'sirida oson oksidlanib, piridin 2,3- dikarbon kislotani hosil qilishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

Piridin bilan xinolining asosli xossalariini va ularning oksidlovchilarga munosabatini taqqoslab bajarilgan tajribalar asosida xulosalar chiqaring.

### **3.9.5-tajriba. O'simliklar tarkibida alkaloidlarning mavjudligini aniqlash**

Reaktivlar: o'simlik namunalari, 10%-li  $H_2SO_4$  eritmasi, 2%-li kremnevolffram kislotasi.

**Ish tartibi:** Og'zi kattaroq probirka yoki kolbaga tahlil uchun olingan maydalangan quruq o'simlik namunasidan taxminan 5 gramm solib, uning ustiga 10%-li  $H_2SO_4$  eritmasidan (o'simlikni ko'mib tursin) quying. 4-5 soatdan so'ng o'simlikni kislotali ekstraktidan boshqa probirkaga filtr qog'ozi orqali filtrlab oling va filtratning ustiga 1-2 tomchi kremnevolffram kislotasi eritmasidan qo'shing. Bunda quyuq cho'kmaning hosil bo'lishi o'simlik tarkibida alkaloidlarning mavjudligidan dalolat beradi.

### Savollar va topshiriqlar

Alkaloidlar deb qanday birikmalarga aytildi?

Alkaloid saqllovchi qanday eng muhim o'simliklarni bilasiz? Ulardan alkaloidlar qanday ajratib olingan? Ularning ishlatilish soxalarini ayting?

### 3.9.6-tajriba. Alkaloidlar uchun umumiy sifat reaksiyalari

Reaktivlar: xinin gidroxlorid, anabazin gidroxlorid, kofein yoki laboratoriyyada mavjud alkaloidlar namunasi, kremnevolffram kislotasining 1%-li eritmasi, 5%-li sulfat kislota eritmasi, Dragendorf reaktivi.

**Ish tartibi:** Alkaloidlarni aniqlash, ularni turli reaktivlar bilan cho'kmaga tushishi yoki rang hosil qilishiga asoslangan.

**Alkaloidlarni kremnevolffram kislotasi bilan cho'ktirish.** Probirkaga (yoki soat oynasiga) laboratoriyyada mavjud alkaloid namunasi kristallaridan skalpel yordamida ozgina soling va uni 2-3 tomchi 5%-li sulfat kislota eritmasida eritib, 1-2 tomchi kremnevolffram kislota eritmasidan tomizing. Natijada quyuq cho'kmaning hosil bo'lishini kuzating.

**Dragendorf reaktiv bilan rangli reaksiya.** Soat oynasida laboratoriyyada mavjud alkaloid namunalari kristallarini 1-2 tomchi spirtda eriting. So'ngra bu eritmani ingichka shisha kappilyar yordamida filtr qog'ozga tomizing va quriting. Bu qog'ozni eritma tomizilgan joyiga purkagich yordamida Dragendorf reaktivi sepilsa alkaloidlarga hos bo'yalish hosil bo'ladi.

## Savollar va topshiriqlar

Alkaloidlarni aniqlash qanday reaksiyalarga asoslangan?

Tajriba uchun olingan alkaloidlarning tuzilish formulasini yozing va asosiy xossalariini bayon qiling.

Siz bilgan alkaloidlarning tuzilish formulasini yozib, ularni ishlatilish sohasini bayon qiling.

### **3.9.7-tajriba. *Choydan kofein olish***

Reaktivlar: quruq choy, 5%-li sulfat kislota eritmasi, kremnevolfraam kislota eritmasi (1%-li), Dragendorf reaktivi.

**Ish tartibi:** 0,3—0,5 g atrofida maydalangan choy kukunidan solib, uning ustini soat oynasi bilan berkiting va tigelni asta-sekin qizdiring. Bunda soat oynasi yuzasida sublimatsiyalangan qirovsimon kofein kristallari yig'iladi. Hosil qilingan kichkina tigelga kristallarni skalpel yordamida qirib olib, 2 ml suvda eriting. Kofein eritmasi bilan 3.9.6-tajribada keltirilgan reaktivlar yordamida alkaloidlarga hos sifat reaksiyalarini bajaring.

## **IV-MODUL. FIZIK VA KOLLOID KIMYO**

### ***4.1-mashg`ulot. Sirt faol modda eritmalarining sirt tarangligini stalagmometr yordamida aniqlash***

**Ishning maqsadi:** Suyuqliklarning fizik-kimyoviy xossalari hamda suyuqlikda erigan moddalarning suyuqlik sirt tarangligiga ta'sirini o'rganish.

**Kerakli asbob va reaktivlar:** Stalagmometr, qisqichli shtativ, 100 ml li to'rtta stakan. Etil, propil, butil spirtlarini 0,05n ; 0,1n; 0,25n ; 0,5 n-li eritmalari va distillangan suv.

**Sirt taranglik.** Suyuqlik sirtida molekulalararo tortilish kuchlari muvozanatga kelmagan molekulalar borligi uchun u qavatda sirtqi erkin energiya paydo bo'ladi. Bu energiya doim kamayishga intiladi, ya'ni suyuqlik sirtida sirt tarangligi xossasiga ega bo'lgan parda hosil bo'ladi.


Suyuqlik sirtini kengaytirish uchun, ya'ni uning sirt tarangligini yengish uchun ma'lum ish bajarish zarur. Sirtni 1 sm<sup>2</sup> kengaytirish uchun zarur bo'lgan ish sirtqi energiyaning o'lchovi sifatida qabul qilingan va u sirt taranglik koeffitsienti yoki qisqacha sirt taranglik ( $\sigma$  sigma) deb ataladi. Sirt tarangligining birligi 1 erg/sm<sup>2</sup>=dn.sm/sm<sup>2</sup>=1 dn/sm.

Sirt taranglik mavjud bo'lgani uchun, kappilyardan oqib tushayotgan suyuqlik tomchi hosil qiladi. Tomchi og'irligi sirt taranglik kuchini yengsa, u kappilyardan uzilib tushadi. Bundan foydalanib sirt taranglikni aniqlash mumkin.

Ba'zi bir moddalar suyuqlikning sirt tarangligini kamaytiruvchi moddalar sirt tarangligini o'zgartiradi. Sirt taranglikni kamaytiruvchi moddalar sirt - aktiv, aksincha sirt taranglikni oshiruvchi moddalar sirt - noaktiv moddalar deyiladi. Sirt aktiv moddalarga spirtlar, organik kisloalar kiradi. Sirt - noaktiv moddalarga esa mineral kislotalar, ishqorlar va tuzlar eritmalari kiradi.

Suyuqliklarning sirt tarangligini stalagmometr yordamida aniqlanadi. Stalagmometr nayga o'xshash asbob bo'lib, o'rtasida keng qismi, uning yuqorisida xamda pastida, boshlang'ich va oxirgi o'lchov belgilar bor.

Suyuqlik, asbobning silliqlangan gorizontal keng yuzasidagi kappilyar teshigi orqali tomchilab oqadi.



**Ish tartibi.** Stalagmometrni vertikal holda shtativga mahkamlanadi. Avvaliga distillangan suvni shunday so‘riladiki, suvning sathi stalagmometrning yuqori belgisidan yuqoriroq bo‘lsin. Suyuqlikning sathi belgi bilan bir xil bo‘lgandan boshlab oqib tushayotgan tomchilar soni hisoblana boshlanadi. Suyuqlik hajmi kamayib uning oxirgi qismi pastki belgidan o‘tganda tomchi sonini hisoblash to‘xtatiladi. Tajriba uch marta qaytarilib, tomchi sonining o‘rtacha qiymati olinadi va natijalar 1-jadvalga yoziladi.

1-Jadval

Olingan natijalarni yozish.

Tartib raqami	Eritma kontsen- tratsiyasi	Tomchilar soni				$\delta$	Sirt tarangligi $\delta$		
		I	II	III	O‘rtacha		$\delta_{nisb}$	$\delta_{abs}$	
1.	0 (suv)								
2.	0,05								
3.	0,10								
4.	0,25								
5.	0,50								

Xuddi shu tartibda stalagmometrdan oqib tushayotgan turli kontsentratsiyali butyl spirit eritmalarining tomchilar soni ham aniqlanadi.

Eritmalarning sirt tarangligi yuqorida keltirilgan tenglama yordamida hisoblanadi, ya'ni:

$$\delta = \delta_0 \frac{\rho n_0}{\rho_0 n} \quad (1)$$

$\delta$ ,  $\rho$ ,  $n$  –tekshirilayotgan suyuqlikni sirt tarangligi, zichligi va tomchilar soni.

$\delta_0$ ,  $\rho_0$ ,  $n_0$  – suvning sirt tarangligi, zichligi va tomchilar soni.

Suvning  $\delta_0$  qiymati ayni harorat uchun 2-jadvaldan olinadi. Ko'pincha suvning va sirt faol eritmasining zichliklari o'zaro kam farq qiladi. Shuning uchun  $\delta = \delta_0$  deb qabul qilish ham mumkin. Unda (1) tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:


$$\delta \text{ nisb} = \frac{\mathbf{d} \cdot \mathbf{n}_{H_2O}}{\mathbf{d} H_2O \cdot \mathbf{n}} \quad (2)$$

2-jadval

Turli haroratlarda suvning sirt tarangligi.

Harorat $^{\circ}\text{C}$	$\delta_0$ , $\text{mDj/m}^2$	Harorat $^{\circ}\text{C}$	$\delta_0$ , $\text{mDj/m}^2$
15	73,49	22	72,44
16	73,34	23	72,28
17	73,19	24	72,13
18	73,05	25	71,97
19	72,90	26	71,82
20	72,75	27	71,66
21	72,59	28	71,50

Jadvalda keltirilgan natijalardan foydalanib, sirt tarangligining sirt faol modda eritmasi kontsentratsiyasiga bog'liqlik grafigi sirt taranglik izotermasi chiziladi (1-rasm).




1-rasm. Sirt taranglikning eritma kontsentratsiyasiga bog'liqlik grafigi

Sirt taranglik izotermasidan sirt faollik topiladi:

$$\alpha = -\left(\frac{d\delta}{dc}\right)_{c \rightarrow 0} \quad \text{Buning uchun } \beta \text{ burchakning manfiy ishora bilan olingan}$$

tangens burchagi qiymati aniqlanadi. Adsorbsiya izotermasini  $G=\varphi(s)$  chizish uchun tajribada topilgan barcha nuqtalar uchun  $d\delta/dc$  aniqlanib, shu nuqtalar uchun tenglama (1) bo'yicha  $G$  hisoblanadi. Hisoblash bilan topilgan  $a$ ,  $\delta$ ,  $d\delta/ds$ ,  $G$  qiymatlar 1-jadvalga yoziladi va suyuqlik-gaz adsorbsiya izotermasi chiziladi (2-rasm).



2-rasm. Suyuqlik – gaz adsorbsiya izotermasi

## *Savol va topshiriqlar*

1. Moddalarning gaz, suyuq va qattiq xolatlari orasidagi o'xshashlik va farq nimalardan iborat?
2. Moddalarning suyuq xolatini bayon qiling.
3. Sirt taranglik koeffitsienti nima?
4. Sirt taranglikni qanday aniqlash usullarini bilasiz?
5. Suyuqlikning qovushqoqligi va oquvchanligi nima?

6.  $20^{\circ}\text{C}$  da suv va butil spirtining uch xil eritmasi tomchilar soni stalognometrda ketma-ket o'lchangan. Suyuqliklarning massasi (kg)  $4,64 \cdot 10^{-3}$ ;  $4,616 \cdot 10^{-3}$ ;  $4,622 \cdot 10^{-3}$  va  $4,40 \cdot 10^{-3}$ ga teng. Tomchilar soni esa 29; 41; 57 va 75 ta. Har bir spirt eritmasining sirt tarangligini aniqlang. Suvning ayni temperaturada sirt tarangligi  $72,75 \cdot 10^{-3}$  n/m teng.

### **4.2-машгулом. Termokimyo**


**Termokimyo.** Deyarli barcha kimyoviy reaksiyalarda issiqlik holidagi energiya yutiladi yoki ajraladi. Yutilgan yoki chiqarilgan energiya miqdori reaksiyaning issiqlik effekti deyiladi. Fizik kimyoning va kimyoviy termodinamikaning reaksiyalarining issiqlik effektini, moddalarning issiqlik sig'imini o'rganadigan bo'limi termokimyo deyiladi. Issiqlik chiqishi bilan boradigan reaksiyalar ekzotermik, issiqlik yutilishi bilan boradiganlari endotermik reaksiyalar deyiladi.

Oddiy moddalardan 1 mol murakkab modda hosil bo'lishida ajralib chiqqan yoki yutilgan issiqlik shu murakkab moddaning hosil bo'lish issiqligi deyiladi.

Termodinamikaning birinchi qonuni issiqlik effekti bilan sistema ichki energiyasining yoki entalpiyaning o'zgarishi orasidagi munosabatni aniqlashga imkon beradi.

1836 yil rus olimi G.I.Gess o'zining tajribasiga asosan, kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti reaksiyada ishtirok etadigan moddalarning boshlang'ich va oxirgi holatlarigagina bog'liq, lekin boshlang'ich holatdan oxirgi holatga qanday yo'l bilan o'tilganiga bog'liq emaslik qonunini yaratadi.

Masalan, uglerod kislrororra yondirilganda karbonat angidrid ikki xil yo'l bilan hosil bo'lishi mumkin.



$$Gess qonuniga ko'ra \quad Q = Q_1 + Q_2$$

Gess qonuni fiziologiyada katta ahamiyatga ega. Organizmda ovqat maxsulotlar oksidlanganda qancha energiya chiqishi shu qonun asosida xisoblab topiladi va ovqatlarning kaloriyaliligi hamda to'yimligi aniqlanadi.

Tuzlar suvda eriganda issiqlik yutilishi yoki chiqarilishi mumkin. Gess qonuni yordamida amalda o'tkazilishi qiyin bo'lgan biror bosqichning issiqlik effektini hisoblash mumkin.

Masalan:  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$  kristallgidratning hosil bo'lishi issiqligini aniqlashda avvalo suvsiz  $CuSO_4$  so'ngra  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$  tuzining erish issiqliklarini aniqlab, ular orasidagi farq  $Q = Q_{CuSO_4} - Q_{CuSO_4 \cdot 5H_2O}$  qiymatidan foydalanamiz.

Tuzlar erish jarayonida:

1. Ularning kristall panjaralari buziladi, molekulalar ionlarga dissotsialanadi, bunda  $Q_1$  miqdor issiqlik yutiladi.
2. Hosil bo'lgan ionlar suv molekulalari bilan o'rab olinadi, ya'ni gidratlanadi, bunda  $Q_2$  miqdor issiqlik ajralib chiqadi.

Tuzning erish issiqligi ikkala jarayonlarning effektlari yig'indisiga teng, ya'ni

$$Q_{erish} = Q_1 - Q_2$$

Mustahkam kristall panjaraga ega va ionlari kuchsiz gidratlanuvchi modda erishida issiqlik yutiladi. Kuchsiz kristall panjaraga ega va ionlari kuchli gidratlanuvchi moddalar eriganda issiqlik ajralib chiqadi. Natijaning to'g'ri bo'lishi uchun eritilayotgan modda bilan erituvchi modda molekulalari soni 1 moldan kam bo'lmasligi kerak.

Moddaning erish issiqligi deyilganda 1 mol modda erituvchining shunday miqdorida eritilganda ajralib chiqadigan issiqlik tushuniladiki, o'sha eritmaga qo'shimcha miqdor erituvchi qo'shilganda issiqlik miqdori o'zgarmasligi kerak.


Jarayonlarning issiqlik effektini o'lchashda termometr va kalorimetr asbobidan foydalaniladi. Ishlatiladigan termometrnii issiqlik darajasi 0,02 – 0,01 atrofida bo'lishi shart. Kalorimetr - katta va kichik ikkita stakanlardan iborat, kichik stakan kattasi ichida qo'yilgan yog'och po'kakli probka ustiga joylashtiriladi. Stakanlar devorlari bir-biriga tegmasligi kerak. Ichki stakanga termometr va aralashtirgich tushirilgan bo'ladi. Erish issiqligini aniqlashda kalorimetr asbobi uni o'rab olgan muhit o'rtasidagi, erish jarayonidagi harorat qiymatining o'zgarishini kuzatib borish kerak.

Kalorimetrdada tuz erishi paytida ajralgan yoki yutilgan issiqlik miqdori stakan, aralashtirgich, termometr, suv va tuzlardan olinadi yoki aksincha ularga beriladi. Shuning uchun ularning issiqlik sig'imlarini va og'irliklarini (grammda) xisobga olish kerak.

#### ***4.2.1- tajriba. Tuzlarning erish va neytrallanish reaksiyasining issiqlik effektini aniqlash***

**Ishning maqsadi:** Har qanday kimyoviy reaksiya yoki jarayon issiqlik yutilishi yoki ajralishi bilan amalga oshadi. Termokimyoda ana shu issiqlik effekti aniqlanadi. Bunda shuningdek, turli moddalarning issiqlik sig'imlari ham o'r ganiladi. Natijada, reaksiya (jarayon)ni boshqarish imkoniyati vujudga keladi.

**Kerakli asboblar va moddalar:** Ikkita stakan A va B - lardan iborat kalorimetr, shtativ, distillangan suv, sekundomer, aralashtirgich (C); termometr (D); Tuzlar: KCl, CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub>, NaCl, NH<sub>4</sub>N0<sub>3</sub>, NH<sub>4</sub>Cl, NaNO<sub>3</sub>, KNO<sub>3</sub> texnik tarozi, 100 va 500 ml hajmli menzurkalar.



### ***Ish tartibi.***

1. A stakam C aralashtirgich bilan birgalikda tarozida tortiladi ( $m_1$ ).
2. A stakan B stakan ichiga joylashtiriladi va A stakanga 500 ml distillangan suv solinadi ( $m_2$ ).
3. Biror tuzdan 10 g tortib olinadi ( $m_3$ ).
4. D termometri shtativga osib, uning simobli qismi A stakandagi suvga botirib qo'yiladi.
5. Termometr suvga botirilgandan boshlab, har bir minutda, o'zgarmas qiymat bo'lguncha harorat o'lchab boriladi.
6. Suvga avvaldan tortib olingan 10 g tuz solinadi va 2 minut davomida aralashtirgich C yordamida aralashtirilib, tuz eritiladi.
7. Tuz butunlay erib ketgandan keyin, 20 minut davomida, har minut vaqt oralig'ida termometr ko'rsatkichi o'lchanadi. Olingan natijalar jadvalga yozib boriladi.

#### ***I- boshlang'ich davr - haroratning xona haroratiga tenglashishi davri;***

Vaqt (minut)						
Harorat, $^{\circ}\text{C}$						

#### ***II - issiqlikning yutilish davri;***

Vaqt (minut)						
Harorat, $^{\circ}\text{C}$						

#### ***III - issiqlik yutilgandan keyingi davr.***

Vaqt (minut)						
Harorat, $^{\circ}\text{C}$						

Jadval natijalari asosida grafik chiziladi. Koordinat abscissa o'qiga vaqt ( $t$ ), ordinate o'qiga harorat ( $T^{\circ}\text{C}$ ) qo'yiladi. Grafikda 3 davr kuzatiladi:

Grafikdan I va III davrlar orasidagi vaqt  $\Delta t$  topiladi. So'ngra  $\Delta t$  orqali tuzning erish issiqligi hisoblanadi. Bunday hisoblash uchun quyidagilar berilgan bo'lishi kerak: shisha idishning solishtirma issiqlik

sig‘imi  $C_1=0,2$  kal/gram.grad.; eritmaning solishtirma issiqlik sig‘imi  $C_2=1,0$  kal/gram.grad.; termometr simobli qismining solishtirma issiqlik sig‘imi  $C_4=0,46$  kal/gram.grad; eritish uchun olingan tuzning solishtirma issiqlik sig‘imi  $C_3$  quyidagi jadvaldan olinadi:

Tuz	NaCl	NH <sub>4</sub> Cl	NaNO <sub>3</sub>	KNO <sub>3</sub>	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub>	CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub>	KCl
$C_3$	0,978	0,982	0,975	0,976	0,972	0,982	0,975

10 g tuz 500 g suvda eriganda yutiladigan issiqlik miqdori:

$$q = (m_1 c_1 + m_2 c_2 + m_3 c_3 + m_4 c_4) \Delta t$$

Tenglamadagi  $m_4$  termometrning suvgaga botirilgan simobli qismining og‘irligi bo‘lib, uni shu qismining hajmini 10 ml li menzurka yordamida o‘lchash orqali hisoblab topiladi. Simobning solishtirma og‘irligi  $\rho=13$  gramm/ml.

$$m_4 = V \cdot \rho$$

$V$  - termometrning suvgaga botirilgan simobli qismining hajmi, ml.

Endi, 1 gramm-molekula tuzning erish issiqligi tajribida aniqlanadi. Buning uchun proporsiya tuziladi, ya’ni 10 gramm tuz eriganda q- issiqlik yutilsa, 1 gramm-mol tuz eriganda yutiladigan issiqlik miqdori quyidagi tenglamadan topiladi:

$$Q_{eritish} = \frac{M \bullet q}{10}$$

Bu yerda:  $M$  - tuzning molekulyar massasi.

#### 4.2.2 – tajriba. Neytrallanish reaksiyasining issiqlik effektini aniqlash

Tajriba soddalashtirilgan kalorimetrda quyidagicha bajariladi:

Kalorimetrning ichki stakanini texnik – kimyoviy tarozida 0,02 g gacha aniqlik bilan tortib oling, so‘ngra unga 200 ml distillangan suv va byuretkadagi 10%-li ishqor eritmasidan 20 ml quying. Stakanni yana kalorimetrdagi o‘z o‘rniga joylashtiring va undagi ishqor eritmasining haroratini  $|t_1|$   $0,1^\circ$  aniqlik bilan o‘lchang. Boshqa quruq stakanga

byuretkadagi 10%-li kislota eritmasidan 20 ml o'lchab oling, so'ngra uni voronka orqali kalorimetrning ichki stakanidagi ishqor eritmasiga quying va termometr bilan yaxshilab aralashtiring.

Neytrallanish reaksiyasi nihoyasiga yetib, harorat ortishi to'xtagandan keyin eritmaning maksimal haroratini  $|t_2|$  yozib oling.

*Tajriba natijalarini yozish va hisoblash:*

Ichki stakanning massasi  $m_1$ , g.

Eritmaning massasi  $m_2 = (m_{suv} + m_{ishq} + m_{k-ta})$  g

Haroratlar ayirmasi  $\Delta t = (t_2 - t_1) {}^0\text{C}$

Eritmaning zichligi 1 g/ml.

Quyidagi formula orqali neytrallanish reaksiyasining issiqlik effektini hisoblab toping:

$$Q_n = \frac{\Delta t (m_1 c_1 - m_2 c_2) \cdot \varTheta_{K-Ta}}{m_{K-Ta}} \text{ kJ/mol}$$

Bunda:  $c_1$  - shishaning solishtirma issiqlik sig'imi, 0,753 kJ/g-grad

$c_2$  - eritmaning solishtirma issiqlik sig'imi, 4,184 kJ/g-grad

$\varTheta_{K-Ta}$  - kislotaning ekvivalenti

$m_{K-Ta}$  - kislotaning massasi.

#### **4.2.3 – tajriba. Tuzning erish issiqligini aniqlash**

Bu tajriba ham soddalashtirilgan kalorimetrda bajariladi. Kalorimetrning ichki stakaniga 50ml (50g) suv quying va uni termometr va aralashtirgich o'rnatilgan qopqoq bilan berkiting. Aralashtirgich bilan suvni aralashtiring, besh minutdan keyin suvning haroratini yozib oling va uni  $t_{10}$  bilan belgilang.

O'qituvchining ko'rsatmasi bilan kukun holigacha maydalangan tuzdan 0,04 mol texnik kimyoviy tarozida tortib oling va uni kalorimetrning ichki stakanidagi suvga soling. Tuzni kalorimetrning ichki stakanidagi suvga soling. Tuzni aralashtirgich orqali aralashtirib eriting. Tuz suvda to'liq erigach, eritmaning termometr ko'rsatgan haroratini yozib oling va uni  $t_2 {}^0$  bilan belgilang.

*Tajriba natijalarini yozish va hisoblash:*

Kalorimetrdagi suvning massasi .....  $m_{H_2O}$  g.

Eritilgan tuzning massasi .....  $m_{tuz}$  g.

Haroratlar farqi .....  $\Delta t = t_2^0 - t_{10}$ .

Tuzning nisbiy molekulyar massasi....  $M_r$  (tuz).

Tuzning erish issiqligining nazariy qiymati ( jadvalga qarang).

$$Q_e = \frac{c \cdot (\Delta t \cdot (m_{tuz} + m_{suv})) \cdot \Delta t \cdot M_r \cdot (tuz)}{m_{tuz} \cdot 1000}$$

formuladan tuzning erish issiqligini hisoblang.

Sizga tajriba uchun berilgan suvsizlantirilgan tuzning gidratlanish issiqligini ham aniqlang. Chunki suvsiz tuz suv bilan birikib kristallgidrat hosil qiladi.

### Insert jadvalini to'ldiring

Termokimyoga xos bo'lgan xususiyatlar	V	+	-	?
1.Issiqlik effekti				
2.Termokimyo				
3.Ekzotermik jarayon				
4.Endotermik jarayon				
5.Kaloriya nima?				
6.Gess qonuni				
7.kJ nima?				
8.Qaytar jarayon				
9.Qaytmas jarayon				

### Savol va topshiriqlar



1. Termokimyo nimani o'rganadi?
2. Gess qonunini ta'riflang. Gess qonuni bilan termodinamikaning I-qonuni orasidagi bog'lanishni ko'rsating.
3. Termodinamikaning II-qonuniga ta'rif bering.
- 4.Termodinamik qaytar va qaytmas jarayonlar deb nimaga aytildi?
- 5.Termodinamika qonunlarining biologiya va qishloq xojaligidagi ahamiyatini bayon qiling.
6. 80 g metan yonganda qancha issiqlik ajralib chiqadi? Metanning yonish issiqligi 890,18 kJ/mol ga teng.

#### **4.3-mashg`ulot. Bufer eritmalar**

Ba'zi eritmalar kuchli kislota yoki ishqor qo'shilsa, ular suyultirilsa vodorod ionlarining kontsentratsiyasi ma'lum chegaragacha o'zgarmaydi. Bunday eritmalar bufer eritmalar (sistemalar) deb ataladi.

Bufer eritmalar kuchsiz kislota va uning kuchli asos bilan hosil qilgan tuzi aralashmasidan, yoki kuchsiz asos va uning kuchli kislota bilan hosil qilgan tuzi aralashmasidan iborat bo'ladi.

Bufer eritmalarining ta'sirini sirkaga kislota va natriy atsetatdan iborat bufer aralashma misolida ko'rib chiqamiz.




massalar ta'siri qonuniga muvofiq

$$K = \frac{[\text{CH}_3\text{COO}^-] \cdot [\text{H}^+]}{[\text{CH}_3\text{COOH}]} \quad (1)$$

Bunda K – kislotaning elektrolitik dissotsialanish konstantasi. Bu formuladan vodorod ionlari kontsentratsiyasining qiymatini topamiz:

$$[\text{H}^+] = K \frac{[\text{CH}_3\text{COOH}]}{[\text{CH}_3\text{COO}^-]} \quad (2)$$

Sirkaga kislotaning elektrolitik dissotsialanish darajasi juda kichik bo'lganligi uchun eritmada kislotaning dissotsialanmagan molekulalari ko'p bo'ladi. Suvda eritilganda natriy atsetat tuzi quyidagi tenglamaga muvofiq to'liq ionlarga parchalanadi.



Agar bu tuz sirkaga kislotaning suvdagi eritmasiga qo'shiladigan bo'lsa, kislotaning elektrolitik dissotsialanish darajasi shu qadar kamayib ketadiki, bunda kislotaning dissotsialanmagan molekulalari kontsentratsiyasi shu kislotaning odatda analitik kimyo uslublari yordamida topiladigan kontsentratsiyaga qariyb teng bo'lib qoladi.

Formula (2) da  $[\text{CH}_3\text{COOH}]$  ning qiymati o'rniga to'g'ridan – to'g'ri (kislota) so'zini yozib qo'yish mumkin. Xuddi shuningdek,  $[\text{CH}_3\text{COO}^-]$  ioni tuz kontsentratsiyasiga teng bo'lib qoladi, chunki  $[\text{CH}_3\text{COO}^-]$  ionlari amalda faqat natriy atsetat  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmada elektrolitik

dissotsialanishi natijasida vujudga keladi. Formula (2) dagi  $[\text{CH}_3\text{COOH}]$  va  $[\text{CH}_3\text{COO}^-]$  o‘rniga tegishli qiymatlar qo‘yilib:

$$[\text{H}^+] = K \frac{[\text{kislota}]}{[\text{tuz}]} \quad (3)$$

(3) hosil qilinadi.



K – kislotaning elektrolitik dissotsialanish konstantasi, berilgan sharoitda doimiy qiymat. Shu sababli vodorod ionlari kontsentratsiyasining tuz kontsentratsiyasi nisbatiga teng bo‘ladi. Xuddi shunday mulohaza yuritib, kuchsiz asos va uning kuchli kislota bilan hosil qilgan tuzi aralashmasidan iborat bufer eritma uchun quyidagicha tenglama chiqarilsa bo‘ladi.

$$[\text{OH}^-] = K \frac{[\text{asos}]}{[\text{tuz}]}$$

Bufer eritmadiagi vodorod ionlarining kontsentratsiyasi kislota bilan tuzning absolyut kontsentratsiyasining mutlaqo qiymatiga bog‘liq emas, balki shu qiymatlarning nisbatiga bog‘liq ekanligi (3) tenglamadan ko‘rinib turibdi. Shuning uchun buffer eritmalari suyultirilganda vodorod ionlarining kontsentratsiyasi amalda o‘zgarmaydi.

Bufer aralashma vodorod ionlarining kontsentratsiyasi ko‘payishi yoki kamayishiga to‘sinqinlik qiladi, shu jixatdan olinganda buffer aralashmalar o‘z tarkibida faqat kislota (yoki faqat asos) saqlaydigan eritmalardan farq qiladi.

Darhaqiqat, agar sirkalik kislota bilan natriy atsetatdan iborat aralashmaga xlorid kislota qo‘shilsa natriy atsetat bilan almashinish reaksiyasiga kirishadi va natriy xlorid hosil qilib, kuchsiz sirkalik kislotani ajratib chiqaradi:



Buferlik ta’sirini baholash uchun bufer sig‘imidan foydalaniladi. Bufer eritmaning pH ini bir birlikka o‘zgartirish uchun zarur bo‘lgan kuchli kislota yoki asosning gramm-ekvivalentlari soni *bufer sig‘imi* deyiladi. Bufer eritmadiagi kislota va tuzning kontsentratsiyasi qancha yuqori bo‘lsa, ularning bufer sig‘imi shuncha katta bo‘ladi. Bufer aralashmalarga ozroq kuchli kislota yoki kuchli asos qo‘shilsa shu

aralashmadagi vodorod ionlarining kontsentratsiyasi (eritmaning bufer sig'imi chegarasida) juda kam o'zgaradi.

Bufer aralashmalar juda katta axamityaga ega. Jumladan, ular qon va to'qimalar tarkibidagi vodorod ionlarini doimiy kontsentratsiyasini saqlab turadi. Tuproqda pH ning keskin o'zgarib ketmasligini ta'minlaydi.

**Ishning maqsadi:** bufer eritmalar xossalari o'rganish va eritma pH ko'rsatkichi doimiyligini saqlash yo'llarini bilib olish. Tuproq muhit pH ham bufer xossasiga ega. Aynan buferli xossaga ega tuproqlarda mikroorganizmlar rivoji, o'simliklarning o'sishi talab darajasida bo'ladi.

### Kerakli asboblar va reaktivlar:

1. Probirkalar uchun shtativ - 1 dona, probirkalar - 7 dona, 10 ml-li byuretka - 2 dona, 200 ml-li stakanlar - 2 dona, tomizgich - 2 dona, shtativ - 2 dona, konus shaklidagi kolbalar - 3 dona;
2. 0,1 n  $\text{CH}_3\text{COOH}$ , 0,1 n  $\text{CH}_3\text{COONa}$ , 0,1 n va 0,00001 n HCl, 0,1 n NaOH, distillangan suv, metal qizili va fenolftalein suyuq holdagi, hamda universal qog'oz indikatorlar.

### *Ish tartibi*

Bufer aralashmalarini tayyorlash.

7 ta bir xil probirkalarga 0,1 n sirka kislota va 0,1 n-li uning tuzi eritmalaridan jadvalda ko'rsatilgan miqdorda quyiladi.

Probirkalar	1	2	3	4	5	6	7
$\text{CH}_3\text{COOH}$ 0,1 n	9	7	5	3	1	0,5	0,2
$\text{CH}_3\text{COONa}$ , 0,1 n	1	3	5	7	9	9,5	9,8
Eritma rangi							
Hisoblangan pH							

Har qaysi probirkaga 3 tomchi metil qizil indikatoridan tomizib aralashtiriladi va aralashma rangi jadvalga yozib qo'yiladi. Har bir aralashma uchun pH hisoblanadi. So'ngra grafik chiziladi. Bunda absissa o'qiga pH qiymati ordinata o'qiga esa,  $\text{CH}_3\text{COONa}$  -ning hajmi (ml) qo'yiladi. Mazkur grafikdan kerakli pH ga ega bo'lgan bufer eritma tayyorlash uchun foydalaniladi.

Bunda  $K_{kisl}=1,85 \cdot 10^{-5}$

$$C_H^+ = 1,85 \cdot 10^{-5} \frac{N_{kisl} V_{kuc\lambda}}{N_{myz} V_{myz}}; \quad pH = -\lg C_H^+$$

## **2. Suyultirishning bufer eritmalar pH -iga ta'siri**

Probirkaga 5 ml 0,1 n  $\text{CH}_3\text{COOH}$  va 5 ml 0,1 n  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmalaridan quyib, bufer eritma tayyorlanadi. So'ngra undan 2 ml olib, boshqa probirkaga solinadi va ustiga 6 ml distillangan suv quyiladi. Keyin har ikkala probirkaga 2 tomchi metil qizil indikatoridan tomizilib, aralashtiriladi. Ikkala probirkada eritmalar rangi bir xil bo'lganligidan suyultirish bilan bufer eritmaning pH qiymati o'zgarmasligiga ishonch hosil qilinadi.

## **3. Kislota va ishqor qo'shishning bufer eritma pH iga ta'siri**

Uchta probirkada 5 ml 0,1 n  $\text{CH}_3\text{COOH}$  va 5 ml 0,1 n  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmalaridan olib bufer aralashma tayyorlanadi. Keyin birinchi probirkaga 5 tomchi 0,1 n  $\text{NaOH}$ , ikkinchi probirkaga 5 tomchi 0,1 n  $\text{HCl}$ , uchinchi probirkaga 5 tomchi distillangan suv va uchchala probirkaga 2 tomchi metil qizil indikatoridan tomiziladi. Har bir probirkadagi eritma rangi bir xilligi kuzatiladi. Demak, oz miqdorda qo'shiladigan kislota yoki ishqor bufer eritmaning pH qiymatini o'zgartirmaydi degan xulosa o'z isbotini topadi.

## **4. Eritmaning bufer sig'imini aniqlash**

Bir kolbaga 10 ml (4 ml 0,1 n  $\text{CH}_3\text{COOH}$ , 6 ml 0,1 n  $\text{CH}_3\text{COONa}$ ) bufer eritma, ikkinchi probirkaga 10 ml 0,00001n,  $\text{HCl}$  eritmasi quyiladi va har bir probirkaga 3 tomchi metil qizil indikatoridan tomiziladi. Ikkala eritma rangi bir xil bo'lishi kerak. Keyin eritmalar limon sariq rangga kirguncha 0,1 n  $\text{NaOH}$  eritmasi bilan asta-sekin titrlanadi va quyidagi tenglama yordamida bufer sig'imi aniqlanadi:

$$B = \frac{N_{asos} V_{asos} 1000}{V_{bufer\ eritma}}$$

Bu yerda:  $N_{asos}$  -  $\text{NaOH}$  eritmasining kontsentratsiyasi;

$V_{asos}$  - qo'shilgan  $\text{NaOH}$  eritmasining hajmi;

$V_{bufer\ eritma}$  - bufer eritma hajmi.

## **5.Tuproq eritmasining bufer sig‘imini aniqlash**

Tuproqning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri uning bufer sig‘imidir. Tuproqning bufer sig‘imini uning eritmasi orqali aniqlanadi. Tuproqning suvdagi eritmasi tarkibida karbonatlar, nitratlar, xloridlar, fosfatlar va shuningdek qisman oqsillar (tuproqning eruvchan qismi) bo‘lib, ular tuproqni buferlik xossasini ta‘minlaydi.

Konus shaklidagi kolbaga avvaldan quritilgan 20 g tuproq va 100 ml suv solinib, 3 minut davomida silkitib aralashtiriladi. Keyin filtr qog‘ozi orqali filtrlanadi va universal indikator qog‘ozi yordamida filtratning pH qiymati aniqlanadi. Ikkita quruq kolbachalarga pipetka bilan 20 ml dan tuproq eritmasi solinadi. Bir kolbachaga 2 tomchi fenolftalein tomizilib, 0,1 n NaOH eritmasi bilan och pushti rangga kirguncha titrlanadi. Ikkinchini kolbachadagi tuproq eritmasiga 2-3 tomchi metil qizil indikatori tomiziladi va 0,1 n-li HCl eritmasi bilan sariq-qizg‘ish rangga kirguncha titrlanadi. Bufer sig‘im yuqoridagi formulalar yordamida hisoblanadi. Solishtirish maqsadida aynan shu tajriba bufersiz eritma tayyorlash bilan qaytariladi. Befersiz eritma distillangan suvga pH qiymati tuproq eritmasining pH iga teng bo‘lguncha kislota yoki ishqor qo‘shish bilan tayyorlanadi.

### **Tajriba: Tuproq so‘rimining pH ini aniqlash**

*Kerakli reaktiv va idishlar:* 10 g tuproq, toza suv, sig‘imi 250 ml bo‘lgan 2 ta konussimon kolba, voronka, filtr qog‘oz, 100 ml- li o‘lchov tsilindri, 10 ml- li 2 ta pipetka.

*Tajribani bajarilishi:* tuproqdan suvli so‘rim olish uchun texnik kimyoviy tarozida yaxshilab maydalangan tuproq namunasidan 10 g o‘lchab olinadi. Uni sig‘imi 250 ml-li konussimon kolbaga solinadi va ustiga 50 ml distillangan suv quyiladi. Hosil bo‘lgan suspenziyani 10 – 15 minut yaxshilab chayqatiladi. Shundan so‘ng eritma filtrlanadi. Agar filtrat xira bo‘lsa, yana qaytadan filtlanadi. Filtratning vodorod ko‘rsatkichini, ya’ni pH ini pH metrda aniqlanadi. Aniqlangan pH ning qiymatiga qarab tuproqni muhiti to‘g‘risida xulosa chiqaring.

#### **4.4-масиғиом. Kolloid eritmalarining olinishi, zaryad belgisi va koagulyatsiya porogi (cheгараси) ni aniqlash**




**Ishning maqsadi:** Odatda kolloid eritmalar dispers sistemalarning bir turi bo‘lib, biosfera faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Barcha o‘simlik va hayvonlar organizmida ular ko‘plab uchraydi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashda ham kolloid eritmadar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun asosiy maqsad talabalarning bu sohadagi bilimini chuqurlashtirishdir.

Kerakli jihozlar va reaktivlar:

1. Kanifol
2. Distillangan suv
3.  $\text{FeCl}_3$  tuzining 2%-li, 0,1 n va 0,005 n eritmalarini
4.  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  tuzining 0,1 n; 0,005 n eritmasi.
5.  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$  - oksalat kislotaning 0,1 n eritmasi.
6. Probirkalar, shisha tayoqcha, temir shtativ, voronka, stakan, qora tuproq, filtr qog‘oz.

##### **4.4.1 - Tajriba: Temir(III)- gidroksid zolini olish**

425 ml qaynab turgan distillangan suvgaga 75 ml 2 %-li  $\text{FeCl}_3$  eritmasi oz-ozidan qo‘shiladi va aralashma bir necha minut davomida qaynatiladi. Olingan temir (III)- gidroksid tuzilishi yuqorida ko‘rsatilgandek bo‘ladi, va’ni:



$$\text{Mitsella formulasi} \{ [\text{mFe}(\text{OH})_3] \cdot \text{nFeO}^+ \bullet (\text{n} - \text{x}) \text{Cl}^- \}^+ \bullet \text{xCl}^-$$

##### **4.4.2 - Tajriba: Kolloid zarrachalar zaryadining belgisini aniqlash**

Kerakli reaktivlar: 0,005 n  $\text{FeCl}_3$ , 0,005 n  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmalarini, pipetka, probirkalar, filtr qog‘izi.

Ikki probirkada berlin lazurining kolloid eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun birinchi probirkadagi 1 ml 0,005 n  $\text{FeCl}_3$  eritmasiga 3 ml

$K_4[Fe(CN)_6]$  0,005 n eritmasidan boshqa probirkadagi 3 ml 0,005 n  $FeCl_3$  eritmasiga 1 ml  $K_4[Fe(CN)_6]$  0,005 n eritmasidan qo'shing.

Birinchi probirkadagi eritmadan filtr qog'oziga bir tomchi tomiziladi. Bu tomchi qog'ozga shimalgandan keyin, taxminan uning diametriga teng bo'lgan masofada ikkinchi eritmadan bir tomchi tomiziladi, hosil bo'lgan dog'larning xususiyatlarini o'zaro solishtiring. Odatda filtr qog'ozini kolloid eritmalar bilan namlanganda, uning tolalari manfiy zaryadlanadi. Shuni xisobga olgan xolda yuqoridagi kolloid eritmalar zarrachalarining zaryad belgisi xaqida xulosa chiqaring, kolloid zarrachalar zaryadining belgisi olingan moddalarning kontsentratsiyalari nisbatlariga bog'liqmi? Ikkala eritmalar uchun ham mitsellalar formulalarini yozing.

#### ***4.4.3- Tajriba: Temir(III)-gidroksid zolining koagulyatsiya porogi (chegarasi) ni aniqlash***

Ish uchun 3 M KCl; 0,01 M  $K_2SO_4$ ; 0,001 M  $K_4[Fe(CN)_6]$  eritmalaridan va temir gidroksid zolidan foydalaniladi. Har bir elektrolit uchun 4 tadan, ja'mi 12 ta toza probirkalarga 5 ml dan temir gidroksid zoli va quyidagi 1 - jadvalda ko'rsatilgan miqdorda distillangan suv hamda elektrolit eritmalar quyladi. So'ngra har bir probirkadagi moddalarni yaxshilab aralashtiriladi va bir soatdan keyin qaysi probirkalarda ochiq koagulyatsiya (loyqalanish) sodir bo'lganligini jadvalga yozib qo'yiladi.

Shunday qilib, har bir probirkada 10 ml dan bir xil kontsentratsiyali (1:1) temir gidroksid zoli hosil bo'lib, uning tarkibida turli miqdordagi elektrolit moddasi bo'ladi. Agar birorta ham probirkada koagulyatsiya sodir bo'lmasa, u holda elektrolit kontsentratsiyasini 5-10 marta oshirib tajriba qaytariladi.

## 1- jadval

Probirka №	Temir(III)- gidroksid zoli, ml	Distillangan suv, ml	Elektrolit eritmasi, ml	1 soatdan keyingi koagulyatsiya
1.	5	4,5	0,5	
2.	5	4	1	
3.	5	3	2	
4.	5	1	4	
5.	5	4,5	0,5	
6.	5	4	1	
7.	5	3	2	
8.	5	1	4	
9.	5	4,5	0,5	
10.	5	4	1	
11.	5	3	2	
12.	5	1	4	

Koagulyatsiya porogini quyidagicha aniqlanadi:

$$C_{por} = 100 \cdot C \cdot V$$

Bu yerda: C - elektrolitning molyar kontsentratsiyasi;

V - zolni koagulyatsiya qilish uchun kerak bo'ladigan elektrolit eritmasining eng kichik miqdori (ml).

Agar zolning C 0,01 M K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritma bilan 3-chi va 4-probirkalarda yuz bergen bo'lsa, unda koagulyatsiya porogi 3-probirkada K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning millimolyar kontsentratsiyasiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$C_{por} = 100 \cdot 0,01 \cdot 2 = 2 \text{ mmol/l}$$

### **4.4.4 - Tajriba: Liofob zollarining o'zaro koagulyatsiyasi**

- Berlin lazurining zolini olish. 100 ml suvgaga 3 ml 1 %-li K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] va tomchilatib 2%-li FeCl<sub>3</sub> eritmasidan 5-7 tomchi qo'shing. Eritma ko'k rangga bo'yaladi. Hosil bo'lgan zol mitsellasining tuzilishini yozing va eritmani keyingi tajriba uchun saqlab quying.
- Berlin lazuri va Fe(OH)<sub>3</sub> zollarining o'zaro koagulyatsiyasi. Manfiy zaryadli berlin lazuri va musbat zaryadli Fe(OH)<sub>3</sub> zollari 2-jadvalda keltirilgan nisbatlarda aralashtiriladi.

## 2 – jadval

Zollar	1	2	3	4	5	6	7
1.Temir (III)-gidroksid zoli, ml	0,5	1,0	1,5	2,0	2,5	3,0	3,5
2. Berlin lazuri zoli, ml	3,5	3,0	2,5	2,0	1,5	1,0	0,5
3.Kuzatilgan effekt							
4.Qanaqa zaryadli kolloid zarracha ortiq							

Kuzatilgan effektda cho‘kma bor-yo‘qligi, koagulyatsiya qisman yoki to‘liq ekanligi yoziladi. 4 – punktda esa cho‘kmidan qolgan zarrachalar zaryadi ko‘rsatiladi.

### **4.4.5 - Tajriba: Temir(III)- gidroksid cho‘kmasini peptizatsiyalash**

Kerakli reaktivlar: 0,5 n  $\text{FeCl}_3$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ , 0,1 n  $\text{HCl}$ ,  $\text{FeCl}_3$  ning to‘yingan eritmalari, distillangan suv.

Kerakli idishlar: Probirkalar shtativi bilan, voronka, filtr qog‘oz, 10 ml-li pipetka.

Probirkaga temir (III)- xlorid tuzining 0,5 n eritmasidan 5 ml oling. Temir (III) gidroksidi to‘liq cho‘kib bo‘lguncha ammiak eritmasidan tomchilatib quying. Hosil bo‘lgan cho‘kmani dekontatsiya usuli bo‘yicha distillangan suv bilan yuving. Yuvilgan cho‘kmaga 10 ml distillangan suv qo‘sning va aralashtiring. Hosil bo‘lgan aralashmani baravar miqdorda uchta probirkaga quying. Birinchi probirkaga 0,1 n  $\text{HCl}$  eritmasidan 10 tomchi, ikkinchi probirkaga temir (III)- xloridning to‘yingan eritmasidan 10 tomchi qo‘sning. Uchinchi probirkani solishtirish uchun qoldiring. Uchta probirkani ham yaxshilab chayqating va 5 -10 minut o‘tgandan so‘ng ularni o‘zaro solishtiring. Kuzatish natijalarini tushuntiring.

### **4.4.6 - Tajriba: Jelatinaning himoyalash xususiyatini o‘rganish**

Kerakli reaktivlar: 0,1 %-li jelatina, 0,0025 n  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ,  $\text{Fe(OH)}_3$  zoli eritmalari.

Kerakli idishlar: Probirkalar shtativi bilan, 10ml- li pipetka.

Pipetka bilan to‘rtta probirkaga temir gidroksidining gidrozolidan 10 ml dan olinadi. Keyin har bir probirkaga byuretka orqali jelatina va  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmalaridan 3- jadvalda ko‘rsatilgan miqdorda qo‘shing.

3 – jadval

Probirkalar №	1	2	3	4
Zol, ml	10	10	10	10
Jelatinaning 0,1 %-li eritmasi, ml	0,2	0,3	0,4	0,5
0,0025 n $\text{Na}_2\text{SO}_4$ eritmasi, ml	3	3	3	3

Har bir probirkani chayqating va 5 minut o‘tgandan keyin suyuqligi tinib qolgan va suyuqligi biroz loyqalangan probirkalarni toping. Jelatinada himoyalash qobiliyati mavjudligi haqida xulosa chiqaring.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Kolloid eritmalarini olinishi va tozalash usullarini bayon qiling.
2. Suyultirilgan  $\text{AgNO}_3$  bilan mo‘l miqdordagi  $\text{KBr}$  aralashtirishidan olingan  $\text{AgBr}$  gidrozolining mitsella tuzilishini yozing va zolning zaryad ishorasini aniqlang.
3. Koagulyatsiyana va u qanday sabablardan sodir bo‘ladi?
4. Shultse-Gardi qoidasining mohiyatini izohlang.
5. Koagulyatsiya porogi nima?
6. Kolloid eritmalarining koagulyatsiyasini qanday usullar bilan tezlatish mumkin?

### **4.5- машғулот. Adsorbsiya. Sirka kislotaning ko‘mir tomonidan adsorbsiyalanishi**

Ishning maqsadi: Suyuqlik yoki qattiq jism sirtiga boshqa moddalarning yutilishi (birlashishi) ni amalda o‘rganish. Kerakli asboblar va reaktivlar:

1. 4 dona konus shaklidagi 100 ml hajmli kolbalar;
2. 5 dona 100 ml hajmli stakanlar;
3. Byuretka mahkamlangan shtativ;
4. Bir donadan 10 ml va 25 ml hajmli byuretkalar;

5. Shisha voronkalar 5 dona;
6. filtr qog'ozlar;
7. 0,025n, 0,05n, 0,1n va 0,2n CH<sub>3</sub>COOH, 0,1n NaOH, fenolftalein indicator eritmasi, faollangan ko'mir.

### ***Ish tartibi.***

Sirka kislotasining faollangan ko'mir tomonidan adsorbsiyasini o'rghanish uchun kislotaning adsorbsiyagacha va adsorbsiyadan keying kontsentratsiyalari aniqlanadi. Buning uchun to'rtta raqamlangan quruq va toza kolbachalarga 2 grammdan faollangan ko'mir solinadi va kolbaga 1-jadvalda ko'rsatilgan kontsentratsiyadagi sirka kislota eritmalaridan, kolbachalarning tartib raqami asosida, byuretka yordamida 2,5 mldan solinadi. Kolbachalarni probka bilan berkitilib, 25-30 minut davomida vaqtiga bilan chayqatib turiladi. Shu vaqt ichida sirka kislotaning adsorbsiyasi tugaydi. Sirka kislota eritmalarining dastlabki kontsentratsiyasi C<sub>0</sub> aniqlanadi. Buning uchun boshqa 4 ta raqamlangan kolbachalarga jadvalda ko'rsatilgan kontsentratsiyali sirka kislota eritmalaridan byuretka yordamida 10 mldan solinadi va har bir kolbaga 2 tomchidan fenolftalein eritmasidan tomiziladi. So'ngra byuretkaga 0,1 n NaOH eritmasini quyib, kolbachalardagi sirka kislota eritmasi titrlanadi. Titrlash eritma rangi och pushti rangga kirguncha davom ettiriladi. Titrlash uchun sarflangan 0,1 n NaOH eritmasining hajmi 10 ga ko'paytirilib jadvaldagi C<sub>0</sub> ustuniga yozib boriladi. Bunda eritma kontsentratsiyasi 100 ml sirka kislota eritmasiga to'g'ri kelgan 0,1 n NaOH ning millilitr hisobida ifodalanadi.

### ***Tajriba natajalari.***

Kolbachalar raqami	Eritma normallik kontsentra- siyasi	100 ml eritmaga to'g'ri kelgan 0,1 n NaOH ning ml miqdori			X	lgx	LgC
		C <sub>0</sub>	C	C <sub>0</sub> -C			
1	0,025						
2	0,05						
3	0,10						
4	0,20						

Titrlangan eritmalar to‘kib tashlanib, kolbachalar suv bilan yuviladi va ulardan foydalangan holda faollangan ko‘mir bo‘lgan sirkal kislotasi eritmasi filtrlanadi. Filtrlash birinchi kolbadagi eritma birinchi kolbachaga, ikkinchi kolbadagi eritma ikkinchi kolbachaga va hokazo tartibda olib boriladi. Ko‘mirli kolbachalar yuvilib, bu kolbachalarga filtratdan tomizgich bilan 10 mldan olinadi va fenolftalein indikatori tomizilib, 0,1 n NaOH eritmasi bilan titrlanadi. Titrlash natijasida sirkal kislotaning muvozanatdagi kontsentratsiyasi C aniqlanadi. Bunda ham sarflangan ishqor eritmasini 100 ml eritmaga hisoblanadi va jadvaldagi C ustunga yozib boriladi. Adsorbsiyalangan sirkal kislotaning miqdorini aniq bilish maqsadida C ni aniqlash ikki marta amalga oshiriladi. Buning uchun filtratdan yana 10 ml olinib 0,1 n NaOH bilan titrlanadi. Tajribada topilgan  $C_0$  va C lardan foydalaniib, faollangan ko‘mir bilan adsorbsiyalangan sirkal kislota miqdori,  $C_0-C$  farqi aniqlanadi va jadvalga yoziladi.

Shu bilan tajriba tugaydi va kolbachalarni suv bilan yuvib qo‘yiladi. Faollangan ko‘mirda adsorbsiyalangan sirkal kislota miqdori ( $x$ ) quyidagi formula (Freyndlix tenglamasi) yordamida hisoblanadi:

$$x = \frac{V(C_0 - C)}{100 \cdot m} = a \cdot C^n$$

Bu yerda:

$V$  - adsorbsiya uchun olingan sirkal kislota eritmasining hajmi, ml;

$C_0$  - sirkal kislotaning boshlang‘ich kontsentratsiyasi;

$C$  - sirkal kislotaning muvozanat holatdagi kontsentratsiyasi;

$m$  - adsorbent (faollangan ko‘mir) massasi, gr;

$n$  - harorat va adsorbent tabiatiga bog‘liq bo‘lgan 0,2 dan 0,6 gacha qiymatga teng bo‘lgan o‘zgarmas son;


$a$  - harorat va adsorbent tabiatiga bog‘liq o‘zgarmas son bo‘lib, uning qiymati muvozanat holat kontsentratsiyasi birga teng bo‘lganda  $x$ -ga teng bo‘ladi.

Millimetrali qog‘ozda adsorbsiya izotermasi chiziladi. Buning uchun absissa o‘qiga muvozanat kontsentratsiyasi ( $C$ ), ordinata o‘qiga adsorbsiyalangan modda miqdori ( $C_0-C$ ) qo‘yiladi. Freyndlix adsorbsiya

izotermasi tenglamasidagi o‘zgarmas a va n sonlarning qiymatini topish uchun  $x=a\cdot C^n$  formulasini logariflaymiz:

$$\lg x = \lg a + n \lg C$$

Mazkur tenglama ordinata o‘qini koordinata boshidan 1 ga masofada kesib o‘tuvchi to‘gri chiziqni ifodalaydi. Bu to‘g‘ri chiziqning absissa o‘qi bilan hosil qilgan burchagi tangensi n ga teng bo‘ladi. O‘zgarmas qiymatlar a va n larning son qiymatlarini aniqlash uchun C va x lar logarifmlanadi va absissa o‘qiga  $\lg C$ , ordinata o‘qiga  $\lg x$  qo‘yilib grafik chiziladi.



Jadvaldan  $\lg C$  va  $\lg x$  qiymatlarini grafikka tushiriladi va shu nuqtalar orqali AC chizig‘i o‘tkaziladi. Bunda nuqtalar bilan AC chizig‘i oralig‘i mumkin qadar kichik bo‘lishi kerak. To‘g‘ri chiziqning ordinate o‘qidan kesgan AO bo‘lagiga teng. Logarifmlar jadvalidan foydalanib anianiqlanadi. N ning qiymati  $t_{g\phi}$  ga teng yoki CB va AB chiziqlar orasidagi nisbatga teng, ya’ni:

$$n = \frac{CB}{AB}$$

Ushbu ishda qabul qilingan boshlang‘ich va muvozanat kontsentratsiyalari (adsorbsiyalangan sirka kislota miqdori ham) 100 ml eritmadiagi 0,1 n NaOH ning millilitri bilan o‘lchanib, millimolyar kontsentratsiyaga to‘g‘ri keladi. Adsorbent (ko‘mir) ning miqdori ham 100 ml eritmaga hisoblanadi.

O‘zgarmas qiymatidan farqli o‘laroq, n qiymati kontsentratsiyaning qanday birlikda ifodalanishiga bog‘liq emas. Yuqorida ko‘rsatilganidek, n-ni grafik usulda aniqlanganidan keyin, amalda bajarilgan to‘rtta tajribada

nol ingan lgx va lgC larning o‘rtacha arifmetik qiymatlarini olib, lg a quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$\lg a = \lg x - \lg C$$

Logarifmdan a-ning qiymati topiladi. a va n o‘zgarmas sonlarning yanada aniq qiymatlari turli boshlang‘ich kontsentratsiyali eritmalar bilan, o‘zgarmas haroratda, bir xil vaqt oralig‘ida va bir xil maydalikdagi adsorbent bilan bajarilgan tajribalardan ham olinishi mumkin.

### Savol va topshiriqlar

1. Adsorbsiya, desorbsiya va sorbtsiya nima?
2. Suyuqliklar sirtidagi adsorbsiya mohiyati va mazmunini tushintiring.
3. Adsorbsiya hodisasi negizida qanday jarayon yotadi?
4. Sorbtsiyani ilk bor kim o‘rgangan?
5. Gibbs tenglamasi nimani ifodalaydi?
6. Qattiq jismlar sirtidagi adsorbsiya.
7. Freyndlix formulasini yozib, uning mazmunini izohlang.
8. Freyndlix formulasi grafik orqali qanday ifodalanadi va grafik orqali qanday konstantalar topiladi?
9. Adsorbsiyalangan modda molekulalarining qanday qismi «gidrofob» hisoblanadi?

### *Talabalar bilimini nazorati uchun savol va masalalar*

#### *Umumiy, anorganik va analitik kimyo*

1. Quyidagi oksidlardan kislotali oksidlarni aniqlab, ularning NaOH bilan reaksiya tenglamalarini yozing: CaO, CO<sub>2</sub>, Ag<sub>2</sub>O, MgO, SO<sub>2</sub>, N<sub>2</sub>O, CO, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, SiO<sub>2</sub>.
2. Ushbu oksidlardan: NO, N<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, MgO, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, ZnO, NO<sub>2</sub>, BeO qaysilari amfoter oksidlar hisoblanadi. Bu oksidlarning xlorid kislota va natriy ishqori bilan reaksiya tenglamalarini yozing.
3. Quyidagi gidroksidlardan qaysilarini bevosita oksidlarga suv ta'sir ettirib olinadi?
  - 1) kaliy gidroksid; 2) rux gidroksidi; 3) temir (III)-gidroksidi; 4) kalsiy gidroksidi; 5) kumush gidroksidi.

4. Qaysi kislotali oksidda kislorodning massa ulushi 50% ni tashkil etadi?
5. Sulfat va nitrat kislotaga tegishli angidridlarning formulasini yozing.
6. Quyidagi qaysi moddalar:  $\text{CaO}$ ;  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ;  $\text{SO}_2$ ;  $\text{NO}_2$ ;  $\text{NaCl}$ ;  $\text{Na}_2\text{SO}_3$  sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishadi? Reaksiya tenglamalarini yozing.
7. Quyidagi gidroksidlardan qaysilar ishqorda eriydi? 1) magniy gidroksid; 2) rux gidroksid; 3) xrom (III)-gidroksid; 4) alyuminiy gidroksid; 5) mis (II)-gidroksid.

Tegishli reaksiya tenglamalarini yozing.

8. Quyidagi kislotalarni:  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HNO}_2$ ,  $\text{HClO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$  nomlangan va struktura formulasini yozing.
9. Potash va bertole tuzi qaysi kislotaning tuzi hisoblanadi?
10. Quyidagi kislotalarning qaysilari:  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{H}_2\text{CO}_3$  nordon va o‘rta tuzlarni hosil qiladi? Ularning natriy gidroksid bilan o‘rta va nordon tuzlar hosil bo‘lish reaksiya tenglamalarini yozing.
11. Quyidagi asoslarning qaysilari:  $\text{NaOH}$ ,  $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Cu}(\text{OH})_2$ ,  $\text{KOH}$ ,  $\text{Al}(\text{OH})_3$  asosli tuz hosil qiladilar? Shu asoslar bilan asosli tuz hosil bo‘lish reaksiya tenglamasini yozing.
12. Quyidagi tuzlarning molekulyar va grafik formulasini yozing:  
1) natriy silikat; 2) alyuminiy sulfat; 3) temir (III)-gidrosulfat; 4) alyuminiy digidroxlorid; 5) kalsiy gidrokarbonat.
13. Kalsiy karbonat tuzini olish mumkin bo‘lgan barcha reaksiya tenglamalarini yozing.
14.  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$  va  $\text{Al}(\text{OH})_2\text{Cl}$  tuzlarning hosil bo‘lish reaksiya tenglamasini yozing
15. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradigan reaksiya tenglamalarini yozing:

  - 1)  $\text{Ca} \rightarrow ? \rightarrow \text{Ca}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{CaSO}_4 \rightarrow \text{CaCl}_2$
  - 2)  $\text{Al} \rightarrow \text{Al}_2\text{O}_3 \rightarrow \text{Al}(\text{OH})_3 \rightarrow \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \rightarrow \text{AlCl}_3$
  - 3)  $\text{S} \rightarrow \text{SO}_2 \rightarrow \text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{BaSO}_4$
  - 4)  $\text{N}_2 \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{NH}_4\text{Cl} \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{NH}_4\text{NO}_3$

16.  $1,204 \cdot 10^{24}$  xlor molekulasining massasini va n.sh.dagi hajmini hisoblang.

17. 34 g ammiak gazda necha molekula bo‘ladi va uning n.sh.dagi hajmini toping.

18.  $17^{\circ}\text{C}$  va  $83,2\text{ kPa}$  bosimda  $1\text{ m}^3$  havoning massasi nechaga teng bo‘ladi?

19. 101 gazning n.sh.dagi massasi  $28,6\text{ g}$  ga teng. Uning nisbiy molekulyar massasini hisoblang.

20. Geliyning zichligi (n.sh.da)  $0,178\text{g/l}$ . Uning nisbiy molekulyar massasini aniqlang.

21. Vodorod sulfidning vodorodga va havoga nisbatan zichligini aniqlang.

22. Havoga nisbatan zichligi 2 ga teng bo‘lgan gazning nisbiy molekulyar massasini aniqlang.

23.  $10\text{g}$  ikki valentli metall suv bilan o‘zaro reaksiyaga kirishganda  $5,61$  vodorod ajralib chiqadi. Bu metallni aniqlang.

24.  $17\text{g}$  vodorod sulfid tarkibida n.sh.da nechta molekula bo‘ladi?

25.  $344\text{ml}$  gaz  $42^{\circ}\text{C}$  va  $96,259\text{kPa}$  bosimda  $0,866\text{g}$  keladi. Gazning molekulyar massasini toping.

26. Xajmi  $5,61$  bo‘lsa gazsimon to‘yingan uglevodorod (n.sh.da) 1 grammni tashkil etadi. Uning molekulyar formulasini aniqlang.

27.  $3,4\text{g}$  noma'lum modda kislrororra yondirilganda  $2,8\text{g}$  azot va  $5,4\text{g}$  suv hosil bo‘ladi. Agar moddaning vodorodga nisbatan zichligi  $8,5\text{g}$  teng bo‘lsa, uning formulasini aniqlang.

28.  $0,506\text{g}$  rux sulfat kislotadan  $17^{\circ}\text{C}$  va  $700\text{ ml}$  simob ustunida  $200\text{ ml}$  vodorodni siqib chiqaradi. Ruxning ekvivalentini hisoblang.

29.  $0,183\text{g}$  magniy metali  $20^{\circ}\text{C}$  va  $100\text{ kPa}$  bosimda kislotadan  $182,7\text{ ml}$  vodorodni siqib chiqaradi. Magniyning ekvivalentini toping.

30. Metall oksidi tarkibida  $39,69\%$  kislrorod bor. Metallning ekvivalentini xisoblab toping.

31. Simob oksidi tarkibida simobning massa ulushi  $92,7\%-ni$  tashkil etadi. Simobning ekvivalentini aniqlang.





32.  $0,195\text{g}$  biror metall n.sh.da kislotadan  $56\text{ ml}$  vodorodni siqib chiqarsa, bu metallni ekvivalenti qanday?

33. Ekvivalenti 9 bo‘lgan uch valentli elementning nisbiy atom massasini toping.



34. Formulalari:  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  va  $\text{NaHCO}_3$  bo‘lgan moddalarning ekvivalentini hisoblab toping.

35. 0,25g metallni oksidlash uchun n.sh.da o‘lchanganda 70 ml kislород sarflanadi. Metall va metall oksidining ekvivalentini aniqlang.


36. Quyidagi reaksiyalardagi birikmalarning ekvivalentini xisoblang:



37. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalardagi oksidlovchi va qaytaruvchilarning ekvivalentini aniqlang:



38. Quyidagi reaksiyalar tezligining konsentratsiyaga bog‘liqligini matematik ifodasini yozing:



39.  $\text{A} + 2\text{B} = \text{C}$  reaksiyaning tezligi  $[\text{A}] = 0,5 \text{ mol/l}$  va  $[\text{B}] = 0,6 \text{ mol/l}$  bo‘lganda  $0,018 \text{ mol/l}\cdot\text{sek}$  ga teng. Reaksiyaning tezlik konstantasining yozing.

40. Kimyoviy reaksiya tezligining xarorat koeffitsienti 2 ga teng,  $20^\circ\text{C}$  da reaksiya tezligi  $0,04 \text{ mol/l}\cdot\text{c}$  ga teng bo‘lsa,  $40^\circ\text{C}$  dagi tezligini aniqlang.

41. Reaksiya tezligining xarorat koeffitsienti 2 ga teng bo‘lsa, reaksiya tezligini 100 marta oshirish uchun xaroratni necha gradusga ko‘tarish kerak.

42.  $2\text{A} + \text{B} = \text{C}$  reaksiyaning tezlik konstantasi  $0,5 \cdot 10^{-3}$  ga teng.  $[\text{A}] = 0,6 \text{ mol/l}$  va  $[\text{B}] = 0,8 \text{ mol/l}$  bo‘lgandagi reaksiya tezligini hisoblang.

43. Ushbu qaytar reaksiya  $\text{CO}_2 + \text{N}_2 \rightarrow \text{CO} + \text{N}_2\text{O}$  muvozanat xolatiga kelganda moddalarning konsentratsiyalari quyidagicha bo‘lgan ( $\text{mol/l}$ ):

$$[\text{CO}_2] = 0,02 ; [\text{H}_2] = 0,005 ; [\text{CO}] = 0,015 ; [\text{H}_2\text{O}] = 0,005$$

Muvozanat konstantasini xisoblang.

44. Quyidagi muvozanat xolatdagi sistemaga harorat va bosimning ortishi qanday ta'sir etadi?

- a)  $\text{N}_2 + \text{O}_2 \leftrightarrow 2\text{NO} - 180,87 \text{ kJ}$
- b)  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \leftrightarrow 2\text{NH}_3 + 89,6 \text{ kJ}$

45. Quyidagi reaksiyalarda: a) harorat va bosim ko'tarilganda; b) harorat pasaytirilganda muvozanat qaysi tomonga siljiydi? Har bir reaksiya uchun muvozanat konstantasining matematik ifodasini yozing.

- a)  $2\text{SO} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_2 - \Delta N$
- b)  $\text{PCl}_5 \rightarrow \text{PCl}_3 + \text{Cl}_{2(g)} + \Delta N$
- v)  $4\text{HCl}_{(g)} + \text{O}_{2(g)} \rightarrow 2\text{Cl}_{2(g)} + 2\text{H}_2\text{O}_{(g)} - \Delta H$

46. Eritma deb nimaga aytiladi?

47. Eruvchanlik nima?

48. Foiz, molyar, normal, molyal eritmalar deb qanday eritmalariga aytiladi?

49. Tuzning  $20^{\circ}\text{C}$  dagi eruvchanligi 25ga teng bo'lsa, 200g to'yingan eritmada shu tuzdan necha gramm bo'ladi?

50. 200g eritmani bug'latish yo'li bilan 10 g tuz olingan. Dastlabki eritmalarning konsentratsiyasini toping.

51. Bir moddaning 100g 20%-li eritmasi bilan 50 g 10%-li eritmasi aralashtirildi. Hosil qilingan eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlang.

52. 250g 10% -li NaOH eritmasiga 150 g suv qo'shildi. Eritmaning foiz konsentratsiyasi nechaga teng bo'lib qoladi?

53. 180g 10%-li NaOH eritmasini hosil qilish uchun 30%-li 50g natriy gidroksid eritmasiga qancha suv qo'shish kerak.

54. 12,5g mis kuperosi  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  87,5 ml suvda eritildi. Hosil qilingan eritmada suvsiz tuzning foiz konsentratsiyasini aniqlang.

55. 500g 3% - li natriy sulfitning eritmasini tayyorlash uchun necha gramm  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kristallogidrat va suv kerak?

56. 0,1 n nitrat kislotaning 2 l eritmasini tayyorlash uchun shu kislotaning 46%-li eritmasidan ( $d = 1,29\text{g/sm}^3$ ) qancha xajm olish kerak?

57. 1,96 g sulfat kislota saqlagan 200g eritmaning normalligi, molyarligi va titrini aniqlang.

58. 200g 20%-li eritma tayyorlash uchun 5% - li va 60%-li eritmalarini qanday nisbatlarda aralashtirish lozim?

59. 250 ml 12%- li sulfat kislota ( $d = 1,083\text{g/sm}^3$ ) ning eritmasini tayyorlash uchun 60%-li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi ( $d = 1,503\text{g/sm}^3$ ) dan qancha hajm olish kerak?

60. 60%-li  $\text{H}_3\text{PO}_4$  ( $d = 1,44\text{g/sm}_3$ ) eritmasini normalligi, molyarligi va titrini hisoblang.

61.  $\text{NaOH}$  ning 2n eritmasini ( $d = 1,08\text{g/sm}^3$ ) foiz konsentratsiyasini aniqlang.

62. 1 1 0,5 n eritma tayyorlash uchun qancha  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  olish kerak?

63. O‘yuvchi natriyning 1 n li eritmasining titrini aniqlang.

64. Sulfat kislotaning 12%-li eritmasining zichligi  $1,08\text{g/sm}^3$  ga teng bo‘lsa, shu eritmaning normal va molyar konsentratsiyasini toping.

65. 10ml xlorid kislota eritmasini neytrallash uchun  $\text{NaOH}$  ning 15ml 0,5 n eritmasi sarf bo‘ladi. Kislotaning normalligini aniqlang.

66. Quyidagi elektrolitlarning dissotsialanish tenglamalarini yozing:  
1) natriy sulfat; 2) fosfat kislota; 3) ammoniy alyuminiy sulfat; 4) bariy gidroksid; 5) ammoniy digidrofosfat; 6) bariy xlorid.

67. Quyidagi moddalardan qaysilari elektrolitlarga misol bo‘ladi:  $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$ ;  $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ ;  $\text{NaCl}$ ;  $\text{NaOH}$ ;  $\text{HCN}$ ;  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ;  $\text{HNO}_3$ ;  $\text{C}_6\text{H}_6$ . Kuchsiz va kuchli elektrolitlarning ajrating. Kuchsiz elektrolitlar uchun  $K_{\partialuc}$  ifodasini yozing.

68. Quyidagi moddalarning qaysilarining suvdagi eritmalarini dissotsialanganda ikki xil metall kationlariga parchalanadi? 1)  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$ ; 2)  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ ; 3)  $\text{BaCl}_2$ ; 4)  $\text{Mg}(\text{OH})\text{Cl}$  ; 5)  $\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$

69. Alyuminiy sulfat to‘liq dissotsialanganda necha ionga parchalanadi?

70. Quyidagi birikmalardan kuchli elektrolitlarni aniqlang va dissotsialanish tenglamasini yozing: 1)  $\text{HCl}$ ; 2)  $\text{H}_2\text{SO}_3$ ; 3)  $\text{NaOH}$ ; 4)  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ; 5)  $\text{CuSO}_4$ ; 6)  $\text{H}_2\text{S}$ ; 7)  $\text{Al}(\text{OH})_3$ ; 8)  $\text{BaCl}_2$ ; 9)  $\text{NaHCO}_3$  ; 10)  $\text{NH}_4\text{OH}$ .

71. Elektrolitik dissotsialanish darajasi 70% ga teng. Eritmadagi har qaysi 20ta molekula elektrolitning qanchasi ionlarga parchalangan bo‘ladi?

72. Eritmada 150 ta molekula elektrolitning 90 tasi ionlarga parchalangan bo‘lsa, shu elektrolitning  $\alpha$  ni (% hisobida) aniqlang.

73. Elektrolitning dissotsialanish darajasi 0,1 ga teng bo‘lsa, eritmadi 3,01•10<sup>20</sup> ta molekulaning qanchasi ionlarga parchalanadi?

74. Chumoli kislotaning dissotsialanish konstantasi 2,05•10<sup>-4</sup> ga teng. Eritma 0,2 M bo‘lsa, uning dissotsialanish darajasini aniqlang.

75. Sirka kislotaning 0,01 M eritmasining osmotik bosimi 0°C da 0,227 atm ga teng. Uning dissotsialanish darajasini aniqlang.

76. Chumoli kislotaning 1 M ( $\alpha = 0,15$ ) eritmasidagi [H<sup>+</sup>] ni hisoblang.

77. Fe(OH)<sub>3</sub> va AgCl moddalarining hosil bo‘lish reaksiyalarining molekulyar va ionli xolda yozing.

78. Quyidagi moddalar o‘rtasida boradigan kimyoviy reaksiyalarining molekulyar va ionli tenglamalarini tuzing:

- a) Cr(NO<sub>3</sub>)<sub>3</sub> bilan K<sub>2</sub>S ;
- b) qo‘rg‘oshin (II)-nitrat bilan H<sub>2</sub>S ;
- v) rux gidroksid bilan natriy gidroksid;
- g) Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> bilan HCl .

79. Quyidagi moddalar o‘rtasida boradigan reaksiyalarining molekulyar va ionli tenglamalarini tuzing. Kam eruvchan moddalar uchun EK ifodasini yozing.

1) Fe(OH)<sub>3</sub> va HCl ; 2) BaCl<sub>2</sub> va Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; 3) mis (II)-nitrat va natriy sulfid; 4) ammoniy xlorid va NaOH; 5) rux xlorid va natriy gidroksid.

80. 20°C da RbI<sub>2</sub> ning eruvchanligi 1,5•10<sup>-23</sup> mol/l ga teng. Uning eruvchanlik ko‘paytmasini aniqlang.

81. Kumush yodatning 1 l to‘yingan eritmasida 0,044g AgIO<sub>3</sub> bor.

82. Uning eruvchanlik ko‘paytmasini hisoblang.

83. Bariy sulfatning eruvchanlik ko‘paytmasi 1•10<sup>-10</sup> ga teng. BaSO<sub>4</sub> ning mol/l va g/l da ifodalangan eruvchanligini hisoblang.

84. EK<sub>AgBr</sub> = 3,6•10<sup>-13</sup> bo‘lsa, shu tuzning to‘yingan eritmasini, 1 litrida necha gramm kumush ioni bor?

85. Qo‘rg‘oshin yodidning 1 l to‘yingan eritmasida  $270\text{mg}$   $\text{Pb}^{+2}$  ioni bor. Qo‘rg‘oshin yodidning eruvchanlik ko‘paytmasini toping.

86. 0,01 M HCl va 0,01 M KOH eritmalarining pH ini hisoblang.

87. 0,1 M sirka kislota va 0,05 M ammiak eritmalarini pH-ni hisoblang.

88. Eritmadagi  $[\text{OH}^-] = 2,5 \cdot 10^{-10}$  g-ion/l Eritmaning  $[\text{H}^+]$  va pH- ni aniqlang.

89. Eritmaning  $\text{pH}=1$  ga teng bo‘lsa, shu eritmadagi  $[\text{H}^+]$  va  $[\text{OH}^-]$  ionlarining konsentratsiyasini aniqlang.

90. Quyidagi: 1)  $\text{Na}_2\text{S}$ ; 2)  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ; 3)  $\text{NH}_4\text{Cl}$ ; 4)  $\text{NaCl}$ ; 5)  $\text{AlCl}_3$ ; 6)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  tuzlarning qaysilari gidrolizga uchraydi. Gidroliz reaksiyalarining molekulyar va ionli tenglamalarini yozing.

91. Quyidagi tuzlar gidrolizining bosqichli reaksiya tenglamalarini molekulyar va ionli shaklida yozing va eritma muhitini ko‘rsating. a)  $\text{K}_2\text{S}$ ; b)  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$ ; v)  $\text{CuCl}_2$ ; g)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$

92. Qanday tuzlar gidrolizlanganda nordon va asosli tuz hosil bo‘ladi? Misollar keltiring, ularning molekulyar va ionli tenglamalarini yozing.

93. Quyidagi tuzlardan qaysilari gidrolizga uchraydi? 1)  $\text{KNO}_3$ ; 2)  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ ; 3)  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$ ; 4)  $\text{NaNO}_3$ ; 5)  $\text{NH}_4\text{Cl}$ . Tegishli reaksiyalarning ionli va molekulyar tenglamasini tuzing va eritmaning muhiti, pH to‘g‘risida xulosa chiqaring.

94. Nima uchun  $\text{CH}_3\text{COONa}$  va  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  tuzlarning eritmalarini ishqoriy muhitga ega? Tegishli gidroliz tenglamalarini tuzish yordamida izoxlang.

95. Nima uchun  $\text{NH}_4\text{Cl}$  va  $\text{CuCl}_2$  gidrolizlanganda muhit kislotali bo‘ladi? Tegishli gidroliz tenglamalarini tuzing.

96. Anion bo‘yicha gidrolizlanadigan tuzlarga misollar keltiring va tegishli gidroliz reaksiyasi tenglamalarini molekulyar va ionli ko‘rinishda yozing.

97. Kation bo‘yicha gidrolizlanadigan tuzlarga misollar keltiring va gidroliz tenglamasini tuzing.

98. Quyidagi reaksiya tenglamalarini hosil bo‘ladigan tuzlarning qaytmas gidrolizlanishini e’tiborga olgan holda yozing. Eritmaning muhiti va pH to‘g‘risida xulosa chiqaring.



99. Ushbu tuzlarning qaysilari to‘liq gidrolizlanadi va nima uchun?



100.  $\text{AlCl}_3$  va  $\text{Na}_3\text{PO}_4$  tuzlarning gidrolizining barcha bosqichlarini tenglamalarini tuzing va eritma muhiti, rN ni to‘g‘risida xulosa chiqaring.

101.  $\text{CH}_3\text{COONa}$  ning gidrolizini qanday qilib kuchaytirish mumkin?

102. Quyidagi xollarda  $\text{FeCl}_3$  ning gidrolizlanish darajasi qanday o‘zgaradi? 1) kislota qo‘silsa; 2) ishqor qo‘silsa; 3) suyultirilsa.

103. 0,1 M kaliy sianid eritmasining gidrolizlanish konstantasi, gidrolizlanish darajasi va pH ini aniqlang.

104. Oksidlovchi va qaytaruvchi moddalar deb qanday moddalarga aytildi? Misollar keltiring.

105. Quyidagi jarayonlarning qaysi biri oksidlanish va qaytarilish ekanligini aniqlang.

- |  |  |   |  |
|--|--|---|--|
| 1) $\text{Fe}^0 \rightarrow \text{Fe}^{+2}$  | 3) $\text{Fe}^{+3} \rightarrow \text{Fe}^{+2}$ | 5) $\text{N}^0 \rightarrow \text{N}^{+2}$ | 7) $\text{MnO}_4^- \rightarrow \text{Mn}^{+2}$ |
| 2) $\text{N}^{-3} \rightarrow \text{N}^{+2}$ | 4) $\text{N}^{+5} \rightarrow \text{N}^{+1}$   | 6) $\text{N}^0 \rightarrow \text{N}^{-3}$ | 8) $\text{Cl}^- \rightarrow \text{ClO}_3^-$    |

106. Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga kiradi?

- |   |   |
|---|---|
| 1) $\text{N}_2 + \text{Br}_2 \rightarrow \text{HBr}$                    | 5) $\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightarrow \text{SO}_3$                                       |
| 2) $\text{NH}_4\text{Cl} \rightarrow \text{NH}_3 + \text{HCl}$          | 6) $\text{SO}_3 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4$                     |
| 3) $\text{NH}_4\text{NO}_2 \rightarrow \text{N}_2 + \text{H}_2\text{O}$ | 7) $\text{MnO}_2 + \text{HCl} \rightarrow \text{MnCl}_2 + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$ |
| 4) $\text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2$                 | 8) $\text{MnO} + \text{HCl} \rightarrow \text{MnCl}_2 + \text{H}_2\text{O}$                 |


107. Ham oksidlovchi va qaytaruvchilik xossalariini namoyon qiladigan moddalarga misollar keltiring.

108. Quyidagi  $\text{KMnO}_4$ ,  $\text{MnO}_2$ ,  $\text{Mn}_2\text{O}_7$ ,  $\text{K}_2\text{MnO}_4$ ,  $\text{MnO}$  birikmalarning qaysilarida marganets faqat oksidlovchilik xossalariini namoyon qiladi.

109. Quyidagi reaksiyalarda oksidlovchi va qaytaruvchilarni aniqlang va reaksiya tenglamalarini elektrobalans usulida tenglashtiring.



110. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini ion-elektron usulida tenglashtiring:



111. Oltingugurt qanday birikmalarida ham oksidlovchi, ham qaytaruvchilik xossalari ni namoyon qiladi? Tegishli oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining elektron tenglamalarini tuzib, tenglashtiring.


112. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining ion-elektron usulida tenglashtiring va oksidlovchi, hamda qaytaruvchi moddalarni aniqlang.



113. Quyidagi metallar bilan kislotalar orasidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini ion-elektron usulida tenglashtiring:



114. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 2 mol oksidlovchi ishtirok etsa, qancha xajm kislorod (n.sh.da) ajralib chiqadi?



115. Quyidagi reaksiyani oxiriga yetkazing va oksidlovchining ekvivalent massasini (g) aniqlang.  $\text{FeSO}_4 + \text{H}_2\text{O}_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow$

116. Quyidagi reaksiyalarni oxiriga yetkazing va qaytaruvchilarining ekvivalent massalarini grammlarda aniqlang.



117. 79 g kaliy permanganat sulfat kislota ishtirokida  $\text{Na}_2\text{C}_2\text{O}_4$  bilan reaksiyaga kirishganda qancha xajm ( $27^\circ\text{C}$  va 750 mm Hg ustuni bosimida) karbonat angidrid hosil bo‘ladi?

